https://hstryres.uz/journal/index.php/makro
2026, № 3 (15)
ISSN-3030-3761

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc)., доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Ғаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшкувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university ofUzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web:Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	**Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi** SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	**5**
2	**Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li** MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN’IY IDROKNING IMKONIYATLARI	**10**
3	**Адилов Аброр Анварович** ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	**16**
4	**Бабаджанов Хасан Бахтиёрович** ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	**27**
5	**Бахранов Шерзад Таштурсунович** ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	**36**
6	**Габриэльян Софья Ивановна** ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	**43**
7	**Дорошенко Татьяна Ивановна** ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	**53**
8	**Ishanxodjayeva Zamira Raimovna** IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O’ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	**62**
9	**Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna** SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	**71**
10	**Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi** SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	**77**
11	**Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi** O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN’ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	**85**
12	**Мусаев Нуриддин Умирзакович** РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	**91**
13	**Musayev Azizbek Baxridinovich** MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	**103**
14	**Nazarov Xumoyun Alisherovich** MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	**110**
15	**Нарбеков Абдикамил Вафаевич** ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	**120**
16	**Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich** SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	**126**

17	**Очилдиев Файзулла Бабакулович** XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	**144**
18	**Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich** XORAZM VOHASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	**152**
19	**Солиев Махмуджон Махамаджонович** ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 ЙЙ.)	**159**
20	**Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich** XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	**167**
21	**Usarov Umid Abdimavlyanovich** ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	**174**
22	**Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li** XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	**184**
23	**Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich** AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	**191**
24	**Холикулова Шахноза Боймухамматовна** ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	**200**
25	**Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи** ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	**207**
26	**Yunusova Xurshida Erkinovna** MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	**214**

Abduvoidova R.A.
Tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Farg‘ona davlat universiteti
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1528-yilda bo‘lib o‘tgan Jom jangi, unda ishtirok etgan shayboniy sultonlar, ayniqsa Keldi Muhammad sulton va Baroqxonning roli, jangning sabablari hamda oqibatlari yoritilgan. Jangning yuzaga kelishiga Movarounnahr va unga qo‘shni hududlardagi murakkab siyosiy vaziyat, shuningdek, Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi siyosiy-diniy qarama-qarshiliklar, hududiy manfaatlar to‘qnashuvi va harbiy kuch sinovga tushish istagi asosiy sabab bo‘lgan. Maqolada Jom jangining tarixiy ahamiyati, uning natijalari, jang davomida ro‘y bergan harbiy-strategik xatolar, g‘alaba imkoniyatini qo‘ldan boy berish omillari hamda keyingi yillardagi siyosiy barqarorlik masalalari chuqur tahlil etiladi. Birinchi bosqichda g‘alaba qozongan Shayboniylarning nima sababdan oxir-oqibat maglubiay bo‘lganligi va bu voqea mintaqa tarixida qanday o‘ringa ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jom jangi, Keldi Muhammad sulton, Baroqxon, Shayboniylar, Shoh Tahmosp, Movarounnahr, Safaviylar, Farg‘ona, Qoshg‘ar, Ubaydullohxon.

KIRISH

XVI asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy kuchlar o‘rtasida murakkab raqobat kechgan davrda Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi nizo o‘zining eng keskin bosqichiga yetdi. Bu ikki sulola nafaqat hududiy, diniy tafovutlar asosida ham keskinlashgan edi Shayboniylar sunniy islomni, Safaviylar esa shia islomini davlat mafkurasi sifatida qabul qilgan edilar. Diniy ixtilof siyosiy qarama-qarshilikni yanada chuqurlashtirib, ikki tomon o‘rtasidagi janglarni oddiy harbiy to‘qnashuvdan g‘oyaviy ziddiyat darajasiga ko‘tardi [1].

1528-yilgi Jom jangi ana shu siyosiy qarama-qarshiliklarning eng muhim voqealaridan biridir. Ushbu jang nafaqat ikki sulola o‘rtasidagi kuch sinovini, balki mintaqadagi diniy va siyosiy muvozanatni belgilovchi burilish nuqtasini ifodalaydi. Jangda Shayboniylar safida Keldi Muhammad sulton, Baroqxon, Ubaydulloh sulton va boshqa yirik sarkardalar ishtirok etgan.

Ushbu maqolada Jom jangi tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi, jangning borishidagi strategik nuqtalar, sarkardalarning roli va jangdan keyingi siyosiy oqibatlar o‘rganiladi. Jom jangini o‘rganish nafaqat Shayboniylar sulolasining tarixini, balki XVI asrda butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlarni tushunish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jom jangi arafasida Movarounnahrga qo‘shni hududlardagi siyosiy vaziyat ham barcha shayboniy qo‘shinlarini bir yerda jam bo‘lishiga imkon yaratdi. Qoshg‘ar xoni Sulton Saidxon Boluristonga yurish qilib, o‘z hududini sharqiy chegarasini mustahkamlashga intilishi bois Qoshg‘arning g‘arbida joylashgan Farg‘ona vodiysiga mo‘g‘ullar xavf tug‘dirmas edi [2]. Bu vaziyat Shayboniy sultonlarini g‘arbga – Safaviylar bilan bo‘ladigan to‘qnashuvga – e’tiborini to‘liq qaratish imkonini berdi.

Toshkent va Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqida yashovchi qozoq va qirg‘iz sultonlari Shayboniylar ittifoqchisi sifatida Jom urishida ishtirok etishi Movarounnahrdagi shayboniy sultonlarning bor e‘tiborini safaviylarga qaratish imkonini berdi. Shuningdek, 1510-yili Marv jangida Shayboniyxon halok bo‘lgach, sulola ichida doimiy bo‘linishlar va taxt uchun kurashlar kechayotgan edi. Jom jangi esa bu bo‘lingan kuchlarni birinchi – va so‘nggi – marta birgalikda bir meydonda to‘plagan voqea bo‘ldi [3].

Shayboniy xonlari Xurosonnigina emas, balki butun Eronni ham qo‘lga kiritish va safaviylar saltanatiga barham berish maqsadida 1528 yil iyulida, Shoh Tahmosp hamlasi sababli, Hirotdan Marvga chekingan Ubaydullohxonga yordamga otlanadilar va bu yurishni ular shialarga qarshi g‘azot urushi deb e‘lon qiladilar. Ushbu g‘azot e‘loni xalq o‘rtasida keng jarayonlar qo‘zg‘atdi: shuning uchun qo‘shindagi lashkarga savobtalab darveshlaru ruhoniylar, olimlaru san‘at ahllari, kosib-hunarmandlaru dehqonlar ham qo‘shilib, sarbozu olomon – jami 105 ming kishi Amudaryodan kechib, Jom viloyatining Xargerd nohiyasiga qarashli Zurobod mavzesidagi Soriqamish degan joyda 1528 yilning 25 sentyabrida to‘plandi [4].

Jom jangida Keldi Muhammad sulton bilan birgalikda Baroqxon ham ishtirok etgan, lekin uning nomi Toshkent va Farg‘ona qo‘shinining asosiy rahbari uning akasi Keldi Muhammad sulton bo‘lganligi sababli ba‘zi manbalarda tilga olinmagan [5]. Jangda Ko‘chkinchixon, Jonibek sulton, Ubaydulloh sulton, Baroqxon, Abdulaziz sulton, Fo‘lod sulton, Keldi Muhammad sulton, Abu Said sulton va shayboniylar davlatining boshqa ustunlari qo‘mondonlik qilgan edilar. Bu shunday bir holat ediki, Shayboniylar sulolasining deyarli barcha yetakchi vakillari bir joyda jam bo‘lgan edi – bu jang ularni birlashtirgan birinchi va so‘nggi marta bo‘ldi.

Shayboniylarning 105 ming kishilik qo‘shini Shoh Tahmospning 24 ming kishilik qo‘shini bilan to‘qnash keldi [6]. Shiddatli janglar atigi shu kunning peshinigacha davom etib, safaviylar yengilib, Shoh Tahmosp oz sonli askarlari bilan jang maydonini tashlab qochishga majbur bo‘ldi. Harbiy jihatdan bu dastlabki g‘alaba mutlaq edi – dushman qo‘shini to‘rt barobar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, qochirishga muvaffaq bo‘lindi.

Biroq o‘sha payt kutilmagan voqea sodir bo‘ldi: dushman mag‘lubiyati ma’lum bo‘lgani hamono g‘alaba nashidasini barvaqtroq surishga tushgan shayboniylar qo‘shini dushman ortidan quvib yetish va o‘lja izlash uchun birpasda yon-atrofga tarqab ketadilar. Bu harakat asosiy strategik xato bo‘ldi – jangovar intizom buzildi, qo‘shinning birligi yo‘qoldi.

Jang maydonida bir necha sulton va amirlar hamda shayboniylarning eng shijoatlisi Ubaydulloh sulton qoldi. Shunda maydon chetida chang-to‘zon paydo

bo‘lib, uning ichidan bir guruh otliqlar qolgan shayboniylar tomon kela boshladi. Shayboniy sultonlari bularni o‘lja uchun tarqalib ketgan o‘z odamlari deb o‘yladilar. Ammo kutilmaganda chang ichidan Shoh Tahmosp va qizilbosh lashkarboshilari chiqib kelib, g‘aflatda qolgan shayboniylar ustiga tashlandi. Shoh Tahmosp va uning sarkardalarining bu taktikasi harbiy tarixda yolg‘on chekinish va ortga qaytib hujum qilish usulining muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholanadi.

O‘lja uchun yoyilib ketgan jangchilarga shayboniy xonlari “halokatga uchragani, Shoh Tahmospga esa katta qo‘shin yordamga kelgani” haqidagi yolg‘on xabar yetib bordi. Ustiga-ustak shom ham qoraygan bo‘lib, tarqoq holda yurgan sarbozu savobtalablar vahimaga tushadilar, bir yerga yig‘ilish o‘rniga o‘zlarini duch kelgan tomonga urib, zahratarak qocha boshladilar. Shu zayl 1–2 soat ichida 105 ming kishilik qo‘shin taqdiri hal bo‘ldi: minglab kishilar to‘satdan orqadan yetib kelgan dushmanlar qilichi zarbidan va yana qanchalari shu yerdagi Saraxs daryosiga cho‘kib, ko‘plar esa dara-yu tog‘u dashtlarda adashib halok bo‘ldi.

Shayboniy xonu sultonlaridan deyarli hech biri bu jangda nobud bo‘lmadi. Ular Amudaryodan sog‘-salomat kechib o‘tib, Buxoro, Samarqand, Toshkentga yetib keldilar va ulardan anchasi yana ko‘p yil umr ko‘rishdi. Bu fakt jangning xarakterini yanada to‘liq ochib beradi: asosiy yo‘qotishlar oddiy askarlar va savobtalab fuqarolar orasida bo‘ldi, sulola vakillari esa omon qoldi.

Boburning quvonganicha bor edi: agar bu barcha sultonlar chindan ham nobud bo‘lsa, unda Movarounnahr, Turkistonda qarshilik ko‘rsatishga yaraydigan hech bir shayboniy xon yoki sulton qolmas, Humoyun osonlikcha mavrusiy yurtlarni qo‘lga kiritishi mumkin edi [7]. Jom jangining bu xususiyati Boburiylar bilan Shayboniylar o‘rtasidagi raqobat kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi.

Jom urushidan keyingi yillarda ham Farg‘ona vodiysi chegaralarida barqaror siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Mo‘g‘ul xoni Sulton Saidxon 1529–1530 yillarda asosan Badaxshonni o‘z davlati tarkibiga qo‘shib olishga urindi [8]. Uning bu harakatlari muvafaqqiyatsiz chiqqan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi uchun ijobiy ta’sirga ega edi. Badaxshonning ham Saidiya davlati tarkibiga kirishi vodiyning sharqiy va janubiy sarhadlari mo‘g‘ullarga tegishli hududlar bilan chegaradosh bo‘lib qolishiga olib kelar edi.[9]

Shayboniylar davlatining shimoliy va sharqiy chegaralaridagi barqaror siyosiy vaziyat Keldi Muhammad sultonga Shayboniylarning Xuroson yurishlarida faol ishtirok etish imkonini berdi. Zayniddin Vosifiy “Badoye‘ ul – vaqoye‘” asarida 1530 yili Keldi Muhammad sulton Toshkent va Farg‘ona qo‘shinlari bilan Xurosonga yurish uyushtirganligi ta‘kidlangan [10]. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, Jom jangi mag‘lubiyatiga qaramay, Shayboniylar o‘z harbiy faolligini so‘ndirmadi.

Umuman olganda, Jom jangidan keyingi davr Shayboniylar uchun o‘zini qayta tiklash va mustahkamlash davri bo‘ldi. Safaviylar bilan to‘qnashuvlar davom etsa-da, Movarounnahr va Farg‘ona vodiysida ichki siyosiy barqarorlik nisbatan saqlanib qoldi. Bu barqarorlik ko‘p jihatdan Keldi Muhammad sulton va Baroqxon kabi mahalliy sarkardalarning o‘z hududlarini boshqarishdagi mahoratiga bog‘liq edi.

Jom jangi Shayboniylar tarixida og‘ir, biroq tajribaga boy bir davrni boshlab berdi. Dastlab g‘alaba ularning tomonida bo‘lgan bo‘lsa-da, tartibsizlik va noto‘g‘ri harakatlar tufayli katta yo‘qotishlarga duch kelindi. Bu jangning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u Shayboniy sultonlarini birinchi va so‘nggi marta bir joyga to‘plagan tarixiy voqea bo‘ldi.

Jangdagi asosiy xato – harbiy intizomning buzilishi, g‘alabani to‘liq mustahkamlashdan oldin o‘lja izlab tarqalib ketish – yirik harbiy mag‘lubiyatga olib keldi. Shunga qaramay, Shayboniy sultonlarining aksariyati tirik qolib, o‘z hukmronligini saqlab qoldi. Bu hol ularning keyingi siyosiy faoliyatini davom ettirish imkonini berdi.

Jangdan keyingi yillarda Farg‘ona vodiysi va Movarounnahrda siyosiy barqarorlik nisbatan tiklanib, hududlararo munosabatlar yanada mustahkamlandi. Keldi Muhammad sulton va Baroqxon bu jarayonda faol rol o‘ynab, o‘z hududlarini barqarorligini ta‘minlashga hissa qo‘shdi.

Ushbu jang mintaqa tarixida siyosiy hushyorlik va harbiy intizomning naqadar muhimligini ko‘rsatib bergan voqea sifatida esda qolgan. Jom jangi saboqlari – g‘alaba qozonib, uni mustahkamlay olmaslik; katta qo‘shinni boshqarish murakkabligi; diniy g‘ayrat va harbiy strategiyani muvozanatda tutishning zarurligi – o‘rta asrlar harbiy tarixi uchun qimmatli o‘rganish ob’yekti bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azamat Ziyo. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.120,125
2. Amir Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent, 2020. – B.536
3. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on. *Musaxxir al-bilod*. – Toshkent, 2009. – B. 94
4. Nishonov A.A. *Shayboniylar davrida Farg‘ona vodiysi*. – Toshkent, 2015. – B.94
5. Nishonov A.A. *Shayboniylar davrida Farg‘ona vodiysi*. – Toshkent, 2015. – B.86
6. Xondamir. *Habib us-siyar*. – Toshkent, 2013. – B.210,212
7. Bobur Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B.230
8. Amir Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent, 2020. – B.537,541
9. Hofiz Tanish Buxoriy. *Abdullanoma*. – Toshkent, 1999. –B.26
10. Vosifiy Zayniddin. *Badoe’ul-vaqoe’*. – Toshkent, 1979. – B.200,202

Абдувойдова Р.А.
Студентка 3 курса по направлению история
Ферганский государственный университет
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

ПЕРВАЯ И ПОСЛЕДНЯЯ БИТВА ПРАВИТЕЛЕЙ ШАЙБАНОВ – БИТВА ПРИ ДЖОМЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается битва при Джаме 1528 года, участие в ней шейбанидских султанов, особенно Кельди Мухаммад султана и Барох-хана, а также причины и последствия сражения. Анализируется политическая ситуация в Мавераннахре и соседних землях, противостояние между шейбанидами и Сефевидами, религиозные и военные аспекты конфликта. Особое внимание уделено историческому значению Джамской битвы, военно-стратегическим ошибкам, совершённым в ходе боя, и её влиянию на политическую стабильность в регионе.

Ключевые слова: Битва при Джаме, Кельди Мухаммад султан, Барох-хан, Шейбаниды, Шах Тахмасп, Мавераннахр, Сефевиды, Фергана, Кашгар, Убайдуллах хан.

Abduvoidova R.A.
The 3rd year student of History
Fergana State University
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

THE FIRST AND LAST UNION BATTLE OF THE SHAYBANIY RULERS – THE BATTLE OF JOM

ABSTRACT

This article examines the Battle of Jam of 1528, focusing on the participation of the Shaybanid sultans - particularly Keldi Muhammad Sultan and Baroq Khan - as well as the causes and consequences of the conflict. It analyzes the political situation in Mawarannahr and neighboring regions, the confrontation between the Shaybanids and the Safavids, and the religious and military dimensions of the war. Special attention is given to the historical importance of the Battle of Jam, the strategic military errors committed during the battle, the factors that led to the loss of an apparent victory, and its impact on the region’s political stability in subsequent years.

Key words: Battle of Jam, Keldi Muhammad Sultan, Baroq Khan, Shaybanids, Shah Tahmasp, Mawarannahr, Safavids, Fergana, Kashgar, Ubaydullah Khan.

Abdullayev A.H.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston Milliy universiteti
abdullayevakmal511@gmail.com

MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN’IY IDROKNING IMKONIYATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada mang‘itlar sulolasi hukmdorlarining tashqi qiyofasini tiklashda sun’iy idrok texnologiyalarining ilmiy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tarixiy fotosuratlar, portretlar, tasviriy manbalar va yozma tavsiflar asosida hukmdorlarning virtual qiyofasini qayta tiklashda qo‘llanilgan sun’iy idrok algoritmlarining vazifalari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad va Amir Olimxon qiyofalarini gavdalantirishda sun’iy idrokning o‘ziga xos jihatlari hamda samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tarixiy shaxslar qiyofasini tiklashda SI muhim ilmiy vosita bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sun’iy idrok, tarixiy rekonstruksiya, kompleks, Buxoro amirligi, virtual rekonstruksiya, 3D modellashtirish, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, vizuallizatsiya.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tarixiy meros obyektlarini o‘rganish va qayta tiklash jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy idrok texnologiyalarining takomillashuvi natijasida tibbiyot, moliya, sanoat ishlab chiqarish va ta’lim sohalarida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Shuningdek, tarix sohasida tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini ilmiy asosda qayta tiklash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan tasvirlar, fotosuratlar, miniatyuralar va yozma tavsiflarni algoritmlar yordamida tahlil qilish orqali o‘tmishda yashagan shaxslarning ehtimoliy qiyofasini yaratish mumkin bo‘lmoqda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Mang‘it hukmdorlari qiyofasini qayta tiklashda bir nechta sun’iy idrok texnologiyalaridan kompleks foydalanish orqali imkoniyatlari o‘rganildi. Chunki mavjud tarixiy manbalarning har bir hukmdor bo‘yicha tavsiflari turlicha hisoblanadi. Shu bois rekonstruksiya jarayonida qo‘llaniladigan algoritmlar ham vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Dastlabki sun’iy idrok Face Restoration AI (yuz tasvirlarini qayta tiklashga mo‘ljallangan sun’iy intellekt) texnologiyasi orqali tarixiy fotosuratlarda vaqt o‘tishi natijasida yuzaga kelgan xiralik, shikastlanish va deformatsiyalarni bartaraf etishga xizmat qiladi[2]. Xususan, Amir Abdulahad va Amir Olimxonning arxiv fotosuratlarini qayta ishlashda ushbu texnologiyaning ahamiyati yuqori

hisoblanadi. Chunki mazkur hukmdorlar davriga oid fotosuratlar mavjud bo‘lib, ularni rekonstruksiya qilishda avvalo tasvir sifatini tiklash talab etiladi.

Shuningdek, Super Resolution AI (tasvir aniqligini oshiruvchi sun’iy intellekt) tarixiy suratlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu algoritm past aniqlikdagi fotosuratlarni yuqori aniqlikdagi tasvirlarga aylantirib, yuzning mayda anatomik elementlarini aniqlashga yordam beradi[10]. Jumladan, ko‘z shakli, burun tuzilishi, yonoq suyaklari va iyakning joylashuvini aniqlashda Super Resolution AIning ahamiyati yuqori. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid fotografik materiallar bilan ishlashda ushbu texnologiya eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan biridir.

Face Detection AI (yuzning biometrik nuqtalarini aniqlovchi sun’iy intellekt) algoritmi inson yuzidagi asosiy antropometrik nuqtalarni aniqlaydi va ular orasidagi masofalarni o‘lchab chiqadi[10]. Natijada yuz proporsiyalari, simmetriya darajasi va individual morfologik belgilar aniqlanadi. Bu ma’lumotlar keyinchalik uch o‘lchamli model yaratish uchun asos bo‘ladi.

3D Face Reconstruction AI (ikki o‘lchamli tasvir asosida uch o‘lchamli yuz modelini yaratishga mo‘ljallangan sun’iy intellekt) texnologiyasi yordamida fotografik yoki tasviriy manbalardan yuzning hajmiy modeli hosil qilinadi[4]. Natijada ikki o‘lchamli tasvir virtual uch o‘lchamli obyektga aylantiriladi. Keyinchalik ushbu model Blender dasturida qayta ishlanib, tarixiy manbalarda uchraydigan tavsiflar asosida takomillashtiriladi.

Ayrim hollarda hukmdorlar qiyofasini tiklash uchun mavjud manbalar yetarli bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda Generative AI (mavjud ma’lumotlar asosida yangi tasvirlarni yaratishga mo‘ljallangan generativ sun’iy intellekt) qo‘llaniladi. Mazkur texnologiya tarixiy portretlar, yozma tavsiflar va sulolaviy antropologik belgilar asosida yetishmayotgan elementlarni ehtimollik modeli orqali yaratadi. Xususan, Amir Haydar va Amir Nasrullo qiyofalarini rekonstruksiya qilishda ushbu texnologiyaning ahamiyati ortadi. Sababi ushbu hukmdorlar davrida fotografiya hali keng tarqalmagan bo‘lib, ularning qiyofasi haqida to‘liq fotografik ma’lumotlar mavjud emas[8].

Shuningdek, Deep Learning AI (ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar asosida ma’lumotlarni chuqur tahlil qiluvchi sun’iy intellekt) sulola vakillari orasidagi irsiy belgilar, antropologik o‘xshashliklar va individual xususiyatlar qiyosiy tahlil qilinadi[10]. Natijada rekonstruksiya qilingan qiyofalarning ilmiy asoslanganlik darajasi oshdi.

Qolaversa, Image Colorization AI (oq-qora tasvirlarni ranglashtirishga mo‘ljallangan sun’iy intellekt) tarixiy fotosuratlarni rangli formatga o‘tkazib, hukmdorlarning kiyim-kechagi, bosh kiyimlari va tashqi ko‘rinishining vizual tasviri yanada jonli shaklga keltiriladi. Biroq mazkur algoritm yordamchi vosita hisoblanadi, chunki ranglar tarixiy hujjatlar bilan to‘liq tasdiqlanmagan ehtimoliy natijalarni ifodalaydi.

Mang‘it hukmdorlari orasida Amir Olimxon qiyofasini rekonstruksiya qilish nisbatan oson hisoblanadi. Chunki uning turli davrlarga oid ko‘plab fotosuratlari saqlanib qolgan. Shu sababli Face Restoration AI va Super Resolution AI texnologiyalari asosiy rolni bajaradi[2]. Amir Abdulahad qiyofasini tiklashda ham

fotografik materiallar mavjudligi sababli tasvirlarni tiklash va aniqlashtirish texnologiyalari ustunlik qiladi. Biroq ayrim suratlarning sifati past bo‘lganligi sababli Face Restoration AI texnologiyasi ko‘proq qo‘llaniladi. Amir Muzaffar qiyofasini rekonstruksiya qilishda esa vaziyat nisbatan murakkablashadi. Chunki uning fotosuratlari son jihatidan kamroq hisoblanadi. Xususan, 1910-yilda nashr etilgan Kaufman to‘plamida amir Muzaffarning tasviri keltirilgan. Tasvir A.A. Semenov tomonidan general N.I. Grodekov kolleksiyasida saqlangan noyob ranglangan fotografiya asosida tayyorlangan. Manba hukmdorning yuz tuzilishi, soqol shakli, bosh kiyimi va saroy liboslari haqida vizual ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi[1]. Tasvirdan ko‘rinishicha, Amir Muzaffar o‘rta uzunlikdagi qora soqol, keng peshona, to‘g‘ri burun va bodomsimon ko‘zlarga ega bo‘lgan. Shuningdek, uning boshida an’anaviy amirlik sallasining tasvirlanishi hamda zarbof naqshlar bilan bezatilgan tantanavor ustki kiyim kiyganligi hukmdorning siyosiy mavqei va saroy protokolidagi o‘rnini ifodalaydi. Shu sababli Face Restoration AI bilan bir qatorda Generative AI texnologiyasidan ham foydalanishga ehtiyoj paydo bo‘ldi[2].

Amir Nasrullo qiyofasini tiklash esa yanada murakkab jarayon hisoblanadi. Xususan, Amir Nasrulloning musavvir Belousov tomonidan chizilgan portreti hukmdor qiyofasini tiklashda asosiy tasviriy manbalardan biri hisoblanadi. Tasvir Buxoroda 1841–1842 yillarda Butenev boshchiligidagi Rossiya missiyasi tarkibida bo‘lgan sharqshunos N.Xanikovning “Описание Бухарского ханства” asarida e’lon qilingan bo‘lib, Buxoro amirlarining musavvir tomonidan ishlangan eng dastlabki tasvirlaridan biri sifatida o‘rganish mumkin[8]. Tasvirda amirning yuz tuzilishi, soqol shakli, bosh kiyimi va kiyinish uslubi aks etgan bo‘lib, bu orqali hukmdor qiyofasining vizual xususiyatlarini aniqlash mumkin. Tasviriy manba bilan bir qatorda zamondoshlarning tavsiflari ham qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, N.Ignatev Amir Nasrulloni quyidagicha tavsiflaydi: “U keksa bo‘lishiga qaramasdan, hali juda baquvvat, g‘ayratli, shijoatli, jo‘shqin, mard, salobatli, aqlli, ziyrak ko‘zlari bilan o‘zini juda qadrli tutadi. Ammo uning shafqatsizligi va zo‘ravonligi namoyon bo‘lishi bilan uning oldida hamma zir titraydi”[7]. Tavsif hukmdorning xarakteri, ruhiy holati va hukmdorlik salobatini ham yoritib beradi. Natijada Generative AI texnologiyasining imkoniyatlarini ushbu hukmdorda bilish mumkin[9].

Demak, sun’iy idrok texnologiyalarining qo‘llanilish darajasi hukmdor haqida saqlanib qolgan manbalar bazasiga bevosita bog‘liqdir. Fotografik manbalari yaxshi saqlangan hukmdorlarni rekonstruksiya qilishda Face Restoration AI va Super Resolution AI yetakchi rol o‘ynasa, tasviriy manbalari cheklangan hukmdorlarda Generative AI texnologiyasi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda tarixiy shaxslar qiyofasini qayta tiklashda sun’iy idrok va 3D modellashtirish dasturlari o‘z imkoniyatlari bilan ta’lim sohasida o‘rin egallamoqda. Sun’iy idrok katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilishi, tasvirlarning sifatini yaxshilashi, yuz tuzilishidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashi hamda mavjud bo‘lmagan elementlarni ilmiy ehtimollik asosida qayta tiklashi mumkin. Blender esa, aksincha, vizual modellashtirish vositasi hisoblanadi[3]. U sun’iy idrok yordamida aniqlangan ma’lumotlarni uch o‘lchamli

virtual modelga aylantirish imkonini beradi. Blender muhitida hukmdorning yuz tuzilishi, bosh kiyimi, kiyim-kechagi, qurol-aslahalari va boshqa atributlari modellashtiriladi. Shuningdek, tarixiy binolar, saroy interyerlari va elchilik qabul marosimlari kabi murakkab sahnalarni yaratish imkonini beradi. Natijada tarixiy shaxsning qiyofasidan tashqari, uning yashagan muhiti ham virtual shaklda tiklanadi.

Sun’iy idrok hamda Blender dasturi bilan farq shundaki, sun’iy idrok ma’lumotlarni tahlil qilib, qayta tiklash uchun ilmiy asos shakllantiradi. Blender orqali bu asosni vizual ko‘rinishga keltiradi[4]. Boshqacha aytganda, sun’iy idrok “hukmdor qanday ko‘rinishda bo‘lgan?” degan savolga javob izlaydi, ya’ni 2D ko’rinishdagi tasvirni bersa, Blender esa “hukmdorni qanday tasvirlash mumkin?” degan vazifani bajarib, 3D modelni ishlab chiqadi. Shu sababli ushbu ikki texnologiya bir-birining o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilganda samarali natija beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mang‘itlar sulolasi hukmdorlarining tashqi qiyofasini tiklashda sun’iy idrok texnologiyalari tarixiy rekonstruksiyaning muhim ilmiy vositasiga aylanmoqda. Texnologiyalar tarixiy fotosuratlarni tiklash, tasvir sifatini yaxshilash, yuzning antropometrik parametrlarini aniqlash va 3D modellar yaratish imkonini beradi. Xususan, Face Restoration AI va Super Resolution AI mavjud fotografik manbalarni qayta ishlashda eng samarali vositalar hisoblansa, Generative AI tarixiy ma’lumotlar yetishmagan hollarda qo‘shimcha rekonstruktiv imkoniyatlarni paydo qiladi. Natijada sun’iy idrok texnologiyalarining kompleks qo‘llanilishi Mang‘it hukmdorlarining tashqi qiyofasini ilmiy asosda qayta tiklash hamda Buxoro amirligi tarixini virtual muhitda vizuallashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shuningdek, maqolada Blender dasturining qiyofani qayta tiklashdagi o‘rni sun’iy idrokdan farq qilishini ko‘rsatdi. Sun’iy idrok tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilib, ilmiy asos bersa, Blender ushbu ma’lumotlarni 3D vizual modelga aylantirish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кауфманский сборник, изданный в память 25-летия со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I-го. – Москва: Типо-литография Т-ва И.Н. Кушнерев и Ко, 1910. – 408 с.

3. Бороодкин Л.И. Жеребятьев Д.И.Технологии 3Дмоделирования в исторических исследованиях от визуализасия к аналитике //Историческая информатика. №2, 2012.-С.40-58.

2. Yang M., Li S., Zeng J. The Effects of AI-Driven Face Restoration on Forensic Face Recognition // Applied Sciences. – 2024. – Vol. 14. – No. 9. – Article 3783.

3. Wilkinson C. Facial Reconstruction: Anatomical Art and Reconstruction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 288 p.

4. Hess R. Blender Foundations: The Essential Guide to Learning Blender 4.0. – New York: Routledge, 2024. – 550 p.

5. Blender Foundation. Blender Manual. – Amsterdam: Blender Foundation, 2025.

6. Ochildiyev F.B. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Monografiya / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2022. – 296 b.

7. Xolikulov A.B. Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalari) Monografiya / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2023. – 44 b.

8. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari) [Matn]: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 69.

9. Tog'ayev Jasur Erkinovich.Bronza va ilk temir davri tarixiy rekonstruksiyasi masalalari (Janubiy O'zbekiston misolida)[Matn]:monografiya / Jasur Erkinovich Tog'ayev. – Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2020. – 29 b.

10. Abdullayev A. Buxoroda Mang'itlar sulolasi vakili Amir Haydarning portretini qayta tiklashda sun'iy intellekt // International Scientific and Practical Conference "Tech Horizon 2025: IT and Innovation Summit". – 2025.

11. Abdullayev A. O'zbekiston tarixini o'rganishda data sciencening ahamiyati // Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – Vol. 3, Issue 6. – P. 69–72.

12. https://huggingface.co/

Абдуллаев А.Х.
Преподаватель кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
abdullayevakmal511@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВОССТАНОВЛЕНИИ ВНЕШНЕГО ОБЛИКА ПРАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются научные возможности технологий искусственного интеллекта в восстановлении внешнего облика правителей династии Мангытов. Подробно описаны функции алгоритмов искусственного интеллекта, используемых для виртуальной реконструкции облика правителей на основе исторических фотографий, портретов, изобразительных источников и письменных описаний. Также проведен сравнительный анализ особенностей и эффективности искусственного интеллекта в воплощении обликов эмира Хайдара, эмира Насруллы, эмира Музаффара, эмира Абдулахада и эмира Алимхана. Результаты исследования показывают, что ИИ служит важным научным инструментом в восстановлении облика исторических личностей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, историческая реконструкция, комплекс, Бухарский эмират, виртуальная реконструкция, 3D-моделирование, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, визуализация.

Abdullayev A.H
Teacher at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
abdullayevakmal511@gmail.com

POSSIBILITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN RECONSTRUCTING THE EXTERNAL APPEARANCE OF THE MANGHIT DYNASTY RULERS

ABSTRACT

The article analyzes the scientific potential of artificial intelligence technologies in reconstructing the external appearance of the Manghit dynasty rulers. It details the functions of artificial intelligence algorithms used in virtually restoring the rulers' appearances based on historical photographs, portraits, pictorial sources, and written descriptions. Additionally, a comparative analysis is made of the specific aspects and effectiveness of artificial intelligence in embodying the appearances of Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad, and Amir Olimkhon. The research results demonstrate that AI serves as an important scientific tool in reconstructing the appearance of historical figures.

Key words: artificial intelligence, historical reconstruction, complex, Bukhara Emirate, virtual reconstruction, 3D modeling, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, visualization.

Адилов А.А.
«Ўзбекистннинг энг янги тарихи» кафедраси доценти, т.ф.д.
Ўзбекистон Миллий университети
A_odilov@gmail.com

ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН

АННОТАЦИЯ

Мақолада Туркистонда Янги иқтисодий сиёсат (1921–1924) даврида совет ҳокимиятининг диний сиёсати, унинг мусулмон аҳоли билан муносабатлари ҳамда динга нисбатан муросали ва мафкуравий ёндашувлари таҳлил қилинган. Шунингдек, совет ҳокимиятининг диний ташкилотлар ва руҳонийларга муносабати, динга қарши тарғибот сиёсатининг шаклланиш жараёни ёритилган.

Калит сўзлар: Туркистон, Янги иқтисодий сиёсат, совет ҳокимияти, диний сиёсат, ислом, мусулмон руҳонийлари, атеистик тарғибот.

КИРИШ

Таъкидлаш жоизки, XX аср 20-йиллар бошларига қадар бўлган давр совет давлати ҳукмронлиги учун мураккаб ва кескин, зиддиятли ва қарама-қарши жараён ва воқеликларга бой тарзда кечди. Мазкур давр ички сиёсатда совет давлати ва большевиклар партиясининг собиқ империя ҳудудида пролетариат диктатурасини ўрнатиш, “Ҳарбий коммунизм” сиёсатини жорий этиш, “Қизил террор”, Қизил армиянинг зўравонлик ҳаракатлари, совет маъмуриятининг аввал баландпарвоз оҳангдаги чақириқлари кейинчалик ҳар қандай усул билан ўз ҳокимиятини ўрнатишга ҳаракати, маҳаллий халқлар чекка миллий ҳудудлардаги аҳоли миллий ва диний ўзига хосликни тан олмаслик, улар учун мутлақо бегона ғоялар ва мафкурани сингдиришга ҳаракат, халқларнинг ўз озодлиги, давлатчилик асосларини барпо этишга бўлган саъй-ҳаракатларини менсимаслик, унга қарши аёвсиз кураш, мамлакатда авж олган хонавайрончилик, ҳосилсизлик, нарх-навонинг кескин кўтарилиши, ишсизлик, қашшоқлик, очарчилик, юқумли касалликларнинг тарқалиши ва авж олиши, жиноий тўдаларнинг бедодлиги, кўп ҳолда анархия ҳамда бошбошдоқликнинг кучайиши ва бошқалар билан изоҳланар эди. Биринчи жаҳон уруши ва унинг асоратлари, чет эл интервенцияси, Россиядаги фуқаролар уруши, Туркистондаги қуролли қаршилик ҳаракати, халқ оммаси ичидаги оммавий норозилик - буларнинг барчаси ижтимоий-сиёсий, иқтисодий аҳволни ниҳоятда кескинлаштириб, мамлакатни ҳар томонлама таназзулга дучор қилган эди. Асосий уруш ўчоқларини тугатган Совет Россияси учун 1921-бошланган йил “Ҳарбий коммунизм” ва у билан боғлиқ сиёсат эндиликда мақбул бўлмай қолганлигини реал вазият ҳам исбот қилиб турарди. Мамлакатда юқорида таъкидланган ўта оғир аҳвол большевиклар олиб бораётган ички сиёсатда тезлик билан ўзгаришлар

қилиниши лозимлигини ҳукумат, унинг раҳбарияти ҳам тан ола бошлаган эдилар. Бу ҳол совет ҳукумати раҳбари В.И.Ленин ташаббуси билан РКП(б)нинг 1921 йил 8-16 март кунлари бўлиб ўтган X съездида қабул қилинган “Янги иқтисодий сиёсат” дастурида ҳам ўз ифодасини топган эди[1]. И.И.Лениннинг ўзи ҳам “Ҳарбий коммунизм” сиёсати хато бўлганлигини тан олиб, ўзининг 1921 йил 17 октябрдаги “Янги иқтисодий сиёсат ва сиёсий-оқартув муассасаларининг вазифалари” номли маърузасида уни эътироф этиб, жумладан, “…тўғридан-тўғри коммунистик ишлаб чиқаришга ва тақсимотга ўтишга қарор қилиб хато иш қилган эдик”, деб ёзган эди[2].

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Расмий жиҳатдан Туркистондаги янги иқтисодий сиёсат йўли Туркистон Компартиясининг 1921 йил августида бўлиб ўтган VI съезди, Туркистон АССР Советларининг 1921 йил сентябрдаги X съезди қарорларида тасдиқланди[3]. Уларда ўлка иқтисодий ривожланиши бевосита совет тузумининг мустаҳкамланиши ва коммунистик жамият барпо этиш жараёни билан боғланди. Шубҳасиз, мазкур ҳолат соғлом бозор муносабатлари намоён бўлиши имкониятларини чеклар, мустақил тарзда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш имкониятларига тўсиқ бўлар эди. Бу борада Туркистон АССР МИҚ 1921 йил давомида (хусусан, апрель-май ойларида-муаллиф) қатор қарорлар қабул қилган эди. Мазкур иқтисодий сиёсатни амалга ошириш вақтида кўплаб зиддият ва қарама-қаршиликлар ҳам юзага келдики, унинг боиси янги иқтисодий сиёсат йўли тамойилларининг ҳукмрон марксча-ленинча коммунистик мафкура ғоясига мос келмаслигида намоён бўлар эди. Бир томондан, янги иқтисодий сиёсат эълон қилган мулкчилик турли шакллари, хусусий мулкчилик, тадбиркорлик, иқтисодий ва сиёсий эркинлик ғоялари турган бўлса, иккинчи томонда уни тамомила инкор этувчи ҳукмрон коммунистик партия мафкураси турар эди. Бу эса ўз навбатида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт бобида зиддият ва қарама-қаршиликнинг кучайишига сабаб бўларди[4]. Янги иқтисодий сиёсат тамойилларини ҳаётга тадбиқ қилиш жараёни Туркистон ўлкасида, унинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиққан ҳолда аввал бошида мураккаб ва зиддиятли тарзда кечди. Кўпгина масалаларни ўз вақтида ечилмаганлиги, совет маъмуриятининг иш ечими сифатида тайзиқ ва зўравонлик йўлини танлаши, иқтисодий инқироз ва бошқалар омма орасидаги мухолиф кучларнинг қаршилигини кучайтирди. Хусусан, 1921 йил охирларида Тошкентда махфий тарзда ўтган миллий ташкилотлар вакилларининг йиғилишида совет ҳукуматига ён босмаслик, унга қарши қуролли ҳаракатни давом эттириш, бир вақтнинг ўзида хўжалик ва сиёсий ҳаётга раҳна солиш масалалари кўтарилди[5]. 1922 йил апрелида ёпиқ ҳолда Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган “Мусулмон Туркистон конгресси” Туркистон-Турк давлати тузилганини эълон қилиниб, хусусий мулк эгалиги сақлаб қолинган ҳолда шариат қоидалари тикланиши билдирилди[6].

Лекин эътироф этиш лозимки, 1921 йил бошланган янги иқтисодий сиёсат йўли иқтисодий ҳаёт бобида маълум ижобий силжишларга, барқарорликнинг ўрнатилишига, қишлоқ хўжалигининг бир ўзанга тушиб ривожланишига, молиявий ислоҳот, «червонец» пулларининг муомалага чиқарилиши, пул муомаласининг яхшиланишига, ер-сув ислоҳоти боис деҳқонлар маълум ер участкаларига эга бўлишига, товар-пул муносабатларининг тараққий топиши, корхона, завод, фабрикаларнинг очила боришига, кооперация ишлаб чиқариши, саноат соҳасининг ўсишига, аҳоли турмуш шароитининг маълум даражада яхшиланишига ҳам олиб келганлигини ҳам таъкидлаш жоиз[7].

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, совет ҳукумати собиқ империя аҳолисининг яна бир фарқли жиҳати - яъни, унинг юқори диндорлик даражаси, диннинг ижтимоий ҳаётда тутган ўрни, кенг халқ оммасига бўлган таъсирини ҳам ҳисобга олмай иложи йўқ эди. Бу даврда православ христианлар аҳолининг 50,94% ни мусулмонлар - 34,54%ни ташкил этган. В.И.Ленин раҳбарлигидаги совет ҳукумати динининг ўрнини қайд этиш, унинг илдизлари капитализм ва самодержавиега бориб тақалганлиги боис, шу икки томонга қарши курашга алоҳида эътибор берар эди[8].

Маънавий ҳаёт, хусусан, дин, диний сиёсат борасида ҳам янги иқтисодий сиёсат даврида маълум ўзгаришлар бўлганлигини кўриш мумкин. Албатта, мазкур ўзгаришларнинг кўп ҳолда ўзига хос объектив ва субъектив сабаблари мавжуд эди. Қайд этиш лозимки, большевикларнинг моҳиятан атеистик мазмунга эга сиёсати, улар ҳокимиятга келган вақтларидан бошлаб фаол тарзда тадбиқ этилган бўлса, янги иқтисодий сиёсат даврига келиб бу борада маълум ўзгариш ҳам юзага келди. Аввало совет ҳокимияти ўлкада ўз мавқеини сақлаш ва мустаҳкамлаш борасида, диний сиёсат борасида маълум мутаносиблик, келишувчанлик, бошқача қилиб таърифлаганда “вақтинча тактик чекиниш” йўлини олиб борди. Шу ўринда эътиборли масаланинг яна бир томонга эътиборни қаратиш лозим. Тўғри, совет давлати томонидан 1918 йил 23 январда “Давлатни диндан, мактабни черковдан ажратиш тўғрисида”ги ХКС қарори РСФСР Конституцияси 13-моддаси, қолаверса 1918 йил қабул қилинган Туркистон АССР Конституциясида (1922 йил сентябрь, 12-модда) деярли шундай таъкидни ўзида жо қилган эди[9]. Лекин, эътироф этиш лозимки, бу ҳолат юқорида ҳам таъкидланганидек, асосан собиқ империя самодержавиясининг маънавий таянч бўлган рус православ черковига нисбатан татбиқ этилди. Маҳаллий аҳоли аксарият тарзда бу қарордан хабари йўқ бўлиб, совет давлатининг ўша 1918 йил 23 январдаги қарори маҳаллий тилларга таржима ҳам қилинмаган, тарғибот ҳам қилинмаган эди. Бу эса ўз навбатида совет ҳокимияти учун маҳаллий аҳоли билан мулоқотида жуда қўл келган. Совет давлатининг динга ён бериши НЭПдан аввалроқ, 1920 йиллар охирлари -1921 йил бошига тўғри келади. Юқорида қайд қилинганидек, совет ҳукумати Туркистон ўлкасидаги реал ички сиёсат аҳвол танглиги, коммунистик ғояларининг ўлка ижтимоий-маънавий қадриятларига зидлиги, туб аҳолининг ўзига хос турмуш тарзи, қадриятлари, менталитети, сиёсий, диний қарашларини ҳисобга олмаслик - ўзаро кескинлик ва таназзулни янада чуқурлашишини англаган ҳолда ўз ички

сиёсатида бу воқеликни ҳисобга олди. Хусусан, 1921 йил 10 январда Туркистон АССР МИҚи декрети билан мусулмонлар учун энг фазилатли ва хосиятли кун бўлмиш - Жума куни “дам олиш куни”, деб эълон қилинди. Бу эса ўз навбатида мусулмон аҳолиси ичида совет ҳукуматига бўлган ҳайрихоҳликни кучайишига хизмат қилди[10].

РКП(б) МК Сиёсий бюроси 1921 йил 14 октябрда “Туркистон масалалари бўйича” қабул қилган қарорида масжидлардан тортиб олинган ерларни қайтариш ва шариат судлари (қозилик, бийлик) судларига рухсат бериш масаласи кўриб чиқилди. Туркистон ички сиёсий аҳвол моҳиятидан келиб чиққан ҳолда масала ижобий ҳал бўлганлигини қарор матни ҳам тўлиқ тасдиқлаган эди[11].

НЭП давридаги ижтимоий-сиёсий аҳволини ўзгариши шубҳасиз унга бирламчи равишда ўзгартиришлар амалга оширишга ундар эди. Ўлка аҳолиси орасида ислом динининг тутган ўрни ва мавқеини тан олмаслик, уни инкор этиш, динга қарши ашаддий кураш маҳаллий халқларнинг совет ҳокимиятига қарши курашини янада кучайтириб юборишини совет раҳбарияти ҳам яхши англар эди[12]. Бундай шароитда “динга қарши курашда жуда эҳтиёткор бўлиш”, уни бевосита инкор этмаслик, курашни янгича аснода, яъни тарғибот-ташвиқот ишларига кенг урғу бериш, совет услубидаги мактаб, клуб, кутубхона ва бошқа маданий-оқартув ишлари тармоғини кенгайтириш, саводсизликни тугатиш учун советча саъй-ҳаракатларини амалга ошириш, пролетар маданияти (“пролекульт”) учун кураш, “маданий инқилоб”ни ҳар томонлама амалга ошириш, диний ташкилотларнинг “синфий характердаги” муассасалар эканлигини кўрсатиш орқали курашиш лозим эканлиги тўғрисидаги марказ кўрсатмаларига амал қилинди[13]. Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, Туркистон шароитида кўп ҳолда диний кураш, аввал ҳам таъкидланганидек, православ черкови ва унинг мавқеига қарши қаратилган эди. Масалан, европалик аҳоли учун мўлжалланган мактаб-маориф тизимини 1918 йил 12 декабрда Туркистон советларининг 5-ўлка съездида “Закон Божий” предмети ўтишни ман этиш масаласи кўтарилган эди[14]. Унга биноан Туркистон маориф Халқ комиссарлиги 1919 йил 18 февралдаги декретга кўра “Закон Божий” предметини ўқитиш тўхтатилинади[15]. Совет давлати ўз ҳокимиятини мустаҳкамлаб бориб, ўлкада қуролли қаршилик ҳаракатининг асосий ўчоқларига барҳам бергач, Бухоро, Хива хонликларини тугатиш ва уларда советлар ҳокимияти таъсирини ёйиш билан динга қарши кураш кампанияси кучая борди. РКП (б) МҚнинг 1921 йил июль пленумида ҳам динга қарши тарғибот ишлари ҳолати ва кучайтириш масалалари кўриб чиқилди. Пленумнинг 1921 йил 26 июлдаги РКП(б) программасининг 13-банди ва “динга қарши ташвиқотдаги бузилишларга нисбатан муносабат” номли қарори 11 та банддан иборат бўлиб, унда партияга диндорларни қабул қилишдаги қаттиққўллик, зиёлиларни партияга қабул қилмаслик, партия аъзоларини черков билан ҳар қандай алоқаларига чек қўйиш, динга қарши тарғибот ва ташвиқотни кучайтириш, бу борада адабиётлар чоп этиш, жамиятда диний ақидалар ролини пасайтириш каби масалалар қайд этилди[16].

Хусусан, 1921 йилдаёқ РКП(б) МК Агитпрототделнинг ташвиқот бўлимида “Динга қарши комиссия” тузилган бўлиб, унинг ишига кўплаб соҳа вакиллари жалб этилган эди[17]. Ушбу комиссия зиммасига динга қарши кураш олиб бориш босқичма-босқич тарзда, аксарият тарғибот-ташвиқот ишларига урғу бериш масалалари юклатилди. Ушбу масала кейинчалик Туркистон Компартиясининг VII съездида (1923 йил 11-16-март) ҳам қайд этилиб, махсус “Туркистон шароитида динга қарши ташвиқот тўғрисида” номли тезисларни ҳам қабул қилган эди[18]. Ушбу тезисларнинг асосий моҳияти ҳам аввало маҳаллий коммунистлар орасида атеистик ғояларини кенг тарғиб этиш, аҳоли орасида динга қарши курашнинг мактаб маориф, саводсизлигини тугатиш, “маданий инқилоб” жараёнларига урғу бериш ҳисобланар эди[19]. Совет давлатининг раҳбари, ХКСнинг раиси В.И.Лениннинг янги иқтисодий сиёсат даврида динга қарши кураш жараёнида барча атеистик тарғибот ва ташвиқот ишларидан самарали фойдаланиш тўғрисидаги кўрсатмалари унинг маълум нутқ ва чиқишлари, хусусан “Курашчан материализм ҳақида” номли рисоласида (1922 й.) ҳам тўлақонли ўз аксини топди[20]. Туркистон большевиклари ҳам янгича ижтимоий-иқтисодий шароитда ўзларининг сиёсатида динга қарши ташвиқотини тобора очиқ қўя бошладилар. Бунда Туркистон АССРда совет ҳокимияти ва компартия мавқеи анча мустаҳкамланганлиги, ўлкадаги совет маъмурияти “омманинг иқтисодий ва маданий-маънавий ривожланишига халақит бераётган ўрта асрларга хос қолоқлик сарқитларини аста-секин бартараф этиш учун партия етарлича заминга эга бўлганлиги” эътироф этилган эди[21]. Шунингдек, бундай шароитда динга қарши ташвиқотни амалга оширишда биринчи навбатда клерикал-реакцион руҳонийларга қарши кураш олиб бориш ҳам асосий вазифалардан бири сифатида қайд этилди[22]. Лекин, шулар билан бир қаторда эътироф этиш лозимки, совет давлати ҳали мамлакатда диннинг ўрни ва роли, мавқеи юқори даражада эканлигини, ижтимоий-маънавий ҳаёт бобида “диний омил” катта аҳамиятга эгалигини, кўп миллатли ва кўп конфессияли мамлакатда бу омилга тегишли даражада янгича, яъни нисбатан эҳтиёткор, сабрли, мувозанатни йўқотмаган ҳолда муносабат билдириш лозимлиги ҳақида ҳам қатор кўрсатмалар ишлаб чиққан эди. Яна бир томондан, турмуш тарзи, таълим-тарбияси бевосита диний эътиқодга бориб тақалувчи кўплаб мусулмон совет, партия идоралари вакиллари орасида ҳам динга қарши кескин кураш ҳокимият манфаатларига зид келиши тўғрисида ҳам фикр-мулоҳазалар устувор бўлган. Албатта, тегишли совет органлари томонидан буларнинг барчаси асосан ҳисобга олинди. Масалан, 1922 йилги диний секта ва умуман диний гуруҳларга муносабат борасидаги директиваларда уларнинг фаолиятида, айниқса оддий руҳонийлар орасида совет ҳокимиятига қарши душманлик руҳи бўлмаса, улар “буржуа ва антисовет ташкилотлари билан алоқадорликда турмасалар”, у ҳолда бу руҳонийлар гуруҳлари хўжалик ва фаолиятида қонунчилик доирасида қўллаб-қувватлаш ҳам қайд этилган эди[23]. Шунингдек, мусулмон руҳонийларини Ўрта Осиёда, компартия сафларига ҳам қабул қилишга рухсат берилган эди. Масалан, 1923 йилги ҳисобга қараганда Бухоро

компартиясининг 65,5% ни диндорлар ташкил этганлар. Бухоро коммунистлари қурултойида (съезд) уч нафар дин арбоби ҳам иштирок қилган. Рамазон вақтида ҳукумат аъолари тўлиқ намоз ўқишга чиқишган, бирга диний байрамларни нишонлашган[24]. Большевиклар партияси ва совет ҳукумати маҳаллий ҳудуддаги мусулмон руҳонийларини ўзлари томон жалб этиш учун ҳам турли саъй-ҳаракатларни амалга оширдилар. Хусусан, бирламчи масала руҳонийларни қуролли қаршилик ҳаракати сафидан чиқариш, уни совет ҳокимиятига ҳайриҳоҳ қилиш эди. Хусусан, 1923 йил 23 декабрда бўлиб ўтган Бутунлақай аҳоли йиғинида лақай ўзбек қабилалари муллалари иштирок этдилар. Улар бир овоздан совет ҳукумати исломга зид эмаслигини таъкидлаб, шарқий Бухородаги вазиятга катта таъсир ўтказдилар. Бундай йиғилиш 1924 йил қишида ҳам амалга оширилди. Бухоро Республикаси 113 та уламоси томонидан имзоланган мурожаатномада ҳам қуролли қаршиликни тугатиш масаласи баён этилган эди[25].

Мусулмон уламолари, руҳонийлари кўп ҳолда партия ячейкаларини ҳам бошқарганлар[26]. РКП(б)нинг 1923 йил апрель ойида бўлиб ўтган XII съездида динга қарши олиб борилаётган кураш заиф, у аксарият маъмурий характерга эга эканлиги танқид қилинади. Партия резолюцияларида советлар мамлакатидаги 30 миллионлик мусулмон аҳолиси орасида панисломизм, пантуркизм ғоялари, яҳудийлар ичида сионистик руҳдаги, “клерикал-кадет” гуруҳлари таъсири кучайиб бораётганлиги, поляклларда католик руҳонийлари мактаб тизимини қўлга олишга ҳаракатлари кучаётганлиги, латишлар ва эстонлар орасида баптизм ғоялари ўсиб, ёшларни ўз таъсирига ола бошлаётганлиги қайд этилади[27]. Бу борада 1922 йил 4 февралда РКП (б) МҚнинг жойларга юборган “Динга қарши курашнинг йўлга қўйилиши” тўғрисидаги циркуляр хатидаги “доимий ва тизимли кураш” моҳиятига мувовиқ НЭП даврида кураш юқорида таъкидланганидек, ғоявий аснода бўлмоғи лозим эди[28]. Шу боисдан ҳам 1922 йилданоқ динга қарши семинарлар, тўгараклар, маърузалар ва бошқалар ташкил этила бошлаб, бу борада атеистик характердаги матбуот ҳам шакллана бошланди. Тўғри, бу борада қоғоз, техника, ходимлар тақчиллиги бўлиб, маълум вақт П.А.Красиков раҳбарлигидаги “Революция и церковь” журнали, баъзи плакат, варақалардан бошқа деярли ҳеч нарса чиқмади[29].

Лекин, тезда ҳукумат чора-тадбирлари билан 1922 йили доимий динга қарши матбуот иши йўлга қўйилди. Хусусан, Москвада тез орада “Атеист” газетаси (15 000 нусха), декабрдан эса таниқли совет мафкуравий арбоби Е.М.Ярославский таҳрири остида “Безбожник” (“Худосиз”) газетаси ва шу номдаги журнал чоп этила бошланди[30].

Бу борада Туркистон ўлкасидаги вазият унга хос барча хусусият ва жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда кечди. 1922 йил 12 майда Туркистон компартияси МҚ Тошкент эски шаҳар қўмитаси билан ҳамкорликда “Босмачилик билан курашиш ва РКП(б)нинг Туркистондаги навбатдаги вазифалари” масаласи бўйича V пленум бўлиб ўтди. Мазкур пленумда Туркистон компартияси МҚ раиси А.Раҳимбоев қатнашиб, маъруза қилди. Мазкур пленумда мавжуд ижтимоий-сиёсий вазият муҳокама қилинди. Унда

ислом дини, умуман бошқа динларга ҳам маълум эркинлик бериш, қозилик, бийлик судларини тиклаш, мактаб, масжид, мадрасаларга, уларга қарашли бўлган вақф мулкларини қайтариш, совет қонунчилигини шариат тартибларига мослаштириш тўғрисида тегишли қарор қабул қилинди[31]. Ушбу қарорда совет ҳукуматининг мусулмон шарқида ислом ва шариат анъаналари билан мухолифат тўқнашувига бормаслиги, “империализмга қарши кураш” жараёнида совет ҳукумати мусулмон аҳолисини қўллаб-қувватлаши қайд қилинган эди. Республика Юстиция халқ комиссари Дўстмуҳаммедов бу борада тегишли чора-тадбирлар ишлаб чиқиши, Туркистон МИҚ эса тегишли вақт ичида халқ судлари, бийлар фаолияти, вақфларни бошқариш, шариат масалаларини маҳаллий аҳоли турмуш тарзига мослаштирилиши қарорда белгилаб қўйилди[32]. РКП(б) МҚнинг 1922 йил 18 майдаги “Туркистон – Бухоро ишлари тўғрисида”ги қарорига кўра эса “тинч меҳнатга қайтишни истаган барча босмачиларга авф эълон қилиш, вақф ерларини уларнинг собиқ эгаларига қайтариш ва маҳаллий судларни тиклаш”, масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Мазкур қарор асосида РКП(б) МҚнинг Ўрта Осиё бюроси (Средазбюро) Г.К.Ордженикидзе ва Ш.Элиаваларнинг бевосита иштирокида Туркистон, Бухоро ва Хоразмдаги совет ва партия раҳбар органлари вақф ерларини аввалги эгаларига қайтариш, шунингдек, қозилик судларини тиклаш бўйича амалга оширилиши керак бўлган масалалар бўйича ҳам келишиб олинди[33]. НЭП даврида юзага келган тегишли ижтимоий-сиёсий вазият, дин борасидаги партия кўрсатмаларига амал қилган ҳолда Туркистон Республикаси Советлари МИҚ 1922 йил 20 июнда “Туркреспублика мадраса ва масжидларига вақфларни қайтариш ҳақида”ги 75-сонли декретни эълон қилди[34]. Унга кўра вақф мулклари қайтариб берилганидан кейин, ушбу мулклардан фойдаланиш натижасида тушадиган маблағлар “мадраса ва масжидларни мактабларни сақлаш, тегишли биноларни таъмирлаш, мадраса ва мактабларда фаолият кўрсатувчи мударрис, муаллим ва бошқа хизматчиларга ҳақ, тўлаш” учун ишлатилинадиган бўлди.

ХУЛОСА

Натижада мактаб ва мадрасалар фаолияти қайта ташкил этилди, улардаги ўқув дастурларига ўзгартиришлар киритилди, мактаблар нисбатан эркин фаолият юритиб, диний ўқув даргоҳлари фаолиятига советлар аралашувига деярли чек қўйилди[35]. Шу даврда мактаб ва қисман мадрасалар сони кўпая бориб, талаба ва ўқувчилар сони ҳам ошиб бора бошлади. Бу хусусда А.Икромов таъкидлаганидек, “диний ва вақф ерлари ҳақидаги масалани иккинчи навбатда ҳал қилиш керак....” эди[36].

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. -Б.261. Десятый съезд РКП (б). Стенографический отчет. М., 1963. – С.25-32 и далее; Десятый съезд РКП (б)

8-16 марта 1921 г // КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т. 2/8. Изд. – М., 1970.

2. Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. Т, 44. 5-русча нашридан таржима. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1979. –Б.180

3. Коммунистическая партия Туркестана в резолюциях съездов и конференций. Ташкент: “Узбекистан”, 1988. г. -С.133-136.

4. НЭП даври моҳияти бўйича қаранг: Валентинов А. Новая экономическая политика и кризис партии после смерти Ленина – М: Современник, 1991; Голанд Ю.М. Кризисы; разрушившие НЭП. –М.; 1991; Его же. Дискуссия об экономической политике в годы денежной реформы 1921-1924 гг. М. Экономика, 2006; Медведев Р.А. О Сталине и сталинизме. М.: Прогресс, 1990; Ратьковский И.С., Ходяков М.В. История Советской России. –СПБ., 2001; Озерова Н.Г. Дехканство Туркестана в условиях перехода к НЭПу. Автореф.канд.ист.наук. Ташкент, 1997; Гаибназаров Ш.Г. Общественная развития Узбекистана в 20-х годах: противоречивость политических тенденций. Автореф.дисс.докт.полит.наук. Ташкент, 1994; Лельчук В.С. НЭП и его судьба//Историки спорят, М., 1988; С.122-190; Аминова Р.Х.Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода советского государства к НЭПу (1921-1924 гг). Ташкент, 1965; Перпер М.Я. Новая экономическая политика в Туркестане (1921-1924 гг) Автореф.дисс.канд.эконом.наук.Ташкент, 1964; Пулатова М. Переход Туркестанской АССР к новой экономической политике (1921-1924 гг). Автореф.дисс.канд.ист.наук, Ташкент, 1968; Каримов Р.Х. Социально-экономическое развитие Узбекистана в 1921-1925 годы: узловые аспекты, исторический опыт. Автореф.дисс.докт.ист.наук. Ташкент, 1989; Назаралиева Г.Н. Общественно-политическая жизнь в узбекском кишлаке (1925-1929 гг) Автореф.дисс.канд.ист.наук. Ташкент, 1990; Алексеева Е.А. НЭП в современной историографии. Автореф.канд.ист.наук М., 1995; Ўзбекистон тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик II жилд. Масъул муҳаррир проф. Р.Ҳ.Муртазаева, Ташкент: Янги аср авлоди, 2019; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2та китоб. Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. Ташкент: O’zbekiston, 2019 ва бошқалар.

5. Поляков Ю.А., Чугунов А.И. Конец басмачества. – М., 1975. –С.182.

6. Росяков А.А. Средазбюро ЦК РКП (б) (Вопросы стратегии и тактики). Ашхабад, 1975. – С. 23-24.

7. Поляков Ю.А. Переход к НЭПу и советское крестьянство. М., 1967. С.19-23, 25 и др; Трифонов И.Я. Классы и классовая борьба в СССР в начале НЭПа (1921-1925 гг). Л., 1969. – С. 23-29 и др; Время трудных вопросов. История 20-30-х годов и современная мысль // Правда, 1988, 3 октября; Алимова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода советского государства к НЭПу (1921-1924 гг). Ташкент, 1965. С.3-9, 11-15 и др; Назаралиева Г.Н. Общественно-политическая жизнь в узбекском кишлаке (1925-1929 гг) Автореф.дисс.кан.ист.наук. – Ташкент, 1990, -С.7-9, 11-20; Пулатова М. Переход Туркестанской АССР к новой экономической политике (1921-1924 гг.) Автореф.дисс.канд.ист.наук. Ташкент, 1968. С.5-16 и др;

Зелькина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии. М., 1930; Народное хозяйство Средней Азии. Ташкент, 1927. №10-12; Ризаев Г. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг), Ташкент, 1967. С. 29-35, 37-43 и др; Лебедева В.Г. Судьба массовой культуры России. Вторая половина XIX - первая четверть XX века. – СПб., 2007. С. 201-209; Тарасенко В.Н. Нэповская повседневность в современной российской историографии. Автореф.канд.ист.наук. М., 2013. С. 7-10, 12-15, 17 и др.

8. Ленин В.И. Полн.собр.сог.-Т.17. М., -С.418.

9. Съезды Советов Союза ССР, союзных и автономных советских социалистических Республик. -М., 1959. Т.-С.449.

10. Қаранг: Гидулянов П.В. Отделения церкви от государства в СССР. -М., 1926. -С.61-62; Саидбаев Т.С. Ислам и общество.опыт историко-социологического исследования. Изд.второе, допол. М., Издательство «Наука» Гл.ред.вост.лит.1984. -С.159; Мустафаева Н. Ислам и власть (20-е годы XX в.)// Ижтимоий фикр Инсон ҳуқуқлари. №1. (33). Тошкент, 2006. -Б.150.

11. Очерки истории Коммунистической партии Туркестана. Коммунистическая партия Туркестана в период восстановления народного хозяйства (1921-1924 гг.). Тошкент, 1960. -С.65.

12. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб … Б. 337.

13. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК, Том II - М., 1970 – С. 147.

14. ЎзМА, Фонд-И-34, 1-рўйхат, 34-иш, 4-варақ.

15. ЎзМА, Фонд-И-25, 1-рўйхат, 218-иш, 3-варақ

16. https://docs. Historyrussia.org.

17. ru.m.wikipedia.org.

18. ЎзР ПАА, 60-фонд, 1-рўйҳат, 3268-иш, 1-2-варақлар;, ЎзР ПАА, 58-фонд, 4-рўйҳат, 1078-иш, 1-вараф.

19. Коммунистическая партия Туркестана в резолюциях съездов и конференций. – Ташкент: «Узбекистан», 1988, -С.257-258 и др.

20. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) Иккинчи китоб... -Б.338

21. Ўша жойда.

22. Василевский К. Ислам на службе контрреволюции. М., 1930. – С.11,13-15; Степаненко А. О характере антиисламской пропаганды в СССР / ru.m.wikipedia.org.ukr.

23. О религии и церкви. Сборник высказываний классиков марксизма-ленинизма, документов КПСС и Советского государство: М., 1981. -С.60

24. ЎзР ПАА, 58-фонд, 3-рўйҳат, 1171-иш, 37-варақ.

25. Иркаев И. История гражданской войны в Таджикистане. Душанбе, 1971. – С. 451-452.

26. Вишневский А. Как это делалось в Средней Азии // Наука и религия. 1990 №2. -С.52.

27. О религии и церкви … -С.62.

28. Атеизм в АССР: Становление и развитие. М., 1986, С.33.; Алексеев В.А Указ. Соч. С.271.

29. О религии и церкви … С.63.
30. Воронцов Г.В. Массовой атеизм: становление и развитие. - Л., 1983. - С.82-83
31. ЎзМА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 55 “А”-иш, 952-варақ; Расулов Б.М. Ўзбекистондаги мусулмон мактаб ва мадрасалари тарихидан (XIX аср охири XX асрнинг 20-йиллари) Тарих фан.номз.илм.дараж. олиш учун дисс.автореферати. Андижон, 1996. Б.7-10, 12-15 ва бошқалар.
32. Комилов О.К. Кўрсатилган дисс. Б.64
33. История коммунистических организаций Средней Азии. – Ташкент, 1967. С.687.
34. Ўзбекистон Миллий архиви. Р.25-фонд, 1-рўйхат, 1114-иш, 55-59 варақлар.
35. Комилов О.К. Кўрсатилган дисс. Б.65-66.
36. Икромов А. Избранные труды: В3-х томах. - Ташкент, 1972. -Т.1. - С.168.

Адилов А.А.
Д.и.н., доцент кафедры «Новейшей истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
A_odilov@gmail.com

ИЗ ИСТОРИИ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ (НЭП) И РЕЛИГИОЗНОЙ ПОЛИТИКИ СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье проанализирована религиозная политика советской власти в Туркестане в период Новой экономической политики (1921–1924 гг.), её взаимоотношения с мусульманским населением, а также компромиссные и идеологические подходы к религии. Кроме того, освещены отношение советской власти к религиозным организациям и духовенству, а также процесс формирования политики антирелигиозной пропаганды.

Ключевые слова: Туркестан, Новая экономическая политика, советская власть, религиозная политика, ислам, мусульманское духовенство, атеистическая пропаганда.

Adilov A.A.
DSc., associate professor at the department of «Modern history of Uzbekistan»
National university of Uzbekistan
A_odilov@gmail.com

FROM THE HISTORY OF THE NEW ECONOMIC (NEP) AND THE RELIGIOUS POLICY OF THE SOVIET STATE

ABSTRACT

This article analyzes the religious policy of the Soviet government in Turkestan during the period of the New Economic Policy (1921–1924), its relations with the Muslim population, and its conciliatory as well as ideological approaches toward religion. It also examines the Soviet authorities' attitude toward religious organizations and clergy, as well as the formation and development of anti-religious propaganda policies.

Key words: Turkestan, New Economic Policy (NEP), Soviet government, religious policy, Islam, Muslim clergy, atheist propaganda.

Бабаджанов Х.Б.
Бош илмий ходим, т.ф.ф.д. (PhD), доцент
«Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси
bhasanb@inbox.ru

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ

АННОТАЦИЯ

Мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР озиқ-овқат, хусусан, ёғ-мой саноати ва қишлоқ хўжалиги тармоқларида юз берган таркибий ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий оқибатлари таҳлил қилинган. Шунингдек, мақолада уруш даври талаблари асосида пахта майдонларининг қисқартирилиши ва озиқ-овқат экинларининг кенгайтирилиши кутилган ижобий натижани бермаганини, аксинча, хом ашё (чигит) базасининг камайиши туфайли ёғ-мой саноатида чуқур инқирозни юзага келтирганини архив ва статистик маълумотлари асосида кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Иккинчи жаҳон уруши, Ўзбекистон ССР озиқ-овқат саноати, ёғ-мой заводлари, сафарбарлик иқтисодиёти, пахтачилик, хом ашё тақчиллиги, режалаштириш.

КИРИШ

Иккинчи жаҳон уруши йилларида Совет Иттифоқининг фронт орти ҳудуди бўлган Ўзбекистон ССР иқтисодиёти қисқа муддатда ҳарбий изга кўчирилди. Фронтни ҳамда республика аҳолисини узлуксиз озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш республика қишлоқ хўжалиги ва саноат тармоқлари зиммасига улкан вазифаларни юклади. Ушбу шароитда қишлоқ хўжалиги ер фонди таркибини қайта кўриб чиқиш, яъни анъанавий пахта майдонларини қисқартириш ҳисобига дон, сабзавот ва полиз экинлари ҳажмини ошириш чоралари кўрилди. Уруш даврининг қатъий марказлашган режали бошқаруви ва ички ривожланиш ресурсларининг ҳаддан ташқари зўриқиши тармоқлараро мутаносибликнинг бузилишига олиб келди. Мазкур мақолада уруш йилларида Ўзбекистон озиқ-овқат ва ёғ-мой саноатида амалга оширилган ислоҳотларни нафақат сафарбарлик муваффақиятлари, балки иқтисодий тизимли нуқсонлар, хом ашё инқирози ва корхоналарнинг иқтисодий самарадорлиги нуқтаи назаридан таҳлил қилинди.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Иккинчи жаҳон уруши даврида қишлоқ хўжалиги соҳасининг трансформацияси натижасида республикада буғдой ва арпа каби ғалла экинлари, шунингдек, сабзавот ва картошка майдонлари кенгайтириш ҳисобига ғўза экиладиган майдонлар қисқартирилди. Масалан, 1942 йил 15 апрелдаги Ўзбекистон ССР ХКСнинг 571-сонли қарорига бўйича ғалла ҳамда полиз-сабзавот экинларига қўшимча ер ажратилиниб, пахта майдонлари нисбатан қисқарди. Республика колхозларига озиқ-овқат экинлари

етиштириш учун қўшимча равишда 147,9 минг гектар ер берилди. Пахтадан бўшаган ерларнинг 122,6 минг гектари дон ва дуккакли экинларга, 14,8 минг гектари шолига, 9,1 минг гектари эса зиғир экишга ажратилди [1]. Умумий жиҳатдан, 1941-1942 йилларда Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ер фонди таркибида сабзавот-полиз экинлари учун майдонлар улушининг 4,9 фоиздан 8,3 фоизга, беда экилган майдонлар 16,5 фоиздан 19,6 фоизгача ортди [2].

Пахта экин майдонларини қисқартирилиши озиқ-овқат таъминотини яхшилаш нуқтаи назаридан мутлақ ижобий натижага олиб келмади. Пахта чигити озиқ-овқат саноатининг муҳим хом ашёси ҳисобланади. Пахта ялпи ҳосилининг камайиши чигитни қайта ишлаш ва кунжара ишлаб чиқариш ҳажмининг пасайишига олиб келди. Бу эса чорвачилик учун омухта ем тайёрлашга салбий таъсир кўрсатиб, чорвачилик соҳаси учун сезиларли тарзда салдий таъсир кўрсатди.

Шунингдек, пахта майдонларининг қисқариши ўсимлик мойи ишлаб чиқариш ҳажмининг тенг камайишига сабаб бўлди. Бўшаган ерларда ғалла ва сабзавотлар экилишига қарамай, кунгабоқар ёки зиғир каби муқобил мойли экинлар майдонлари деярли кенгаймади. 1941 йилда Ўзбекистонда 123,4 минг тонна ёғ ишлаб чиқарилган бўлса, 1942 йилга келиб бу кўрсаткич 85 минг тоннагача тушиб кетди [3]. Мазкур ҳолат пахтадан бўшаган майдонларни қайта экиш аҳоли талаблари ҳамда истеъмол мувозанатини инобатга олмаган ҳолда ноилмий амалга оширилганини билдиради.

Ёғларнинг тўйимлиги (калория миқдори) оқсиллар ва углеводларга қараганда икки баробардан ортиқ устунликда намоён бўлади. Шу сабабли, ёғларни нон, картошка ёки сабзавотлар каби углеводларга бой маҳсулотлар билан алмаштириш овқатланиш рационининг умумий озуқавий қийматини пасайтирди. Кунлик озиқ моддаларга бўлган эҳтиёжни қондириш учун нисбатан кўпроқ миқдордаги маҳсулотларни истеъмол қилишга тўғри келган. Озиқ-овқат танқислиги шароитида аҳоли рационида ёғларнинг етишмовчилигини қоплаш ва керакли тўйимлиликни таъминлаш учун бошқа маҳсулотларга талаб ошиб борди.

Эътиборли томони шундаки, Ўзбекистонда уруш йилларида пахта киладиган майдонлар 927,6 минг гектардан 912,1 минг гектаргача [4], яъни тахминан 15 минг гектарга камайди. 1941-1943 йиллар оралиғида республикада пахта ялпи ҳосилининг кескин пасайиши фақатгина экин майдонларининг қисқариши билан боғлиқ эмас эди. Давлат режадаги кўрсаткичларнинг бажарилмаслигининг асосий сабаби ҳосилдорликнинг сезиларли даражада пасайиши бўлди. Пахта ҳосилдорлиги 1941 йилда ўртача ҳосилдорлик гектарига 18,1 центнерни ташкил этган бўлса, 1942 йилга келиб бу кўрсаткич 11,6 центнерга тушиб қолди [5].

Урушдан олдинги даврда Ўзбекистоннинг ёғ-мой саноати мавжуд хом ашё ресурсларини қайта ишлаш учун етарли ишлаб чиқариш қувватларига эга эди. Уруш даврида республика қишлоқ хўжалиги таркибида юз берган таркибий ўзгаришлар, хусусан, пахта етиштириш ҳажмининг қисқариши соҳанинг асосий хом ашё ҳисобланган чигит миқдорининг сезиларли камайишига олиб келди. Иқтисодий мантиқ ва мавжуд хом ашё тақчиллигига

зид равишда, уруш йилларида республикада янги ёғ-мой корхоналарини барпо этиш жараёни давом эттирилди.

Шундай бўлса-да, 1941-1945 йилларда Ўзбекистон ёғ-мой саноатида экстенсив ривожланиш ва иқтисодий самарадорликнинг пасайиши кузатилган. Хусусан, 1941 йилда республикадаги 8 та йирик корхонанинг йиллик қайта ишлаш қуввати 721,5 минг тоннани ташкил этди. 1945 йил 1 январ ҳолатига кўра корхоналар сони 15 тага етганига қарамай, умумий ишлаб чиқариш салоҳияти 470,5 минг тоннагача, яъни қарийб 35 фоизга қисқарди. Республика ёғ-мой саноатида корхоналар сонининг миқдорий ортиши фонида ялпи ҳамда алоҳида заводларда ишлаб чиқариш қувватларининг пасайиши озиқ-овқат саноатини ривожлантиришни режалаштириш ҳамда мавжуд ресурс имкониятларини реал баҳолаш тизимида жиддий нуқсонлар мавжудлигини кўрсатиб берди (жадвал) [6]:

Ўзбекистон ССРда ёғ-мой заводларининг йиллик қайта ишлаш қувватлари (минг тонна):

Завод жойлашган ҳудуди		Ёғ-мой заводлари қайта ишлаш қувватлари	
		1941 й.	1.I.1945
1	Когон	65,1	45,0
2	Қўқон	94,8	72,0
3	Наманган	81,0	30,0
4	Янгийўл	69,9	54,0
5	Асака	66,0	36,0
6	Андижон	109,5	72,0
7	Денов	–	9,0
8	Урганч	60,3	30,0
9	Гиждувон	–	6,0
10	Фарғона	174,9	90,0
11	Алимкент	–	7,5
12	Хива	–	3,0
13	Манғит	–	3,0
14	Хожейли	–	10,0
15	Қўнғирот	–	3,0
Жами:		**721,5**	**470,5**

Республикада озиқ-овқат саноатида янги ишлаб чиқариш қувватларини барпо этиш жараёни режалаштириш ҳамда ташкилий жараёнларнинг тизимли нуқсонлар шароитида олиб борилиб, қурилиш объектларини барпо этишда қатор камчиликлар билан кечди. Масалан, 1943 йилда Қорақалпоғистон АССРнинг Хўжайли, Чимбой ва Қўнғирот шаҳарларида ёғ-мой саноати корхоналарини барпо этилиши пухта ўйланмаган режалар ҳамда

бошқарув тизимидаги жиддий нуқсонлар асосида амалга оширилди. Объектларни барпо этиш жараёнида зарур моддий-техник ва молиявий ресурсларнинг танқислиги, юқори малакали мутахассис кадрларнинг етишмовчилиги ҳамда транспорт-логистика воситаларининг ноқобил ҳолати қурилиш муддатларининг сезиларли даражада узайишида асосий омил бўлиб хизмат қилди.

1942 йилнинг 1-ярим йиллиги бўйича Андижон вилояти ёғ заводлари томонидан ишлаб чиқариш режаларининг бажарилиши (минг рубль) [7]:

Корхона номи	**Режа**	**Амалда**	**Фоиз**
6-сонли ёғ заводи (Андижон)	6035	3621	76,6
5-сонли ёғ заводи (Асака)	3833	913	27,3

Юқоридаги жараёнларни муайян мисоллар талқинида таҳлил қилиш масала моҳиятини чуқурроқ англаш имконини беради. Хусусан, 1942 йилнинг май ойида Андижон шаҳрида жойлашган 6-сонли ёғ заводи томонидан режалаштирилган ишлаб чиқариш ҳажми атиги 80,3 фоизга бажарилган бўлиб, бу ҳолат бир қатор омиллар таъсирида юзага келди. Биринчидан, махсус ускуналар, жумладан, ҳаракатга келтирувчи тизимларнинг техник жиҳатдан эскириши мажбурий тўхтаб қолишларга ва ишлаб чиқариш қувватларининг пасайишига сабаб бўлди. Иккинчидан, малакали ходимларнинг вақтинчалик меҳнатга лаёқатсизлиги туфайли ишга чиқмаслиги мой сиқиш цехида меҳнат унумдорлигининг пасайишини келтириб чиқарди. Натижада, ишлаб чиқариш вазифаларини бажариш учун жараёнга малакасиз ходимларнинг жалб этилиши иш унумдорлигининг кескин камайишига олиб келди.

Асака шаҳрида жойлашган 5-сонли ёғ заводининг май ойидаги фаолиятида режалаштирилган кўрсаткичлардан сезиларли даражада четлашиш кузатилиб, белгиланган ишлаб чиқариш ҳажми атиги 26,8 фоизга ижро этилди. Ушбу паст кўрсаткичнинг сабаби корхона энергетика хўжалигининг техник жиҳатдан яроқсиз ҳолатга келиб қолганлиги билан изоҳланди. Зарур молиявий ресурслар ҳамда техник асбоб-ускаланалар танқислиги шароитида корхона энергетика тизимини модернизациялаш ва тиклаш ишларини амалга ошириш имкони бўлмади.

Ишлаб чиқариш занжирининг бир бўғинидаги муаммонинг бартараф этилмаслиги ишлаб чиқариш режаларини сурункали барбод бўлишига сабаб бўлди. Хусусан, мазкур тизимли камчиликлар оқибатида 1942 йилнинг апрель ойида ҳам ишлаб чиқариш ҳажми белгиланган режанинг атиги 31,6 фоизини ташкил этди. Аксарият ҳолатларда ойлик режаларнинг бажарилмаслиги бевосита ишлаб чиқариш жараёни билан эмас, балки хом ашё тайёрлаш ва етказиб бериш босқичларидаги камчиликлар билан боғлиқ бўлди.

1940 ва 1945 йилларда Ўзбекистон ССР, шу жумладан, Тошкент вилоятида асосий озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш кўрсаткичлари (консервалар минг нисбий банка, қолган маҳсулотлар минг тонна ҳисобида) [8]

	1940	1945
Нон ва нон маҳсулотлари		
Ўзбекистон ССР	937,0	308,6
Тошкент вил.	74,5	48,2
Ўсимлик ёғи		
Ўзбекистон ССР	141,7	41,8
Тошкент вил.	11,3	5,4

1940-1945 йиллар давомида Ўзбекистон ССР, хусусан Тошкент вилоятида озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш динамикасида кузатилган ўзгаришлар республика иқтисодиётининг уруш даври талабларига мувофиқ ҳарбий изга ўтказилиши жараёни билан бевосита боғлиқ эди. Уруш даврида озиқ-овқат саноатининг хом ашё базасини асоси бўлган қишлоқ хўжалигидаги инқирозли ҳолатлар ишлаб чиқариш кўрсаткичларининг пасайишига бевосита салбий таъсир кўрсатди. Бошқа турдаги озиқ-овқат маҳсулотларига нисбатан кескин бўлмасада, фронт таъминоти билан бевосита узвий боғлиқ консерва ишлаб чиқариши ҳам қисқаришдан мустасно бўлмади.

Эътиборли жиҳати, республика миқёсида ўсимлик ёғи ҳамда нон ва нон маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми уч баробарга қисқарган пайтда, Тошкент вилоятида бу кўрсаткич икки баробарни ташкил этди. Шунингдек, Ўзбекистон ССР бўйича ялпи ун ишлаб чиқариш ҳажми пасайиши фонида Тошкент вилоятида аксинча ўсиш қайд этилди. Тошкент вилоятида ун ишлаб чиқариш ҳажмининг 21 минг тоннадан 30,4 минг тоннагача, яъни 44,7 фоизга ортиши иқтисодиётни марказлашган режали бошқарув механизмлари орқали ресурсларни айнан ҳарбий саноат корхоналари концентрацияси нисбатан юқори Тошкент вилоятига йўналтирилиши натижаси эди.

Ўсимлик ёғи ҳамда нон ва нон маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг 70-80 фоизгача кескин қисқариши озиқ-овқат саноати ва қишлоқ хўжалиги тармоқларидаги тизимли инқирознинг бевосита оқибати ҳисобланиб, 1945 йилга келиб республика иқтисодиёти тўрт йиллик экстенсив сафарбарлик

натижасида ўз ички ривожланиш ресурсларини тўлиқ сарфлаб бўлганлигини англатади. Сафарбарлик иқтисодиётининг бундай оқибатлари ички иқтисодий имкониятларнинг чегараланганини ва тармоқлараро мутаносибликнинг бузилиши ишлаб чиқариш суръатларига салбий таъсир кўрсатганини кўрсатади. Тармоқдаги бундай чуқур пасайиш уруш даврининг оғир иқтисодий шароитида хом ашё ва ишчи кучи ресурсларининг ҳаддан ташқари зўриқиш билан ишлатилганидан далолат беради.

1940-1945 йилларда Ўзбекистон ССР Озиқ-овқат саноати халқ комиссарлигининг ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш кўрсаткичлари (1926/1927-йй. ўзгармас нархларида, минг. руб.) [9]:

Саноат тармоғи	**1940**	**1941**	**1942**	**1943**	**1944**	**1945**
Ўзбекўсимлик ёғ-мой	72485	76397	45269	35808	21377	22483
Нон саноати	90549	102823	69449	57302	48299	48050
Консерва саноати	35220	40622	311178	39058	39640	24824
Кондитер саноати	7401	9015	4768	2656	4676	3490
Макарон саноати	1892	3096	20216	1978	1281	1245

1940-1945 йилларда Ўзбекистон ССР Озиқ-овқат саноати халқ комиссарлиги таркибидаги трестлар ва корхоналардаги жамғармалар ҳамда мазкур комиссарликнинг ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш кўрсаткичлари республика озиқ-овқат саноатининг ишлаб чиқариш қуввати ва молиявий барқарорлиги ўртасидаги узвий боғлиқликни очиб беради. Айниқса, ёғ-мой саноатида ишлаб чиқариш ҳажми 1940 йилдаги 72,4 миллион рублдан 1944 йилга келиб 21,3 миллион рублгача (3,4 баравар) тушиб кетгани соҳанинг 1943-1944 йилларда катта миқдордаги камомад (минус жамғарма) билан ишлашига олиб келди. Бу ҳолат Ўзбекистон шароитида ёғ-мой саноатига асосий маҳсулот етказиб берувчи пахтачиликда ялпи ҳосилдорлик тушиб кетиши билан боғлиқ эди.

1940-1945 йилларда Ўзбекистон ССР Озиқ-овқат саноати халқ комиссарлигининг саноат тармоқларида ишчилар ўртача иш ҳақи (руб.) [10]:

Саноат тармоғи	**1940**	**1941**	**1942**	**1943**	**1944**	**1945**
Ўзбекўсимлик ёғ-мой	3135	3274	2801	3891	4128	3953
шу жумладан, “Коммунар” мех. з-д.	–	–	–	10642	9145	10397

Нон саноати	3707	3500	2995	2817	2811	3235
Консерва саноати	2561	2579	2432	3190	3374	3416
Кондитер саноати	2695	2886	2934	2465	2929	3160
Макарон саноати	2902	2556	2872	3258	3494	4308

1940-1945 йилларда Ўзбекистон ССР Озиқ-овқат саноати халқ комиссарлигининг саноат тармоқларида ўртача ишчилар сони [11]**:**

Саноат тармоғи	**1940**	**1941**	**1942**	**1943**	**1944**	**1945**
Ўзбекўсимлик ёғ-мой	4505	4284	4309	4605	3491	3385
шу жумладан, “Коммунар” мех. з-д.	–	–	–	42	60	59
Нон саноати	4449	4744	4273	3828	3148	2911
Консерва саноати	1885	2164	2248	2796	2811	2304
Кондитер саноати	318	333	242	172	127	156
Макарон саноати	178	204	147	110	89	75

Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР озиқ-овқат саноати мураккаб шароитларда фаолият юритди. Республика озиқ-овқат саноати хом ашё базасининг чекланганлиги ҳамда қадоқлаш материалларининг кескин танқислиги шароитида ўз олдида турган бош вазифа фронтнинг узлуксиз таъминотини кафолатлаш ва шу билан бирга маҳаллий аҳолининг минимал истеъмол талабларини қондириш ўртасидаги нозик мувозанатни сақлашдан иборат эди. Фронт эҳтиёжлари учун йўналтирилган юқори қийматли гўшт консервалари ишлаб чиқариш ҳажмининг ортиши тармоқнинг умумий кўрсаткичларида ўзига хос номутаносибликни юзага келтирди. Ушбу ҳолат ялпи маҳсулотнинг пул ифодасидаги қиймати билан маҳсулотнинг реал жисмоний ҳажми ўртасидаги тафовутни сезиларли даражада оширди.

Ёғ-мой саноатининг 1943 йил якунларига кўра 7,9 миллион рубль миқдоридаги бюджет камомади билан фаолият юритгани соҳанинг мустақил молиявий таъминот қобилиятидан маҳрум бўлганини яққол тасдиқлайди. Мазкур дефицит ҳолати тармоқнинг тўлиқ давлат дотациясига қарам бўлиб қолишига ҳамда бозор механизмларидан воз кечилган ҳолда марказлашган тақсимот тизимига ўтилишига сабаб бўлди. Натижада саноат корхоналарининг иқтисодий самарадорлиги иккинчи даражали омилга айланиб асосий эътибор фақатгина фронт учун зарур бўлган маҳсулот ҳажмини ҳар қандай харажатлар эвазига бўлсада таъминлашга қаратилди. Бу эса ўз навбатида урушдан кейинги даврда соҳани қайта тиклаш учун қўшимча капитал қўйилмалар ва чуқур ислоҳотлар зарурлигини белгилаб берди.

ХУЛОСА

1941-1945 йилларда Ўзбекистон ССР қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат саноатида уруш даври талабларига мослашиш мақсадида кескин таркибий ўзгаришлар амалга оширилди. Фронт ва аҳоли таъминотини йўлга қўйиш учун пахта майдонлари қисқартирилиб, озиқ-овқат ҳамда дон экинлари кенгайтирилди. Пахта ҳосилдорлигининг ялпи қисқариши ёғ-мой заводларининг асосий хом ашёси бўлган чигит ҳажмини кескин камайтирди. Бу эса республика миқёсида ялпи ўсимлик ёғи ишлаб чиқаришни бир неча баробарга қисқартириб, аҳоли рационининг озуқавий қийматини сустлаштирди.

Шу билан бирга, марказлашган бошқарув механизмлари амал қилиш жараёнида хом ашё асосан фронт таъминоти билан боғлиқ тармоқларга йўналтирилди. Хом ашё тақчиллигига қарамасдан ишлаб чиқариш қувватлари ортиқча экстенсив йўл билан ривожлантирилиб, янги корхоналар сонининг миқдорий кўпайиши фонида ёғ-мой саноатнинг реал қайта ишлаш салоҳияти сезиларли даражада пасайиб борди. Заводларда ускуналарнинг техник жиҳатдан эскириши, энергетика таъминотидаги узилишлар ва малакали ишчи кучи етишмовчилиги ишлаб чиқариш режаларининг сурункали барбод бўлишига сабаб бўлди. Бундай шароитда корхоналарнинг иқтисодий самарадорлиги иккинчи даражали омилга айланиб, тармоқ тўлиқ корхоналари супункали камомад шароитида фаолият олиб борди. Иккинчи жаҳон уруши якунига келиб республика озиқ-овқат саноати ўз ички ривожланиш ресурсларини тўлиқ сарфлаб бўлиб, чуқур тизимли инқирозга юз тутди.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ

1. ЎзР МДА, Р 837-фонд, 32-рўйхат, 3270 йиғмажилд, 106-варақ.
2. Қизил Ўзбекистон. 1942, 7 февраль.
3. ЎзР МДА, Р 837-фонд, 32-рўйхат, 3318 йиғмажилд, 15-варақ.
4. ЎзР МДА, Р 837-фонд, 32-рўйхат, 3318 йиғмажилд, 16-варақ.
5. ЎзР МДА, Р 837-фонд, 32-рўйхат, 3318 йиғмажилд, 15об-варақ.
6. Ўз МДА, Р-1619-фонд, 12-рўйхат, 898- йиғма жилд, 9-варақ.
7. Андижон вилоят Давлат архиви, Р-608-фонд, 1-рўйхат, 8772-йиғма жилд, 61-варақ.
8. Ўз МДА, Р-1619-фонд, 12-рўйхат, 1354- йиғма жилд, 4-варақ.
9. Ўз МДА, Р-1619-фонд, 12-рўйхат, 898- йиғма жилд, 24-варақ.
10. Ўз МДА, Р-1619-фонд, 12-рўйхат, 898- йиғма жилд, 43-варақ.
11. Ўз МДА, Р-1619-фонд, 12-рўйхат, 898- йиғма жилд, 42-варақ.

Бабаджанов Х.Б.
PhD., доцент, главный научный сотрудник
мемориального комплекса «Парка Победы»
bhasanb@inbox.ru

МАСЛОЖИРОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются структурные изменения и экономические последствия волновых процессов в продовольственной и особенно масложировой промышленности, а также в сельском хозяйстве Узбекской ССР в годы Второй мировой войны. На основе архивных и статистических данных автору удалось продемонстрировать, что сокращение хлопковых площадей ради расширения продовольственных культур под влиянием военных требований не привело к ожидаемому позитивному результату. Напротив, этот шаг вызвал глубокий кризис в масложировой отрасли вследствие резкого сокращения сырьевой базы в виде семян хлопчатника.

Ключевые слова: Вторая мировая война, продовольственная промышленность Узбекской ССР, масложировые заводы, мобилизационная экономика, хлопководство, дефицит сырья, планирование.

Babadjanov Kh.B.
PhD., associate professor, chief research
«Victory Park» Memorial Complex
bhasanb@inbox.ru

THE OIL AND FAT INDUSTRY OF UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR

ABSTRACT

The article analyzes the structural changes and economic consequences that occurred in the food and specifically oil and fat industries, as well as the agricultural sectors of the Uzbek SSR during the Second World War. Based on archival and statistical data, the author demonstrates that the reduction of cotton cultivation areas to expand food crops under wartime demands failed to yield the anticipated positive results. Instead, this policy triggered a profound crisis within the oil and fat industry due to the substantial decline in the cotton seed raw material base.

Key words: Second World War, food industry of the Uzbek SSR, oil and fat processing plants, mobilization economy, cotton growing, raw material shortage, planning.

Бахранов Ш.Т.
«Ҳарбий-ватанпарварлик, маънавий-маърифий тарбия ва ёшлар билан ижтимоий ишлаш» кафедраси ўқитувчиси, PhD
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
Sherofkun82@mail.ru

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола Совет ҳукумати сиёсатига бағишланган булиб, Совет томонидан Ўзбекистон ССР да қишлоқ хўжалиги соҳасидаги илмий тадқиқот вазифалари кай даражада бажариб келинганлиги доирасида. Тадқиқод ишида Давлат наслчилик станцияси фаолияти, хусусан, дон ва тоғли ва лалмикор ҳудудларини ўрганиш соҳасидаги илмий тадқиқотларни мувофиқлаштириш ва йўналиши таҳлил қилинган. Тадқиқотда станция томонидан дон ва бошка бошоқли экинларини ишлаб чиқаришни кўпайтириш, унинг сифатини ошириш ва янги технологияларни жорий этишга ҳисса қўшганлигини исботлайди. Мақолада ушбу тадқиқот институти фаолияти билан боғлиқ муаммолар ҳам таҳлил қилинади.

***Калит сўзлар*:** Совет ҳукумати, илмий тадқиқот институти, қишлоқ хўжалиги, Ўзбекистон ССР, дон, ер, тоғли ва лалмикор ерлар, вилоят, технология.

КИРИШ

Совет давлати ҳукмронлиги йиллари ҳукумат илм – фан ривожланишига маълум даражада маблағ ажратди. Фан ва техниканинг ривожланиши давлат сиёсатининг ғоявий рағбатлантириш берилган асосий йўналиши бўлди. Фан ва техника бутун совет давлати ҳукмронлиги йилларида кенгайиб ривожланиб борди. Ўзбекистон ССР да илмий-тадқиқот институтлари буғдой навларини ривожлантиришга катта қизиқиш билан қараганлар ва буни бир неча муҳим сабаблари бор эди: буғдой асосий озиқ-овқат маҳсулоти ҳисобланган. Аҳоли сони ўсиб бораётгани учун давлат кўпроқ дон етиштиришни стратегик вазифа деб билган. Янги навлар юқори ҳосил бериши керак эди. Натижада Ўзбекистонда қуруқ иқлимга мос, тез пишар ва юқори ҳосилли бир қатор буғдой навлари яратилган.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Ўсимликларнинг келиб чиқиши кўплаб совет олимлари томонидан тадқиқ этилди. Улардан бири рус олими Н.И.Вавилов бўлиб, у ва унинг шогирларини узоқ йиллик ишланмаларидан сўнг ўсимликларнинг келиб чиқиш марказларини 12 та ген марказга бўлдилар. Уларнинг биринчиси Хитой – Япония маркази бўлиб, уларга Хитой, Корея, Япониянинг субтропик

минтақаси киритилди. Бу минтақада соя, буғдой, тариқ, чумиза, маржумак келиб чиққанлиги ва яхши ҳосил олинганлигини аниқланди. Олимлар иккинчи турга Индонезия-Жанубий Хитойни, у ерда сули, шакар қамиш, мева ва сабзавот экинларининг ҳосилдорлиги яхши бўлганлигини, учинчи гуруҳга кирган Австралия марказида шоли, ғўза, тамаки, эвкалипт, тропик дарахтлар ҳосилдорлиги яхши бўлганлигини аниқладилар. Шунингдек, тўртинчи гуруҳга Ҳиндистон киритилди ва у ерда шоли, ҳинд буғдойи, шакар қамиш, ғўза турлари, сабзавот ва мева экинлари, бешинчисига Марказий Осиё маркази (Тожикистон, Ўзбекистон, Афғонистон), у ерда кўк нўхот, мош, ясмиқ, нўхот, махсур, хашаки дуккаклар, афғон жавдари, қовун, ғўза турлари, кўп йиллик ўсимликлар, олтинчисига Олд Осиё маркази (Тоғли Туркманистон, Эрон, Кавказ орти, Кичик Осиё, Араб Ярим ороли), бу ердан буғдой турлари, арпа, сули, жавдар, у ерда кўк нўхот, беда, зиғир, сабзавот ва мевали экинлар экилишини аниқладилар. Еттинчи гуруҳга Ўрта Ер денгизи маркази (Миср, Сурия, Фаластин, Греция, Италия ва Ўрта Ер денгизи соҳиллари киритилиб, у ерларда сули, арпа, буғдой турлари, зиғир, карам, лавлаги, сабзи, шолғом, турп, пиёз, саримсоқ, кўкнори, оқ хантал, Африка марказида жўхори турлари, тариқ, канакунжут, шоли, буғдой турлари, мойли пальма, дуккакли экинлар, кунжут, кофе, ғўза турлари, Марказий Америкада (Мексика, Гватемала, Гондурас, Панама) маккажўри, ловия, қовоқ, ингичка толали пахта, ширин картошка, махорка, қалампир, кўп йиллик ўсимликларнинг ҳосили яхши бўлганлигини аниқлаганлар. Жанубий Америкада маданий картошка, тамаки, помидор, кўп йиллик арпа, маккажўхори, Шимолий Америкада бўлса арпа турлари, люпин, кунгабоқар, сабзавот ва резавор ўсимликларга бўлиб чиққанлар[1].

Марказий Осиё, хусусан, Ўзбекистон ҳудудларида ҳам юқорида келтирилган қишлоқ хўжалик экинлари экилди. Ҳатто, хориждан келтирилган навларни ўзлаштириш, жорий этиш борасида тадқиқот ишлари олиб борилди. Уларнинг кўпи маҳаллий шароитга мос келмаган бўлсада, баъзилари хўжаликлар ва унинг раҳбарларини маъсулиятсизлиги боис ўз вақтида ўзлаштирилмади ёки муҳим натижага эришган навлари ҳам бўлди. Ўзбекистон ҳудудида узоқ йиллар давомида бошоқли экинлар экиб келинди, маҳаллий навлардан “Сари Магиз”, “Ола бурук”, “Қизил буғдой”, “Нор қизил”, “Оқ буғдой” навлари қишлоқ хўжалигида кенг қўлланилди. Ўзбекистон ҳудудлари табиий-иқлим шароити баҳорги буғдой экишга мослашганлиги боис бу ерда буғдой баҳорда тиним даврисиз ўсади ва ривожланади ҳамда бунда экин учун қишки тиним даври керак бўлмади.

Ўрта Осиёнинг деҳқончилик хусусиятларини ўрганиш мақсадида ҳозирги Ўзбекистон ҳудудларида XX аср бошларидан кенг кўламдаги қатор станциялар, илмий – тадқиқот ишлари фаолият юритди. Масалан, Буғдой навларини ўрганиш ишлари 1913 йилда Зарафшон тажриба даласида В. Малигин томонидан лалмикор ерлар учун илмий изланишлар олиб борди. Совет ҳокимияти ўрнатилгач, 1925 йилда Зарафшон тажриба даласи Каттақўрғон тажриба станциясига айлантирилди[2]. Шундан сўнг 1926 йилда буғдой етиштириш бўйича Қамаши тажриба станцияси, шу йили Тошкент

вилоятининг Чирчиқ туманида Шоличилик тажриба станцияси очилди. 1930 йилда Милютинскийда (ҳозирги Ғаллаорол)да тажриба станцияси иш бошлади ва 1937 йилдан бу станция Милютин давлат селеция станцияси деб аталди.

Милютин давлат селекция станцияси 13 та қишлоқ хўжалик экинлари, хусусан буғдой, ячмень, маккажўхори, тарвуз, қовун, жўхори, зиғир, беда ва бошқа қишлоқ хўжалик экинларини ўрганиб, уларнинг қишлоқ хўжалигининг 50 фоиз ерларига экиладиган 17 тур ўсимликни қишлоқ хўжалигина жорий этди. Уларни орасида буғдойнинг “Қизил Шарқ” нави юқори баҳо олди, арпанинг “Унумли арпа” нави, зиғирнинг “Бахмал-1056”, тарвузннинг “Узун-112” нави, беданинг “Милютин-1774” навлари ном қозонди [3]. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, халқ селекцияси Ўрта Осиёда яхши ривожланган бўлиб, бу ерда ғўза, зиғир, дон, беда, сабзавот, полиз экинлари узоқ йиллар давомида экиб келинди, ток ва мевали дарахтларнинг қимматли навлари яратилди.

Бироқ, Ўзбекистон ССР совет давлати ҳукмронлиги йилларида ғаллачилик бўйича энг қолоқ ўлкалардан бири бўлди. Бу даврларда ғалла етиштириш фақат лалми ерлар ҳисобига амалга ошириб келинди. Иккинчи жаҳон уришидан кейинги йилларда ғалла экиладиган 1,5 млн. га. лалми ерга пахта экилди. Шундай бўсада, Ўзбекистонда 1937-1961 йилларда буғдой навлари 6 маротаба алмаштирилди.

1937 йилда Милютин тажриба станцияси Лалмикор деҳқончилик институти давлат селекция станциясига айлантирилди. Бу станция Ўзбекистонда мавжуд маҳаллий буғдой навлари ичидан қаттиқ буғдой экини навларини ажратиб олиб, уларнинг қайси тур ва тур хилларига мансублигини аниқлаган ва янги дурагайлар олиш мақсадида Н.Покровский биринчи маротаба селекция ишларини бошлаган. У юмшоқ буғдой навининг 44 та турини аниқлаб берди. Н.Покровский муаллифлигида 1940-1951 йилларда қаттиқ буғдойнинг “Леукурум-837” ва “Менянопус-40100” навлари лалмикор майдон-ларда экиш учун яратилди. 1951 йилда И.М.Юданов томонидан яратилиб, “Қизил Шарқ” ва арпанинг “Унумли арпа” нави яратилди ва республиканинг кўплаб ҳудудларига экилди.

Давлат селекция станцияда 1957 йилда буғдойнинг “Хивит” ва “Псевдотурцик 142-22”, зиғирнинг “Гибрид 115” навлари ишлаб чиқаришда юқори баҳо олдилар. Станция ҳар йили лалми ерларда экиладиган уруғларнинг элита ва суперэлита навларидан 4-5 минг тоннасини етказиб берди. Республиканинг 12 колхоз ва совхозида маккажўхорининг гибрид навларини тажрибадан ўтказди. Станция экспедицияларни ташкил этиш ҳисобига республиканинг турли ҳудудларидан маккажўхорининг турли навларининг уруғларини ҳам йиғиб чиқди. Уларнинг чидамли ва серҳосил навлари гибрид усулида, ҳатто, ўз холича ҳам қишлоқ хўжалигида қўлланилишига чиқарилди [4]. Кейинчалик маҳаллий олимлардан С.Ғ.Ғайбуллаев 1950 йилгача бўлган даврни ғалла экинлари селекциясининг биринчи даври деб атади [5].

Бироқ, 1960 йилларда бутун мамлакатда озиқ-овқат, хусусан, ғалла танқислиги сезилди. Бу масала ҳориждан ғалла сотиб олиш ҳисобига бажарилди [6]. Бутун мамлакатда дон етиштириш режаси уч маротаба 1956, 1958, 1964 йилларда бажарилди холос. Натижада, мамлакатда озиқ-овқат маҳсулотларига талаб кучайиб, очарчилик хавф солмасада, лекин озиқ-овқат маҳсулотларига танқислик доимо сезилиб турди. Нон маҳсулотларини ҳарид қилиш учун навбатга туриш ҳолатлари кучайиб кетди. Бу хусусда ҳатто, 1979 йилнинг январь ойида “Правда” газетасига халқдан 16 та хат ҳам келди [7]. Бу каби ҳолатлар илмий – тадқиқот ишларини ҳам оширишни талаб этар эди.

1959 йилда Давлат селекция станцияси Лалмикор деҳқончилик илмий текшириш институтига айлантирилди. 1960 йилда Лалмикор деҳқончилик илмий – тадқиқот институтининг Самарқанд вилоятидаги Каттақўрғон таянч пунктидан дурагай материаллар ва бутуниттифоқ ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институтидан бир қанча жаҳон коллекцияси наъмуналари келтирилиб, қаттиқ буғдой селекцияси ишлари қайтадан бошланди. Бунда қаттиқ буғдойнинг энг яхши нави ҳисобланган “Менянопус-40100” нави билан қаттиқ буғдойнинг жаҳон коллекцияси намуналари ўртасида чатиштириш ишлари ўтказилиб, дурагай тизмалар олинди.

1960-1961 йилларда институтнинг марказий тажриба хўжалигида, 1961 йил Қамаши таянч пунктида ўтказилган тажрибалардан кузда экилган “Леукурум-837” нави, эрта баҳорда экиладиган “Менянопус-40100” навлари энг юқори ҳосилдорликка эга бўлган навлар эканлиги аниқланди. Бундан ташқари “Леукурум-2Ф”, “Гордиеформе-95”, “Провинциале-88Ф” навлари суғориладиган ва лалмикор майдонларга баҳорги муддатларда экиш учун яратилган ва республиканинг Ғаллаорол, Қамаши, Чироқчи, Нуробод туманларининг 20-30 минг га. лалмикор майдонларига экилди[8].

1974 йилга қадар лалмикор ерларда деҳқончилик борасида илмий ишлар олиб борилган. Шу кунга қадар лалмикор ерларда деҳқончилик юритишнинг илмий асосини ишлаб чиқиш, лалмикор ерларнинг турли минтақалари учун алмашлаб экиш схемаларини, тупроқ унумдорлигини оширишни агротехник усуллари, тупроқдаги намликни сақлаш ва ундан тежамли фойдаланишда тупроққа ишлов бериш ва уни сув эрозиясидан ҳимоя қилишнинг агротехник усуллари ишлаб чиқилди. Селекция натижасида 4 та нав яратилиб, унинг энг кўп тарқалган нави “Қизил Шарқ” нави бўлди.

Бирлашмада 1974 йилдан кейин лалми селекцияси давом эттирилди. Селекцияда илғор усулларни қўллаш натижасида қаттиқ буғдойдан 2 та нав, юмшоқ буғдойдан 5 та нав районлаштирилди, ишлаб чиқаришга жорий этилди. Шулардан муҳими кейинги йилларда районлаштирилган “Сангзар-6” ва “Оқ буғдой” навлари бўлди[9]. Шунингдек, 1976 йилгача селекционер олимлар Ф.А.Квятковский, И.М.Юданов, Н.В. Покровский, Р.О.Каткова ва бошқалар томонидан маҳаллий навлардан ва чатиштириш орқали гибрид навларни, жумладан, “Грекум-240”, “Грекум-128”, “Грекум-646”, “Грекум-2449”, “Эрнтроспермум-811”, “Эрнтроспермум-1910”, “Ватан” ва “Грекум-752” навлари яратилди[10].

1976 йилда Лалмикор деҳқончилик илмий текшириш институти Ўзбекистон ССР Ғаллачилик илмий текшириш институтига ва 1990 йилдан бошлаб “Ғалла” илмий ишлаб чиқариш бирлашмасига айлантирилди. 1971 йилда Селекция маркази ҳам ташкил этилди ва у Ўрта Осиё селекция маркази деб аталди. 1976 йилдан Ўзбекистон ССР Ғаллачилик илмий текшириш институти ғалла экинларининг лалмикорликка мослашган навларини, суғориладиган ерлар учун ҳам навлар яратиш борасида илмий ишлаб олиб борилди. Бироқ, илмий-тадқиқот ишлари, лалмикор ерлардаги хўжаликларда алмашлаб экишни жорий этиш ва ўзлаштириш масаласи хўжасизлик туфайли ҳал бўлмай қолаверди. Масалан, Ўзбекистон ССРда қаттиқ буғдойнинг “Леукурум-3” экилмай қолди[11]. 1980 йилларнинг охирига келганда жаҳон селецияси услубларидан, хориждан келтирилган буғдой ва арпа намуналарини ҳар томонлама ўрганиш ва улар асосида дурагайлаш, танлаш асосида суғориладиган ерлар учун буғдойнинг 1990 йилда “Санзар-4” нави яратилди ва бу нав кейинчалик Наманган, Самарқанд вилоятларида экилди. Ўзбекистон ССРнинг жанубий ҳудудларида бир йилда икки марта экиш мумкин бўлган буғдой нави ҳам яратилди[12].

ХУЛОСА

Совет даврида буғдой селекциясига катта эътибор берилиши давлат озиқ-овқат масаласини стратегик аҳамиятга эга деб ҳисоблаганини кўрсатади. Илмий институтлар иқтисодий сиёсатнинг муҳим қисми бўлган. Ўзбекистон ССР нинг қуруқ иқлими ва сув танқислиги олимларни махсус навлар яратишга мажбур қилган. Демак, илм кўп жиҳатдан маҳаллий экологик муаммоларга жавоб сифатида ривожланган. Янги буғдой навлари дон ҳосилини ошириб, ташқи ҳудудлардан озиқ-овқатга қарамликни камайтиришга ёрдам берган. Бу иқтисодий барқарорлик учун муҳим омил бўлган.

ФОЙДАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўсимликшунослик. Дарслик. – Тошкент. Тошкент Давлат аграр университети, 2004. - 3 бет.

2. Ўзбекистон деҳқончилик – саноат мажмуининг илмий таъминоти. Илмий сессия материллари. Тошкент, 1993 йил, 8-10 сентябрь. II жилд. – Тошкент. Фан, 1995. - 55 б.

3. Ўзбекистон деҳқончилик – саноат мажмуининг илмий таъминоти. Илмий сессия материллари. Тошкент, 1993 йил, 8-10 сентябрь. II жилд. – Тошкент. Фан, 1995. - 55 б.

4. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 76.

5. Ўзбекистон деҳқончилик – саноат мажмуининг илмий таъминоти. Илмий сессия материллари. Тошкент, 1993 йил, 8-10 сентябрь. II жилд. – Тошкент. Фан, 1995. - 56 б.

6. Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 312.

7. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.

8. Қаршибоев Ҳ., Ғайбуллаев С., Мавлонов Ж. Қаттиқ буғдой экини селекциясининг ривожланиш тарихи // O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi. - №12, 2020. - 25 б.

9. Ўзбекистон деҳқончилик – саноат мажмуининг илмий таъминоти. Илмий сессия материллари. Тошкент, 1993 йил, 8-10 сентябрь. II жилд. – Тошкент. Фан, 1995. - 18 б.

10. Ўзбекистон деҳқончилик – саноат мажмуининг илмий таъминоти. Илмий сессия материллари. Тошкент, 1993 йил, 8-10 сентябрь. II жилд. – Тошкент. Фан, 1995. - 55 б.

11. Аманов М., П.Олейник. Результаты исследований в НУУ Среднеазиатского селекцентра по зерновым, зернобобовым, кормовым и масличным культурам за десятую пятилетку // Итоги научных исследований за десятую пятилетку. Труды УзНИИ зерна. Вып 19. – Ташкент. Упр. Пропоганды и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1982. – с.17.

12. Итоги научных исследований за десятую пятилетку. Труды УзНИИ зерна. Вып 19. – Ташкент. Упр. Пропоганды и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1982. – с.14.

Бахранов Ш.Т.
PhD., преподаватель кафедры «Военно-патриотическое, духовно-просветительское воспитание и социальная работа с молодежью»
Университет Общественной безопасности Республики Узбекистан
Sherofkun82@mail.ru

ИЗУЧЕНИЕ СОРТОВ ПШЕНИЦЫ В УЗБЕКСКОЙ ССР И НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ РАБОТА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена политике Советской власти в рамках выполнения научно-исследовательских задач в сфере сельского хозяйства в Узбекской ССР. В работе проведен анализ деятельности государственной селекционной станции, в частности, координирование и направление научных исследований в области зерна и изучению предгорных районов. В исследовании обосновывается, что институт способствовал увеличению производства зерна, повышению его качества и внедрению новых технологий. В работе также анализируются проблемы, связанные с деятельностью данного научно-исследовательского института.

Ключевые слова: Советская власть, научно-исследовательский институт, сельское хозяйства, Узбекская ССР, зерно, местность, предгорный район, область, технология.

Bahranov Sh.T.
PhD., lecturer at the department of «Military-patriotic, spiritual and educational education and social work with youth
University of public safety of the Republic of Uzbekistan
Sherofкun82@mail.ru

STUDY OF WHEAT VARIETIES IN THE UZBEK SSR AND SCIENTIFIC RESEARCH WORK

ABSTRACT

This article is devoted to the policy of the Soviet government in the framework of scientific research tasks in the field of agriculture in the Uzbek SSR. The paper analyzes the activities of the state breeding station, in particular, the coordination and direction of scientific research in the field of grain and the study of foothill areas. The study proves that the institute has contributed to increasing grain production, improving its quality and introducing new technologies. The paper also analyzes the problems associated with the activities of this research institute.

Key words: Soviet government, scientific research institute, agriculture, Uzbek SSR, grain, terrain, foothill region, region, technology.

Габриэльян С.И.
DSc., доцент кафедры «Всемирная история»
Национальный университет Узбекистана
sofagabrielan4@gmail.com

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается история Ирана в период середины XX в., когда страну охватил глубокий экономический и политический кризис. На фоне спада производства и почти тотального иностранного проникновения в экономику страны начинались антизападные выступления иранского народа. Статья анализирует события, предшествующие кризису власти, когда меджлис, во главе с его лидером М. Моссадыком провозгласил начало либеральных реформ и национализации нефтяной отрасли.

Ключевые слова: Иран, «белая революция», правильство Моссадыка, преобразования, экономическое развитие, нефть, иностранное вмешательство, Англо-Иранская нефтяная компания

ВВЕДЕНИЕ

В начале 50-х годов XX в. в Иране происходили события, оказавшие значительное влияние на судьбы многих народов региона Среднего Востока. Долгое время в стране господствовал иностранный капитал, иранская экономика была под контролем США и Великобритании, которые безжалостно использовали ресурсы страны. На фоне широкомасштабного недовольства народных масс, направленного против политики иностранцев, в 1951 г. к власти пришло правительство Мохаммеда Моссадыка, который стал символом борьбы для молодой иранской интеллигенции благодаря своей решительной позиции против диктатуры Реза-шаха.

Основными исследованиями по истории Ирана XX века служат фундаментальный труд М.С. Иванова «Иран в 60-70-х годах XX века», в котором анализируются события середины XX столетия в Иране, внешнеполитический курс иранского руководства по национализации основных иностранных компаний. Большое внимание уделено правительству Моссадыка, его внутренней и внешней политике. Второй работой по истории Ирана XX в. является коллективное исследование «Иран. Очерки новейшей истории», в статьях которого изучаются различные стороны иранской истории XIX – XX в.

Новые подходы в изучении новейшей истории Ирана раскрываются в исследовании Кулагиной Л.М. и Ахмедова В.М. «Иран выходит из изоляции». Монография посвящена событиям периода правления Реза Пехлеви, иранской революции и прихода к власти исламской республиканской партии во главе с аятоллой Хомейни.

В процессе исследовательской работы использованы статистический, сравнительный и метод системного анализа. Научная статья написана исходя из цивилизационного подхода, опираясь на принципы исторической объективности, что позволило на основе информации полученной из исторических источников максимально раскрыть объективные и субъективные факторы в изучении основных вопросов исследования.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Продолжавшиеся в середине 50-х гг. забастовки иранских рабочих и отдельные выступления других слоев населения со всей очевидностью показали, что ни жесткая политика в отношении демократического и освободительного движения, ни укрепление связей с западными державами не погасили серьёзного недовольства в стране, не привели к укреплению внутреннего и международного положения Ирана. Основной источник негодования, наряду с тесной зависимостью Ирана от империалистических держав коренился в социально-экономической отсталости страны, которая базировалась на полуколониальной структуре хозяйства и преобладавших в нем докапиталистических формах производства[1, 290].

В этой связи во второй половине 50-х гг. XX в. перед иранским государством, испытывавшим серьезные экономические и политические затруднения, со всей остротой встала задача преодоления социально-экономической отсталости, основной путь ликвидации которой оно видело в реконструкции хозяйства и общественного строя по западному образцу. И хотя многие представители правящих кругов убедились в необходимости, и даже неизбежности социально-экономических, и, прежде всего аграрных преобразований, осуществление этой задачи встречало упорное противодействие в среде самих правящих кругов, и особенно в среде крупных полуфеодальных помещиков, ханов племен и высшего духовенства. Опираясь на свою экономическую мощь и политическое влияние, занимая сильные позиции в парламенте и административном аппарате, они имели реальные возможности поставить труднопреодолимые препятствия для любых мероприятий, противоречивших их интересам, и прежде всего для проведения преобразований, вносивших глубокие изменения в общественный строй страны.

Тем не менее, государство приступило к осуществлению серии мероприятий, призванных подготовить общественно-политическую почву и административный аппарат к проведению так необходимых стране преобразований.

Необходимо сказать, что государственные преобразования протекали в условиях постепенного усиления власти шаха, который все чаще брал на себя законодательную инициативу и все более активно вмешивался в функции исполнительной власти. Происходило фактическое ограничение законодательных прав парламента и его возможностей надзора над деятельностью правительства, которая во все возрастающей степени контролировалась самим шахом[2, 292]. Шаху фактически принадлежало

право и назначения министров, генерал-губернаторов, начальников воинских подразделений, послов и других представителей административного аппарата.

Расценивая власть шаха, как важный фактор политической стабилизации, правящие круги Ирана всемерно содействовали ее усилению, прикрываясь лозунгом «национального и государственного единства», олицетворявшего якобы в институте монархии.

Мероприятия по укреплению централизованного управления и повышению дееспособности административного аппарата создавали предпосылки для осуществления общественных преобразований и тем самым обеспечения внутриполитической стабилизации на базе роста экономического потенциала Ирана и улучшения положения широких слоев населения. Однако даже в конце 50-х гг. XX в. государственная власть, испытывая упорное сопротивление преобладавших в меджлисе и различных звеньях государственного аппарата крупных полуфеодальных помещиков, ханов племен и высшего духовенства, показала всю несостоятельность в решении вопроса об осуществлении уже давно назревших радикальных общественных преобразований.

Государственная власть в целом ограничивалась попытками повышения экономического потенциала страны на пути выполнения крупных экономических проектов с помощью западных монополий.

Период общественно-политического и экономического развития Ирана в 60-х - первой половине 70-х годов XX в. ознаменовался вступлением Ирана в новую фазу исторического развития. Это было связано с тем, что в стране происходил обширный комплекс общественных преобразований, призванных, с одной стороны, обеспечить предпосылки для значительного переустройства Ирана, а с другой, разрядить внутриполитическую обстановку и на пути облегчения положения широких слоев населения в ходе этих преобразований избежать обострения социальных противоречий и повторений событий прошедших лет. Выполнение этих взаимосвязанных задач предусматривало осуществление наряду с общественными преобразованиями тесно связанных с ними крупных экономических программ, социально-культурных проектов, внутри- и внешнеполитических мероприятий.

Начальным звеном развернувшихся политических событий были выборы в меджлис 20-го созыва, состоявшиеся в августе 1960 г. на партийной основе. Фальсификация результатов голосования, массовые протесты населения, сопровождавшиеся столкновениями с полицией, заставили шаха аннулировать результаты голосования и распустить меджлис. Проведенная в январе-феврале 1961 г. повторная избирательная компания протекала в условиях бойкота выборов значительной частью населения. В итоге большинство мест в меджлисе опять получили полуфеодальные помещики - противники реформ.

На этом фоне активизировались забастовочные движения рабочих, демонстрации студентов, выдвигавших наряду с экономическими

требованиями демократические свободы. Пресекая народные выступления, шахский двор распустил и вновь избранный меджлис, не объявив при этом дату созыва нового. Так, распустив вторично меджлис, шах объявил главной задачей внутренней политики проведение аграрных реформ и антикоррупционных мероприятий. Выполнение этой задачи было возложено на правительство Али Амини.

Первыми мероприятиями нового правительства стали аресты высокопоставленных военных и гражданских лиц, обвиненных в коррупции. В 1962 г. правительство Али Амини представило шаху новый аграрный закон, ограничивающий имение помещиков землями одной деревни.

Обещание реформ было обычным средством, к которому правящие круги Ирана прибегали и в прошлом, когда в стране создавалась для них опасная обстановка. Например, когда в 1921 г. в Иране развернулось национально-освободительное антианглийское движение, грозившее существованию монархического строя, в Тегеране был совершен государственный переворот, положивший начало событиям, которые впоследствии привели к воцарению династии Пехлеви. Преобразования, которые обещало новое правительство, остались лишь на бумаге[3, 144].

Представители западных государств, и в первую очередь руководящие круги США, с которыми иранский шах и его правительство были тесно связаны настаивали на проведении в Иране реформ. Во время своего пребывания в Тегеране летом 1962 г. в то время еще вице-президент, а в дальнейшем президент США Л.Джонсон разъяснил правящим кругам Ирана заинтересованность Вашингтона в проведении социальных, экономических и политических реформ[4, 150]. Это было связанно со стремлением к установлению большей стабильности этой страны, опасаясь краха существовавшего в Иране режима, а вместе с ним и потерей своих позиций.

Сформированное в июле 1962 г. после отставки А.Амини правительство А.Алама разработало по указанию шаха 6 законопроектов: о проведении земельной реформы на основе закона, принятого в январе 1962 г.; о национализации земель; о продаже государственных фабрик и заводов для финансирования земельной реформы; об изменении закона о выборах в меджлис и сенат; об участии рабочих в прибылях предприятий; о создании «корпуса просвещения» для борьбы с неграмотностью в деревне.

Для утверждения этих законопроектов было принято решение провести референдум. Как заявил на пресс-конференции 19 января 1963 г. премьер-министр А. Алам, что «народ надо убедить в том, что если эти реформы не будут проведены, то огромные беды обрушаться на головы иранцев»[5, 35].

На референдуме, проведенном 26 января 1963 г., законопроекты были утверждены. Выступая на открытии экономической конференции в Тегеране 27 февраля того же года, шах заявил, что одобренные законопроекты являются «бескровной белой революцией», и что феодальная система в Иране будет ликвидирована в течение 30 лет.

Затем к первым шести законопроектам о реформах были добавлены еще шесть. В которых оговаривалось создание «корпуса здравоохранения» для

оказания медицинской помощи сельскому населению, о создании «корпуса тарвидж» («корпуса внедрения» новых современных методов ведения сельского хозяйства), о создании «ханейе энсаф» (так называемых «домов справедливости»), то есть общественных судов для рассмотрения и решения мелких тяжб и споров. Также были законопроекты о национализации водных источников, о принятии программы реконструкции города и деревни с целью повышения уровня жизни населения.

Впоследствии к 12 упомянутым пунктам программы реформ до конца 1975 г. прибавили еще пять: «расширение собственности на промышленность», борьба со спекуляцией и коррупцией, бесплатное обучение в средних и высших школах, бесплатное питание детей до двухлетнего возраста, всеобщее социальное страхование, включая сельское население. Эту программу реформ в официальных кругах Ирана называют «белой революцией» или «революцией шаха и народа».

Наиболее важной в такой программе преобразований страны стала земельная реформа, которая была разделена на три этапа. В первый этап должны были войти мероприятия в отношении крупных земельных собственников, выкуп государством излишков земли сверх одной деревни и распродажа их крестьянам-арендаторам. А мероприятия по урегулированию отношений между мелкими и средними помещиками и крестьянами, арендовавшими и обрабатывающими их земли тремя способами, установленными дополнениями 1963 г. к закону о земельной реформе, называются вторым этапом земельной реформы. Программа третьего этапа предусматривала раздел и продажу земель помещиков и частных вакфов, которые обрабатывались крестьянами на базе аренды.

Стоит заметить, что осуществление программ первого и второго этапов аграрной реформы сопровождалось заметным повышением реальных доходов крестьян. Но и даже эти преобразования не приостановили процесс обнищания и разорения трудящихся деревни.

Все эти и аналогичные проекты отражают ярко проявившийся в конце 60-начале 70-х гг. XX в. в Иране все более укрепляющие свои позиции в аграрной политике правительственный курс, направленный на решение задач развития производства в деревне путем расширения деятельности крупных хозяйств.

Крупные полуфеодальные помещики и ханы племен, оказывали открытое сопротивление аграрной реформе. Они обвинили правительство в антиконституционных действиях, лишавших, по их словам, закон о реформе юридической силы. Религиозные лидеры заявили о несоответствии реформы предписаниям ислама. К числу недовольных реформой также присоединилось движение интеллигенции, студенчества, служащих, торговцев, ремесленников и рабочих, возглавляемых Национальным фронтом. Они выступали против осуществления преобразований в условиях беспарламентского режима.

Первоначально крупные помещики пытались саботировать выполнение закона и не допустить изъятия у них излишков земли путем оформления

документов на владение землей на своих родственников, а затем перешли к открытому сопротивлению. Так, например, в дни мусульманского траура 5-8 июня 1963 г. в Тегеране, Куме, Ширазе, Тебризе и других городах состоялись массовые антиправительственные демонстрации, вызванные проповедями духовенства, использовавшее недовольство находящегося в тяжелом положении населения. Эти выступления были подавлены войсками и танками, открывшими стрельбу по демонстрантам, что привело к многочисленным жертвам[6, 46].

Правительство встречало и другие трудности при проведении земельной реформы. Возникли серьезные затруднения с ее финансированием. Земельная реформа проводилась медленно, объявленные первоначально сроки ее не выполнялись. Она не внесла коренных изменений в положение подавляющего большинства крестьян, прежние полуфеодальные отношения в основном продолжали существовать. В то же время реформа была ударом по крупному феодально-помещичьему землевладению и феодальным отношениям в деревне.

Так экономическое влияние крупных феодалов в деревне и стране было подорвано. Однако положение основной массы крестьян мало улучшилось. Купив в рассрочку небольшие участки земли, они должны были выплачивать в течение 12-15 лет крупные платежи в размере примерно равные стоимости арендной платы, которую до реформы они должны были выплачивать помещику.

Аграрные преобразования, однако, не привели к установлению в деревне «социальной справедливости», под флагом которой они проводились[7, 125]. В условиях ускорения развития капитализма крестьянские хозяйства оказались обреченными на разорение, тем более что в период значительного роста доходов от нефти государство взяло курс на поощрение крупных частных капиталовложений в сельскохозяйственное производство, отказываясь от помощи мелким крестьянским хозяйствам. Была предпринята также попытка создания крупных агропромышленных комплексов с участием иностранных фирм. Однако результаты подобной политики, оказались плачевными как в экономическом, так и в социальном отношении[8, 47].

Таким образом, земельная реформа была не в силах решить задачу обеспечения населения Ирана продовольствием. Она не смогла также существенно улучшить положение подавляющего большинства крестьян.

Что же касается развития промышленности, то она в конце 60-70-х гг. XX в. сделала значительный шаг вперед. Появились новые, современные отрасли промышленности, в том числе в тяжелой индустрии - металлургическая, машиностроительная, нефтехимическая, газовая и др. Иран начал движение от аграрной страны к индустриально-аграрной[9, 96].

Особый упор шах делал на развитие промышленности, желая превратить страну к концу века в «пятую индустриальную державу мира». Этой цели в огромной мере способствовал постоянный спрос на нефть, многократно возросший в 70-е гг. вследствие энергетического кризиса.

Важной чертой иранской экономики в этот период было то, что в промышленности и в сельском хозяйстве, значительно укреплялись позиции иностранного капитала. Характерно было и то, что процесс преобразования торгового капитала в промышленный капитал почти совсем не затронул его низшие слои.

Великодержавная политика в сочетании с тесной привязкой иранской экономики к мировому хозяйству и нереальными планами шаха обусловила беспорядочность и хаотичность хозяйственного развития Иран, отчетливо проявившиеся в середине 70-х гг. и сказавшиеся в первую очередь на материальном положении широких народных масс. Относительная социальная и политическая стабильность в течение всего пореформенного периода поддерживалась с помощью мер, проводившихся государством в жизнь за счет доходов от нефти[10, 172].

Однако уже в скором времени обнаружились резкий рост дефицита платежного баланса и беспрецедентная инфляция, достигшая 20-30% и сильно отразившаяся на доходах значительной части населения страны, всегда остававшихся ниже прожиточного минимума. Тяжкое похмелье после радужного опьянения правительство почувствовало уже в конце 1975 - начале 1976 г., когда страна, ставшая ранее международным кредитором, оказалась вынужденной прибегнуть к внешним займам.

Изолированность от общества, противопоставленная ему монархическая власть в Иране одинаково возбудила против себя все общественные слои, и в борьбе против нее создалась общая платформа для большинства социальных и политических сил. Бывшие полуфеодальные помещики, крестьяне, рабочие, интеллигенция, средние городские слои, и представители духовенства влились в антимонархический блок.

Свои господствующие позиции в течение 60 - 70-х гг. правящий режим поддерживал с помощью приемов, испытанных на протяжении многих веков иранской истории. Организуя различные силовые центры, опирающиеся на групповые личные связи, и ставя их в отношения взаимной зависимости и контроля, соперничества и конкуренции, монархия путем «стабилизирующего конфликта» уравновешивало влияние всех этих центров. Но за внешним благополучием скрывались подспудные взрывоопасные процессы[11, 28].

В своем конкретном проявлении основное противоречие иранского общества выступало как несоответствие политического режима, его внутренней и внешней политики потребностям его дальнейшего национального развития. Особенности внутреннего развития, международного положения Ирана в своем взаимном сочетании обусловили особую остроту, глубину и размах последующих политических событий, ставших в своем непосредственном проявлении отражением кризиса «белой революции» и осуществляющего ее режима.

Безусловно, реформы помогли стране преодолеть ее социально-экономическую отсталость. Но они имели целый ряд негативных черт. Хотя Иран по темпам экономического роста занимал второе место в Азии после

Японии, а порой даже обгонял ее, его развитие не было органичным и равномерным. Одни отрасли развивались ускоренно, в других наблюдался застой.

В политической жизни страны появлялась дальнейшая тенденция усиления личной власти шаха. Все производимое в промышленности сырье уходила на экспорт, в страну шел огромный поток импортных товаров. И уже в 70-х гг. XX в. обнаружился резкий рост дефицита платежного баланса и высокая инфляции.

Резко возросший с начала 70-х годов финансовый потенциал иранского государства был широко использован для форсированного роста крупного частного капитала. В результате быстро рос удельный вес современных промышленных и торговых предприятий, а также заведений в сфере обслуживания, принадлежащих представителям крупной промышленно-финансовой буржуазии. Столь же быстрыми темпами увеличился объем и расширились функции частного банковского капитала. Это серьезно ударило по интересам ремесленников, мелких торговцев, хозяев мелких мастерских и других учредителей в сфере обслуживания. Многие из них разорились.

Ухудшение социального и материального положения малоимущих слоев населения привело к появлению симптомов социального и политического брожения[12, 48]. Шахский режим ответил на это усилением авторитарных методов управления и ужесточения репрессий против недовольных слоев населения. В начале марта 1975 г. по указанию шаха деятельность всех, даже лояльных режиму партий была приостановлена. Таким образом, в стране была создана однопартийная система в лице Партии возрождения иранского народа.

Резко отрицательную роль на многие отрасли экономики Ирана сыграло многократное увеличение военных расходов, которые стали поглощать 26-28 % государственного бюджета. Шах придавал армии первостепенное значение, рассматривая её как важнейший инструмент своей внутренней и внешней политики.

В Иране происходил невиданный в истории страны разгул казнокрадства, коррупции и незаконных финансовых операций. Расточительство и чрезвычайная роскошь были отличительными чертами жизни иранской правящей элиты.

И к 1977 г. обнаружились серьезные трудности в экономике страны. Так, в марте 1977 г. инфляция превышала уровень предшествующего года на 30 %, а цены возросли на 40%[13, 54-55]. Материальное положение трудящихся ухудшалось, что вызывало нарастания недовольства широкой общественности политикой правительства, становился явным провал многих социальных и политических реформ. В стране появились симптомы революционной ситуации.

Оказавшись не в состоянии справиться с экономическими и социальными проблемами, шахский режим усилил репрессии в отношении недовольных жителей страны. Однако репрессии не смогли остановить выступлений против властей. Усиление авторитарных методов правления вызвало

открытое недовольство демократических кругов. Студенческие волнения, январские массовые выступления в г. Куме, тебризское восстание ознаменовали начало социально-политического кризиса в Иране.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, так называемая «белая революция» не в силах была решить многие проблемы иранского общества. Не улучшилось положение крестьян, феодальная эксплуатация которых заменяется капиталистической, также не решена проблема обеспечения населения продовольствием. Ход и итоги развития сельского хозяйства и промышленности еще раз подтвердили невозможность добиться эффективного роста производства и более или менее нормального функционирования всего экономического организма страны в условиях социальной отсталости и при односторонней ориентации Ирана на западные державы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Иран. Очерки новейшей истории. Москва: Наука, 1976. - 470 с.

2. Иран. Очерки новейшей истории. Москва: Наука, 1976. - 470 с.

3.Иванов М.С. Иран в 60-70-х годах XX века. Москва: Наука, 1977. - 270 с.

4. Иванов М.С. Иран в 60-70-х годах XX века. Москва: Наука, 1977. - 270 с.

5. Иванов М.С. Очерк истории Ирана. Москва: Госполитиздат, 1952. – 467 с.

6. Алиев С.М. Антимонархическая и антиимпериалистическая революция в Иране. // Народы Азии и Африки. № 3, 1979.

7.Иран: экономика, история, историография, литература. Москва: Наука. 1976. – 264 с.

8.Алиев С.М. Антимонархическая и антиимпериалистическая революция в Иране. // Народы Азии и Африки. № 3, 1979.

9.Иванов М.С. Иран в 60-70-х годах XX века. Москва: Наука, 1977. - 270 с.

10. Агаев С.Л. Иран в прошлом и настоящем. Пути и формы революционного процесса. Москва: Наука, 1981. - 274 с.

11. Федченко А.Ф. Иран в борьбе за независимость (1917-1969 гг.). Москва: Наука, 1970. – 232 с.

12. Алиев С.М. Антимонархическая и антиимпериалистическая революция в Иране. // Народы Азии и Африки. № 3, 1979.

13. Мачокки М. Иран в борьбе. Москва: Изд-во иностр. лит-ры, 1953. - 236 с.

Gabrielyan S.I.
«Jahon tarixi» kafedrasi dotsenti, DSc
O‘zbekiston Milliy universiteti
sofagabrielan4@gmail.com

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA ERONNING IJTIMOIY-SIYOSIY RIVOJLANISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada Eronning iqtisodiy va siyosiy inqirozga yuz tutgan XX asr o‘rtalari davri tarixi, ishlab chiqarishning pasayib ketishi va mamlakat iqtisodiyotiga chet el sarmoyasining kirib kelishi jarayonida Eron xalqining G‘arbga qarshi norozilik namoyishlari boshlanishi bilan bog‘liq masalalar ochib beriladi. Maqolada shuningdek, M. Mosaddiq boshchiligidagi Majlis tomonidan liberal islohotlarning boshlanishi hamda neft sanoatini davlat mulkiga aylantirilishni e’lon qilinishi bilan bog‘liq voqealar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Eron, “Oq inqilob”, Mosaddiq hukumati, islohotlar, iqtisodiy rivojlanish, neft, xorijiy aralashuv, Angliya-Eron neft kompaniyasi.

Gabrielyan S.I.
DSc., associate professor at the department of «World history»
National University of Uzbekistan
sofagabrielan4@gmail.com

SOCIO-POLITICAL DEVELOPMENT OF IRAN IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

ABSTRACT

The article reveals the history of Iran in the mid-twentieth century, when the country was gripped by a deep economic and political crisis. Against the backdrop of a decline in production and almost total foreign penetration into the country's economy, anti-Western protests by the Iranian people began. The article analyzes the events preceding the crisis of power, when the Majlis, led by its leader Mohammad Mossadegh, proclaimed the beginning of liberal reforms and the nationalization of the oil industry.

Key words: Iran, “White Revolution”, Mossadegh's government, reforms, economic development, oil, foreign interference, Anglo-Iranian Oil Company.

Дорошенко Т.И.
к.и.н., доцент кафедры «Новейшей истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
doctata@mail.ru

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

АННОТАЦИЯ

В статье будет освещена помощь благотворительных организаций военнопленным первой мировой войны, находящихся в лагерях Туркестана. В основном будет проанализирована деятельность польских организаций по оказанию материальной и гуманитарной помощи польским военнопленным и беженцам. Также будет показана работа различных международных миссий по содействию помощи славянским военнопленным, так как они были на особом положении в Российской империи.

Ключевые слова: военнопленные, Туркестан, лагерь, благотворительность, помощь, первая мировая война.

ВВЕДЕНИЕ

Военнопленных австро-венгерской и германской армий начали привозить в Туркестан с сентября 1914 г. Первая партия пленных составила 10 тыс. человек. Они спешно расквартировывались в казармах войск Туркестанского военного округа, в 37 специально построенных лагерях и других помещениях, приспосабливаемых под проживание людей.

Большое количество военнопленных австро-венгерской армии составляли славяне: чехи, словаки, сербы, хорваты, поляки.Вопросы содержания и обращения с военнопленными регулировались Гаагской конвенцией «Об открытии военных действий», подписанной в 1907 г.

Чехи, словаки и другие славяне всеми способами старались избежать мобилизации в австро-венгерскую армию, во многих сформированных из них воинских частях, отправляемых на Восточный фронт, вспыхивали волнения. Это сильно снижало боеспособность австро-венгерской армии. В ее рядах числились17,5% одних только чехов и словаков, а в целом доля славян составляла 45,2% (10,2% поляков, 7,5% сербов и хорватов, 7,4% русинов, 2,6% словенцев) [1].

14 октября 1914 года в места дислокации военнопленных была направлена телеграмма о применении льготных мер в отношении всех дружественно настроенных пленных (славян, русинов, словаков, галичан, чехов, поляков, сербов и эльзас-лотарингцев). В частности, в вопросе расквартирования предлагалось размещать их отдельно и подальше от пунктов проживания германцев, австро-немцев, венгров и других военнопленных, враждебно относящихся к Российской империи. При выборе

помещений, говорилось в телеграмме, учитывать наличие удобного расположения, тепла, уюта. Даже в вопросах снабжения предлагалось учитывать интересы военнопленных, выделять им хорошее питание и лучшую одежду [2].

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Туркестан в годы Первой мировой войны превратился в один из крупнейших тыловых регионов Российской империи по размещению военнопленных и беженцев.

Несмотря на удалённость от фронта, край оказался глубоко вовлечён в общеимперские военно-политические процессы. Через систему лагерей, казарм и переселенческих пунктов Туркестан стал важным центром концентрации интернированных лиц.

Забота о военнопленных стала одним из приоритетных направлений польских организаций поддержки и помощи, создаваемых в годы первой мировой войны. Польский комитет содействия славянским военнопленным, основанный 2 декабря 1914 года, был одной из первых организаций, которые начали оказывать помощь. Комитет был автономным отделением Всероссийского попечительства о пленных-славянах, а его деятельность финансировалась государством. Организация не скрывала своей приверженности панславянской идеологии, сосредоточиваясь на поддержке славян и служащих в германской армии французов из Эльзас и Лотарингии. Варшавский комитет ставил своей целью помощь пленным, как военным, так и гражданским, а также семьям вынужденных переселенцев. Организация имела сильные связи с аристократическими кругами; председателем стала княгиня Софья Свёнтопелк-Четвертыньская, а членами правления стали Казимеж Ольшевский (вице-председатель) Мария Собанская, Элиза Велькопольская и ксёндз Северин Свёнтопелк-Чарторыский. Организация действовала на территории Королевства Польского, в частности в самой Варшаве, а также помощь оказывалась в Вильнюсе, Пултуске и Козенице.[3]

Добраться до лагерей было заданием не из лёгких – пленные были разбросаны по всей России, от полярного круга до Центральной Азии. Организация экспедиций требовала сбора средств на длящееся много недель путешествие и помощь нуждающимся. Наконец, огромным препятствием являлась необходимось получения соответствующих разрешений от властей (так называемых «охранных грамот») – организации жаловались, что власти препятствуют доступу в лагеря, ограничивая число, выдаваемых пропусков до одного на губернию.

Первые поездки в лагеря пленных в Туркестан имели место в первой половине 1915 г. Так, 13 февраля 1915 г. в длящееся месяц путешествие отправились делегаты Комитета опеки над пленными-славянами – граф Эдвард Мычельский и Стефан Либишевский, в чьём распоряжении имелось 5000 рублей, предназначенных на помощь, как гражданским, так и военным пленным. Благодаря ходатайству у местных властей, на свободу вышло

несколько десятков поляков – гражданских пленных, содержащихся в лагере в Ташкенте, в их числе известный писатель, Фердинанд Гётель[3].

Посещение лагерей давало возможность непосредственно поставлять нуждающимся необходимые вещи и денежные средства. Это было очень важно, особенно в связи с частыми случаями пропажи вещей во время транспортировки, невыдачи пленным посылок, отправляемых им с родины, а также невыплаты пособий. К сожалению, размер потенциальной помощи обычно был неадекватен потребностям, в результате чего часто приходилось решать драматическую дилемму – кому помогать? В таких ситуациях чаще всего решающим фактором становились национальные связи – т.е. принцип «поддерживай своих». Это приводило к острым конфликтам среди пленных и создавало ощущение дискриминации собственной группы. Немцы жаловались, что не получают помощи, от славянских организаций, которые отдавали предпочтение своим соотечественникам. Славяне, в свою очередь, обвиняли немцев, в том, что при принятии решений по распределению помощи, они пользуются привилегиями у датских и шведских сотрудников Красного Креста, а также, в том, что они завладели отделами американских консульств, занимающихся решением вопросов о выплате пособий гражданским пленным.

Посещение лагерей стало сферой деятельности многих женщин. Начиная с конца 1915 г. пленных стали посещать представительницы германского, австрийского и венгерского Красного Креста. Наибольшей славой и уважением среди пленных пользовалась шведка Эльза Брандстрем, называемая также «Ангелом Сибири». Среди полек наиболее активными были Ядвига Дзюбиньская, Эльжбета Хуляницкая и Казимира Малаховская. Первая из них станет в последствии ключевой личностью всей деятельности по оказанию помощи пленным[4].

Дзюбиньская наладила связи с организациями по оказанию помощи из Швеции и Дании, в американских представительствах ходатайствовала об учитывании поляков при разделе пособий для пленных. Многократно повторяла, что несмотря на наличие официальной программы предоставления льгот славянам, их положение зачастую является наихудшим. Неоднократно оспаривала стереотипные суждения, согласно которым условия пребывания пленных в европейской части России (главным образом, это касалось именно славян) лучше, чем условия пленных, пребывающих в Сибири или Туркестане. Будучи многие годы активисткой, пропагандирующей идею народного просвещения, призывала также пленных к самоорганизации и самопомощи. Считала, что это самый эффективный способ преодолеть опасности и тяготы плена. В правильности этого мнения дополнительно убедилась в результате наблюдения за функционированием крупных лагерей в восточной Сибири, где пребывали преимущественно немцы. Отмечала, что за полтора года при содействии американской организации YMCA немцы сумели превратить «дикие условия в лагерях для пленных в жизнь на культурном уровне»[4].

В декабре 1915 г. Австро-венгерским и германским сестрам милосердия отправившимся в сопровождении делегатов Датского Красного Креста разрешили осмотреть места расселения военнообязанных неприятельских подданных и посетить также и всех остальных неприятельских подданных в городах Туркестана, не принадлежащих к категории военнообязанных с соблюдением однако ограничительных условий установленным при посещении ими военнообязанных[5].

Разрешение на посещение того или иного лагеря для военнопленных было получить не просто.

В феврале 1915 года- уездным начальникам и полицмейстерам области был разослан следующий циркуляр Департамента полиции от 24 февраля 1915г.: «Некая гражданка Елизавета Густавовна Ханнекен из Тянь-Цзиня рассылает местным полицейским и жандармским властям отпечатанные на гектографе воззвания с просьбою сообщить ей сведения об австрийских и германских военнопленных, коим по ее заявлению может быть оказано пособие, в случае их нужды одним благотворительным обществом.

Принимая во внимание, что порядок выдачи вспомоществований нуждающимся подданным воюющих с нами держав Правительством установлен через посредство пребывающего в Петрограде Американского Посольства, департамент Полиции просит Ваше Превосходительство сделать распоряжение подведомственным Вам чинам, чтобы все подобные воззвания были оставляемы без ответа»[5].

Идея отказа от прямой выдачи денежных пособий с предпочтением системной деятельности – поддержки активности и самоорганизации пленных, информирования их о их правах - получила широкое распространение. Конечно, вероятно эта мера была в некоторой степени вынужденной в связи с нехваткой средств в организации, её положения не могли также реализоваться без облегчения доступа к пленным - что стало возможным после февральской революции 1917 года. Пленные стали сами входить в структуры польских организаций или основывать собственные. Большое значение имел факт отправки книг на польском языке – не только художественной или популярной литературы, но и различных пособий, профессионально-ориентированной и научной литературы.

Гуманитарные миссии чаще стали посещать лагеря пленных в Туркестане с 1916 года. Например, в марте 1916 г. в Ташкент прибыла делегация шведского Красного Креста во главе с Хокен фон Шульманом, а в декабре-секретарь-делегата Датского посольства в Петрограде капитана А. Бруна.

Делегат немецкого Красного Креста Матильда фон Хорн в 1916 году посетила лагерь «Золотая Орда», который как она отметила находился в знойной среде туркестанской степи, и заключенные там ежедневно подвергались палящему жару пустынного солнца. Аналогичным образом, делегаты МККК Фердинанд Тормейер и Фредерик Ферьер отметили свое посещение лагеря годом ранее: «полное отсутствие растительности, нехватка воды и сухой воздух» сделало условия пребывания невыносимые летом, когда экстремальные температуры и комары преследовали пленных[4].

В октябре 1916 года Матильда фон Хорн, посетила также лагерь для военнопленных «Троицкий» в Туркестане, и отметила, что из 30 000 человек, прошедших через лагерь, к моменту отправки делегации умерло 6750 человек (или 22,5%). Большинство из них стали жертвами эпидемии тифа. Медсестра Шведского Красного Креста Эльза Брандстрем рисует еще более мрачную картину, предполагая, что почти половина заключенных Троицкого лагеря погибли из-за эпидемии[6].

В отчетах и мемуарах делегатов подчеркивается роль персонала и администрации лагеря. Примечательно, что во всех лагерях, где медицинские условия были признаны неудовлетворительными, делегаты критикуют лагерь и сотрудников за некомпетентность или злонамеренность. С другой стороны, они часто приписывали хорошие условия работе хороших командиров и врачей. Матильда фон Хорн, посетившая Золотую Орду в октябре 1916 г., сообщила, что состояние лагеря значительно улучшилось после весенней эпидемии тифа. Причина, заключается в том, что предыдущий главный врач был уволен после того, как делегация Российского Красного Креста осмотрела лагерь в начале того же года, и его заменил «способный» доктор Осберчевский[4].

Все лагеря военнопленных в Российской империи подчинялись Военному министерству в лице Главного управления Генерального штаба

(ГУГШ), в котором делами военнопленных первоначально занималось 7-е отделение отдела по устройству и службе войск Эвакуационного управления ГУГШ. Осенью 1916 г. в ГУГШ был учрежден эвакуационный отдел и по заведыванию военнопленными. Во всех военных округах создавались управления по делам военнопленных, подотчетные ГУГШ.

В июле 1916 года с разрешения Военного министерства для осмотра лагерей военнопленных выехала делегация в составе уполномоченных Шведского Красного Креста Вульфа Фога, Галина Чернея, Мейера Петерсона, Фенгера Рампа, Сельдинга Арендрупа в сопровождении шести германских, пяти австрийских сестер милосердия.

Губернатору Ферганской области был дано распоряжение установить за членами названной делегации в случае прибытия неослабное негласное наблюдение, сообщив о результатах Министру внутренних дел. Члены делегации не подлежат допуску в места расселения военнообязанных, так как Министерством на это разрешения не давалось[5].

Февральская революция внесла большие перемены в положение пленных и функционирование спасательных организаций. Она была встречена с огромными надеждами. Отмена цензуры обозначала возможность публикаций в прессе – главным образом в выходящих в Москве «Echo Polskie» и «Dziennik Petrogradzki» – многочисленных воззваний и мемориалов по делам пленных, а также донесений из лагерей и писем от пленных. Это давало возможность больше узнать о находящихся в плену, сообщать польской диаспоре о трагической судьбе соотечественников из Галиции и части Польши аннексированной Пруссией, а также обращаться к ней за пожертвованиями.

Улучшение положения поляков, находящихся в плену, стало также одним из важнейших задач созданной в марте 1917 г. Ликвидационной комиссии по делам Польского королевства. На страницах «Echa Polskiego» был опубликован проект льгот, представленный российским властям, а в роли посредника выступил Александр Ледницкий, как председатель комиссии. Проект содержал следующие постулаты:

- право пленных выбирать собственных представителей в лагерях и местах трудовой деятельности с целью контактов с российскими властями.

- право присутствия представителя пленных во время выдачи и отправки писем и посылок.

- право иметь в местах трудовой деятельности собственных поваров, выбираемых из пленных.

- улучшение условий врачебно-санитарного контроля при участии пленных-врачей.

- соблюдение русскими принятых постановлений, регулирующих трудовую деятельность пленных.

- напоминание курирующим органам о необходимости гуманитарного обращения с пленными, «не позволительными считать оскорбления, нанесение ударов и другие подобные виды физического насилия»[5].

30 июня Временное правительство наконец объявило о льготах, которых ждали очень долго. Основой для новых правовых норм стало представленное выше предложение, четыре первых постулата которого открывали список новых прав. Пункты касались:

- права совершать покупки и прогулки вне лагерей под соответствующим надзором.

- разрешение на получение пленными разрешённых в России книг и прессы на польском языке, а также организацию библиотек.

- права вести переписку на польском языке как с общественными организациями, так и частными лицами, в том числе с другими пленными, пребывающими на территории России.

- права участия в богослужениях и посещения лагерей духовенством.

- права пленных объединяться в организации самопомощи.

- разрешение на проживание вне лагеря при условии поручительства со стороны общественных организаций. Это право касалось только инвалидов и больных работающих интеллигентов, а также других категорий, с учетом чрезвычайной мотивации.

- представители вышеназванных категорий имеют право работать согласно своим квалификациям, а в частности трудиться в польских организациях по оказанию помощи.

- разрешение смены места пребывания пленных по заявлению польских организаций. Этот пункт должен был дать возможность совместного проживания братьям или близким родственникам.

- подтверждения выдачи именных разрешений (*охранных грамот*) для членов польских организаций, планирующих посетить пленных.

- право на вступление в брак.

Октябрьский переворот принес новую надежду. Уже в начале декабря 1917 г. декретом Совета народных комиссаров все пленные были объявлены свободными гражданами. В то же время, большевистская пресса призывала их поддержать и вступать в ряды Красной армии.

В такой сомнительной ситуации, польские организации требовали сохранять нейтралитет по отношению к воюющим фракциям «neutralność» и терпеливо готовиться к возвращению на родину. «Echo Polskie» напоминало, что согласно международному праву пленным запрещено принимать участие «в каких бы то ни было политических или партийных акциях на чужбине, а будучи поляками и руководствуясь принципом защиты в первую очередь польских интересов, тем более должны оставаться нейтральными и глухими к любым агитациям, несмотря на их направленность и лозунги, даже при всей их кажущейся правоте.» Этого было достаточно, чтобы остриё революционной пропаганды обратилось против польских организаций поддержки. Польское общество содействия жертвам войны оказалось лишённым финансовых дотаций, а затем большевики перешли к захвату имущества местных филиалов, зачастую с применением оружия. В июне 1918г Народный комиссариат по делам национальностей объявил о прекращении деятельности комитета польского общества содействия жертвам войны.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

По данным Генштаба русской армии на 1 сентября 1917 года, на территории России находилось 1,8 млн военнопленных.[8] Несмотря на удаленность от поля фронта, значительная их часть располагалась в концентрационных лагерях Западной Сибири и Средней Азии (Туркестан). Ряд военных успехов русской армии на Австро-венгерском направлении в 1915 году привел к пленению нескольких сотен тысяч военнопленных[9].

Февральская революция 1917 г. стала переломным этапом в трансформации правового и социального положения военнопленных в Туркестане. Временное правительство отказалось от части наиболее жестких ограничений царского периода и перешло к политике частичной либерализации лагерного режима. Ослабление государственного контроля после Февральской революции способствовало росту социальной мобильности и политической активности военнопленных.

Разрушение прежней лагерной дисциплины, нехватка охраны и революционные настроения среди российских солдат создали условия для более свободного передвижения пленных, их контактов с местным населением и вовлечения в общественно-политическую жизнь Туркестана. Военнопленные начали участвовать в митингах, забастовках и революционной агитации, что свидетельствует о превращении лагерной среды в элемент общего революционного процесса.

Октябрьская революция радикально изменила положение военнопленных и беженцев, усилив политическую поляризацию внутри польской общины. После прихода большевиков часть военнопленных и польских солдат

поддержала советскую власть и участвовала в вооруженной борьбе на стороне Красной армии. Другая часть, прежде всего офицерство, ориентировалась на антибольшевистские силы или придерживалась нейтралитета. Таким образом, польская община Туркестана оказалась расколота в соответствии с общими линиями Гражданской войны.

Взаимоотношения местного населения с военнопленными и беженцами в целом носили сравнительно мирный и гуманитарный характер.

Население Туркестана, включая представителей местных мусульманских общин, нередко оказывало помощь беженцам и пленным продовольствием, одеждой и работой. Вместе с тем присутствие большого количества интернированных усиливало социально-экономическую нагрузку на регион и вызывало обеспокоенность администрации.

Международные благотворительные организации внесли существенный вклад в облегчение положения военнопленных в Туркестане.

Деятельность Красного Креста, шведских, датских, польских и американских благотворительных миссий позволяла частично компенсировать недостатки государственной системы снабжения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1.Базанов С.Н. Военнопленные-славяне в России в годы первой мировой войны. https://studylib.ru/doc/6331835/bazanov--s.-n.-voennoplennye-slavyane-v-rossii-v-gody-perv. (дата обращения: 12 мая 2026г.)

2. Никольская Г.Б., Матвеев А.М. Из истории азиатских и европейских выходцев в Средней Азии в начале XX века. Материалы по истории и археологии Средней Азии. Научные труды ТашГУ. Вып.423, Ташкент, 1972. - 103 с.

3. Яник Михал. Поляки – полякам – неизвестные эпизоды помощи военнопленным в России в 1914-1918 гг. https://nkvd.tomsk.ru/content/editor/DOCUMENTS/PolskoSibirijskij%20Arhiwum/Janik-M-Polacy-Polakom-t__umaczenie-ros.pdf (дата обращения: 12 мая 2026г.)

4. Хана Маат. Глобальный феномен военного плена в период первой мировой войны: опыт Туркестана (1914-1916). Электрондык Гылыми журналы. № 3(31)

5. Национальный архив Узбекистана. (НАУз). Ф.-И-23.оп.2. д.1069. л.8.

6. Корнеев В.В. Концентрационные лагеря в России в годы Первой мировой войны //Военно-исторический журнал. № 9. 2015. с. 41.

7. Матвеев А.М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому Октябрю. Ташкент: Фан;1977.- 78 с.

8. Еремин И.А. Военнопленные первой мировой войны в Западной Сибири // Известия Томского политехнического университета. 2007. № 1 (310).- 259 с.

9. Котюкова Т.В. Туркестанский плен: немецкие и австро-венгерские военнопленные в русском Туркестане в годы первой мировой войны // Россия и современный мир. 2017. № 2. с. 47-64.

Дорошенко Т.И.
«Ўзбекистоннинг энг янги тарихи» кафедраси доценти, т.ф.н.
Ўзбекистон Миллий университети
doctata@mail.ru

БИРИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ТУРКИСТОНДА ХАЛҚАРО ХАЙРИЯ ТАШКИЛОТЛАРИ ФАОЛИЯТИ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Туркистон ҳудудидаги Биринчи жаҳон уруши даврида ҳарбий асирлар лагерларида сақланган асирларга хайрия ташкилотлари томонидан кўрсатилган ёрдам масалалари ёритилади. Асосан, польша ташкилотларининг польшалик ҳарбий асирлар ва қочқинларга моддий ҳамда гуманитар ёрдам кўрсатиш борасидаги фаолиятига эътибор қаратилади. Шунингдек, Россия империяси таркибида алоҳида мавқега эга бўлган славян ҳарбий асирларини қўллаб-қувватлашга қаратилган турли халқаро миссияларнинг саъй-ҳаракатлари ҳам таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: harbiy asirlar, Turkiston, lager, xayriya, yordam, Birinchi jahon urushi.

Doroshenko T.I.
PhD., associate professor at the department of «Modern history of Uzbekistan»
National university of Uzbekistan
doctata@mail.ru

ACTIVITIES OF INTERNATIONAL CHARITABLE ORGANIZATIONS IN TURKESTAN DURING THE YEARS OF THE FIRST WORLD WAR

ABSTRACT

This article will cover the assistance provided by charitable organizations to World War I prisoners of war in the Turkestan camps. It will primarily focus on the activities of Polish organizations in providing material and humanitarian aid to Polish prisoners of war and refugees. Additionally, it will explore the efforts of various international missions to support Slavic prisoners of war, as they were in a special position within the Russian Empire.

Key words: prisoners of war, Turkestan, camp, charity, assistance, World War I.

Ishanxodjaeva Z.R.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi professori, t.f.d
O‘zbekiston Milliy universiteti
zamira.i@rambler.ru

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O’ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, ularning sanoat va qishloq xo‘jaligidagi mehnat faolligi hamda ishlab chiqarish jarayonlaridagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda urush sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zgarishlar, ayollarning mehnat resursi sifatidagi ahamiyati hamda ishlab chiqarish jarayonlariga keng jalb etilishi yoritilgan. Shuningdek, sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligidagi ayollar mehnatining samaradorligi tarixiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, xotin-qizlar, iqtisodiy hayot, sanoat, qishloq xo‘jaligi, mehnat faolligi, front orti, evakuatsiya, to‘qimachilik sanoati.

KIRISH

XX asrning eng yirik va talofatli voqealaridan biri bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) jahon siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Urush oqibatida millionlab insonlar halok bo‘ldi, ko‘plab davlatlarning iqtisodiy tizimi izdan chiqdi hamda mavjud ishlab chiqarish tizimlari harbiy ehtiyojlarga moslashtirildi. O‘zbekiston ham sobiq SSSR tarkibida urush jarayonlariga bevosita jalb qilinib, mamlakat iqtisodiyoti qisqa muddat ichida harbiy izga o‘tkazildi.

1941-yilda Germaniya qo‘shinlarining SSSR hududiga bostirib kirishi natijasida mamlakatda keng ko‘lamli safarbarlik boshlandi. Erkaklarning katta qismi frontga safarbar etilishi xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida, ayniqsa sanoat va qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari tanqisligini yuzaga keltirdi. Mazkur vaziyatda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rni keskin ortib, ular ilgari asosan erkaklar faoliyat yuritgan ishlab chiqarish sohalariga keng jalb etildi. Jumladan, xotin-qizlar sanoat korxonalarida, qishloq xo‘jaligida, transport tizimida hamda evakuatsiya qilingan korxonalarni qayta tiklash va faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonlarida muhim mehnat kuchiga aylandi.

Shuningdek, urush yillarida xotin-qizlarni qisqa muddatli kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish va yangi mutaxassisliklarga jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, balki front ehtiyojlari uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda O‘zbekistonning urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti turli jihatlarda yoritilgan. Xususan, xotin-qizlarning mehnat faoliyati masalasi ham ayrim tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Biroq mazkur masalani iqtisodiy hayot kontekstida, yangi manbalar va zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, urush davrida o‘zbek xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi o‘rni, mehnat faolligi va xalq xo‘jaligidagi hissasini o‘rganish tarixiy jarayonlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi ishtirokini tadqiq etishda manbalar va metodlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuni o‘rganishda urush yillariga oid arxiv hujjatlari asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Biroq arxiv materiallarida xotin-qizlar faoliyatiga oid ma’lumotlar ko‘pincha alohida emas, balki umumiy xo‘jalik, safarbarlik va ishlab chiqarish jarayonlari doirasida uchrashi tadqiqotda qo‘shimcha manbalarga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu sababli tadqiqot jarayonida davriy matbuot materiallari, xususan urush yillarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalardan ham foydalanish muhim hisoblanadi. Mazkur manbalar orqali xotin-qizlarning mehnat faoliyati, ularni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish, kasbiy tayyorlash hamda front ortidagi iqtisodiy faoliyati haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, mavjud ma’lumotlarni o‘zaro tahlil qilish va qiyoslash orqali voqea-hodisalarni kengroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqotda og‘zaki tarix materiallari ham muhim yordamchi manba sifatida e’tiborga olinadi. Chunki urush davrini boshdan kechirgan insonlarning xotiralari va ular asosida shakllangan ma’lumotlar tarixiy jarayonlarning ayrim jihatlarini yanada to‘laroq yoritishga xizmat qiladi.

Ikkinchi jahon urushi va unda xotin-qizlar masalasiga oid ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh – sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar, ikkinchi guruh – mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, uchinchi guruh esa xorijiy adabiyotlardan iborat. Mazkur adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish mavzuning tarixshunoslikdagi yoritilish darajasini aniqlash va xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi o‘rnini kengroq baholash imkonini beradi.

Birinchi guruhga sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin. Mazkur davr tadqiqotlarida O‘zbekiston xalqining urush yillaridagi mehnat jasorati, front va front ortidagi faoliyati hamda iqtisodiy safarbarlik masalalari keng yoritilgan. Xususan, Toshxo‘jayeva tadqiqotlarida qishloq ayollarining mehnat faoliyati, ularning front va front ortini mahsulot hamda mudofaa sanoatini xom ashyo bilan ta’minlashdagi hissasi tahlil qilingan[1].

Y. Ibragimova urushning dastlabki yilida respublika xalq xo‘jaligiga 128 815 nafar ayol jalb qilinganligini qayd etsa[2], I. Po‘latov[3], R. Aminova[4] hamda B.A. Orduxanov[5] tadqiqotlarida mehnat resurslarini qayta taqsimlash, qishloq

xo‘jaligi siyosati va xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalb etish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, H.S. Shukurova[6], H.S. Sulaymonova[7], Z. Rahimbayeva[8], M. Oxunova[9], V.S. Murmantseva[10] va Z.F. Ibragimova[11] kabi mualliflarning tadqiqotlarida xotin-qizlarning urush yillaridagi mehnat faolligi hamda ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, sovet davrida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda xotin-qizlar faoliyati ko‘proq davr mafkurasi va davlat siyosati nuqtai nazaridan talqin etilib, ularning iqtisodiy hayotdagi amaliy hissasiga nisbatan kamroq e’tibor qaratilgan.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar kiritiladi. Ushbu davrda Ikkinchi jahon urushi tarixi mafkuraviy yondashuvlardan xoli holda, yangi metodologik asoslarda o‘rganila boshlandi. 5 jilddan iborat *“O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida”* kitob-albomida urush yillaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar yangi manbalar asosida yoritilgan[12].

R.E. Xalikova[13], H.I. Azimov[14], X.B. Babadjanov[15], S.B. Murtozova[16], B.O‘. Ungboyeva[17], Z.S. Safarova[18], F.J. Jumaniyazova[19] va Sh.A. Abduraximova[20] kabi tadqiqotchilar ishlarida urush yillaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar turli yo‘nalishlarda tahlil qilingan. Xususan, xotin-qizlar masalasi ham ayrim tadqiqotlarda yoritilgan.

Shu bilan birga, mazkur ishlarda xotin-qizlarning urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati asosan umumrespublika miqyosida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida ularning ishtirokini alohida va chuqur o‘rganish zarurati mavjud.

Uchinchi guruhga xorijiy tadqiqotchilar asarlari kiradi. Ushbu adabiyotlarda Ikkinchi jahon urushi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy safarbarlik, mehnat resurslaridan foydalanish hamda jamiyatning urush sharoitiga moslashuvi keng tahlil qilingan.

M. Harrison Sovet Ittifoqi iqtisodiyotining urush davridagi holatini o‘rganib, ishlab chiqarishda ayollar mehnatining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi[21]. W. Z. Goldman esa ayollarning mehnatga jalb etilishi va ularning ijtimoiy mavqeini davlat siyosati bilan bog‘liq holda tahlil qiladi[22]. R. Markwick va E. Cardona tadqiqotlarida sovet ayollarining front va front ortidagi hayoti gender yondashuv asosida yoritilgan[23]. Shuningdek, D. Filtzer va J. Jones ishlarida urush davridagi mehnat munosabatlari va ayollarning iqtisodiy faoliyati faktik materiallar asosida tahlil qilingan[24].

Shu bilan birga, xorijiy tarixshunoslikda O‘zbekiston xotin-qizlarining urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati asosan umumiy SSSR kontekstida tilga olinadi va alohida tadqiqot ob’ekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur masalani hududiy kesimda, xususan Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida kompleks tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

SSSRning Ikkinchi jahon urushiga jalb etilishi mamlakat iqtisodiyotini, ayniqsa sanoat sohasini harbiy ehtiyojlarga mos ravishda qayta tashkil etishni taqozo etdi. Shu maqsadda Davlat Mudofaa Qo‘mitasi tomonidan 1941-yil 16-avgustda “1941-yil IV choragi va 1942-yil uchun Volgabo‘yi, Ural, G‘arbiy Sibir,

Qozog‘iston hamda O‘rta Osiyo hududlarining harbiy-xo‘jalik rejasi to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi[25:44]. Mazkur qaror sharqiy hududlarda, jumladan O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, qishloq xo‘jaligini yuksaltirish, mudofaa sanoatining yangi tarmoqlarini rivojlantirish hamda frontni zarur mahsulotlar bilan uzluksiz ta’minlash vazifalarini belgilab berdi.

Urush yillarida O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining harbiy izga o‘tkazilishi jarayonida xotin-qizlarning mehnat faolligi keskin oshdi. Erkaklarning katta qismi frontga safarbar etilishi natijasida sanoat korxonalarida yuzaga kelgan ishchi kuchi tanqisligi asosan ayollar hisobiga to‘ldirildi. Shu tariqa xotin-qizlar sanoat ishlab chiqarishining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Arxiv va statistik ma’lumotlarga ko‘ra, urushning dastlabki oylaridayoq bu jarayon keng ko‘lam kasb etdi. Jumladan, 1941-yilning birinchi oylarida Toshkent shahridagi zavod va fabrikalarga 20 mingdan ortiq xotin-qiz ishga joylashish istagini bildirib murojaat qilgan. Bu holat ayollarning ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etilganligini yaqqol ko‘rsatadi.

Sanoat tarmog‘ida ayollar ulushining ortishi statistik ko‘rsatkichlarda ham aks etdi. 1941-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra sanoat ishchilari tarkibida ayollarning ulushi 40,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1943-yilga kelib bu ko‘rsatkich 63,5 foizga yetgan[26:216-217].

Urush yillarida yuz minglab xotin-qizlar frontga ketgan erlari, aka-ukalari va otalarining o‘rnini egallab, ishlab chiqarish jarayonida faol mehnat qildilar. Ular og‘ir va murakkab kasblarni ham o‘zlashtirib, ishlab chiqarish rejalari va normativlarini ortig‘i bilan bajarishga erishdilar. “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiori ularning mehnat faoliyatida asosiy ruhiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Masalan, “Krasnaya Zarya” fabrikasining ishchilari orasida A. Kondratyova ikki, keyinchalik uchta stanokda ishlab, ishlab chiqarish rejasini 200 foizga bajarishga erishgan. Uning izdoshlari bo‘lgan boshqa ishchilar ham kundalik mehnat normativlarini 220–240 foizga yetkazga.[27:12].

“Tashselmash” zavodining harbiy ishlab chiqarishga moslashtirilishi jarayonida ham xotin-qizlar muhim rol o‘ynadi. 1941-yilda zavoddan 585 nafar ishchi frontga safarbar etilgan bo‘lib, bu ishchi kuchi yetishmovchiligini kuchaytirdi. Natijada ishlab chiqarish jarayoniga ayollar jalb etildi. Qisqa muddat ichida zavodga 80 nafar ayol ishga qabul qilindi. 1942-yil boshida ular umumiy ishchilarning 42,1 foizini, yil oxiriga kelib esa 53,2 foizini tashkil etdi[28:17].

Qishloq xo‘jaligida ham xotin-qizlar mehnati muhim ahamiyat kasb etdi. Urush yillarida ular kolxoz va sovxozlarda ishlab, brigada va zveno rahbarligi vazifalarini bajardilar. Toshkent viloyati Ohangaron tumanida Jo‘rayeva, Oltinko‘l zveno boshlig‘i Tursunxon Karimova kabi ayollar mehnatlari bilan ajralib turdilar[29:12]. Ularning tashabbusi bilan respublika bo‘ylab zarbdor front zvenolari tashkil etildi.

Bekobod rayonida 60 dan ortiq zarbdor zvenolar tuzilib, ular kunlik me’yorlarni 2–3 barobar ortig‘i bilan bajarishga erishdilar[29:12]. Jambul rayonidagi Ilich nomli kolxozda Rahima Akimova zvenosi qo‘shimcha ravishda 40 tonnaga yaqin qand lavlagi yetishtirib, front uchun muhim oziq-ovqat resursini ta’minlashga hissa qo‘shdi.

Shuningdek, 1941-yil 16-avgustdagi qarorga muvofiq sanoatni harbiy izga o‘tkazish jarayonida kimyo, rezina, yog‘och-qog‘oz, to‘qimachilik, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlantirildi. Shu asosda O‘zbekistonda yengil sanoat, ayniqsa to‘qimachilik tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

Umuman olganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning sanoat va qishloq xo‘jaligidagi mehnat faolligi keskin oshib, ular xalq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlaridan biriga aylandi.

Urush sharoitida sanoatni harbiy izga o‘tkazish jarayoni keyingi bosqichda yengil sanoat va to‘qimachilik tarmog‘ida yanada chuqurlashdi hamda ayollar mehnatining o‘rni sezilarli darajada kengaydi.

Urush yillarida O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini harbiy izga o‘tkazish jarayonida yengil sanoat, xususan to‘qimachilik tarmog‘i muhim o‘rin egalladi. G‘arbiy hududlardan ko‘chirilgan korxonalar qisqa muddat ichida ishga tushirilib, ularni malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasi asosan xotin-qizlarni tezkor tayyorlash orqali hal etildi. Natijada 1942-yil oxiriga kelib ayrim korxonalarda ishchilar soni 1400 nafardan oshib, ularning qariyb 90 foizini ayollar tashkil etdi[30:22].

Urush sharoiti ishlab chiqarishda yangi mehnat usullarini joriy etishni taqozo etdi. Shu davrda ko‘p stanokda ishlash tizimi keng tarqaldi. Toshkent to‘qimachilik kombinati ishchisi Muhabbat Nosirova ushbu harakatning ilg‘or vakillaridan biri bo‘lib, u bir necha stanokda ishlash tajribasini ishlab chiqarishga tatbiq etdi va uni boshqa ishchilarga ham o‘rgatdi[27:13]. Natijada korxonalarda mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshdi.

1943-yilga kelib yengil sanoatda sotsialistik musobaqa harakati keng rivojlandi. Toshkentdagi yirik fabrikalarda yuzlab ayollar ushbu jarayonda faol ishtirok etib, yuqori ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdilar. Ayrim ishchilar ishlab chiqarish normasini 200–240 foizgacha bajarishga muvaffaq bo‘ldilar[31].

Shu bilan birga, urush yillarida yengil sanoat bir qator qiyinchiliklarga ham duch keldi. Yordamchi materiallar yetkazib berilishining uzilishi hamda kapital qo‘yilmalar hajmining kamayishi ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, 1942-yilda to‘qimachilik sanoati bo‘yicha investitsiya rejasi sezilarli darajada past darajada bajarildi.

Biroq shunga qaramay, sanoat ishlab chiqarish sur’atlari barqaror o‘sishda davom etdi. 1944–1945-yillarda korxonalarda jangovar brigadalar soni keskin oshib, ayrim fabrikalarda ishlab chiqarish rejasi 150 foizdan ortiq darajada bajarildi[32:10]. Natijada 1942-yilning ikkinchi yarmida respublika sanoat ishlab chiqarishi 1941-yilga nisbatan deyarli ikki baravar oshdi.

Urush yillari davomida O‘zbekistonda sanoat salohiyati ham sezilarli darajada kengaydi. Yangi korxonalar ishga tushirilishi natijasida og‘ir sanoat mahsuloti hajmi 1940-yilga nisbatan bir necha barobar oshdi. Yoqilg‘i-energetika va metallurgiya tarmoqlarida ham sezilarli o‘sish kuzatilib, neft, ko‘mir va elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi.

Umuman olganda, urush yillarida sanoatning respublika iqtisodiyotidagi ulushi sezilarli darajada oshib, O‘zbekiston iqtisodiyoti harbiy ishlab chiqarish tizimiga moslashtirilgan industrial bazaga aylana boshladi.

XULOSA

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti, xususan sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalari keskin harbiylashtirilgan sharoitda rivojlandi. Erkak aholining frontga safarbar etilishi natijasida yuzaga kelgan ishchi kuchi tanqisligi asosan xotin-qizlar hisobiga to‘ldirildi. Ular sanoat korxonalarida, to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida, shuningdek qishloq xo‘jaligida muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida faol ishtirok etdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, urush yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki nafaqat miqdor jihatdan ortgan, balki sifat jihatdan ham yangi bosqichga ko‘tarilgan. Ular ishlab chiqarishning murakkab turlarini o‘zlashtirib, yuqori mehnat natijalariga erishgan hamda xalq xo‘jaligining barqaror ishlashini ta’minlashga muhim hissa qo‘shgan.

Shu bilan birga, urush davrida sanoatni harbiy izga o‘tkazish, evakuatsiya qilingan korxonalarni joylashtirish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish jarayonlari xotin-qizlarning mehnat faolligini yanada kuchaytirgan. Ayniqsa, to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida ayollar ulushining keskin oshishi iqtisodiy tizimning uzluksiz ishlashida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xotin-qizlarining iqtisodiy hayotdagi ishtiroki tarixiy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bu holat ularning jamiyat rivojidagi o‘rni va ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Toshxo‘jaeva N.O‘zbekiston qishloq xotin-qizlari urush yillarida (1941-1945) Toshkent. Fan 1985. – 56 b.
2. Ибрагимова А. Ю. Женщины Узбекистана в годы великой отечественной войны в помощь лектору. Ташкент. 1987
3. Po‘latov I Buyuk g‘alabada O‘zbekiston hissasi Tarix. Toshkent: O‘zbekiston, 1974.—146 b.
4. Аминова Р. Х. История рабочего класса Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1966. – 238 с.
5. Ордуханов В. А. Подготовка кадров колхозного производства Узбекистана в период ВОВ Советского союза (1941-1945 гг.) Автореферат дис. ... кандидат исторических наук. – Ташкент. 1963. – 16 с.
6. Шукурова Х. С. Социализм и женщина Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 337 с.
7. Сулаймонова Х. С. Ўзбекистон хотин-қизлари – коммунистик қурилишнинг актив қатнашчилари. – Тошкент: Ўзбекистон ФА, 1955. – 40 б.
8. Рахимбаева З. Женщина Узбекистана на пути к коммунизму. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – 75 с.
9. Oxunova M. O‘zbekiston xotin-qizlari – kommunizm bunyodkorlari. – Toshkent: Fan, 1984. – 48 b.
10. Мурманцева В. С. Советские женщины в Великой Отечественной войне. – Москва, 1974. – 145 с.

11. Ибрагимова З. Ф. Коммунисты Узбекистана – организаторы патриотических подвигов женщин (1941–1945 гг.). – Москва, 1953.

12. O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida: kitob-albom. – Toshkent: O'zbekiston НМИУ, 2020. 320 b.

13. Халикова Р. Э. Развитие высшего исторического образования и науки в Узбекистане (на примере исторического факультета ТашГУ 1935-1994 годы) Автореферат дис. ... кандидата исторических наук: 07.00.02- отечественная история. – Ташкент, 1995. – 27 С.

14. Azimov H.I. Ikkinchi jahon urushida O‘zbekiston harbiylari ishtiroki va mavqei (1941–1945 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004. – 191 b

15. Babadjanov X. B. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi transformatsion jarayonlar: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. – Toshkent, 2018. – 156 b.

16. Murtozova S. B. XIX asr oxiri - XX asrning 80-yillarida O‘zbekiston musiqa madaniyatidagi transformatsiya jarayonlari tarix fan. falsafa d-ri dis. : 07.00.01. – Toshkent, 2018. – 170 b.

17. Ungboeva B. O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san’ati tarixi tarix fan. falsafa d-ri dis. : 07.00.01. – Toshkent, 2018. – 168 b.

18. Safarova Z. S. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati: dis. … PhD. – Samarqand, 2020. – 170 b.

19. Jumaniyazova F. J. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati Tarix fanlari falsafa doktori (PhD) ... dis. Avtoreferati: 07.00.01-O'zbekiston tarixi. – Urganch, 2024. – 54 b.

20. Abduraximova Sh. A.O‘zbekiston SSRda aholi salomatligi va tibbiy xizmat muammolari (1941–1991 yillar) tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 154 b.

21. Harrison M. Accounting for War: Soviet Production, Employment, and the Defence Burden, 1940–1945. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 252 p.

22. Goldman W. Z. Women, the State and Revolution: Soviet Family Policy and Social Life, 1917–1936. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 382 p.

23. Markwick R., Cardona E. Soviet Women on the Frontline in the Second World War. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – 307 p

24. Filtzer D. Soviet Workers and the Late Stalinist State. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 305 p.

25. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. В 5 т.: Сб. док. за 50 лет. Т. 3. 1941-1952 гг. — М.: Политиздат, 1968.с.44

26. Узбекиская ССР. – Ташкент.1981. – С.555

27. Madrahimova R. O‘zbekiston xotin-qizlarining Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi mehnat va jasoratlari. – Toshkent, 1981. – B.64

28. Калымбетов Ж. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за развитие промышленности и транспорта в годы Велийкой Отечественной войны. – Ташкент, Государственное издательство Узбекской ССР, 1958. С.120

29. O‘z MA.F 90. R 8. I 5571. V 122.
30. М.Юлдашева. Женщины Узбекистана – фронту. – Ташкент Узбекистан. 1982. – 120 с.
31. O’z MA. F 400. R 1. I. 1138. V 221
32. To‘laganova M. O‘zbekiston xotin-qizlari Ulug‘ Vatan urushi yillarida. – Toshkent : n-siz, 1974. – 20 b.
33. Voskoboynikov E. A(M.Ibroximov tarjimasi) O‘zbek xalqi Ulug‘ Vatan urushi yillarida. – Toshkent, 1947. – C.47
34. Народное хозяйства Узбекиский ССР в 1978 годую Статежегодник. – Ташкент, 1979. – С.203

Ишанходжаева З.Р.
д. и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
zamira.i@rambler.ru

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА И ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется участие женщин Узбекистана в экономической жизни в годы Второй мировой войны, их трудовая активность в промышленности и сельском хозяйстве, а также роль в производственных процессах. В исследовании освещаются экономические изменения, возникшие в условиях войны, значение женщин как трудового ресурса, а также их широкое привлечение к производственным процессам. Кроме того, на основе исторических источников рассматривается эффективность труда женщин на промышленных предприятиях и в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Узбекистан, женщины, экономическая жизнь, промышленность, сельское хозяйство, трудовая активность, тыл, эвакуация, текстильная промышленность.

Ishankhodjaeva Z.R.
DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
zamira.i@rambler.ru

THE PARTICIPATION OF UZBEK WOMEN IN ECONOMIC LIFE DURING THE SECOND WORLD WAR (A CASE STUDY OF TASHKENT CITY AND TASHKENT REGION)

ABSTRACT

This article analyzes the participation of Uzbek women in economic life during the Second World War, their labor activity in industry and agriculture, and their role in production processes. The study highlights the economic transformations that emerged under wartime conditions, the significance of women as a labor force, and their extensive involvement in production activities. In addition, the efficiency of women's labor in industrial enterprises and agriculture is examined based on historical sources.

Key words: Second World War, Uzbekistan, women, economic life, industry, agriculture, labor activity, home front, evacuation, textile industry.

Jabbarova I.X.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi doktoranti, t.f.f.d (PhD), dotsent
Qarshi davlat universiteti
iqbol.jabborova@gmail.com

SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin suv xo‘jaligi tizimida amalga oshirilgan institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Sovet davridan meros qolgan markazlashgan boshqaruv tizimining o‘zgarishi, havzaviy boshqaruv tamoyiliga o‘tish jarayonlari, suv iste’molchilari uyushmalari faoliyati va sohani raqamlashtirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, Qashqadaryo vohasi misolida sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada islohotlarning huquqiy asoslari, bosqichlari va erishilgan natijalarga oid ilmiy tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi, institutsional islohotlar, havzaviy boshqaruv, suv iste’molchilari uyushmalari, raqamlashtirish, transchegaraviy suv resurslari, irrigatsiya.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Suv xo‘jaligi tizimi ham ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Sobiq ittifoq davrida shakllangan suv resurslarini boshqarish tizimi markazlashgan bo‘lib, u asosan umumittifoq ehtiyojlariga xizmat qilgan, hududiy xususiyatlar va mahalliy ehtiyojlar esa yetarli darajada hisobga olinmagan [1]. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida suv xo‘jaligi tizimi suv resurslarini boshqarishning markazlashgan tizimida bo‘lib, mahalliy ehtiyojlarni to‘liq hisobga olish imkonini bermagan. Xususan, irrigatsiya va melioratsiya infratuzilmasining katta qismi eskirgan holatda bo‘lib, ko‘plab kanallar, nasos stansiyalari va drenaj tizimlari ta’mirtalab edi. Suvni yetkazib berish jarayonida katta yo‘qotishlar kuzatilgan, suvdan foydalanish samaradorligi past bo‘lgan. Qashqadaryo vohasi kabi qurg‘oqchil hududlarda bu muammolar yanada keskin namoyon bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [2].

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so‘ng suv xo‘jaligi tizimini tubdan isloh qilish jarayoni, avvalo, mustahkam huquqiy asoslarni yaratishdan boshlandi. Suv resurslari mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi barqarorligining muhim omili sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi[1]. Mustaqillikning dastlabki yillarida hukumatning asosiy e’tibori sug‘orish infratuzilmasini tashkil qilish va boshqarishni huquqiy bazasini yaratish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlarni joriy qilishdan iborat bo‘ldi. Xususan, suv balanslarining rasmiy hisobda yuritilishi, inspeksiya nazorati, suv obyektlaridan foydalanish va fan, ta’lim, ishlab chiqarish integratsiyasini yo‘lga

qo‘yish tartibi kabi vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasida mustahkamlandi [3].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda mustaqillik yillarida suv xo‘jaligi boshqaruvida amalga oshirilgan institutsional islohotlarning bosqichlarini, asosiy yo‘nalishlarini va erishilgan natijalarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va ilmiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Suv xo‘jaligi boshqaruvining dastlabki bosqichi (1991–1995). O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan suv xo‘jaligida ham chuqur institutsional islohotlar zarurati yuzaga keldi. Sovet davrida suv resurslarini boshqarish Ittifoq miqyosidagi “Gidroproyekt”, “Sredazgiprovodxlopok” va boshqa markazlashgan loyiha-idoralar orqali amalga oshirilar, suv taqsimoti respublikalararo komissiyalar tomonidan boshqarilar edi. Markaziy Osiyo respublikalari suv resurslaridan foydalanishda Moskva markaziga qaram edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida (1991–1995) suv xo‘jaligi boshqaruvi asosan Sovet Ittifoqidan meros qolgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi asosida faoliyat yuritdi. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Suv xo‘jaligi qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, u 1993-yilda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tarkibiga kiritildi. Ushbu tuzilmada suv resurslarini boshqarish asosan idoraviy yondashuv asosida olib borilgan: suvdan foydalanish, meliorativ holat va irrigatsiya tizimlari bir vazirlik doirasida boshqarildi. Ammo boshqaruvda hanuz “meros” tizim mavjud edi. Suv iste’molchilari o‘rtasida aniq huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarning yo‘qligi, suv hisobi tizimining eskirganligi va suvdan foydalanishda real iqtisodiy rag‘batlarning mavjud emasligi, transchegaraviy suv oqimlarini boshqarishda qo‘shni davlatlar bilan huquqiy asoslarning nomutanosibligi endi suvdan foydalanishda huquqiy asoslarni yaratish kerakligini dalolati edi[4].

Mustaqillikdan so‘ng suv xo‘jaligi tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 1993-yilda qabul qilingan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi Qonun suv resurslarini davlat mulki sifatida belgilab, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur hujjat suv xo‘jaligi tizimini boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi va suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy va ekologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qildi [5]. 1991-yil 20-iyulda Orol dengizida suv tanqisligi va ekologik muammolar keskinlashgan sharoitda keng ko‘lamdagi tadqiqotlarni rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishning, ularni muhofaza etishning ilmiy asoslarini yaratish maqsadida “O‘zSSR Fanlar akademiyasining suv muammolari institutini tashkil etish to‘g‘risida” gi Vazirlar mahkamasining Qarori ishlab chiqildi. Unga ko‘ra institutning bundan keyingi vazifalari va bajaradigan topshiriqlari belgilab berildi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida suv xo‘jaligi tizimi ham yangi boshqaruv mexanizmlariga moslashtirildi. Davlat tomonidan moliyalashtirish hajmining qisqarishi suv xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish, suvni tejash va

boshqaruvni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, suvdan foydalanuvchilar – fermer xo‘jaliklari va boshqa subyektlarning roli oshib bordi, bu esa suv taqsimotida yangi munosabatlarning shakllanishiga olib keldi[6].

Havzaviy boshqaruv tizimiga o‘tish. 2000-yillardan boshlab suv xo‘jaligi tizimida bosqichma-bosqich institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, suv resurslarini havza tamoyili asosida boshqarish tizimi joriy etilib, Amudaryo va Sirdaryo havzalari bo‘yicha boshqaruv strukturalari shakllantirildi. Bu tizim suv resurslarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib boshqarish imkonini yaratdi hamda suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qildi. 2003-yil 12-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini boshqarish tuzilmalarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori bilan Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qayta tashkil etilib, uning negizida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi (SXV) tashkil etildi. Bu qaror suv sohasining texnik va institutsional rivojlanishini mustaqil vazirlik darajasida boshqarish zaruratidan kelib chiqqan[7].

Qashqadaryo vohasi Amudaryo havzasiga kiruvchi hudud sifatida Amu–Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi orqali boshqarila boshladi. Mazkur boshqarma 2003-yilda tashkil qilindi. Bu tizim suv resurslarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib taqsimlash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suv yo‘qotishlarini kamaytirishga xizmat qildi. Havza prinsipining asosiy afzalliklari suv resurslarini kompleks boshqarish, ekologik muvozanatni saqlash va suvdan foydalanishda hududlararo muvofiqlikni ta’minlashdan iborat. Shu bilan birga, bu tizimni joriy etishda tashkiliy va texnik muammolar, jumladan, infratuzilmaning yetarli darajada moslashmaganligi va kadrlar masalasi kabi qiyinchiliklar ham kuzatildi[8].

Islohotlarning strategik yo‘nalishlari. 2000-yildan keyingi davrda suv xo‘jaligi boshqaruvi islohotlari quyidagi strategik yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

Birinchidan, markazsizlashtirish va suv havzaviy boshqaruvi – suv xo‘jaligi tashkilotlari tuman va viloyatga bo‘ysunishdan chiqarilib, havzalar kesimida qayta tuzildi. Bu o‘zgarishlar natijasida suv resurslarini taqsimlashda hududlararo nizolar kamaydi, suv hisobi va monitoringi yaxshilandi[1].

Ikkinchidan, suv iste’molchilari uyushmalari (SIU) tizimini rivojlantirish – 2005-yilga kelib 1500-dan ortiq SIU tashkil etilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 1850 dan oshdi. SIUlar fermer xo‘jaliklari o‘rtasida suvni taqsimlash, kanallarni tozalash va sug‘orish texnologiyalarini joriy etishda vositachi rolini bajaradi. SIU tizimi suv boshqaruvida ishtirokchilarning mas’uliyatini oshirgan bo‘lsa-da, ularning moliyaviy barqarorligi va texnik salohiyati hali ham muammoli[9].

Uchinchidan, iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish – 2010-yildan boshlab suvdan foydalanganlik uchun to‘lovlar bosqichma-bosqich joriy qilindi. Dastlab faqat sanoat korxonalari uchun amal qilgan ushbu tizim 2015-yildan keyin qishloq xo‘jaligi iste’molchilarini ham qamrab oldi. 2020-yildan boshlab suv hisoblagichlari o‘rnatish majburiy holga keltirildi. Biroq, suv tariflari hali ham to‘liq iqtisodiy qiymatni aks ettirmaydi – subsidiyalar hisobiga iste’molchilar uchun arzonligicha qolmoqda.

To‘rtinchidan, raqamlashtirish va monitoring tizimini takomillashtirish – 2018–2024 yillarda Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida “Yagona geografik axborot tizimi” (GIS) ishga tushirildi. Ushbu tizim orqali asosiy kanallar va nasos stansiyalarida masofadan zondlash, suv sathi va sarfini onlayn kuzatish yo‘lga qo‘yilgan. 2023-yil holatiga ko‘ra, 67 ta yirik gidropostlarda avtomatlashtirilgan suv hisobi tizimi ishlamoqda. Raqamlashtirish suv yo‘qotishlarini qisqartirish va suv taqsimoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[10].

Transchegaraviy suv boshqaruvi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining 70–80% dan ortig‘i O‘zbekiston hududiga qo‘shni davlatlar (Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston) orqali oqib keladigan Amudaryo va Sirdaryo havzalarida shakllanadi. Shu sababli, transchegaraviy suv boshqaruvi institutsional o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishidir[11]. 1992-yilda tuzilgan Davlatlararo Muvofiqlashtiruvchi Suv xo‘jaligi Komissiyasi (DMK) har yili suv taqsimoti limitlari va suv o‘tkazish grafiklarini tasdiqlaydi. DMK tarkibida Sirdaryo va Amudaryo havzaviy suv boshqarmalari mavjud. Markaziy Osiyo Suv energetikasi va suv resurslari konsortsiumi 2010-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqadi. BMTning Mintaqaviy ekologik markazi suv diplomatiyasi va tomonlar o‘rtasidagi nizolarni yumshatishda vositachilik qiladi[12].

Qishloq xo‘jaligida suv sarfining yuqoriligi, qo‘shni davlatlarning gidroenergetik siyosati suv oqimining iqlim o‘zgarishi ta’sirida kamayishi kabi transchegaraviy suv boshqaruvidagi asosiy muammolar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston so‘nggi yillarda qo‘shni davlatlar bilan suv-energetik masalalarda diplomatik faollikni oshirdi va suv resurslarini tejash bo‘yicha qator ikki tomonlama memorandumlar imzoladi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda suv xo‘jaligi boshqaruvining institutsional tizimi sezilarli darajada o‘zgardi: idoraviy markazlashgan tizimdan havzaviy, qisman markazsizlashtirilgan, ishtirokchi va raqamlashtirilgan boshqaruv modeliga o‘tildi. Asosiy institutsional yutuqlar quyidagilardan iborat: suv resurslarini havzaviy boshqarish tamoyilining joriy etilishi va hududiy havzaviy boshqarmaning tashkil etilishi; suv iste’molchilari uyushmalari tizimining rivojlantirilishi; suvdan foydalanishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi (suv to‘lovlari, litsenziyalar); transchegaraviy suv munosabatlarida institutsional muloqotning kuchayishi.

O‘zbekiston suv xo‘jaligi tizimi murakkab o‘tish bosqichini bosib o‘tdi. Sobiq tizimdan meros bo‘lib qolgan muammolarni bartaraf etish bilan bir qatorda, zamonaviy, samarali va barqaror boshqaruv tizimini shakllantirishga erishildi. Bu jarayon Qashqadaryo vohasida ham irrigatsiya tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi rivojiga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, institutsional islohotlar hali yakunlanmagan: suv tariflari iqtisodiy jihatdan asoslanmaganligi, SIUlar moliyaviy jihatdan zaifligi, suv boshqaruvi tizimida idoralararo muvofiqlashtirishning sustligi kabi muammolar mavjud. Kelgusi tadqiqotlar suv boshqaruvining iqtisodiy

samaradorligi, suv iste'molchilari xulq-atvorining o'zgarishi va raqamli transformatsiyaning ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: "O'zbekiston", 2011. – 432 b
2. B. A. Bazarov. Suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. –B. 65
3. Сидоров А. Нарастание кризисных явлений в экономике СССР: оцунка руководством страны (осень 1989 года) // Электронный вестник. Выпуск №87. Августб 2021. -48-60 с.
4. Холиқулова Х. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий тараққиёти. Ўқув қўлланма. –Жиззах, 2020. –Б. 73.
5. Топилдиев С. Ўзбекистонда аграр муносабатлар ривожланишининг тарихий жиҳатлари. Иқт. фан. ном. дисс. автореферати – Тошкент, 2011.-Б.14;
6. 195-сон 20.07.1991.O'zSSJ Fanlar akademiyasining suv muammolari institutini tashkil etish to'g'risida
7. Yu. Yusupov. Qishloq aholi punktlarida yer resurslaridan foydalanishni boshqarish ishlarini takomillashtirish // Oriental Renessance Innovative, educational, natural and social sciences. October, 2022. – P. 523
8. Amu-Qashqadaryo ITHB materiallari asosida
9. 982-сон 11.12.2019. Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.12.2019 y. 982-son "Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
11. Mamarasulov U. Turkiya bilan suv bo'yicha hamkorlik // O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi. mart, 2026
12. Mamarasulov U. Turkiya bilan suv bo'yicha hamkorlik // O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi. mart, 2026

Жаббарова И.Х.
Докторант (DSc)., доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Каршинский государственный университет
iqbol.jabborova@gmail.com

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В УПРАВЛЕНИИ ВОДНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются институциональные реформы, осуществленные в системе водного хозяйства Республики Узбекистан после обретения независимости. Освещаются трансформация унаследованной от советского периода централизованной системы управления, переход к бассейновому принципу управления, деятельность ассоциаций водопотребителей и вопросы цифровизации отрасли. Также рассматриваются практические аспекты модернизации ирригационных систем на примере Кашкадарьинского оазиса. В статье представлен научный анализ правовых основ, этапов реформ и достигнутых результатов.

Ключевые слова: водное хозяйство, институциональные реформы, бассейновое управление, ассоциации водопотребителей, цифровизация, трансграничные водные ресурсы, ирригация.

Jabbarova I.Kh.
Doctoral (DSc) student, associate professor at the department of
«History of Uzbekistan»
Karshi State University
iqbol.jabborova@gmail.com

INSTITUTIONAL REFORMS IN WATER MANAGEMENT: EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the institutional reforms implemented in the water management system of the Republic of Uzbekistan after gaining independence. The transformation of the centralized management system inherited from the Soviet era, the transition to the basin management principle, the activities of water consumers' associations, and the issues of digitalization of the sector are highlighted. The practical aspects of modernization of irrigation systems are also examined using the example of the Kashkadarya oasis. The article provides a scientific analysis of the legal foundations, stages of reforms, and achieved results.

Key words: water management, institutional reforms, basin management, water consumers' associations, digitalization, transboundary water resources, irrigation.

Kimsanova R.X.
Tarix fakulteti 3-kurs talabasi
Farg‘ona davlat universiteti
RushanaXayrullayevna@gmail.com

SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI

ANNOTATASIYA

Ushbu maqolada shayboniylar sulolasining taniqli namoyandalari bo‘lgan Sevinchxo‘jaxon hamda Keldi Muhammadxon hukmronligi davrida Toshkent viloyatining geosiyosiy maqomi va boshqaruv tizimi tahlil qilinadi. Maqolada asosiy urg‘u hududning siyosiy barqarorligi hamda harbiy-strategik ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo‘lib, davrning o‘ziga xos ma’muriy xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Shayboniylar, Toshkent, Sevinchxo‘jaxon, Keldi Muhammadxon, siyosiy boshqaruv, harbiy strategiya, XVI asr, Movarounnahr, “To‘rt asr oldingi Toshkent”, davlatchilik.

KIRISH

O‘zbekiston davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi boshqaruvi davri markazlashgan davlat tizimining shakllanishi va mintaqaviy siyosiy barqarorlikni ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlar bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, XVI asrda Toshkent vohasining siyosiy, iqtisodiy va harbiy markaz sifatida yuksalishi bevosita ushbu sulolaning salohiyatli vakillari faoliyati bilan bog‘liqdir. O‘zbek davlatchiligi tarixida Shayboniylar sulolasi boshqaruvi (1500–1601 yy.) Markaziy Osiyo mintaqasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotning o‘ziga xos bosqichini tashkil etadi. Ushbu davrda Toshkent shahri va uning atrofi (vohasi) strategik nuqtai nazardan hamda iqtisodiy resurslar manbai sifatida sulola vakillari o‘rtasida alohida nufuzga ega bo‘lgan. Xususan, Sevinchxo‘jaxon va uning vorisi Keldi Muhammadxon hukmronligi yillarida Toshkent nafaqat yirik viloyat markazi, balki Shayboniylar davlatining shimoliy chegaralarini himoya qiluvchi muhim harbiy-siyosiy istehkom vazifasini o‘tagan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Hozirgi vaqtda mintaqaviy tarixshunoslikni yangi metodologik yondashuvlar asosida o‘rganish, xususan, ma’lum bir hududda hukmronlik qilgan sulola vakillarining shaxsiy siyosiy irodasi va boshqaruv uslublarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sevinchxo‘jaxon (1503–1524) davrida Toshkentda mustahkam markazlashgan boshqaruv tizimi shakllangan bo‘lsa, Keldi Muhammadxon (1524–1532) davrida bu siyosatning harbiy va diplomatik jihatlari yanada takomillashtirildi.

Ushbu maqolaning asosiy vazifasi – o‘rta asr qo‘lyozma manbalari va zamonaviy tadqiqotlar sinteziga tayangan holda, Toshkent hukmdorlarining davlat

yaxlitligini saqlash borasidagi harbiy-siyosiy harakatlariga xolis baho berishdan iboratdir. Maqolada keltirilgan xulosalar XVI asr Movarounnahr tarixini yanada chuqurroq anglashga va Toshkent shahrining tarixiy boshqaruv an'analarini tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Sevinchixo'jaxon va Keldi Muhamadxonlarning tarixini o'rganish borasida mintaqa olimlari salmoqli ishlarni e'lon qilishgan. Quyida tadqiqot natijalari o'z davri uchun mutloq yangilik darajasida bo'lgan ayrim muhim ilmiy ishlar xususida to'xtalamiz.

A. Zamonovning "Buxoro xonligi tarixi" asarida XVI asrda Movarounnahrda Shayboniylar tomonidan markazlashgan davlat tuzish jarayonidagi siyosiy jarayonlar nisbiy ravishda uch guruhga bo'lib tahlil qilingan. Muallif Toshkent mulklarini boshqargan Sevinchxo'jaxon va uning avlodlari shajarasi hamda ularning hukmronlik yillarini jadval ko'rinishida keltirib o'tgan. Asarda Movarounnahr hududlari Abulxayrxonning to'rt avlodi tomonidan boshqarilganligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Abdurashid Nishonovning Shayboniylar davriga oid ilmiy tadqiqot ishlari mazkur davr uchun muhim masalalarni ko'tarib chiqqani bilan ajralib turadi. U asosan Shayboniylar davrining siyosiy voqealari, sulolaviy kurashlar, hukmdorlar faoliyati kabi masalalariga to'xtalgan. Ammo Shayboniylar davri keng tarixiy kontekstda emas, ko'proq voqeanavislik ruhida bayon etilgan, lekin ayanan noyob jarayonlarni olib chiqqanligi va ushbu davrda Farg'ona vodiysidagi siyosiy jarayonlarni ochib berganligi bilan e'tibor tortadi. Hamda uning ilmiy ishlari Shayboniylar tarixining ayrim muhim epizodlarini yoritishda manba sifatida inkor etib bo'lmaydigan ahamiyatga ega.

O'.Sultonovning "Toshkent mulki Shayboniylar davrida: Suyunchxojaxon xonadoni boshqaruvi haqida ayrim qaydlar" maqolasida XVI asrda Farg'ona vodiysida hukmronlik qilgan Sevinchxojaxon avlodlari tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. So'nggi yillarda vaqf hujjatlarinining manbaviy ahamiyatini o'rganish bilan bog'liq yirik tadqiqot O'.A.Sultonov tomonidan amalga oshirildi. U to'rt asr davomida Toshkentda yartilgan hujjatlarni o'rganib, vaqflarning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rnini tahlil etdi.

R.G.Muqminova qalamiga mansub "To'rt asr oldingi Toshkent" asarida Farg'ona vodiysida yuz bergan XVI asrga oid qator tarixiy voqealar haqida ayrim ilmiy qarashlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif 1514-yilda Shayboniy sultoni Sevinchxo'jaxon Farg'onani Sulton Saidxondan tortib olganidan so'ng, vodiyni Muhammad Sultonga hokim etib tayinlaganini qayd etadi. Toshkent va Farg'onada Sevinchxo'jaxon avlodlarining hukmronligi vodiy Abdullaxon tasarrufiga o'tguniga qadar davom etganligi haqida ham fikr yuritilgan.

Temuriylar davlatining zaiflashib borishi Dashti Qipchoqda yashagan ko'chmanchi qabilalarning Movarounnahrga kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratdi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonning nabirasi bo'lgan Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi dasht lashkarlari 1499-yildan boshlab birin-ketin Movarounnahr viloyatlarini zabt eta boshladi. 1503-yilga kelib Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Jizzax va O'ratepa hududlari Muhammad Shayboniyxon qo'l ostiga o'tib bo'lgan edi.

Shayboniyxon Zahiriddin Muhammad Bobur va uni qo‘llab-quvvatlagan Toshkent xoni Sulton Mahmudxon hamda Mo‘g‘uliston xoni Sulton Ahmadxonlar bilan Farg‘onada hokimiyatni amalda qo‘lga kiritib olgan amir Sulton Ahmad Tanbal o‘rtasidagi kurashdan ustalik bilan foydalandi.

Shayboniyxonning Balxni qamal qilish bilan band bo‘lib qolganligi Ahmad Tanbalga Farg‘ona qo‘shini bilan Sevinchxo‘jaxon mulki hisoblangan Toshkent hududlariga hujum qilish imkonini berdi. Mirzo Haydarning[5] yozishicha, Ahmad Tanbal ukasi Shayx Boyazid bilan birga Toshkentga yurish qilgan. Bobur mirzo esa “Boburnoma” asarida Ahmad Tanbalning Piskantga yurish qilganini qayd etadi.

Tarixchi olim S. Jalilov Ahmad Tanbal o‘z lashkari bilan Toshkentni qamal qilganligini ta’kidlaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, Ahmad Tanbal Toshkent shahriga yetib bormagan, balki Piskantdan ortga qaytgan.

Mirzo Haydar ham temuriy mirzolar xizmatida bo‘lgan ko‘plab mo‘g‘ullar Movarounnahrning katta qismi Shayboniyxon qo‘liga o‘tgach, Farg‘onaga to‘planganligini qayd etadi. Ahmad Tanbalning harbiy qudrati oshib borishi unga Toshkent viloyatiga yurish qilish imkonini berdi. Ikkinchidan esa, Ahmad Tanbal qo‘shinlarining asosini tashkil etgan mo‘g‘ullarda yaqingacha o‘zlariga tegishli bo‘lgan Toshkentni qaytarib olish istagi ushbu viloyatga yurish qilinishiga sabab bo‘lgan.

Dastlab Ahmad Tanbal tomonida turib, mo‘g‘ul xonlari Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxon va temuriy hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi kurash olib borgan Shayboniyxon keyinchalik Ahmad Tanbalning Farg‘onadagi hokimiyatini ham tugatdi va bu hududni o‘z davlati tarkibiga kiritdi.

Fazlulloh ibn Ro‘zbehon o‘zining “Mehmonnomayi Buxoro” asarida Shayboniyxonning 1509-yilda qozoqlar ustiga uyushtirgan yurishi vaqtida Toshkentdan Sevinchxo‘jaxon, Farg‘onadan Jonibek sulton bilan bir qatorda Xo‘jand va Shohruxiya amirlari ham o‘z askarlari bilan qo‘shinga kelib qo‘shilganini ta’kidlaydi[4:88].

1512-yilning bahorida shayboniy sultonlar Buxoro va Toshkent shaharlari tomon yurish boshlaydilar. Bobur mirzo qo‘shinning bir qismi bilan Buxoro tomonga yo‘lga chiqqan bo‘lsa, amir Qosim Ko‘hbur rahbarligidagi yana bir lashkarni Toshkentni himoya qilish uchun yuboradi. Biroq Buxoro shahrining g‘arbidagi Ko‘li Malik jangida Bobur mirzo qo‘shini to‘liq mag‘lubiyatga uchraydi. Shundan so‘ng Bobur mirzo dastlab Samarqandga, u yerdan esa Hisorga chekinishga qaror qiladi.

Tarixiy manbalarda ushbu voqealarda Farg‘ona vodiysi hokimi Sulton Saidxonning qay darajada ishtirok etgani haqida aniq ma’lumotlar uchramaydi. Toshkent shahri aholisi amir Qosim Ko‘hbur rahbarligida olib borgan mudofaa janglarini batafsil bayon qilgan “Tarixi Rashidiy” asari muallifi Haydar mirzo shahar himoyachilariga Sulton Saidxon tomonidan yordam berilgani haqida ma’lumot bermaydi. Bundan ko‘rinadiki, Sulton Saidxon bu voqealarni faqat kuzatish bilan cheklangan. Bu esa uning eng katta xatolaridan biri bo‘lib, keyinchalik o‘z davlatining yemirilishiga ham olib kelgan.

Toshkent himoyachilari majbur bo‘lib shaharni tashlab chiqib, Farg‘ona vodiysiga chekinadilar. Ular Sulton Saidxon saroyida uzoq qolmasdan, Hisorda o‘z

kuchlarini qayta jamlayotgan Bobur mirzo huzuriga borishni ma’qul ko‘rganlar. Garchi shayboniy sultonlar Toshkent shahrini egallagan bo‘lsalar-da, orqada Sayram qolib ketgan bir sharoitda vodiyga bostirib kirishlari mushkul edi. Ikkinchidan, bu vaqtda Hisorda o‘zini ancha tiklab olgan Bobur mirzo Shoh Ismoil tomonidan yuborilgan yordamga tayangan holda yana bir bor Shayboniylarga qarshi yurish boshlashi kutilayotgan edi. Shunday vaziyatda Toshkentni zabt etgan shayboniylar qo‘shini voqealar rivojini kutishga majbur bo‘ldi.

Bobur mirzo lashkarining eronlik sarkarda amir Najmi Soniy qo‘shini bilan birgalikdagi yurishiga qarshi kurashgan shayboniy sultonlar safida Toshkentni zabt etgan Sevinchxo‘jaxon nomi qayd etilmaydi. Bu holat boshqa manbalarda uchramasa-da, “Tarixi Rashidiy”da keltirilgan ma’lumotning asosli ekanini ko‘rsatadi [5:383]. Demak, Haydar mirzo bu davrda Sulton Saidxon Sevinchxo‘jaxon ustiga yurish qilganini to‘g‘ri qayd etgan.

Sulton Saidxon Toshkentni egallagan shayboniylar qo‘shinining harakatsiz qolganidan dadillanib hamda Bobur mirzoning talabiga ko‘ra Shayboniylarga qarshi yurish boshlaydi. Bobur mirzo Hisorda bo‘lgan paytda ham Sulton Saidxon bilan elchilar almashib turgani manbalarda qayd etilgan. Shu sababli Farg‘ona qo‘shinining Shayboniylarga qarshi yurishi o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirilgan, deyish mumkin.

“Tarixi Rashidiy”da yozilishicha, Sulton Saidxon lashkari bilan Sevinchxo‘jaxon qo‘shini o‘rtasidagi jang Biskand mavzesida bo‘lib o‘tgan. Bu hozirgi Toshkent viloyati hududida joylashgan Piskent shahri bo‘lishi ehtimolga yaqin. Chunki “Boburnoma”ning turli nusxalarida mazkur joy nomi Piskent, Beshkent hamda tarjimalarda Biskand shaklida uchraydi[7:88]. Shuningdek, Biskand mavzesi jang bo‘lib o‘tgan hududga mantiqan mos keladi. Demak, Sulton Saidxon Toshkent vohasiga dovon orqali emas, balki Xo‘jand orqali kirib kelgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Biskand jangida Shayboniylar g‘alaba qozonadilar. Jangda yaralangan Sulton Saidxon o‘z qo‘shini bilan vodiyga qaytib, Bobur mirzo olib borayotgan janglarning natijasini kutishga majbur bo‘ladi. Ushbu jang 1512-yil sentabr oyida yoki undan biroz oldin sodir bo‘lgan. Chunki aynan shu davrda Sulton Saidxon huzuriga kelgan Haydar mirzo uning Biskand jangidan qaytganini qayd etadi.

Sevinchxo‘jaxon ham Sulton Saidxonni quvib, vodiyga bostirib kirmaydi. Bunga Sayramning hali zabt etilmagani va Bobur mirzoning Qarshi vohasidagi harbiy harakatlari sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin [5:386].

1513-yil bahorigacha Sayramni o‘z qo‘lida ushlab turgan amir Kattabek uni Shayboniylarga emas, balki ularning ashaddiy raqibi bo‘lgan qozoq xoni Qosimxonga topshiradi. Natijada qozoqlar Shayboniylarning Turkiston va Toshkentdagi mulklariga jiddiy xavf sola boshlaydilar.

Biroq bundan oldin, ya’ni Bobur mirzoning mag‘lubiyatidan so‘ng Sevinchxo‘jaxon Farg‘ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. Haydar mirzo ushbu yurish Biskand jangidan uch oy o‘tib sodir bo‘lganini ta’kidlaganiga ko‘ra, uni 1512-yil noyabr oxiri - dekabr oylariga to‘g‘ri keladi, deb hisoblash mumkin. Ammo Sevinchxo‘jaxonning bu yurishi muvaffaqiyatli yakunlanmaydi. Bunga Sulton Saidxon tomonidan ishlab chiqilgan puxta mudofaa rejasi sabab bo‘lgan. U

Axsida Mir G‘uri Barlos, Marg‘ilonda Mir Doim Ali, Andijonda Said Muhammad boshchiligida qo‘shin qoldirib, o‘zi Andijon shimolidagi tog‘larga chekinadi[5:388, 398]. Qish boshlanayotgan va shimoldagi vaziyat keskin bo‘lib turgan paytda vodiy shaharlarini qamal qilishni maqsadga muvofiq deb topmagan Sevinchxo‘jaxon yurishni to‘xtatib, ortga qaytishga majbur bo‘ladi.

Bundan foydalangan Sulton Saidxon ham hujumkor siyosat yuritishga jur’at etadi. U 1513-yil bahorida Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududiga hujum qiladi. Farg‘ona qo‘shini bir necha mayda janglarda g‘alabaga erishadi. Haydar mirzo bu yurishda shaxsan o‘zi ishtirok etganini, janglarda Sulton Saidxonning alohida jasorat ko‘rsatganini ham qayd etadi. Biroq Farg‘ona qo‘shini Toshkentga yurish qilishga jur’at etmay, katta o‘ljalar bilan vodiyga qaytib ketadi.

1513-yil bahorida Sayramni egallagan qozoq xoni Qosimxon, bir oz vaqt o‘tgach, amir Kattabekning iltimosiga ko‘ra Toshkent tomon ham yurish boshlaydi. U Toshkentni zabt etmagan bo‘lsa-da, Sevinchxo‘jaxonni bir muddat qamal qilib, shahar atrofini talon-taroj qilgach, qozoq dashtlariga qaytadi.

Qosimxonning Toshkent yurishi haqida xabar topgan Sulton Saidxon yana bir bor Sevinchxo‘jaxon ustiga yurish boshlaydi. Biroq Farg‘ona qo‘shini Kandirlik dovoniga yetib kelgan paytda Qosimxon ortga qaytgani ma’lum bo‘ladi va Sulton Saidxon ham yurishni to‘xtatishga qaror qiladi.

1513-yil yozida Sulton Saidxon Farg‘ona vodiysi qal’alarini mustahkamlab, o‘zi Mo‘g‘uliston orqali Qosimxon huzuriga yo‘l oladi. Qosimxon yordam berishdan bosh tortgach, Sulton Saidxon Shayboniylarga qarshi kurashda g‘alaba qozonish umidini butunlay yo‘qotadi.

1514-yil aprel-may oylarida Toshkent hokimi Sevinchxo‘jaxon boshchiligidagi Shayboniylar lashkari Farg‘ona vodiysi tomon yurish boshlaydi. Bu paytda Shayboniylarning Xuroson yurishi yakunlanib, asosiy e’tibor Movarounnahrga qaratilgan edi. Sulton Saidxon qarshilik ko‘rsatmasdan vodiydan chiqib ketadi va Qoshg‘arga chekinib, u yerda Saidiya davlatiga asos soladi.

Shayboniyxonning 1509-yilda qozoqlar ustiga qilgan yurishidagi muvaffaqiyatsizlik Farg‘ona vodiysiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu yurish natijalaridan norozi bo‘lgan Shayboniyxon suyurg‘ol egalari o‘rnini almashtiradi. Natijada Farg‘ona hokimi Jonibek sulton Karmana hududiga ko‘chiriladi, uning suyurg‘oli bo‘lgan vodiy esa Sevinchxo‘jaxonga in’om etiladi [4:141].

Alohida ta’kidlash joizki, Sevinchxo‘jaxon davrida Farg‘ona vodiysi Toshkent vohasi bilan birgalikda uning tasarrufida bo‘lgan. U o‘ziga markaz sifatida Toshkentni tanlab, vodiyni tayinlangan hokimlar orqali boshqargan.

Shayboniylar va Safaviylar davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi tarixiy voqealar rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ismoil Safaviyning hujumi natijasida Marv shahrida qamalda qolgan Shayboniyxonga yordamga yo‘l olgan sultonlar safida bo‘lgan Sevinchxo‘jaxon Toshkentdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Samarqand tomon yo‘l olishga majbur bo‘ladi. Bu haqda Muhammadyor ibn Arab Qatagon shunday yozadi: “Haqiqatan ham Sevinchxo‘ja sulton, Baroqxon laqabi bilan tanilgan Navro‘z Ahmad sulton va Keldi Muhammad sulton ismli o‘g‘illari bilan Toshkent, Turkiston, Axsi va Andijon qo‘shinlariga bosh bo‘lib, xalifalik taxti tomon kelayotgan edilar”.

Shayboniyxonning Marvdagi halokati va Bobur mirzoning Puli Sangin jangidagi g‘alabalaridan so‘ng Sevinchxo‘jaxon boshqa shayboniy sultonlar qatori Turkiston shahriga chekinishga majbur bo‘ladi.

Manbalarda qayd etilishicha, Marg‘ilon shahri aholisi bir necha bor o‘z mahalliy hokimlari faoliyatidan norozi bo‘lib, bevosita Toshkent xoniga murojaat qilgan. Ushbu murojaatlar asosida Marg‘ilon hokimlariga nisbatan tegishli choralar Toshkent xoni tomonidan ko‘rilgan. Mazkur holat Toshkent xonining Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi ma’muriy va siyosiy jarayonlarga faol aralashganini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, Farg‘ona vodiysidagi yirik shaharlar - Axsi, Andijon, Marg‘ilon va Xo‘jand hokimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Toshkent xoni Sevinchxo‘jaxonga bo‘ysungan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu holat Toshkentning nafaqat siyosiy markaz, balki Farg‘ona vodiysi ustidan oliy nazoratni amalga oshirgan markaziy hokimiyat sifatidagi mavqeini tasdiqlaydi.

Sevinchxo‘jaxon vafotidan so‘ng hokimiyat uning o‘g‘li Keldi Muhammad qo‘liga o‘tdi. Keldi Muhammad Toshkent shahridan turib davlatni boshqargan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi ham uning davlati tarkibida bo‘lgan. Sevinchxo‘jaxon davrida shakllangan boshqaruv tizimi Keldi Muhammad hukmronligi davrida ham saqlanib qolib, Farg‘ona vodiysi Axsi, Andijon, Marg‘ilon va Xo‘jand kabi yirik shaharlarga bo‘lingan holda boshqarilgan.

Keldi Muhammad sulton (tarixiy manbalarda Sulton Muhammad Bahodir nomi bilan ham tilga olinadi) otasi Sevinchxo‘jaxon hukmronligi davrida Shohruhiya shahrida hokimlik qilgan. Sevinchxo‘jaxon 1525-yil 23-iyulda Toshkentda vafot etgach, Keldi Muhammad sulton taxtga o‘tirib, Toshkent markaziy siyosiy boshqaruv markazi sifatida saqlab qolindi. Shu bilan birga, uning ukasi Navro‘z Ahmadxon Shohruhiya shahriga hokim etib tayinlandi. Bu holat Toshkent va Farg‘ona mulklarining vorisi sifatida Shohruhiya shahrini boshqarish an’anaga aylanganini ko‘rsatadi.

Tarixchi Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an ma’lumotlariga ko‘ra, Keldi Muhammad sulton otasi vafotidan so‘ng Toshkent viloyatida o‘zbek amirlari ittifoqiga tayangan holda davlatni boshqargan, adolat va tartibga asoslangan siyosat yuritgan. Uning hukmronligi qisqa davom etgan bo‘lsa-da, markaziy hokimiyatni saqlab qolish va siyosiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat olib borilgan. Keldi Muhammad sulton 1532-yilda vafot etgan bo‘lib, uning hukmronlik davri sakkiz yilni tashkil etgan.

Keldi Muhammad sultondan Hasanxon ismli o‘g‘il qolgan bo‘lib, u qisqa muddat amakisi Baroqxon tarbiyasida bo‘lgan va tabiiy o‘lim bilan vafot etgan. Hasanxondan avlod qolmagan. Manbalarda, shuningdek, Keldi Muhammad sulton hukumatida Xoja Jaloliddin Yusuf Qoshg‘ariy bosh vazir lavozimini egallagani qayd etiladi [6:145].

XULOSA

XVI asrning birinchi yarmida Toshkent vohasining geosiyosiy mavqeyini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, Sevinchxo‘jaxon va Keldi Muhammadxon hukmronligi davrida ushbu hudud nafaqat yirik viloyat markazi, balki

Shayboniylar davlatining shimoliy chegaralarini himoya qiluvchi va Farg‘ona vodiysi ustidan oliy nazoratni amalga oshiruvchi markaziy siyosiy-ma’muriy bo‘g‘inga aylangan. Mazkur davrda Toshkent hukmdorlarining temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur, Sulton Saidxon va qozoq xonlari bilan olib borgan harbiy-diplomatik kurashlari mintaqada shayboniylar hukmronligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, natijada Axsi, Andijon, Marg‘ilon va Xo‘jand kabi yirik shaharlar hokimlari bevosita Toshkent xoniga bo‘ysundirilgan. Sevinchxo‘jaxon tomonidan asos solingan bu kabi markazlashgan boshqaruv tizimi uning vorisi Keldi Muhammadxon davrida ham muvaffaqiyatli davom ettirilib, o‘zbek amirlari ittifoqiga tayanilgani va Shohruxiya shahrining voris sultonlar qarorgohiga aylanish an’anasi davlat institutlarining barqarorligini ta’minlagan. Shunday qilib, ushbu hukmdorlar davri Toshkentning Movarounnahr siyosiy hayotidagi yetakchilik maqomini belgilab bergan muhim tarixiy bosqich sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 429 b.
2. Arslonzoda R.A. Manbashunoslik: O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Classic, 2022. – 348 b.
3. Donyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 451 b.
4. Fazulloh ibn Ro‘zbexon. Mehmonnomayi Buxoro. – Toshkent: Sharq, 2014. – 214 b.
5. Mirzo Muhammad Xaydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq, 2010. – 719 b.
6. Zayniddin Vosifiy. Badoye’ ul-vaqoe. – Toshkent: O‘zbekiston, 1979. – 320 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.
8. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: Bayoz, 2021. – 246 b.

Кимсанова Р.Х.
Студентка 3 курса исторического факультета
Ферганский государственный университет
RushanaKhairullayevna@gmail.com

ТАШКЕНТСКОЕ ПРАВЛЕНИЕ В ПЕРИОД СЕВИНЧИХОДЖАХАНА И КЕЛДИ МУХАММАД-ХАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается период правления видных представителей династии Шейбанидов - Севинчходжа-хана и Кельди Мухаммад-хана в Ташкенте. Основное внимание уделяется комплексному анализу политических процессов и военно-стратегических аспектов того

времени. Автор детально исследует механизмы государственного управления и роль региона в системе Шейбанидского государства.

Ключевые слова: Шейбаниды, Ташкент, Севинчходжа-хан, Кельди Мухаммад-хан, политическое управление, военная стратегия, XVI век, Мавераннахр.

Kimsanova R.Kh.
The 3rd year student, Faculty of History
Fergana State University
RushanaKhairullayevna@gmail.com

TASHKENT RULE DURING THE PERIOD OF SEVINCHIKHOJAKHAN AND KELDI MUHAMMAD KHAN

ABSTRACT

This article examines the governance of Tashkent under the reign of Sevinchkhoja Khan and Keldi Muhammad Khan, two prominent figures of the Shaybanid dynasty. The research primarily focuses on the political dynamics and military strategies of the period, providing a scholarly analysis of the administrative significance and geopolitical influence of the Tashkent region within the Shaybanid state framework.

Key words: Shaybanids, Tashkent, Sevinchkhoja Khan, Keldi Muhammad Khan, political governance, military strategy, 16th century, Mavarannahr.

Mamataliyeva A.Y.
«Tarix» kafedrasi 1-bosqich magistranti
Farg‘ona davlat universiteti
Arofatxon03@gmail.com

O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN’ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek milliy oshxonasining global miqyosda brendlash jarayoni, uning shakllanish omillari hamda zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy gastronomiyaning xalq madaniyati va an’analarini aks ettiruvchi muhim omil sifatidagi o‘rni yoritilib, uni xalqaro miqyosda targ‘ib etish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘zbek milliy oshxonasini global brend sifatida rivojlantirishda davlat siyosati, xususan, so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarning ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada milliy taomlar, jumladan palov an’anasining madaniy meros sifatidagi o‘rni ham qisqacha yoritilib, gastronomik turizm, madaniy diplomatiya va brendlash jarayonlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot yakunida o‘zbek milliy oshxonasini xalqaro maydonda samarali targ‘ib etish hamda uni barqaror gastronomik brend sifatida rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari yuzasidan xulosalar beriladi

Kalit so‘zlar: o‘zbek milliy oshxonasi, gastronomiya, brend, madaniy meros, palov, global marketing

KIRISH

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda “milliy brend” tushunchasi davlatning ijobiy xalqaro imijini shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik resurs sifatida talqin etiladi. O‘zbek milliy oshxonasini global brend sifatida targ‘ib etish ulkan iqtisodiy va madaniy istiqbollarga ega. Hozirda bu yo‘nalishda gastronomik turizm, madaniy diplomatiya va eksport salohiyatini oshirish asosiy yo‘nalishlar bo‘lib xizmat qilmoqda. S. Anholtning milliy brending konsepsiyasiga ko‘ra, mamlakat imiji eksport, turizm, madaniyat, investitsiya muhiti va diplomatiya kabi yo‘nalishlarning uyg‘unligi asosida shakllanadi [8:26]. Shu nuqtai nazardan, gastronomiya milliy brend tarkibidagi muhim qism hisoblanadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

O‘zbekistonda milliy oshxonani global brend sifatida shakllantirish jarayoni 1991-yildan buyon bosqichma-bosqich rivojlanib keldi. Dastlabki shakllanish davri 1991-2016-yillarni o‘z ichiga olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu davrda milliy oshxona asosan madaniy merosning bir qismi sifatida saqlandi va dastlabki institutsional asoslar yaratildi:

1992-yil 27-iyulda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tashkil etildi [2]. Bu turizmni, shu jumladan gastronomik salohiyatni davlat darajasida tartibga solishning boshlanishi bo‘ldi. O‘zbekistonda jahon me’yorlariga muvofiq

keladigan sayyohlik tizimini vujudga keltirish bilan bog‘liq holda gastronomiyani ham rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

Ushbu sohani rivojlantirish doirasida yirik xorijiy firmalar va kompaniyalar bilan birga qo‘shma turistik xizmatlar va korxonalarni tashkil etish rejalariga ko`ra dastlabki ishlar amalga oshirilgan. Jahon bozorida talab qilinayotgan yangi turistik marshrutlar va xizmatlarning turlarini tatbiq qilish rejalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston hududida ish yurituvchi barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga turizm sohasida shug‘ullanish huquqini beradigan sertifikatlarni topshirish hamda ular faoliyatini nazorat qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Chet ellardagi vakolatxonalar, byurolar orqali respublikaning turizm sohasidagi imkoniyatlarini reklama va targ‘ib qilish muhim edi.

2012-yilda O‘zbekiston “Oshpazlar uyushmasi” tashkil etildi [1]. Bu milliy oshxona standartlarini joriy etish va oshpazlarni xalqaro musobaqalarga tayyorlashda muhim qadam bo‘ldi. Ungacha bo‘lgan davrda milliy taomlar asosan an’anaviy “usta-shogird” maktablari orqali rivojlangan bo‘lsa, uyushmaning tuzilishi sohaga professional va zamonaviy yondashuvni olib kirdi.

2016-yilda O‘zbek palovi an‘analari UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi milliy gastronomiya tarixida tub burilish nuqtasini tashkil etdi. Bu o‘zbek oshxonasining ilk yirik global e’tirofi edi. Palovning bu ro‘yxatga kiritilishi O‘zbekistonning xalqaro turistik reytinglardagi indeksini keskin oshirdi. Natijada etnogastronomik turizm mamlakat iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

2017-2024-yillarni gastronomiya sohasida jadal rivojlanish va brend yaratish davri sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Bu davrda gastronomik turizm alohida soha sifatida ajralib chiqdi. Harakatlar strategiyasi qabul qilinib [3], unda “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish, turizm sohasida biznesni yuritish bo‘yicha qulay sharoitlarni yaratish, jahon tan olgan brendlarni, xorijiy investorlarni faol jalb etish, yangi turistik marshrutlarni yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini kuchaytirish, turizmni kengaytirish, jumladan, yangi turistik mahsulotlar yaratish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Yuqoridagi vazifalar bajarilishi natijasida, O‘zbekistonning so‘ngi yillardagi gastroturizm sohasida erishgan yutuqlari turli xalqaro tashkilotlar reytingida ham eks etdi. Bunga misol, National Geographic Traveler nashrining ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2018-yilda “Gatronomik turizm” kategoriyasida g‘olib bo‘ldi [7:10].

2019-yil 5-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmon imzolandi [4]. Bu hujjat bilan viza rejimi soddalashtirildi va gastronomik marshrutlarni rivojlantirishga yo‘l ochildi. Shu yili avgust oyida O‘zbekiston Gastronomik turizm assotsatsiyasi ham o‘z faoliyatini boshladi.

2023-yilda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida milliy brendlarni (kamida 50 ta) xalqaro bozorga olib chiqish va gastronomik festivallarni tizimli tashkil etish vazifasi qo‘yildi. 2024-yildan esa turizm infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha yangi chora-tadbirlar doirasida tunu-kun ishlaydigan gastronomik

ko‘chalar (masalan, Toshkentdagi T. Shevchenko ko‘chasi) tashkil etila boshladi [6].

Gastronomik brend sayyohlar uchun kuchli magnit hisoblanadi. Jozibali oshpazlik namunalari insonlarda osongina esda qoladi va bu ko‘pincha ma’lum bir mintaqaga qayta-qayta kelish uchun sabab bo‘ladi. Milliy oshxona mahalliy madaniyat bilan tanishish usuli bo‘lib, mahalliy aholining xarakteri va mentalitetini aks ettiradi [9:186].

O‘zbekiston o‘ziga xos gastronomik turizm salohiyati va turli xil oshxona madaniyatiga ega davlat bo‘lib, milliy taomlarimiz: palov, sho‘rva, mastava, somsa, norin va non mahsulotlari chet ellik sayyohlar orasida doim kata qiziqish uyg‘otgan. Turizm tashkilotlari so‘ngi yillarda gastronomik festivallar va taom ko‘rgazmalari kabi tadbirlar tashkil etib kelmoqda. Bunday tadbirlar gastronomik turizmni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Palov O‘zbekistonning haqiqiy vizit kartasiga aylanib ulgurgan, brend deb aytish mumkin bo‘lgan taomidir. Dunyoning turli chekkalaridan kelgan sayyohlar uchun palov tayyorlash jarayonini bevosita kuzatish va undan bahramand bo‘lish — milliy qadriyatlarimizni tushunish hamda o‘zbekona mehmondo‘stlikni his qilish uchun eng qisqa va mazali yo‘l deb aytish mumkin. O‘zbekistonning har bir go‘shasida tayyorlanadigan palovning o‘ziga xos siri va mazasi borligini inobatga olsak, uning dunyoni lol qoldirayotganiga hayron qolmasa ham bo‘ladi. Masalan, rossiyalik jurnalist A. Jdanov bu haqida shunday ta’kidlagan edi: “O‘zbekcha palov tayyorlashning yuzdan ortiq retseptlari sanab o‘tilgan. Har bir yer aholisi uni o‘ziga xos tarzda tayyorlaydi: qo‘qoncha palovni toshkentcha yoki buxorocha bilan adashtirish mumkin emas” [10:246].

Gastronomik turizm mahalliy madaniyat va qadriyatlarni saqlab qolishda muhim omil sanaladi. Bu sohani rivojlantirish orqali milliy oshxona an’analari, qadimiy taom tayyorlash usullari tiklanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, milliy taomlarni global brendga aylantirish uzoq muddatli strategiyani talab qiladi. Masalan, Italiya pitsa va pastani, Yaponiya sushini, Turkiya kebabni, Janubiy Koreya kimchini madaniy diplomatiya vositasiga aylantirgan. Bu tajribalar standartlashtirilgan retseptlar, sifat, kuchli marketing kompaniyalari muvaffaqiyat omillari ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida ham milliy taomlar uchun yagona sifat standarti va geografik ko‘rsatkich tizimini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida gastronomik brendni rivojlantirish quyidagi mexanizmlarni talab etadi:

- Gastro-blogerlar va influenserlar bilan hamkorlik;
- YouTube va Instagram platformalarida oshpazlik kontentini kengaytirish;
- Virtual master-klasslar va online gastronomik festivallar;
- Milliy taomlar bo‘yicha ko‘p tilli veb-platforma yaratish.

Milliy oshxonani brendlash gastronomik turizm oqimini oshiradi, restoran biznesini rivojlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

XULOSA

O‘zbek milliy oshxonasini global brend sifatida shakllantirish masalasi madaniy, institutsional va iqtisodiy omillarning o‘zaro integratsiyasi asosida amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, global brend sifatida barqaror mavqega erishish uchun faqat madaniy e’tirof yetarli emas. Bu jarayon sifat menejmenti, standartlashtirish, hududiy gastronomik klasterlarni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish hamda raqamli kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, gastronomik turizmni innovatsion marketing texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish milliy oshxonani tajribaviy mahsulot sifatida xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 10.10.2012 yildagi 289-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekturizm” Milliy Kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida Farmoni, 27.07.1992 yildagi PF-447-son // https://lex.uz/docs/-223878

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son // https://lex.uz/docs/-3107036

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5611-son Farmoni

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son // https://lex.uz/doc-passport/-6600413

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 18.07.2024 yildagi PF-102-son // https://lex.uz/uz/docs/-7031233

7. Abdullayeva M. O‘zbekistonda turizm brendini yaratish: Imkoniyatlar va muammolar // CABAR.asia tahliliy platformasi. – 2022 16-avgust.

8. Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. – London: Palgrave Macmillan, 2007. – 160 p.

9. Файзиева С. Влияние гастрономического бренда на формирование туристского региона // Пандемиядан кейинги шароитда туризмнинг ривожланиши: муаммолар ва ечимлар: республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2022.

10. Назаров Р. Узбек ошхонасидаги тарихий анъаналар // Узбекистон макон ва замонлар оша: социомаданий альманах / авт. идеи проекта М. Клингенберг; рук. проекта К. Калонов; науч. конс. М. Рожанский. – Ташкент: ООО «OPTIMAL LIGHT», 2011.

Маматалиева А.Ю.
Магистрант 1-го курса кафедры «История»
Ферганский государственный университет
Arofatxon03@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ КУХНИ И ТРАДИЦИИ ПЛОВА КАК НАЦИОНАЛЬНОГО БРЕНДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются процессы брендинга узбекской национальной кухни на мировом уровне, факторы её формирования и современные направления развития. В исследовании освещается роль национальной гастрономии как важного фактора, отражающего народную культуру и традиции, а также рассматриваются процессы её продвижения на международной арене. Кроме того, анализируется значимость государственной политики в развитии узбекской кухни как глобального бренда, в частности, указов и постановлений, принятых в последние годы. В статье также кратко рассматривается роль национальных блюд, в том числе традиции приготовления плова, как объекта культурного наследия, и показана их связь с гастрономическим туризмом, культурной дипломатией и процессами брендинга. В заключении исследования представлены выводы по эффективному продвижению узбекской национальной кухни на мировом рынке и перспективные направления её развития как устойчивого гастрономического бренда.

Ключевые слова: узбекская национальная кухня, гастрономия, бренд, культурное наследие, плов, глобальный маркетинг.

Mamataliyeva A.Yu.
1st-year Master's student at the department of «History»
Fergana State University
Arofatxon03@gmail.com

FORMATION OF UZBEK NATIONAL CUISINE AND PILAF TRADITION AS A NATIONAL BRAND

ABSTRACT

This article analyzes the process of branding Uzbek national cuisine on a global scale, its formation factors, and modern development trends. The research highlights the role of national gastronomy as a crucial factor reflecting folk culture and traditions, while examining the processes of its international promotion. Furthermore, it analyzes the significance of state policy in developing Uzbek national cuisine as a global brand, particularly the decrees and resolutions adopted in recent years. The article also briefly explores the role of national dishes,

including the tradition of pilaf (palov), as a cultural heritage, demonstrating its connection to gastronomic tourism, cultural diplomacy, and branding processes. In conclusion, the study provides insights into the effective promotion of Uzbek national cuisine in the international arena and outlines prospective directions for its development as a sustainable gastronomic brand.

Key words: Uzbek national cuisine, gastronomy, brand, cultural heritage, pilaf (palov), global marketing.

Мусаев Н.У.
«Ўзбекистон тарихи» кафедраси профессори, т.ф.д.
Ўзбекистон Миллий университети
MusayevN@gmail.com

РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ

АННОТАЦИЯ

Европада капиталистик ишлаб чиқаришнинг ривожланиши Россия саноат ишлаб чиқаришига таъсир кўрсатди, бу ерда шаклланиб келаётган буржуазия дастлаб тўқимачилик саноатига эътиборини кучайтирди ва бозорлар ҳамда хом ашё қидириб Кавказ ва Ўрта Осиё бозорлари кўз олайтирди. Улар АҚШдан талаб катта бўлган навларини келтиришди. Туркистон темир йўли ишга туширилгач пахта етиштириш ва саноат корхоналари қуришга қизиқиши ошган кўплаб рус ва хорижий компаниялар кириб келдилар.

Калит сўзлар: АҚШдаги фуқаролар уруши, Чоризм маъмурлари, ҳарбий-феодал идора усули, рус буржуазияси, Кавказ ва Ўрта Осиё бозорлари, пахтачилик, шовинистик ҳаракатлар.

КИРИШ

XIX аср ўрталарида Европа мамлакатларида капиталистик ишлаб чиқариш жараёнларининг ривожланиши Россия каби ҳарбий-феодал идора усулига асосланган давлатларга ҳам ўз таъсирини ўтказа бошлади. Европанинг сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан қудратли бўлган Англия, Германия, Италия, Франция каби мамлакатларда саноат ишлаб чиқариши бўйича фан техника соҳасида эришилган ютуқлар бу жиҳатдан анча орқада бўлган Россияга ҳам кириб кела бошлади. Ўша вақтда Россия империясининг бошқарув тизими асосан дворянлар ва помешчиклар манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган бўлсада, янгидан шаклланиб келаётган буржуазия билан ҳам ҳисоблашишга мажбур эди. Чунки, бу даврда капиталистик саноат ишлаб чиқариш усуллари шаклланиб янги саноат марказлари вужудга кела бошлаган, завод ва фабрикалар сони кўпайган, транспорт алоқалари яхшиланган, урбанизация жараёни тезлашиб, шаҳарлар кенгая бошлаган эди. Бу ишларнинг бошида турган буржуазия мамлакат иқтисодий тараққаётида етакчи ўринни эгаллай бошлади.

Айниқса, 1861-йилда Россияда деҳқонлар қарамлигини бекор қилувчи ислоҳотдан кейин эркинликка эришган деҳқонларнинг шаҳарларга оқими тезлашиб, қўшимча ишчи кучини яратдилар. Бу ҳол Россияда саноат ишлаб чиқаришининг жонланиб, капиталистик муносабатларнинг тезлашишига олиб келди. Бироқ, Россия саноатининг малака жиҳатидан Европага нисбатан орқада бўлган ишчилари тайёрлаган маҳсулотлар Европа бозорларидаги рақобатга бардош бера олмади. Шундан кейин рус буржуазияси Кавказ ва Ўрта Осиё бозорларини эгаллаш ҳаракатига тушдилар.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Дунё капитализмдан империализм босқичига ўта бошлагач босқинчилик орқали осон бойиш илинжида юрган корчалонлар Буюк Британия томонидан Ҳиндистонни босиб олиниши ва уни тожидаги бебаҳо жавоҳирга айлантириб олишига ҳавас ва ҳасад билан қарашиб, уни қайта-қайта эътироф эта бошлашган эди. Чоризм маьмурлари ҳам имкониятдан фойдаланиб қолиш учун Ўрта Осиёга босқинчилик ҳаракатларини бошладилар. Бу даврда Ўрта Осиё хонликлари ўртасидаги ўзаро зиддиятлар ва адоватлардан усталик билан фойдаланган рус маъмурияти ва генераллари қисқа вақт ичида ўлканинг катта қисмини эгаллаб, уни мустамлакага айлантиришда жонбозлик кўрсатдилар. Россия империяси томонидан босиб олинган ҳудудларда мустаҳкам ўрнашиб олиш ва уларни идора қилиш учун 1867-йили Туркистон генерал- губернаторлиги ташкил этилди.

Илгари Вильно генерал-губернатори бўлган, бироқ Болтиқ бўйида юритган шовинистик ҳаракатлари учун ишдан олинган айёр генерал фон К.П.Кауфман Туркистон генерал-губернатори қилиб тайинланди. Ўзига ўзига берилган “Туркистон ўлкасида тартиб ўрнатувчи” деган номни оқлаш учун 15 йил (1867-1882) давомида чоризмнинг ўлкада мустамлакачилик сиёсатини мустаҳкамлаш учун садоқат билан хизмат қилди. К.П.Кауфман ва унинг издошлари Россия империяси ҳамда рус буржуазияси манфаатлари учун ўлкани хом ашё базаси ва саноат маҳсулотларини сотиш бозорига айлантиришда жонбозлик кўрсатдилар. Натижада, Туркистон генерал-губернаторлиги ҳудуди янги босиб олинган ерлар ҳисобига мунтазам кенгайтириб борилди. Унинг таркибига 1868-йили Зарафшон округи, 1873-йили Амударё бўйлари, 1867-йили Фарғона, 1899-йили Каспийбўйи вилоятлари қўшиб олинди. Шундай қилиб, генерал-губернаторликнинг жаъми майдони 1533255 км. квадратни ташкил этди[1].

Чоризм ҳукумати ўлкани қўлда ушлаб туриш учун босиб олишнинг ўзи етарли эмаслигини ҳис қилишиб, бу ерга Россиянинг марказий районларидан “ортиқча” нотинч аҳолини кўчириш сиёсатини олиб бордилар. Туркистонда тафтиш ишларини олиб борган сенатор К.К.Пален Россия манфаатларини кўзлаб қуйидаги фикрларни баён қилган: “Бу ўлка Россияга қўшилган кундан бошлаб рус ҳукуматни икки томонлама: 1) молиявий сиёсат нуқтаи-назаридан давлатнинг даромад манбаи ва товарлар учун янги бозор сифатида; 2) мустамлакачилик сиёсати нуқтаи-назаридан ортиқча аҳолини жойлаштириш учун янги вилоят сифатида қизиқтиради[2]”. Чекка ўлкаларга ортиқча аҳолини кўчириш шунчаки эҳтиёж учун қилинган иш эмас эди. Чунки, “Крепостной ҳуқуқни бекор қилиш” ҳақидаги ислоҳотдан кейин қишлоқ хўжалиги ишларидан бўшаган русийзабон аҳолининг катта қисми шаҳарларга келиб, турли соҳаларда (биринчи навбатда саноат тармоқларида) ишлашга мажбур бўлдилар. Илгари қишлоқ хўжалигида банд бўлган аҳолининг мунтазам суратда камайиб бориши, уларнинг иш қидириб шаҳарларга кела бошладилар. Капиталистик ишлаб чиқаришга хос бўлган бу жараёнга тўқнаш келган деҳқонлар ўзлари учун ёт бўлган саноат ишлаб чиқаришига мослашишга ёки бошқа юртларга кўчиб кетишга мажбур эдилар.

Бу даврда Россияда саноати буржуазияси нисбатан ривожланиб келаётган тўқимачилик хом ашёси танқислигини Туркистон пахтаси ҳисобига тўлдиришга киришди. П.Г. Галузо таъкидланидек, Ўрта Осиё Россия ҳукуматини Англиянинг Марказий Осиёга кириб келишига қарши стратегик курашда нафақат муҳим позиция сифатида, балки янги бозорларни «эгаллаб» олиш ҳамда эксплутация қилиш обьекти сифатида ҳам қизиқтирар эди. «Ўлкани бевосита босиб олишга ундовчи иқтисодий қизиқишлар заминида,- деб ёзади у, - рус савдо буржуазиясининг манфаатдорлиги ётар эди. Ўлка рус савдо капиталининг янги муомала райони сифатида босиб олинди. Рус савдо капиталининг операциялари ўлкада Россия саноати маҳсулотларини сотиш ва рус саноати учун хом-ашё олишга қаратилган бўлиб, савдо капиталининг манфаатлари, айни пайтда, саноат капиталининг манфаатлари ҳам эди. Бу ерда савдо капиталининг манфаати ва кон саноати манфаатлари қаердан бошланиб, қаерда тугашини ажратиб кўрсатишнинг иложи йўқ»[3].

Маълумки, Туркистон ўлкасини эгаллаб олиш учун олиб борилган босқинчилик урушлари даврида ўлкада пахта экиш кескин камайиб кетди. Натижада, йилига, ўртача 116654000 рубллик товар ишлаб чиқарган Россия тўқимачилик саноати 1868-йили Европа бозорларидан пахта сотиб олишни кўпайтиришга мажбур бўлди. Агар Россия, АҚШ даги 1861-1864 йилларда бўлган фуқаролар урушигача бўлган даврда Европа бозорларидан ҳар йили ўртача 3 млн. пудгача пахта сотиб олган бўлса, 1871-йили бу кўрсаткич 3225193 пудга ёки 48025715 рублга етди[4]. Бу пахтанинг асосий қисми воситачилар ёрдамида Ливерпул бозоридан сотиб олинган. Қолган қисми, яьни 639192 пуди (5972491 рубллик) Ўрта Осиёдан олиб келинган[5]. Бу Россияга ҳар йили ўртача 600-800 туяда келтирилган пахтанинг 21% ни ташкил этар эди. Албатта, Россия учун пахтани ҳали темир йўл қурилмаган шарқ мамлакатларидан кўра, темир йўлга ва портларга яқин бўлган Европа бозорларидан сотиб олиш арзон тушар эди.

Бироқ, АҚШдаги фуқаролар уруши туфайли Ливерпуль савдо ярмаркасига келадиган пахтанинг кескин камайиб кетиши, унинг нарзи кескиш ошиб кетишига сабаб бўлди. Пахта нархининг кескин ошиб кетишида фойдаланган туркистонлик савдогарлар маҳаллий ғўза навларини ҳам қимматлаштириб ўзлариюбордилар. Натижада, бир пуд пахтанинг нархи 6 рублдан 24 рублгача кўтарилди.

Туркистон пахтасининг Россия тўқимачилик саноати учун аҳамиятини яхши тушунган Туркистон генерал-губернатори К.П.Кауфман ўлкага америка пахтаси навларини келтиришга киришди. У 1868-йили Тошкент яқинидан махсус пахта майдони ажраттириб, К.Н.Раевский деган олим-ҳосилотга америка пахтаси уруғларини экиш ҳақида кўрсатма берди. Аммо, биринчи йили ғўзага ишлов беришдаги тажрибасизлик ва шу йили Тошкентга эрта тушган совуқ туфайли пахта яхши пишмади. Шундан кейин М.И.Бродавский ва В.И.Самолевскийлар пахтачилик бўйича тажриба орттириш учун АҚШга жўнатилди[6]. В.И.Самолевский Тошкентга қайтиб келгач, пахта тажриба хўжалигини бошқарди. Америка пахтасини

иқлимлаштириш тажрибалари самарали натижа берди. Ундан маҳаллий ғўзага нисбатан сифатли ва узун тола олина бошланди.

Маҳаллий халқлар вакилларидан америка пахта навини 1875-йили Тошкент яқинида, дастлаб Мулла Йўлчи Тўйчибоев экди. Бу нав Бухоро хонлигида, шунингдек, 1878-йили Андижон, Наманган, Қўқон ва Марғилонда ҳам экилган[7]. Янги пахта толаси Россия тўқимачилик корхоналарида синаб кўрилди ва яхши баҳо олди. Бироқ, бу нав кам ҳосилли бўлганлиги учун деҳқонларни қаноатлантирмас эди. Ниҳоят, XIX асрнинг 80-йилларида америка пахтасининг «Упланд» нави маҳаллий шароитга мос тушиб, сифатли тола ва кўп ҳосил бера бошлади. Ўлкада кўп ҳосил берадиган пахта навларининг экилиши пахтадан келадиган даромаднинг ошишига ва умумий пахта майдонларини кенгайишига олиб келди. Агар, 1883-йили америка нави бир неча десятина майдоннигина эгаллаган бўлса, 1884-йили у 450 десятинага, 1885-йили 1100 десятинага, 1886-йили 10 баробардан зиёд, кўпайиб 12000 десятинага, 1887-йили эса 14500 десятинага етди[8].

Янги пахта толаси Россия тўқимачилик корхоналарида синаб кўрилди ва яхши баҳо олди. Бироқ, бу нав кам ҳосилли бўлганлиги учун деҳқонларни қаноатлантирмас эди. Ниҳоят, XIX асрнинг 80-йилларида америка пахтасининг «Упланд» нави маҳаллий шароитга мос тушиб, сифатли тола ва кўп ҳосил бера бошлади. Ўлкада кўп ҳосил берадиган пахта навларининг экилиши пахтадан келадиган даромаднинг ошишига ва умумий пахта майдонларини кенгайишига олиб келди. Агар, 1883-йили америка нави бир неча десятина майдоннигина эгаллаган бўлса, 1884-йили у 450 десятинага, 1885-йили 1100 десятинага, 1886-йили 10 баробардан зиёд, кўпайиб 12000 десятинага, 1887-йили эса 14500 десятинага етди[9].

Туркистонда тайёрланаётган пахтанинг миқдори кўпайишига қарамасдан, у Россия тўқимачилик саноатининг 1/5 қисми эҳтиёжларини ҳам қондира олмас эди. 1887-йили Россияда 500 дан ошиқ ип-йигирув ва тўқимачилик корхоналари ишлаб, улар йилига 231684000 рубллик маҳсулот ишлаб чиқарар, бунинг учун йилига қарийб 11 млн. пуд пахта талаб қилинар эди . Бу даврда АҚШда ҳар йили ўртача 84 млн. пуд, Шарқий Ҳиндистонда 27 млн. пуд, Хитойда 16 млн. пуд, Мисрда 9 млн. пуд пахта етиштирилган. Булардан ташқари, яна 10 дан ошиқ мамлакатларда пахта экилиб, дунёда жами етиштирилган пахта 1526675000 пудни ташкил этар эди[10]. Шундай қилиб, жаҳонда етиштирилган пахтанинг 55 фоизидан ошиқроғини АҚШ, 17 фоизини Шарқий Ҳиндистон ва 10 фоиздан ошиғини Хитой етказиб берган.

Пахтага бўлган талабнинг ошиб бориши маҳаллий аҳолидан ташқари йирик рус капиталистларини ҳам ўзига жалб қилди. XIX аср охирларида улар пахтага ихтисослашган йирик хўжаликлар туза бошладилар. Биргина Тошкент шаҳри атрофида тузилган бундай хўжаликларнинг пахтазорлари 4000 десятина бўлиб, бу жами пахта майдонининг 20% ни ташкил қилган. Бундай хўжаликлар орасида савдогар Беляковнинг 620 десятина, Катта Ярославль мануфактурасининг 400 десятина ва Тарсиннинг 200 десятина

ерлари бўлган, Фарғона вилоятида рус хўжаликлари 500 десятина ерда пахта етиштиришган, шундан 100 десятинаси Наманганда, 280 десятинаси Андижонда, 20 десятинаси Қўқонда ва 80 десятинаси Марғилонда жойлашган[11]. Бироқ, капиталистик типдаги бундай йирик пахтакор хўжаликлар ўз ерларидан самарали фойдалана олмадилар. Оқибатда, ишчиларини бўшатишга мажбур бўлиб, ерларини деҳқонларга чоракорлик шарти билан ижарага бердилар. Масалан, «Катта Ярославл мануфактураси» ишчиларини бўшатиб, ерларининг 304 десятинасини чоракорларга ижарага беришга мажбур бўлган.

Айрим капиталистик фирмалар ўз хўжаликларида янги технология ва тажрибаларни қўллашиб пахта етиштиришни кўпайтиришга ҳаракат қилдилар. 1890-йили Самарқанд вилоятининг Хўжанд уездида Кудрин фирмасига, шунингдек бошқа кишиларга тегишли бўлган 300 десятина ерда Америка пахтаси навлари етиштирила бошлади. Америка пахтаси навлари экилган майдонлар йилдан-йилга кенгайиб, 1888-йилдан 1915-йилгача Фарғона вилоятида 34,7 минг десятинадан 336,5 минг десятинага, ёки 950%, Сирдарё вилоятида 25,8 минг десятинадан 74,0 минг десятинага, ёки 240%, Самарқанд вилоятида 8 минг десятинадан 55,6 минг десятинага, ёки қарийб 700% кўпайди[12]. Кўриниб турибдики, америка пахта навларининг самарадорлигини деҳқонлар ҳам кўпроқ ҳис қила бошлаганлар.

Рус савдо-саноат буржуазияси ўлкада пахтачиликни мунтазам ривожлантиришга ҳаракат қилди. Ҳатто Бухоро ва Хива хонликларида ҳам пахтага эътибор кучайтирилди. Бу хонликларда экилган пахта толасининг сифати Фарғона ва Сирдарё вилоятлариникига нисбатан анча яхши бўлган. «Фарғона вилоятида пахта, шойи етиштириш анча ривожланган бўлса-да, бироқ сифати жиҳатидан Бухоро, айниқса, Хива маҳсулотларига нисбатан кейинда туради»[13]. Шунинг учун ҳам бу хонликларда америка пахтаси навларини экишга ортиқча эътибор берилмаган.

Россиянинг тўқимачилик саноати билан боғлиқ капиталистлари ва маҳаллий буржуазия вакиллари пахтачиликни ривожлантириш учун барча имкониятлардан фойдаланишга ҳаракат қилдилар. Пахтага бўлган доимий эҳтиёж рус савдо-саноат буржуазиясини ўлкада суғориш тизимларини ривожлантириш чораларини излашга мажбур қилди. Бу борада бир қатор таклифлар киритилди. Жумладан, ўша вақтда Россия империясида ер тузилиши ва деҳқончилик бошқармаси бошлиғи бўлиб ишлаган Кривошейн бир неча марта Туркистонда деҳқонлар банки фаолиятини кенгайтириш, ўлкада қишлоқ хўжалиги мактабини вужудга келтириш, суғориш ишларини яхшилиш масаласини кўтарди.

1886-йилги Низом асосида 1888-йил 2-августда қабул қилинган кўрсатмага биноан сувдан фойдаланишни бошқариш ҳуқуқи маҳаллий жамоалардан олиниб чоризм маьмуриятига берилди, суғориш тармоқлари кенгайтирила бошланди. И.И.Гейер маьлумотига кўра, суньий суғориш тармоқлари яхши ривожланган Фарғона водийсида Қорадарёдан 50 дан зиёд, Норин дарёсидан 14 та канал чиқарилди. Руслар иштирокида эса Сирдарёдан Хўжанд тумани ерларини суғориш учун Далварзин канали

қазилди. Бекобод қишлоғи яқинидан Николай I номланган канал қазилиши бошланди. У Мирзачўлда 8 минг десятина ерни суғоришга мўлжалланган эди. Булардан ташқари, Чирчиқ, Оҳангарон ва Арис дарёлари орқали суғориш тармоқлари янада кенгайтириш кўзда тутилди.

Туркистоннинг энг йирик сув тармоғи Амударёдан руслар эгаллаган ерларда 65 та канал қазилиб, улар 65 минг десятина ерни суғоришга мўлжалланган эди. Зарафшон дарёсидан қазилган каналлар орқали қарийб 400 минг десятина ер суғорилган. Шундан 268 минг десятинаси Бухоро амирлиги ихтиёрида бўлган[14]. Юқорида қайд қилинган суғориш тармоқлари Туркистоннинг асосий вилоятлари: Сирдарё, Самарқанд ва Фарғона ҳудудларига тарқалган. Каспий олди вилоятини асосан Мурғоб, Тажан ва Атрек дарёлари сув билан таъминлаган. Ҳиндиқуш тоғларидан бошланган Мурғоб дарёси, Отамиш ва Тўхтамиш каналлари орқали Марв воҳасини, Тажан дарёси Серахс ва Тажан воҳаларини, Атрек дарёси Красноводск уездининг жанубий қисмларини суғорган. Бироқ, бу суғориш тармоқлари, деҳқонларнинг сувга бўлган эҳтиёжларини тўла қондиришга қодир эмас эди.

Россия империяси ҳукумати ўлка иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида суғориш тармоқлари биринчи даражали аҳамиятга эга эканлигини инобатга олсада, уни такомиллаштиришга шошилмади. Масалан, 1899-йили Давлат кенгаши Мирзачўлда қарийб 65 километрлик канал қазиш учун 2025 минг сўм ажратган. Бироқ 1908-йилгача каналнинг бор-йўғи 11 км.дан зиёдроғи қазилган, холос[15]. Ўлкада суғориш ишлари билан шуғулланган Игнатьев комиссияси бундай лоқайдликка барҳам бериш мақсадида қуйидаги таклифни киритган: «…Ўлкада суғориш тармоқларини кенгайтириш учун ҳукуматнинг етарли маблағ ажратишга умид боғлаш бефойда. Бундай ҳолда суғориладиган давлат ерларини янги ариқлар қазиш шарти билан ҳамда суғориш иншоотларининг аҳамиятига қараб 3 йилдан 10 йилгача муддат билан давлат солиқларидан озод қилиш ҳисобига хусусий шахслар ва жамоаларга ижарага бериш зарур»[16]. Суғориш тармоқларига эътиборсизлик меҳнаткашлар оммасининг жиддий норозилиги сабаб бўлсада, чор маьмурлари бундай норозиликларга эътибор бермас эдилар.

XX аср бошларида Туркистонда хусусий суғориш корхоналари вужудга келди. Улар орасида «Сирдарё», «Қароқчиқум» ва «Пахтачилик» каби йирик ширкатлар бўлиб, Қўқон биржа қўмитасининг маълумотларига кўра, уларнинг эътибори «хазинага, жамоаларга ва хусусий шахсларга тегишли пахта майдонларини суғориш ва эксплуатация қилиш»га қаратилган эди[17]. Шу мақсадда «Сирдарё» ширкати 355 десятина ерни сотиб олган, қўшимча яна «Қорашаҳар» жамоасидан 234 десятина ерни ижарага олган, «Пахтачилик» жамияти турли қишлоқлардаги хусусий ер эгаларидан қарийб 1,7 минг десятина ерни ижарага олган[18]. Бундай хусусий ва ижарага олинган ерлар яна чоракорларга ижарага берилган. Бу жамиятнинг фаолияти капиталининг суғориш тармоқларига ҳам кириб келганлигини кўрсатади. Бироқ, бу капитал ишлаб чиқаришни такомиллаштириш учун эмас, балки

эксплутация қилишни кучайтириш орқали хусусий бойликни кўпайтириш учун сарфланди.

Россиянинг марказий шаҳарларида пахта хомашёсига бўлган талабнинг тобора ошиб бориши Туркистонда қайта ишлаш саноатининг шаклланишига туртки бўлди. 1870-йилда Самарқанд шаҳридаги 1610 та савдо ва ҳунармандчилик иншоотлари, жумладан, 12 та чоʻян қуйиш, 34 та шам-совун ва 30 та тери корхоналарини солиққа тортиш мақсадида улар умумий “завод” ва “фабрика” деб аталган. Бироқ, ҳақиқий саноат корхоналари асосан хомашёга дастлабки ишлов беришга ихтисослашди. Каспиёрти темир йўлининг қурилиши натижасида пахта тозалаш саноати иқтисодиётнинг етакчи тармоғига айланди ва заводлар сони 1893-йилдаги 14 тадан 1908-йилда 35 тага етди. 1915-йилга келиб Туркистон ўлкасидаги 1061 та саноат корхонасининг аксарияти (Самарқанд вилоятида 175 та) пахта тозалаш, ёғ-мой, вино-ароқ соҳаларига ихтисослашган эди[19].

Айрим капиталистик фирмалар ўз хўжаликларида янги технология ва тажрибаларни қўллашиб пахта етиштиришни кўпайтиришга ҳаракат қилдилар. 1890-йили Самарқанд вилоятининг Хўжанд уездида Кудрин фирмасига, шунингдек бошқа кишиларга тегишли бўлган 300 десятина ерда Америка пахтаси навлари етиштирила бошлади. Бу пахта навлари экилган майдонлар йилдан-йилга кенгайиб, 1888-йилдан 1915-йилгача Фарғона вилоятида 34,7 минг десятинадан 336,5 минг десятинага, ёки 950%, Сирдарё вилоятида 25,8 минг десятинадан 74,0 минг десятинага, ёки 240%, Самарқанд вилоятида 8 минг десятинадан 55,6 минг десятинага, ёки қарийб 700% кўпайди[20]. Кўриниб турибдики, америка пахта навларининг самарадорлигини деҳқонлар кўпроқ ҳис қила бошлаганлар.

Россиянинг тўқимачилик саноати билан боғлиқ капиталистлари ва маҳаллий буржуазия вакиллари пахтачиликни ривожлантириш учун барча имкониятлардан фойдаланишга ҳаракат қилдилар. Пахтага бўлган доимий эҳтиёж рус савдо-саноат буржуазиясини ўлкада суғориш тизимларини ривожлантириш чораларини излашга мажбур қилди. Бу борада бир қатор таклифлар киритилди. Жумладан, ўша вақтда Россия империясида “Ер тузилиши ва деҳқончилик бошқармаси” бошлиғи бўлиб ишлаган Кривошейн бир неча марта Туркистонда деҳқонлар банки фаолиятини кенгайтириш, ўлкада қишлоқ хўжалиги мактабини вужудга келтириш, суғориш ишларини яхшилиш масаласини кўтарди.

1886-йилги Низом асосида 1888-йил 2-августда қабул қилинган кўрсатмага биноан сувдан фойдаланишни бошқариш ҳуқуқи маҳаллий жамоалардан олиниб чоризм маьмуриятига берилди, суғориш тармоқлари кенгайтирила бошланди. И.И.Гейер маьлумотига кўра, суньий суғориш тармоқлари яхши ривожланган Фарғона водийсида Қорадарёдан 50 дан зиёд, Норин дарёсидан 14 та канал чиқарилди. Руслар иштирокида эса Сирдарёдан Хўжанд тумани ерларини суғориш учун Далварзин канали қазилди. Бекобод қишлоғи яқинидан Николай I номланган канал қазилиши бошланди. У Мирзачўлда 8 минг десятина ерни суғоришга мўлжалланган эди. Булардан ташқари, Чирчиқ, Оҳангарон ва Арис дарёлари орқали

суғориш тармоқлари янада кенгайтириш кўзда тутилди. Туркистоннинг энг йирик сув тармоғи Амударёдан руслар эгаллаган ерларда 65 та канал қазилиб, улар 65 минг десятина ерни суғоришга мўлжалланган эди. Зарафшон дарёсидан қазилган каналлар орқали қарийб 400 минг десятина ер суғорилган. Шундан 268 минг десятинаси Бухоро амирлиги ихтиёрида бўлган[21]. Юқорида қайд қилинган суғориш тармоқлари Туркистоннинг асосий вилоятлари-Сирдарё, Самарқанд ва Фарғона ҳудудларига тарқалган. Каспий олди вилоятини асосан Мурғоб, Тажан ва Атрек дарёлари сув билан таъминлаган. Ҳиндиқуш тоғларидан бошланган Мурғоб дарёси, Отамиш ва Тўхтамиш каналлари орқали Марв воҳасини, Тажан дарёси Серахс ва Тажан воҳаларини, Атрек дарёси Красноводск уездининг жанубий қисмларини суғорган. Бироқ, бу суғориш тармоқлари, деҳқонларнинг сувга бўлган эҳтиёжларини тўла қондиришга қодир эмас эди.

Россия империяси ҳукумати ўлка иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида суғориш тармоқлари биринчи даражали аҳамиятга эга эканлигини инобатга олсада, уни такомиллаштиришга шошилмади. Масалан, 1899-йили Давлат кенгаши Мирзачўлда қарийб 65 километрлик канал қазиш учун 2025 минг сўм ажратган. Бироқ 1908-йилгача каналнинг бор-йўғи 11 км.дан зиёдроғи қазилган, холос[22]. Ўлкада суғориш ишлари билан шуғулланган Игнатьев комиссияси бундай лоқайдликка барҳам бериш мақсадида қуйидаги таклифни киритган: «…Ўлкада суғориш тармоқларини кенгайтириш учун ҳукуматнинг етарли маблағ ажратишга умид боғлаш бефойда. Бундай ҳолда суғориладиган давлат ерларин янги ариқлар қазиш шарти билан ҳамда суғориш иншоотларининг аҳамиятига қараб 3 йилдан 10 йилгача муддат билан давлат солиқларидан озод қилиш ҳисобига хусусий шахслар ва жамоаларга ижарага бериш зарур»[23]. Суғориш тармоқларига эътиборсизлик меҳнаткашлар оммасининг жиддий норозилиги сабаб бўлсада, чор маьмурлари бундай норозиликларга эътибор бермас эдилар.

Суғориш тизимини яхшилашга бўлган талабнинг ошиб бориши туфайли капиталистик муносабатлар суғориш тармоқларига ҳам кириб кела бошлади. Ўлканинг суғориш тизими муаммоларидан усталик билан фойдаланган ишбилармонлар сув чиқариши қийин бўлган дарё ва сойлар бўйларига ўрнатиб олишган насосларидан баландликларга сув чиқариб, ўз эҳтиёжларидан ортган сувни насос сотиб олиш имкони бўлмаган деҳқонларга сотишган. Агар деҳқонлар мавсумда ерларини уч марта суғоришса, ҳар ботмон ер учун ўртача 60 сўм тўлашган. Шу йўл билан ишбилармонлар суғориб берган ҳар ботмон ер учун 40 сўм фойда олишган.

XX аср бошларида Туркистонда хусусий суғориш корхоналари вужудга келди. Улар орасида «Сирдарё», «Қароқчиқум» ва «Пахтачилик» каби йирик ширкатлар бўлиб, Қўқон биржа қўмитасининг маълумотларига кўра, уларнинг эътибори «хазинага, жамоаларга ва хусусий шахсларга тегишли пахта майдонларини суғориш ва эксплуатация қилиш»га қаратилган эди[24]. Шу мақсадда «Сирдарё» ширкати 355 десятина ерни сотиб олган, қўшимча яна «Қорашаҳар» жамоасидан 234 десятина ерни ижарага олган, «Пахтачилик» жамияти турли қишлоқлардаги хусусий ер эгаларидан қарийб

1,7 минг десятина ерни ижарага олган[25]. Бундай хусусий ва ижарага олинган ерлар яна чоракорларга ижарага берилган. Бу жамиятнинг фаолияти капиталининг суғориш тармоқларига ҳам кириб келганлигини кўрсатади. Бироқ, бу капитал ишлаб чиқаришни такомиллаштириш учун эмас, балки эксплутация қилишни кучайтириш ва хусусий бойлик тўплаш учун сарфланди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, чоризмнинг Туркистонда олиб борган мустамлакачилик сиёсати ўлка аҳолисининг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига жиддий таъсир кўрсатди. Ўлканинг рус савдо-саноат буржуазияси хом-ашё базасига айлантирилиши натижасида қуйидаги жараёнлар содир бўлди:

1. Жаҳон бозорида пахта нархининг ошиб бориши туфайли Туркистонда пахта етиштириш ва уни четга ташиб кетиш кучайди;

2. Пахтачиликнинг нисбатан сердаромад соҳага айланиши, унинг ўлка қишлоқ хўжалигидан бошқа экинларни (айниқса, Фарғона водийсида) сиқиб чиқаришига сабаб бўлди. Оқибатда, пахта яккаҳокимлиги учун замин яратилиб, ўлка аҳолисининг дон ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига эҳтиёжини кучайтирди;

3. Етиштирилаётган пахтанинг миқдори ва сифатига эътибор кучайиб, маҳаллий навлар ўрнига америка пахтаси навлари кўплаб экила бошлади;

4. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришига капиталистик бозор муносабатларининг кириб келиши қишлоқ аҳолиси ўртасида ижтимоий табақаланишни тезлаштирди. Ерлар бир гуруҳ мулкдорлар қўлида тўпланиб, ўз ерларидан ажралган деҳқонларнинг катта қисми ёлланма ишчиларга айландилар;

5. Қишлоқ хўжалигига товар-пул муносабатларининг кириб келиши туфайли, маҳсулот етиштирувчиларнинг катта қисми бозор муносабатларига тортилдилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Қаранг. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд, II-китоб. -Тошкент, 1957. 106-б.
2. Галузо П.Г. Туркестан-колония … -С. 14.
3. ЎР МДА, ф. И-1, р.16, ҳ.1701. в.9.
4. Ўша ерда. в.6.
5. Бабахонов М. Предпосильки революционного союза трудящихся. Туркестанского края с Российском пролетариатом. –Душанбе: «Ирфон», 1975. -С. 21.
6. Зиёев Х. Чоризм ва пахта яккаҳокимлиги // Шарқ юлдузи. 1991, №5.
7. Бабахонов М. Предпосильки революционного союза трудящихся. Туркестанского края с Российском пролетариатом. –Душанбе: «Ирфон», 1975. -С. 21.
8. Масальский В.И. Хлопковое дело в Средной Азии… -С. 13.
9. Зиёев Х .З. Чоризм ва пахта яккаҳокимлиги // Шарқ юлдузи, 1991, №5. 173-б.

10. Соколов Н.П. О характере естесвенно-исторических исследований Средней Азии до Октябрский революции. –Москва-Ташкент: САОГИЗ, 1933. -С. 40.

11. Соколов Н.П. О характере естесвенно-исторических исследований Средней Азии до Октябрский революции. –Москва-Ташкент: САОГИЗ, 1933. -С. 40.

12. Гейер И.И. Туркестан… -С. 56-57.

13. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае… -С. 107.

14. ЎР МДА, ф. И-1, р. 1008, ҳ. 177, в. 1886-1908.

15. Отчёт Кокандского биржевого комитета за 1913 г. –Коканд. 1914. -С. 53.

16. Ульмасов А.К. Создание социалитической экономике в Узбекистане. Рукопись дисс. на соиск. учен. степ. д. э. н. –Ташкент, 1969. -С. 74.

17. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября… -С. 29.

18. Мусаев Н. Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг вужудга келиши ва ривожланиши тарихидан (XIX асрнинг II ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2011. 20-б.

19. Гейер И.И. Туркестан… -С. 56-57.

20. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае… -С. 107.

21. ЎР МДА, ф. И-1, р. 1008, ҳ. 177, в. 1886-1908.

22. Отчёт Кокандского биржевого комитета за 1913 г. –Коканд. 1914. -С. 53.

23. Ульмасов А.К. Создание социалитической экономике в Узбекистане. Рукопись дисс. на соиск. учен. степ. д. э. н. –Ташкент, 1969. -С. 74.

24. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Ч. I… -С. 12.

Мусаев Н.У.
Д.и.н., профессор кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
MusayevN@gmail.com

УСИЛЕНИЕ ВНИМАНИЯ К РАЗВИТИЮ ХЛОПКОВОДСТВА В ТУРКЕСТАНЕ В ПЕРИОД ГОСПОДСТВА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

АННОТАЦИЯ

Развитие капиталистического производства в Европе оказало влияние на промышленное развитие России, где формировавшаяся буржуазия первоначально усилила внимание к текстильной промышленности и, стремясь к расширению рынков сбыта и поиску источников сырья, обратила свои интересы на рынки Кавказа и Средней Азии. Ими были завезены сорта хлопка, пользовавшиеся высоким спросом в США. После ввода в эксплуатацию Туркестанской железной дороги значительно возрос интерес к развитию хлопководства и строительству промышленных предприятий, вследствие чего в регион начали активно проникать многочисленные российские и зарубежные компании.

Ключевые слова: Гражданская война в США, Чиновники царской администрации, Военно-феодальная система управления, Русская буржуазия, Рынки Кавказа и Средней Азии, Хлопководство, Шовинистические движения.

Musayev N.U.
DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»
National university of Uzbekistan
MusayevN@gmail.com

STRENGTHENING ATTENTION TO THE DEVELOPMENT OF COTTON CULTIVATION IN TURKESTAN DURING THE PERIOD OF RUSSIAN IMPERIAL RULE

ABSTRACT

The development of capitalist production in Europe influenced Russia’s industrial growth, where the emerging bourgeoisie initially intensified its focus on the textile industry and, in pursuit of expanding markets and securing sources of raw materials, turned its attention to the markets of the Caucasus and Central Asia. Cotton varieties that were in high demand in the United States were introduced to the region. Following the commissioning of the Turkestan Railway, interest in cotton cultivation and the construction of industrial enterprises increased significantly, resulting in the active penetration of numerous Russian and foreign companies into the region.

Key words: American Civil War, Officials of the Tsarist Administration, Military-Feudal System of Governance, Russian Bourgeoisie, Markets of the Caucasus and Central Asia, Cotton Cultivation, Chauvinistic Movements.

Musayev A.B.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti
Farg‘ona davlat universiteti
shaxbo1990.ab@gmail.com

MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI

ANNOTATSIYA

Maqolada Ashtarxoniylar davriga oid Farg‘ona vodiysi siyosiy voqealarining yozma manbalarda aks etishi tadqiq qilingan. Vodiy hududi xonlikning sharqiy sarhadi bo‘lganligi sababli, manbalarda ushbu chekka mintaqaga oid ma’lumotlar nisbatan kam uchraydi. Bu holat esa siyosiy jarayonlar asosan faqat markaziy hududlar atrofida kechgan, degan yanglish xulosalarga olib kelishi mumkin. Manbalardagi ma’lumotlar tahlili XVII asrning birinchi yarmida vodiy siyosiy hayoti nihoyatda qizg‘in kechganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, Ashtarxoniylar sulolasi, Buxoro xonligi, Andijon, Boqi Muhammadxon, Imomqulixon, Keldi Muhammadxon, Abulay sulton.

KIRISH

Buxoro xonligining ashtarxoniylar davri tarixi bo‘yicha muarrixlar tomonidan xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatlarini o‘z ichiga olgan qator asarlar yozilgan. Ushbu manbalarda, asosan, xonlik markazidagi voqealarga ko‘proq urg‘u berilgan bo‘lsa-da, voqealarning davriy ketma-ketligida xonlikning sharqiy hududlari ham tilga olingan. Mahalliy tarixchilar bilan birga xonlikka qo‘shni bo‘lgan Safaviylar davlati, Yorkend xonligi, Boburiylar salatanati va Rossiya imperiyasida ham bevosita mavzuga oid manba, esdalik hamda rasmiy hujjatlar uchrab turadi. Mavjud manbalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil etish tufayli nafaqat Buxoro xonligining siyosiy tarixi, balki, Farg‘ona vodiysining XVII asrga oid yangi tafsilotlarini aniqlash va uni ilmiy jamoatchilikka yetkazish mumkin.

Mazkur davrga oid yozma manbalar yetarli darajada bo‘lib, ularning aksariyati fors tilidagi asarlar tashkil qiladi. Jumladan, Muhammad ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod”, Mahmud ibn Vali tomonidan 1640-yil yozilgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor”, Imomqulixonnoma, Ahmad ibn Shamsiddinning “Tarixi miftah ul-qulub”, Abdul Hamid Lohuriy “Bodshohnoma” (Podshohnoma), Shoh Mahmud Churosning “Tarix” kabi manbalar shu asarlar sirasiga kiradi. Yuqoridagi manbalar turli vaqt va makonda yozilganligi tufayli ularni tanqidiy, qiyosiy, xronologik metodlari asosida tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar taqdim etildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Buxoro xonligini bir yarim asrdan ziyod vaqt davomida idora etgan Ashtarxoniylar sulolasi davri o‘zbek davlatchiligi tarixining eng murakkab va tizimli tadqiq etilishi lozim bo‘lgan bosqichlaridan biri hisoblanadi. XVII asrga kelib, butun musulmon Sharqini qamrab olgan iqtisodiy o‘zgarishlar va Buyuk Ipak yo‘lining o‘z ahamiyatini yo‘qotishi natijasida yuzaga kelgan turg‘unlik jarayonlari mazkur sulola hukmronligi davriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shunga qaramay, Boqi Muhammadxon, Imomqulixon kabi hukmdorlar davrida xonlik o‘ziga xos siyosiy barqarorlik va madaniy-me’moriy yuksalishga erisha oldi. Biroq keyingi davrlarda kuchaygan separatistik kuchlarning harakatlari va sulolaviy ichki urushlar xalq xo‘jaligini og‘ir inqiroz va aholi turmush darajasining pasayishiga olib keldi. Mintaqadagi ushbu jarayonlarni, markaz va chekka viloyatlar, xususan, Farg‘ona vodiysi o‘rtasidagi munosabatlarni xolis va obbyektiv baholashda yozma manbalarining tanqidiy tahlili birlamchi va eng ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rganilayotgan davr bo‘yicha manbalar guruhida salmog‘li qismini tarixiy asarlar tashkil etadi. Bu manbalarning ayrimlari o‘zbek, rus, ingliz tiliga tarjima qilingan bo‘lsa-da, aksariyati eski o‘zbek hamda fors tilida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Farg‘ona vodiysining tanlangan tadqiqot davri bo‘yicha uchraydigan bu turkumdagi manbalarni ham geografik jihatdan to‘rt guruhga bo‘lishni lozim deb topdik:

1) Mahalliy tarixchilarning asarlari; 2) Eron (Safaviylar)da yozilgan manbalar; 3) Boburiylar saltanatida yaratilgan asarlar; 4) Yorkend xonligida bitilgan manbalar.

Dastlab mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan manbalarga to‘xtalsak. Muhammad ibn Arab Qatag‘onning 1610-yil yozilgan “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarning egallanishi”) fors tilida yozilgan muhim ma’lumotlarga boy manbadir. Asarda, asosan, shayboniylar sulolasi davridagi jarayonlar aks etsa-da, ba’zi o‘rinlarda, XVII asrning dastlabki o‘n yilligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Muallif Abdullaxon II va ashtarxoniy Boqi Muhammadxon saroyida xizmat qilganligi o‘sha davrda ro‘y bergan voqealarning ishtirokchisi sifatida u bergan ma’lumotlarning ahamiyatini oshiradi [11: 217]. Manbaning bugungi kungacha ikki nusxasi ma’lum. Asar olti bobdan iborat bo‘lib, so‘nggi ikki bob hali topilmagan. Manbani o‘rganish o‘tgan asrda boshlanib, uning nomi va muallifi haqidagi ilk bor M.A.Salohiddinova ilmiy jamoatchilikka ma’lum qilgan [10]. Bugungi kunda asar 2008-yil Tehron, 2009-yil esa Toshkentda fors va o‘zbek tillarida chop etilgan [8, 9]. Kitobda Keldi Muhammadxon haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qaydlar [9: 173], soxta Abdulg‘affor sulton va uning Andijon hamda Axsi ustidan hukmronlik qilgani [9: 174] haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Ashtarxoniylar sulolasi bo‘yicha yirik va nodir manba, shubhasiz, Mahmud ibn Vali tomonidan 1640-yil yozilgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor” (Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi) asari hisoblanadi. Muallifning otasi kosonlik bo‘lib shayboniy Pir Muhammadxon (1546-1567) zamonida Balxga ko‘chib kelgan [5: 223; 6: 66; 11: 222; 13: 194]. O‘ziga to‘q va ziyoli oilada tug‘ilganligi Mahmud ibn Valining keying hayotiga ijobiy ta’sir qildi. Muarrixning

Sayyid Mirakshoh Husayniyninng boy kutubxonasi bilan yaqindan tanishishi, uning olim bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynadi. 1626–1631-yilllarda Hindiston va Shri-Lankaga uzoq safar qildi. 1631-yil Balxga qaytgan olimni Nadr Muhammadxon iliq qarshi oldi hamda uni o‘z kutubxonasining kitobdori etib tayinladi. Ayni shu davrdan boshlab jami yetti jildlik va har biri to‘rt qismdan iborat “Bahr ul-asror” qomusiy asarini yozishga kirishdi. Muallif asarni quyidagi tartib bilan tuzadi:

I jild – Dunyoning yaratilishi, geografiya va jug‘rofiyaga oid ma’lumotlar;
II jild – Islomgacha bo‘lgan davr;
III jild – Payg‘ambar Muhammad alayhissalom tarixi;
IV jild – Xalifa va imomlar tarixi;
V jild – Abbosiylar xalifaligi va undagi mahalliy sulolalar tarixi;
VI jild – Chingizxondan Nadr Muhammadxongacha bo‘lgan davr;
VII jild – Amir Temurdan boburiy Shoh Jahongacha bo‘lgan tarix

Bunday yirik asarning bizgacha faqat I va VI jildlarigina yetib kelgan. Manbaning eng qimmatli rukni ashtarxoniylar davridagi jarayonlar aks etgan VI jildning 4-qismidir. Hozirda u Angliyadagi India Office kutubxonasida № 575 raqami bilan saqlanadi [4]. Tadqiqotimizda biz shu qismdan foydalandik. 1902-yildan ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan manbaning ayrim qismlari rus, fors tillariga tarjima qilingan [16, 17, 18]. Bugungi kungacha asar bo‘yicha juda ko‘p olimlar tomonidan maqola, dissertatsiya hamda adabiyotlar nashr etilgan.

Endi bevosita manbadagi ma’lumotlardan Farg‘ona vodiysiga tegishli jihatlarga e’tibor qaratsak. Keldi Muhammadxonning 1599-1603-yillarda O‘ratepa, Toshkent va Samarqandga hujumi, Andijonni keyingi davrlarda boshqargan Xonzoda, Abulay sulton, Fozilxo‘ja, Pir Muhammadxon kabi shaxslarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli qaydlar mavjud [4: 62b, 73a-73b, 103b-104b, 113a, 118b -119b].

Bu davrga mansub muhim manbalardan biri – Imomqulixonnoma (“امام قلی خان نامه”) asaridir. Yaqin vaqtlargacha manbaning muallifi Suhayl taxallusli noma’lum shaxs ekanligidan boshqa ma’lumot yo‘q edi. Oxirgi izlanishlar natijasida asarning muallifi Hofiz Tanish Buxoriy ekanligi isbotlandi [12: 256-266; 14: 60]. Manba bugungi kunda yagona nusxada O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida №89 tartib raqami bilan saqlanadi [2]. Muarrix asarni Imomqulixon buyrug‘i bilan nazmiy usulda yozgan. Hozirgacha biron tilga tarjima qilinmagan manbada Nadr Muhammadxonning Andijonga yurishi, Marg‘ilon uchun jang, Abul Muhammadxonning taslim bo‘lishi va yana ko‘plab bevosita vodiyga bog‘liq hodisalar haqida so‘z yuritilgan [2: 113a-115b, 115b-119b, 119b-121a, 132a-134a, 136a-138b].

Safaviylar davrida yashagan muarrix Ahmad ibn Shamsiddinning “Tarixi miftah ul-qulub” asarini alohida qayd etish mumkin [3]. Ushbu asar asosan g‘arb tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mavzu bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beradi. Afsuski, bizga ma’lum adabiyotlarda muarrixning safaviylar davrida yashaganligidan boshqa ma’lumotlar uchratmadik. “Tarixi miftah ul-qulub” asarining III jildi alohida qimmatga ega bo‘lib, unda Chingizxondan tortib Imomqulixongacha bo‘lgan davr haqida so‘z yuritilgan. Ushbu jild jami 564

sahifadan iborat bo‘lib, bugungi kunda Kembrij universiteti (University of Cambridge)ga qarashli Masih kolleji (Christ’s college) kutubxonasida D.d. 4.6 raqami bilan saqlanadi [1:312]. Manbani bizga taqdim etilishida o‘zlarining bemminat maslahat va yordamlarini ayamagan Kembrij universiteti kutubxonasining “Yaqin va O‘rta Sharq” bo‘limi boshlig‘i Yasmin Fagihi va Masih kolleji kutubxonachisi Katrin Askofga alohida minnatdorchilik bildirib o‘tmoqchiman.

Manbaning 554a-564b sahifalari ashtarxoniylar sulolasining Imomqulixongacha bo‘lgan siyosiy jarayonlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib unda Farg‘ona vodiysi bilan bog‘liq ayrim voqealar ham qayd etilgan. Masalan, Andijon hokimi Keldi Muhammadxonning Toshkent va Samarqand atrofida Boqi Muhammadxon bilan kurashi, 1613-yil ashtarxoniylarning vodiyga yurishi, Imomqulixon taassrufidagi hududlar kabi ba’zi tafsilotlari boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar mavjud [3: 556a-556b, 564a, 564a-565b]. Ushbu ma’lumotlar “Bahr ul-asror”, “Musaxxir al-bilod”, “Imomqulixonnoma” kabi manbalardagi ayrim ma’lumotlarni faktik jihatdan to‘ldiradi.

Boburiylar salatanatida yaratilgan tarixiy manbalarda Buxoro xonligi to‘g‘risida ham ayrim e’ tiborga molik ma’lumotlar qayd etilgan. Saroy tarixchilari tomonidan yaratilgan ushbu tarixiy asarlarda, asosan, Buxoro xonligining Balxga oid fikrlar o‘rin olgan. Shunday bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda Buxoro xonligining umumiy siyosiy holatlariga hukmdorlar misolida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Boburiy hukmdor Shoh Jahonning saroy tarixchisi Abdul Hamid Lohuriy “Bodshohnoma” (Podshohnoma) asarida ham muhim ma’lumotlar yozilgan. Shohjahon hukmronligining dastlabki yigirma yilligini qamrab olgan bu asar boshqa boburiy hukmdor Akbarshohga atab yozilgan “Akbarnoma” ga monand qilib bitilgan [19: 3]. Lohuriyning 1654-yilda vafot etganidan boshqa hayotiga oid ma’lumotlar uchratmadik. Asarni esa 1648-yil yozib tamomlagan. Unda Shoh Jahon hukmronligi davrida, asosan, Hindiston yarimorolidagi siyosiy voqealar keng yoritilganligiga qaramay, ba’zi o‘rinlarda Balx, Buxoro xonligida kechgan jarayonlar ham qayd etilgan. Jumladan, Nadr Muhammadxon davrini yoritishda muaarix Andijon xalqining qirg‘izlar talonchiligidan shikoyat qilganliklari, qalmoqlarning Toshkentga hujumi vaqtida Andijon lashkarining yordami hamda Boqibiy yuz isyoni haqida muarrix qisqa, lekin muhim ma’lumotlarni bergan [20: 437-438].

Tahminan 1676-1677 yillarda yozilgan Shoh Mahmud Churosning “Tarix” asarida tadqiqot mavzusining og‘riqli jihati bo‘lgan XVII asrning ikkinchi yarmini muhim ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. 1916-yil Toshkentdagi Boqijonboy kutubxonasida manba bilan tanishgan V.V.Bartold, uni nusxalash uchun Sankt-Peterburgga olib borgan [7: 11]. Manbada Yorkend xonligining siyosiy tarixidan tashqari qo‘shni xalqlar bilan munosabatlari haqida ham muhim lavhalarning mavjudligi uning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bugungi kunda asar ikki marotaba sharqshunos olim O.F.Akimushkin tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi asosida nashr etilgan [7]. Yorkend xonligi Buxoro bilan Farg‘ona vodiysi orqali chegaradosh bo‘lganligi uchun va vodiy chig‘atoy xonlarining asriy mulki

ekanligi ikki xonlik o‘rtasida ba’zan keskinlik keltirib chiqargan. Yorkend xonligidagi ichki nizolar natijasida Buxoro xonligiga kelgan sulton Axmad (Fuladxon)ni 1636-yil Andijon qamalida ishtiroki Yorkend xoni Abdullaxonning O‘shni egallashi, Andijonga ikki marotaba yurishi kabi buxorolik muarrixlarning asarlarida uchramaydigan ma’lumotlar qayd etilgan [7: 194, 197-199, 202-204]. Bundan tashqari asarda qirg‘iz xalqi haqidayam qaydlar mavjud bo‘lib, ularni vodiyga ommaviy kelish sabablariga birmuncha aniqlik kiritadi.

XULOSA

Ashtarxoniylar sulolasi davri tarixiga oid manbalar o‘zining xususiyatlari va geografik qamroviga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ularni tizimli va qiyosiy-tanqidiy asosda tahlil etish Buxoro xonligi tarixi bo‘yicha yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xonlikning sharqiy sarhadi hamda strategik muhim hududi hisoblangan Farg‘ona vodiysiga oid ma’lumotlar aksar hollarda yirik geosiyosiy voqealar kontekstida tilga olingan. Bu holat muayyan bir tarixiy jarayon yoki sulola vakillari faoliyatini yoritishda keng va aniq ma’lumot bilan ta’minlasa-da, boshqa bir o‘rinda manbaviy jihatdan cheklanganlikni keltirib chiqaradi. Mazkur holatni XVII asr tarixi misolida yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, asrning birinchi yarmida xonlik markaziy hokimiyatining nisbatan barqarorligi, qo‘shni davlatlar va mintaqaviy hukmdorlar bilan faol diplomatik hamda harbiy munosabatlar olib borilganligi sababli, manbalarda Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos geosiyosiy makon sifatida tez-tez tilga olingan. Aksincha asrning ikkinchi yarmida esa markaziy hokimiyatdagi o‘zaro kurashlarning kuchayishi, sulolaviy ichki urushlar va iqtisodiy inqiroz oqibatida siyosiy jarayonlar asosan poytaxt hamda markaziy viloyatlar atrofida kechdi. Buning natijasida manbalardagi tafsilotlar ham hududiy jihatdan torayib, chekka hududlar hayoti diqqat markazidan chetda qoldi. Ushbu manbaviy bo‘shliqni to‘ldirish va Farg‘ona vodiysi tarixini xolis tadqiq etish uchun an’anaviy manbalar bilan bir qatorda, ma’muriy-boshqaruv hujjatlar, farmon hamda vaqfnomalarni keng miqyosda ilmiy muomalaga kiritish ehtiyoji tug‘iladi. Faqatgina ushbu ikki turdagi manbalar ma’lumotlarini tahlil qilgan holda o‘rganishgina, XVII asrda vodiydagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni xolis va obyektiv anglash imkonini taqdim etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A supplementary hand-list of the Muhammadan Manuscripts in the Libraries of the University and college of Cambridge. Cambridge University Press, 1922. – 349 p.

2. امام قلی خان نامه. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma №89. – 150 b.

3. Ahmad b. Shams al-Dīn. Tārīkh-i miftāh al-qulūb, MS Christ’s Cambridge Dd.4.6. Reproduced by kind permission of the Master and Fellows of Christ's College, Cambridge. – 564 p.

4. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror fi manoqibi ul-ahyor (VI jild 4-qism). Qo‘lyozma mikrofilmi, India Office. № 575. – 409 b.

5. Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 430 с.

6. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVIII вв. (писменные памятники) – Т.: Фан, 1985. – 262 с.

7. Шах-Махмуд ибн Мирза Фазил Чурас. Хроника / Критический текст, перевод, комментарии, исследование и указатели О. Ф. Акимушкина. – 2-е изд. – СПб.:Петербургское лингвистическое общество, 2010. – 496 с.

8. Муҳамммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Тасҳиҳи Нодира Жалолий. – Теҳрон: Мероси Мактуб, 2008. – 362 б.

9. Муҳамммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод (мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 429 б.

10. Салахетдинова М.А. “Мусаххир ал-билад” Мухаммед Яр ибн Араб катагана (предварительное сообщение) // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока. IX годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР (автоаннотatsii и краткие сообщения). М.: Наука, ГРВЛ, 1973. – С. 77-79.

11. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар): Тарих муаллимлари, талабалар ва юқори синф ўқувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.

12. Sangirov J. Hofiz Tanish Buxoriyning “Imomqulixonnoma” asari va uning ashtarxoniylar tarixini o‘rganishdagi o‘rni // “O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Farg‘ona, 2022. – B. 256-266.

13. Арслонзода Р.А. Источниковедение. Фергана, 2019. – 352 с.

14. Сангиров Ж. Ўзбек давлатчилиги аштархонийлар даври тарихи / O‘zbekiston tarixi jurnali. № 1, 2023. – Б. 36-103.

15. Тāрӣх-и Кāшгар. Факсимиле рукописи: издание текста, введение и указатели О.Ф. Акимушкина. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001. – 296 с.

16. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география) / Введ., пер. с перс., примеч. и указ. Б.А. Ахмедова. – Ташкент, 1977. – 167 с.

17. محمود بن ولی. بحر الاسرار فی مناقب الاخیار. بخش بلخ. تصحیح تعلیق, و فهارس مایل هروی. — کابل، ۱۳۶۰.— ۳۳۳ ص؛

18. محمود بن ولی بلخی. بحر الاسرار فی مناقب الاخیار. سفرنامه هند و سیلان. پر فسور ریاض الاسلام. — کراچی، ۱۹۸۰.— ۲۲۵ ص.

19. The History of India, as Told by Its Own Historians. The Muhammadan Period: Ed. from the Posthumous Papers of the Late Sir H.M. Elliot, K.C.B., edited and continued by professor John Dowson, M.R.A.S. Vol. VII. – London: Hertford, 1877. – P. 3.

20. Abd al-Hamīd Lāhawrī. Bādshāhnāmah. / ed. Mawlawis Kabīr Al-Din Ahmad and Abd Al-Rahīm. Vol. II. – Calcutta: The College Press, 1868. – P. 437.

Мусаев А.Б.
Доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Ферганский государственный университет
shaxbo1990.ab@gmail.com

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ XVII ВЕКА В ОТРАЖЕНИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется отражение в письменных источниках политических событий Ферганской долины эпохи Аштарханидов. Поскольку территория долины являлась восточным рубежом ханства, сведения об этом периферийном регионе в источниках встречаются относительно редко. Данное обстоятельство может привести к ошибочным выводам о том, что политические процессы развивались исключительно вокруг центральных областей. Однако анализ данных источников показывает, что в первой половине XVII века политическая жизнь в долине была чрезвычайно насыщенной и динамичной.

Ключевые слова: Ферганская долина, династия Аштарханидов, Бухарское ханство, Андижан, Баки Мухаммад-хан, Имам Кули-хан, Келди Мухаммад-хан, Абулай-султан.

Musayev A.B.
Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana State University
shaxbo1990.ab@gmail.com

SOCIO-POLITICAL LIFE OF THE FERGANA VALLEY IN THE 17TH CENTURY AS REFLECTED IN HISTORICAL SOURCES

ABSTRACT

The article examines the reflection of political events of the Ashtarkhanid-era Fergana Valley in written sources. Since the valley served as the eastern frontier of the khanate, information regarding this peripheral region is relatively scarce in the sources. This circumstance can lead to the erroneous conclusion that political processes unfolded exclusively around the central regions. However, the analysis of source data indicates that during the first half of the 17th century, the political life of the valley was highly dynamic and intense.

Key words: Ferghana Valley, Ashtarkhanid Dynasty, Bukhara Khanate, Andijan, Baqi Muhammad Khan, Imam Quli Khan, Keldi Muhammad Khan, Abulai Sultan.

Nazarov X.A.
«Arxeologiya va etnologiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
O‘zbekiston Milliy universiteti
humoyunjon1992@gmail.com

MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar tarixiy taraqqiyotida iqlimiy o‘zgarishlar, neotektonik jarayonlar, gidrografik tarmoq dinamikasi hamda landshaft transformatsiyasining madaniy moslashuvlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda pleystotsen va golotsen davrlaridagi ekologik sharoitlar, arxeologik yodgorliklarning joylashuvi, qadimgi konchilik va metallurgiya markazlari, neolit va bronza davri xo‘jalik-madaniy tiplarining shakllanishi, shuningdek, ko‘chmanchi jamiyatlar siyosiy faolligining paleoiqlimiy omillar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada tabiiy muhit va inson faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir Markaziy Osiyo sivilizatsion jarayonlarini tushuntirishda muhim ilmiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, paleoekologiya, golotsen, pleystotsen, aridizatsiya, neotektonika, qadimgi o‘zanlar, neolit, bronza davri, ko‘chmanchi jamiyatlar, madaniy moslashuv.

KIRISH

Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda tabiiy-geografik muhit, iqlimiy tebranishlar, suv resurslari va landshaft dinamikasining inson jamiyatlari taraqqiyotiga ta’sirini aniqlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mintaqaning cho‘l, dasht, tog‘oldi va voha landshaftlari qadimdan insonning xo‘jalik faoliyati, migratsion yo‘nalishlari, ishlab chiqarish shakllari hamda madaniy aloqalarining shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib kelgan.

Markaziy Osiyo hududi pleystotsen va golotsen davrlarida keskin ekologik o‘zgarishlarni boshdan kechirgan. Arxeologik kartalashtirish ishlari Janubiy Qozog‘iston, Sharqiy Kaspiybo‘yi, Janubiy Turkmaniston va Qizilqum hududlarida hozirgi arid va giperarid zonalarda joylashgan ilk paleolit manzilgohlarini aniqlagan. Bu holat ilk va o‘rta pleystotsen bosqichlarida mazkur hududlarda hozirgiga nisbatan qulayroq tabiiy sharoit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [1; 2; 3].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Markaziy Osiyoda qadimgi jamiyatlarning xo‘jalik-madaniy rivojlanishi faqat ijtimoiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki iqlimiy tebranishlar, suv havzalari holati, o‘zanlar dinamikasi, yaylov resurslari va foydali qazilmalar joylashuvi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shu sababli mintaqa tarixini tarixiy-ekologik va arxeoekologik yondashuv asosida o‘rganish qadimgi madaniyatlarning shakllanishi, inqirozi va transformatsiyasini yanada chuqurroq tushuntirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyotida iqlimiy o‘zgarishlar, neotektonik siljishlar va landshaft transformatsiyalarining inson jamoalari xo‘jalik faoliyati, madaniy moslashuvi, migratsiyasi hamda siyosiy tuzilmalari shakllanishiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida iqlimiy va ekologik omillar insonning makoniy joylashuvi hamda xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Arxeologik kartalashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda arid va giperarid landshaftlar sifatida tavsiflanadigan ayrim hududlarda ilk paleolit davrida inson yashashi uchun nisbatan qulay ekologik sharoit mavjud bo‘lgan. Janubiy Qozog‘iston, Sharqiy Kaspiybo‘yi va Janubiy Turkmaniston hududlaridagi ilk paleolit manzilgohlari mazkur davrda bu zonalarda produktiv va ekologik jihatdan barqaror ekotizimlar shakllanganini ko‘rsatadi [1; 2; 3]. Shunga o‘xshash dalillar Sharqiy Turkiston va Gobi hududlari bo‘yicha ham qayd etilgan bo‘lib, bu joylarda arxantroplarning bugungi ekstremal landshaftlar sharoitida yashaganligi aniqlangan [4; 5].

Mustye va yuqori paleolit bosqichlari bilan bog‘liq jarayonlar Vyurm muzlanishi davrida yuz bergan iqlimiy-ekologik siljishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bu davr arxeologik materiallari asosan tog‘oldi va o‘rta tog‘ zonalarida, dengiz sathidan 700–1500 metr balandliklarda jamlangan. Mazkur holat yuqori tog‘ hududlarining muzlanishi, ochiq dasht landshaftlarida esa mavsumiy iqlimiy kontrastlikning kuchayishi bilan izohlanadi [6]. Bioproduktivlikning pasayishi va ochiq dashtlarda trofik degradatsiyaning kuchayishi inson populyatsiyalarining yashash joylarini qayta tanlashiga sabab bo‘lgan.

Golotsen davri Markaziy Osiyo landshaftlarining postglyatsial barqarorlashuv bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda tekisliklarning sekin ko‘tarilishi, ayniqsa Qizilqum hududlarida aridizatsiya jarayonining kuchayishi, suv resurslarining qayta taqsimlanishi hamda ekologik nishalarning o‘zgarishi kuzatilgan. Kech pleystotsendan boshlab rivojlangan ushbu jarayonlar Amudaryo va Sirdaryo o‘zanlari dinamikasiga ham ta’sir ko‘rsatgan [7].

Kosmik zondlash va paleogidrologik tadqiqotlar Kaspiy tomonga yo‘nalgan qadimgi allyuvial o‘zanlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Pleystotsen oxirigacha mazkur daryolar ehtimol yagona kenglik yo‘nalishidagi oqim tizimini tashkil etgan. Keyinchalik Sharqiy Kaspiybo‘yi hududining tektonik ko‘tarilishi suvayirg‘ichlarning shimolga — Orol botig‘i tomonga siljishiga sabab bo‘lgan. Natijada bosh daryolarning hozirgi meridional oqim yo‘nalishi shakllangan. Bu jarayon cho‘kindi to‘planishi rejimi, qayir ekotizimlari va xo‘jalik faoliyati lokalizatsiyasini o‘zgartirgan [8].

Markaziy Qizilqum hududlaridagi qadimgi o‘zanlar haqidagi arxeologik va geologik ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu o‘zanlar tektonik yoriqlar va sinklinallar bo‘ylab yo‘nalgan bo‘lib, ularning atrofida tarixdan oldingi konchilik izlari saqlangan tub jins chiqindilari aniqlangan. Chaqmoqtosh, mis, qalay, temir, firuza va oltinning tarixdan oldingi qazib olish joylari geologik chiqindilar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bronza davri metallurgiya markazlari esa

Sirdaryoning qadimgi, hozirda qurib qolgan o‘zanlariga yaqin hududlarda joylashgan. Bu holat suv resurslari va mineral xomashyo manbalari o‘rtasidagi bog‘liqlik qadimgi ishlab chiqarish markazlari lokalizatsiyasida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi [9].

Neolit plyuviali Markaziy Osiyo tarixida muhim ekologik burilish bosqichi bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII–V ming yilliklardagi nam davr arid zonalarda suvlanishning ortishi, o‘simlik qoplamining kengayishi va o‘troq jamoalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Bu jarayon Shimoliy Afrikadan Sharqiy Osiyogacha bo‘lgan keng arid hududlarni, jumladan O‘rta Osiyo va Gobini ham qamrab olgan [10]. Janubiy Gobidagi neolit yodgorliklari dehqonchilik va ovchilikka asoslangan barqaror manzilgohlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday manzilgohlar faqat vaqtinchalik gumidizatsiya va suv rejimi barqarorlashuvi sharoitida shakllanishi mumkin edi [11].

Neolit iqlimiy optimumi fonida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida xo‘jalik-madaniy moslashuvning ikki asosiy modeli shakllangan. Birinchisi — Kopetdog‘ tog‘oldi hududlari va barqaror agroiqlimiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan Joytun madaniyati. Ikkinchisi — dasht va cho‘l zonalarida tarqalgan ovchi, baliqchi va ilk chorvador jamoalarning Kaltaminor madaniyatidir. Ushbu ikki model Markaziy Osiyoda tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi xo‘jalik strategiyalarining ham turlicha shakllanishiga olib kelganini ko‘rsatadi.

Oyoqog‘itma ko‘p qatlamli yodgorligidan olingan arxeozoologik ma’lumotlar miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri — III ming yillik boshlariga oid asosiy uy hayvonlari majmuasi — yirik shoxli qoramol, qo‘y, echki va tuyaning xonakilashtirilganini qayd etadi. Iqlim aridizatsiyasi kuchaygani sari tuya qoldiqlarining ulushi ortib borishi esa qurg‘oqchilikka chidamli hayvon turlaridan foydalanishga qaratilgan adaptiv siljish sifatida talqin qilinadi [12].

Sharqiy Kaspiybo‘yi hududidagi Jebel neolit majmuasi ham mintaqadagi madaniy aloqalar tizimini tushunishda muhim o‘rin tutadi. To‘rt stratigrafik qatlamga ega ushbu majmua janubiy Kaspiybo‘yi hududlari bilan madaniy va ehtimol demografik aloqalarni ko‘rsatadi. Uning morfologiyasi neolit davri almashinuv tizimlarida arxaik dengiz yo‘llaridan foydalanilgan bo‘lishi mumkinligini anglatadi [13].

Iqlimiy optimum yakunlanishi va subboreal davrga o‘tilishi bilan yangi sharoitlarga moslashgan eneolit madaniyatlari shakllana boshlaydi. Janubiy Turkmaniston va Zarafshon vodiysida rivojlangan iqtisodiyot va kulolchilikka ega Anov madaniyati tarqaladi. Qozog‘iston va Janubiy Sibir dashtlarida esa Yamnaya va Afanasyevo doiralariga mansub chorvador-ko‘chmanchi madaniyatlar paydo bo‘ladi. O‘rta Zarafshondagi Afanasyevo topilmalari aridizatsiya ta’sirida ularning areali kengayganini ko‘rsatadi [14].

Bronza davridan boshlab muhitga antropogen ta’sirning kuchayishi kuzatiladi. Metallurgiya, hunarmandchilik va konchilikning rivojlanishi landshaftlarning keng miqyosda transformatsiyalanishiga olib kelgan. Markaziy Qizilqumning hozirgi arid zonalarida mis, qalay va firuza konlari o‘zlashtirilgan. Keyingi tarixiy bosqichlarda, ayniqsa o‘rta asrlarda savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi

bilan kumush qazib olish keskin ortgan, Ohangaron havzasida esa yirik miqyosdagi konchilik faoliyati va unga tegishli infratuzilma izlari qayd etilgan [15].

Janubiy O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi IV ming yillikdan boshlab Anov–Nomozgoh majmualarida dastlabki irrigatsiya inshootlari paydo bo‘ladi. Bu esa sug‘orma dehqonchilik, ijtimoiy tashkilot va demografik barqarorlik rivojlanishiga asos bo‘lgan. Mintaqa voha sivilizatsiyalari tarixi sug‘orish tizimlarining takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir [12]. Demak, suv resurslari ustidan nazorat faqat xo‘jalik masalasi emas, balki ijtimoiy tashkilot, mehnat taqsimoti va markazlashuv jarayonlarining ham muhim sharti bo‘lgan.

Arxeologik materiallar Chust madaniyatining Farg‘onaga kirib borishi hamda Janubiy Uralbo‘yi hududlaridan andronovolik guruhlarning ekspansiyasini ko‘rsatadi. Bu jarayonlar madaniy transformatsiya, etnik aloqalar va xo‘jalik strategiyalarining yangilanishi bilan kechgan [17]. Bunda iqlimiy sharoit, yaylov resurslari va metallurgik xomashyo manbalarining joylashuvi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Golotsen davridagi iqlimiy dinamika Orol-Kaspiy mintaqasida termogidrologik jarayonlarning murakkab va siklik xususiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Taxminan 10 300 yil avval sodir bo‘lgan isish yillik harorat amplitudasining pasayishi va yog‘ingarchilikning ko‘payishi bilan kechgan. Golotsenda boreal, atlantik va subboreal termik maksimumlar ajratiladi. Ular sovish va aridizatsiya fazalari bilan almashinib turgan. Ayniqsa, atlantik-subboreal burilish, ya’ni taxminan 5000–4500 yil avvalgi davr yanada quruq va kontinental iqlimga olib kelgan hamda qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida tizimli siljishlarni yuzaga keltirgan [18].

Lyavlyakan gumid fazasining yakunlanishi Hind vodiysidan Kopetdog‘gacha bo‘lgan keng hududda sivilizatsion inqiroz bilan bog‘liq jarayonlarni yuzaga keltirgan. Arxeologik jihatdan Xarappa urbanistik tizimining qisqarishi, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Eron va Afg‘onistondagi qadimgi dehqonchilik madaniyatlarining tanazzuli qayd etiladi [18]. Dehqonchilikka asoslangan jamiyatlar o‘sib borayotgan aridlik sharoitida moslashuv qobiliyati yuqoriroq bo‘lgan harakatchan chorvador guruhlar bilan raqobatga kirishgan.

Antik yozma manbalar ham landshaft va iqlim sharoitlarining tarixiy jarayonlarga ta’sirini ko‘rsatadi. Arrian va Kvint Kurtsiy Ruf Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo orqali yurishlari, hozirgi Eron va Baqtriyaning qurg‘oqchil hududlaridan o‘tish jarayonidagi marshrutlar hamda logistika qiyinchiliklari haqida ma’lumot beradi [19; 20]. Bu ma’lumotlar arxeologik dalillar bilan birgalikda landshaft aridligining harbiy yurishlar, ta’minot tizimi va siyosiy nazorat imkoniyatlariga ta’sirini rekonstruksiya qilish imkonini beradi.

Ko‘chmanchi jamiyatlar tarixida ham iqlimiy fluktuatsiyalar muhim o‘rin tutgan. Shimoliy Qora dengizbo‘yidan Ordos platosigacha cho‘zilgan Yevrosiyo dasht yoyi iqlimiy tebranishlarga nihoyatda sezgir hudud hisoblanadi. Namlanish to‘lqinlari dashtlarning janubga kengayishini va ko‘chmanchi iqtisodiyotlar rivojlanishini rag‘batlantirgan bo‘lsa, aridizatsiya cho‘llarning oldinga siljishi, yaylov resurslarining qisqarishi va migratsion bosimning ortishiga olib kelgan [21; 22].

L.N. Gumilyov ko‘chmanchi davlatchilikning uchta makrobosqichini ajratadi: skif-sarmat-xunn bosqichi, turkiy bosqich va mo‘g‘ul bosqichi. Ushbu bosqichlarning har biri mobillik, harbiy-siyosiy tashkilot va geosiyosiy faollikning kuchayishi bilan tavsiflangan. Biroq iqlimiy qurg‘oqchiliklar ko‘chmanchi jamiyatlarning hududiy ekspansiyasi va barqarorligini cheklab turgan [21].

Xunn ittifoqi tarixida bu jarayon yaqqol namoyon bo‘ladi. Xitoyga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarga qaramay, xunnlar o‘troq hududlarda uzoq muddatli kolonizatsiyani amalga oshirmaganlar. Milodiy I asrdagi qurg‘oqchilik ularni keng ko‘lamli migratsiyaga majbur qilgan: dastlab yuqori Xuanxe hududiga, keyinchalik Yettisuv, Janubiy Ural va Volgabo‘yiga ko‘chish jarayonlari yuz bergan. IV–V asrlarda iqlimiy produktivlikning tiklanishi dashtlarning qayta o‘zlashtirilishi va VI asrda Turk xoqonligining shakllanishi uchun sharoit yaratgan [22].

Markaziy Osiyoda namlanishning siklik xususiyati Atlantika siklonlari trayektoriyalariga bog‘liq bo‘lgan geteroxron model orqali ham izohlanadi. V.N. Abrasovga ko‘ra, bu trayektoriyalar taxminan 1300 yillik davriylik bilan tebranib turgan. Frontning janubiy yo‘nalishi O‘rta Osiyo va Shimoliy Eronga yog‘ingarchilik olib kelib, Orol va Balxash havzalarining suv bilan ta’minlanishini kuchaytirgan. Front shimolga siljiganida esa namlanish Sharqiy Yevropada jamlanib, Markaziy Osiyoda aridizatsiya kuchaygan [23].

Gidrologik o‘zgarishlar Kaspiy dengizi sathi haqidagi ma’lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. VI asrda qurilgan Derbent devorining hozirgi vaqtda qisman suv ostida qolganligi antik davrda dengiz sathi pastroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Kaspiy dengizining maksimal transgressiyalari XIII asrga to‘g‘ri keladi. Bu holat quyi Volgabo‘yida xazar madaniyatining yo‘qolishi va Volga deltasi hududining suv ostida qolishi bilan mos keladi [24].

Nomadik jamiyatlarning siyosiy tashkiloti ham ekologik muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. I.V. Yerofeyeva tomonidan XVII–XIX asrlardagi qozoq xonliklari misolida o‘rganilgan ma’lumotlar ko‘chmanchi va o‘troq hokimiyat modellari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Vertikal byurokratik imperiyalardan farqli ravishda, qozoq davlatchiligi urug‘ tuzilmalari va hududlardan mavsumiy foydalanish orqali amalga oshirilgan patronaj mexanizmlariga tayangan [25].

N.E. Masanov ta’kidlaganidek, ko‘chmanchilarda qat’iy belgilangan hudud g‘oyasi mavjud bo‘lmagan. Ularning makoniy identikligining asosi mavsumlar bo‘yicha rotatsion yer foydalanishni belgilovchi yaylov holati hisoblangan [26]. Shuning uchun ko‘chmanchi jamiyatlarda hokimiyat ko‘proq shaxsiy va guruhlararo munosabatlarga asoslangan bo‘lib, muayyan hududga qat’iy bog‘lanmagan. Bu holat o‘troq imperiyalarning hududiy-ma’muriy mantig‘i bilan ziddiyatga kirishgan.

Iqlimiy fluktuatsiyalarni chorvador va nomadik madaniyatlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan omil sifatida talqin qilish masalasi ilmiy adabiyotlarda hanuz munozarali bo‘lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotchilar ko‘chmanchilarning migratsion faolligini yaylov biomassasining ko‘payishi bilan kechgan isish davrlari bilan bog‘laydilar [31; 32; 33]. Boshqa tadqiqotchilar esa bu jarayonni aholining degradatsiyaga uchrayotgan zonalardan siqib chiqarilishiga

olib kelgan sovish va aridizatsiya davrlari bilan izohlaydilar [27; 28; 29; 36]. Har ikki yondashuv ham ko‘chmanchi jamiyatlarning ekologik sharoitlarga yuqori darajada bog‘liq bo‘lganini tasdiqlaydi.

Ilk temir davridan boshlab chorvachilik va dehqonchilikning integratsiyalashuvi natijasida iqlimga bog‘liqlik nisbatan zaiflashgan. Markazlashgan irrigatsiya va suv resurslari ustidan nazoratga ega voha tizimlari shakllangan. Bu esa urbanizatsiya va transyevrosiyo savdo tarmoqlariga integratsiyalashuvni rag‘batlantirgan. Shu bilan birga, sho‘rlanish, tuproqlarning holdan toyishi va flora yo‘qolishi kabi degradatsion jarayonlar saqlanib qolgan. Natijada resurslarni tejashga qaratilgan sakrallashtirilgan me’yoriy modellar shakllangan bo‘lib, bu yondashuv zardushtiylik huquqi va madaniyatida ham o‘z ifodasini topgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar tarixiy dinamikasida iqlimiy, gidrologik va tektonik omillar nafaqat tabiiy-geografik fon, balki sotsioiqtisodiy va madaniy jarayonlarning faol tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lgan. Ular madaniy taraqqiyot, makoniy mobillik, xo‘jalik ixtisoslashuvi va siyosiy tuzilmalar shakllanishida muhim o‘rin egallagan.

XULOSA

Markaziy Osiyo tarixiy taraqqiyotini arxeoekologik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mintaqa jamiyatlarining rivojlanishi iqlimiy o‘zgarishlar, suv resurslari, landshaft holati va mineral xomashyo bazasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Pleystotsen va golotsen davrlarida yuz bergan iqlimiy tebranishlar inson jamoalarining joylashuvi, xo‘jalik shakllari, migratsiyasi va madaniy aloqalariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Birinchidan, Markaziy Osiyo tarixi tabiatdan foydalanishning ekstensiv modellari cheklanganligini ko‘rsatadi. Qadimgi davrlarda ham, keyingi tarixiy bosqichlarda ham landshaftlarning ekologik sig‘imidan ortiqcha foydalanish suv resurslarining degradatsiyasi, tuproqlarning sho‘rlanishi va aholining majburiy migratsiyasiga olib kelgan.

Ikkinchidan, arid zonalardagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligi bevosita suv resurslarini boshqarish darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Dastlabki irrigatsiya shakllaridan tortib murakkab voha tizimlarigacha bo‘lgan tajriba iqlimiy fluktuatsiyalar sharoitida suv xavfsizligining ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, qadimgi jamiyatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqlimiy o‘zgarishlarga moslashuv xo‘jalik moslashuvchanligi, makoniy mobillik va resurslardan oqilona foydalanish saqlangan taqdirdagina samarali bo‘lgan. Aksincha, ishlab chiqarish va joylashuvning qat’iy fiksatsiyalangan shakllari ekologik inqirozlar oldida zaiflikni kuchaytirgan.

Nihoyat, Markaziy Osiyoning arxeoekologik tajribasi bugungi barqaror rivojlanish strategiyalari uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Qadimgi jamiyatlarning ekologik moslashuv tajribasi texnologik taraqqiyot, suv xavfsizligi va tabiiy resurslardan foydalanish o‘rtasidagi muvozanatni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. — Душанбе: Дониш, 1973. — 161 с.

2. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д., Итина М.А., Кесь А.С. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии. — М., 1974. — С. 290–295.

3. Мамедов Э.Д., Батулин С.Г. Палеогидрогеологическая обстановка и древнее расселение человека в пустынях Средней Азии. — М.: Наука, 1977. — С. 176–181.

4. Долуханов П.М. Климатические колебания в аридной зоне Старого Света. — М., 1989. — 18 с.

5. Матюшин Г.Н. Экологические кризисы и их роль в смене культур каменного века. — М.: Наука, 1980. — С. 138–149.

6. Лужецкий В.Г. Определение скоростей осадконакопления на озёрах Байкал и Телецкое с использованием датировок ледниково-межледниковых стадий. — Новосибирск, 2009. — С. 372–373.

7. Suleymanov R.X., Shonazarov Sh.B. Paleoekologiya va sivilizatsiya dinamikasi. — Toshkent, 2022. — 118 b.

8. Жаков Е.Ю., Гуськов С.А., Кривоногов С.К., Кузьмин Я.В., Бурр Г.С. Особенности распределения микрофауны в голоценовых отложениях Аральского моря. — Новосибирск, 2009. — С. 212–214.

9. Батулин С.Г., Мамедов Э.Д. Стратиграфическое положение и палеогеографическое значение реликтовых и погребенных почвенных горизонтов в четвертичных отложениях Кызылкумов // Бюллетень комиссии по изучению четвертичного периода. — 1980. — № 50. — С. 108–115.

10. Прусаков Д.Б. О причине «позднего» перехода к неолиту и производящему хозяйству в Египте // История и современность. — 2005. — № 2. — С. 80–112.

11. Ларичев В.Е. Мустьерские и неолитические памятники Южной Гоби // Новосибирск, 1964. — Вып. 1. — С. 147–189.

12. Лисицына Г.Н. Орошаемое земледелие эпохи энеолита на юге Туркмении. — М., 1965. — 167 с.

13. Абрамова Т.А. Палеогеография Арало-Каспийского региона в позднем голоцене по новым палинологическим данным // Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. — М.: Наука, 1993. — С. 116–121.

14. Аванесова Н.А., Журакулова Д.М. Древнейшие кочевники Зеравшана // Материалы Международной конференции. — Самарканд, 2008. — С. 13–33.

15. Мамедов Э.Д., Трофимов Г.Н. Палеоклиматы и эволюция озер в голоцене Закаспия. — Ленинград–Таллинн: АН, 1986. — С. 212–214.

16. Марколонго Б., Моцци П. Геоморфологическая эволюция предгорной равнины восточного Копетдага в эпоху голоцена: предварительный геоархеологический обзор // АВ. — 2000. — № 7. — С. 33–40.

17. Аюбов А.Р. Этнокультурные процессы Ферганы и Согда в древности // Номаи Донишгоҳ. — 2018. — № 1(54). — С. 44–48.

18. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан: этапы древнейшего заселения и освоения Внутренних Кызылкумов. — М.: Наука, 1975. — 285 с.

19. Арриан Флавий. Анабасис Александра / пер. с греч. и коммент. А.А. Шицко. — М.: Наука, 1978. — 432 с.

20. Квинт Курций Руф. История Александра Великого / пер. с лат. и коммент. И.Д. Кузнецова. — М.: Наука, 1983. — 356 с.

21. Гумилев Л.Н. Этносфера: История людей и история природы. — М.: Экопрос, 1993. — 544 с.

22. Кочевые империи Евразии: особенности исторической динамики / отв. ред. Б.В. Базаров, Н.Н. Крадин. — М.: Наука; Восточная литература, 2019. — 503 с.

23. Абрасов В.Н. Гетерохронность периодов повышенного увлажнения гумидной и аридной зон // Известия ВГО. — 1962. — Т. 94. — Вып. 4. — С. 325–328.

24. Пигарёв Е.М. Изменение уровня Каспийского моря и его влияние на исторические процессы на территории низовьев Волги в Средневековье // Поволжская археология. — 2022. — № 2(40). — С. 183–197.

25. Ерофеева И.В. Эпистолярное наследие казахской правящей элиты 1675–1821 года. — Алматы, 2014. — Т. I. — 692 с.

26. Масанов Н.Э. Кочевая цивилизация казахов: основы жизнедеятельности номадного общества. — Алматы: Социнвест; М.: Горизонт, 1995. — 319 с.

27. Боталов С.Г. Климатическая детерминанта в миграционных процессах кочевой цивилизации Евразии // Вестник Южно-Уральского государственного университета. — 2011. — С. 8–13.

28. Van Geel B., Renssen H., Schouten S. et al. The sharp rise of nomadism in Central Asia around 850 BC // The Holocene. — 2004. — Vol. 14. — No. 5. — P. 635–642.

29. Хазанов А.М. Кочевники и внешний мир. — 3-е изд., доп. — Алматы: Дайк-Пресс, 2002. — 604 с.

30. Khazanov A.M. Pastoral nomadic migrations and conquests. — Cambridge University Press, 2015. — Vol. 5. — P. 359–382.

31. Bokovenko N.A. Migrations of Early Nomads of the Eurasian Steppe in a Context of Climatic Changes. — London: NATO Science Series, 2004. — Vol. 42. — P. 21–33.

32. Pederson N., Davi N., Cook E., Buckley B. et al. Pluvials, droughts, the Mongol Empire, and modern Mongolia // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2014. — Vol. 111. — No. 12. — P. 4375–4379.

33. Di Cosmo N., Chen S., Feng H., Liu X. et al. Environmental stress and steppe nomads: Rethinking the history of the Uyghur Empire // Journal of Interdisciplinary History. — 2018. — Vol. 48. — № 4. — P. 439–463.

34. Hessl A.E., Anchukaitis K.J., Jelsema C. et al. Past and future drought in Mongolia // Science Advances. — 2018. — Vol. 4. — № 3. — P. 1–7.

35. Preiser-Kapeller J. The Climate of the Khagan. Observations on palaeoenvironmental factors in the history of the Avars, Bulgars and Khazars. — Mainz, 2018. — P. 31–50.

36. Kuzmina E.E. The Prehistory of the Silk Road. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2008. — 240 p.

37. Bulygina O.N., Razuvaev V.N., Korshunova N.N. Changes in snow cover over Northern Eurasia in the last few decades // Environmental Research Letters. — 2009. — Vol. 4. — Article 045026. — P. 1–6.

38. Величко А.А. Палеоклиматы и оледенения в плейстоцене. — М.: Наука, 1989. — 248 с.

39. Долуханов П.М. История средиземных морей / отв. ред. А.Л. Чепалыга. — М.: Наука, 1988. — 144 с.

40. Spate M., Leipe C., Motuzaite Matuzeviciute G. Reviewing the Palaeoenvironmental Record to Better Understand Long-Term Human-Environment Interaction in Inner Asia During the Late Holocene // Frontiers in Ecology and Evolution. — 2022. — Vol. 10. — P. 1–17.

41. Tan L., Dong G., An Z., Edwards R.L., Li H., Spengler R., Cai Y., Cheng H., Lan J., Orozbaev R., Liu R., Chen J., Xu H., Chen F. Megadrought and cultural exchange along the proto-silk road // Science Bulletin. — 2021. — Vol. 66. — P. 603–611.

Назаров Х.А.
PhD., старший преподаватель кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
humoyunjon1992@gmail.com

КЛИМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЛАНДШАФТА В РАЗВИТИИ ДРЕВНИХ ОБЩЕСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние климатических изменений, неотектонических процессов, динамики гидрографической сети и трансформации ландшафтов на культурную адаптацию древних обществ Центральной Азии. Особое внимание уделяется экологическим условиям плейстоцена и голоцена, размещению археологических памятников, древним центрам горного дела и металлургии, формированию хозяйственно-культурных типов эпохи неолита и бронзы, а также связи политической активности кочевых обществ с палеоклиматическими факторами. В статье взаимодействие природной среды и человеческой деятельности рассматривается как важная научная категория для объяснения цивилизационных процессов Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия, палеоэкология, голоцен, плейстоцен, аридизация, неотектоника, древние русла, неолит, бронзовый век, кочевые общества, культурная адаптация.

Nazarov Kh.A.
PhD., senior lecturer at the department of «Archaeology and Ethnology»
National University of Uzbekistan
humoyunjon1992@gmail.com

CLIMATIC FACTORS AND LANDSCAPE TRANSFORMATION IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT SOCIETIES OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article analyzes the impact of climate change, neotectonic processes, hydrographic dynamics and landscape transformation on the cultural adaptation of ancient societies in Central Asia. Special attention is paid to the ecological conditions of the Pleistocene and Holocene, the spatial distribution of archaeological sites, ancient mining and metallurgical centers, the formation of Neolithic and Bronze Age economic-cultural types, as well as the relationship between the political activity of nomadic societies and paleoclimatic factors. The article interprets the interaction between the natural environment and human activity as an important scientific category for understanding the civilizational processes of Central Asia.

Key words: Central Asia, paleoecology, Holocene, Pleistocene, aridization, neotectonics, ancient riverbeds, Neolithic, Bronze Age, nomadic societies, cultural adaptation.

Нарбеков А.В.
PhD., доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
narbekovabdikamil@gmail.com

ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье изучена проблема автохтонности узбеков в Туркестане. Автор на основе научных данных изучил вопросы автохтонных народов в регионе. Автор на основе научных материалов попытался доказать научную несостоятельность теории о том, что коренными народами в регионе являются только ираноязычные народы. Предками узбеков, по его мнению являются прототюркские народы, которые проживали в регионе с II и начала I тыс. лет до н.э.

Ключевые слова: автохтонность, индоиранцы, параалтайцы, Туран, Туркестан, этнос, нация, Согд, Бактрия, Харезм, этноним, топоним, кочевник, саки, диалог.

ВВЕДЕНИЕ

В Туркестане с древних времен проживали многочисленные племена и народы, которые имели свои специфические особенности культуры, традиции и языка. Регион не только является многонациональным, даже члены одного рода или племени по месту проживания разговаривали на разных диалектах, понять их другому человеку было трудно. Вместе с тем, с древних времен в регионе возникли автохтонные народы. Истории их становления и развития до настоящего времени до конца не исследована. Научное исследование данной проблемы имеет не только научно-практическое, но и общественно-политическое значение.

Настоящее исследование посвящено изучению проблем автохтонности узбеков, которые проживали с древних времен на территории Туркестана. Автор на основе научных материалов обосновал узбеков как автохтонного народа Туркестана.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Туркестан - многонациональный регион. В нем с древности проживали много племен и народов. Вместе с тем есть коренные (автохтонные) народы которые внесли наибольший вклад в формировании этнических объединений. В силу объективных и субъективных причин, до нашего времени не сохранились письменные источники которые могли внести ясность в определнии автохтонных народов в регионе. По этому проблема автохтонности (коренного) народа имеет актуальное общественно-политическое и научно-практическое значение.

Коренные народы региона можно разделить на две группы это: тюркоязычные и ираноязычные этносы. Другие народы и нации в регионе

являются не многочисленными или мигрировали относительно недавно в силу исторически сложивщихся обстоятельств.

Проблема автохтонности населения Туркестана своими корнями уходит в глубь истории, что отразилась в художественной, и в научной литературе народов. Множественность этносов не была дестабилизирующим фактором, наоборот они мирно сосуществовали. Этническая проблема не переходила открытое противостояние или вражду. Прблема выживания в суровой географической местности,а также феодальной междоусобицы выживание была важнее, чем этническая принадлежность человека, что отразилась в их образе жизни и в религии.

Нацональный вопрос в Туркестане превратился в общественно-политическую проблему при Советской власти. После образования Советы не удержали власть не изменив национальную полтику Российской империи, которая была “тюрмой народов”[1]. Была учреждена федеративная государственное управление и признали принцип самоопределения наций. Советская власть следуя принятым принципам и законам, а также, исходя из собственных интересов, в 20-е годы прошлого столетия в Туркестане осуществила национально-территориальне размежевание. Советы официально объявили цель своей политики, “вовлечение местных народов в советское строительство”[2].

Научную литературу по этно-национальному вопросу в Туркестане можно разделить на несколько групп: Во-первых, литература авторов средневековья и воспоминания дипломатичиских миссий или путешественников[3]. Исследователи Туркестана и других мусульманских государств этого периода в основном писали на арабском, персидском и на тюркском языках. Персидский язык в делопроизводству был введен после ахеминидского завоевания и сохранил свой статус с небольшими изменениями до установления колониальной власти Российской империи. Учёные и исследователи Российской империи и Советского государства не уделяли должного внимания изучению трудов местного населения; Во-вторых, литература авторов периода Российской империи и Советского государства[4]. Учёные и исследователи Российской империи и Советского государства внесли большой вклад в научном изучении Туркестана, но они основывались теории европоцентризма[5]. Древное население Туркестана называли ираноязычными народами, литературу средневековых авторов персидской. Они не учитывали происхождение авторов научных трудов, большинство которых были тюрками; В-третьих, научные труды учёных и исследователей постсоветских государств Туркестана[6]. После распада Советского государства на независимые республики обострилась национальный вопрос и связанный с ним проблемы, в том числе и проблема национально-территориального размежевания в Туркестане. Споры о принадлежности отдельной территории происходили не только в научных кругах, в него были вовлечены политики, деятели культуры и другие представители общества, что негативно отразилась на общественно-политической жизни региона[7]; В-пятых, научная литература стран дальнего

зарубежья[8]. Труды учёных и исследователей дальнего зарубежья имеют важное научно-практическое значение. До настоящего времени их изучение осуществлялось по переводам русскоязычных источников.

Изучение научной литературы посвященной теме автохтонности населения Туркестана показала, что существуют различные подходы его изучения и они требуют продолжения работ.

Проблема автохтонности населения Туркестана своими корнями уходит в глубь истории. В древний период истории, регион соединял цивилизации Востока. Принимал участие в экономических связях и в культурном диалоге. Древние племена Туркестана самостоятельно прошли все этапы истории становления цивилизации. В период неолита (Джейтунская культура VII–VI тыс. до н.э.) в южной и юго-западной части региона возникла оседлая культура земледельцев и скотоводов. Праалтайский язык стал основой тюркского языка, на просторах от Прикаспия до Алтая[9]. В него входят степи Хорезма, Зерафшанская и Ферганские долины, Ташкентский оазис.

В Туркестане возникли транзитные и региональные караванные дороги. С VI–V тыс. до н.э. Туркестан установил связь с Ираном, Месопотамией, Индией, Восточным Туркестаном, Китаем, а также с Сибирью и Приуральем[10]. Регион не только связывал цивилизации, но и принимал непосредственное участие в экономическом сотрудничестве и культурном диалоге. Эти отошения оказали благоприятное влияние на возникновение и развитие поселений ранних земледельцев и скотоводов.

Всеобщий переход региона на земледелие и скотоводству завершился в III тыс., лет до н.э.[11]. Усилилась мобильность древних племен, их внутренняя и внешняя миграция. Древние племена заселяли новые территории, естественные условия проживания определяли их способ ведения хозяйства. В научной литературе древние племена считали ираноязычными. Изучение древнекитайских письменных источников внесла некоторые изменения в существующие научные теории. В Китайских письменных источниках их называют тюркскими племенами[12].

На южной и юго- восточной части Туркестана жили ираноязычные племена (Джайтунская культура). По утверждению А. Аскарова их естественной границей в древний период была средняя и нижняя часть Сырдарьи. В раннем средневековье граница была перенесена на среднее течение Амударьи [5]. По нашему мнению, кельтеминарская культура имеет прототюркские корни и граница между тюркскими и ираноязычными племенами должен быть Южное Приаралье (территория современного Узбекистана и Туркменистана).

В бронзовом веке (III – начало I тыс.до н.э.) возникла культура оседлых земледельцев и кочевых и полукочевых скотоводов. Территория Туркестана была полностью освоена местными племенами и этносами и вместе с тем усилилась внутренние и внешние миграционные потоки. В III тыс. до н.э. с запада (Восточная Украина и юг России арийцы (индоиранцы) или тюркоарийские племена) на восток и на юго-восток Евразии начался миграция арийских земледельческих племен. Они пользовались бронзовыми

орудиями труда (топоры, мотиги) и вооружениями (мечи, кинжалы, топоры, наконечники стрел), боевыми колесницами запрягали лошадей. Арийские дружины победным маршем дошли до Восточной Сибири. В Центральной Азии (предгорье Алтая и Восточный Туркестан) их победные походы остановили тюрко-монгольские племена. Они вытеснили арийцев из степей Центральной Азии[9]. Протюркские племена разгромив арийцев соохранили свою культуру от внешнего врага. По сведениям Российского исследователя Ж. С. Сыдзыкова, индоиранские племена захватили Центральную Азию и обосновались в казахстанских степях. Внесли свой вклад в формировании андроновской культуры. Приняли участие в формировании кочевых и оседлых народов – саков, савроматов, скифов, бактрийцев, согдийцев, хорезмийцев[11].

Материальная культура Средней Азии IIтыс. до н.э. Гонур (правый берег реки Мургаб), Даштли (Серверный Афганистан) и Сапалли (Южный Узбекистан) являются памятниками поздней кельтеминарской культуры. В научной литературе их население называют ираноязычными[13]. Но Кельтеминарская культура связана с Евразийской степной андроновской культурой[14]. В древнекитайских письменных источниках население Евразийских степей называли – ху, ди, тиеками или прототюрками[16]. Материальная культура, образ жизни и антропологический тип людей Кельтеминарской и Андроновской культуры имеют много общего. На основе материалов археологических памятников можно сделать вывод о том, что население этих культур или его основная часть являются родственными народами и разговаривали они на разных диалектах прототюркского языка.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Туркестан по своему географическому положению находится на пересечении древних цивилизаций Евразии. Регион выступал связующим звеном древневосточных цивилизаций, но это не стала препятствием, образования самобытной культуры народов. Его народ своим трудолюбием и открытостью к внешним влияниям, принимал активное участие в культурном диалоге народов Евразии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ашукин Н. С., Ашукина М. Г. Крылатые слова. – М., 1986. – С.643.
2. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости //Коллектив авт.: Р.М. Абдуллаев, С.С. Агзамходжаев, И.А. Алимов и др./– Т.: «Шарк». 2000. – С.660.
3. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий Бухоро тарихи //https://n.ziyouz.com/books/tarixiy/.pdf., Абу Райхон Беруний Танланган асарлар. I-жилд. – Т.:”Ўзбекистон”. 1968.– 487 б., Махмуд ал-Кашгари Диван Лу-ат ат-Турк /Перевод, предисловие и коментарии З-А.М.Ауэзовой.– Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 1288 с., Ибн Ҳавқал Мовароуннаҳр / Ибн Ҳавқал: араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2011. – 400

б., Исхоқхон Тўра Ибрат Тарихи Фарғона. – Т.: “Мовароуннаҳр”. 2005., Арминий Вамбери Путишествие по Средней Азии. . – М.: Вост.лит., 2003. – 320 с.

4. Масальский В.М. Туркестанский край. Россия. Полное геграфическое описание нашего отечества //Под.ред.В.П.Семенова-Тянь-Шанского. Т.19. С.-Петербург.: «Из-во А.Р.Довриена».1913. – 882 с., Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Т.: «Из-во.УзФАН». 1941. – 19 с., Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыть историко-архелогического исследования. – М.: «Из-во МГУ». 1948. – С.440., Гумилев Л.Н. Қадимги трклар. – Т.: “Фан”.2007. – 500 б.

5. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ, 2025. – 58, 117 бетлар.

6. Абиров В.Э. Вопросы этногенеза узбекского народа в этнографических исследованиях Узбекистана в годы независимости. Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования. 2021. Т. 7, № 4. – С. 120-131., Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – 680 б. Масов Р. Таджики: история с грифом “совершенно секретно”. – Душанбе. 2014. – 212 с.,

7. Масов Р. Таджики история с грифом «совершенно секретно». Душанбе 2014. – 212., Бобохонов Р.Национально-территориальное размежевание и образование союзных республик в Центральной Азии (1924-1936 гг.). – [Электронный ресурс]. – [Режим доступа]: https:// centrasia. org/news A.php?st=1435859460.

8. Brunet F. Asie Centrale: vers une redefinition des complexes culturels de la fin du Pleistocene et des debuts de I Holocene-Paleorient, 28/2. – Paris, 2002, Риттер К. Иран. СПб: Издание Русского географического общества, 1874. – С. 396.

9. Измайлов И.Л. Происхождение и начальный этап этнокультурной истории тюркских народов (к постановке проблемы) //Северо-Восточный гуманитарный вестник 2019. №4(29). – С.48., 50

10. Джуракулов М. Д., Холматов Н. У. Мезолит и неолит Среднего Зеравшана. – Т.: Фан.1991. – С.83-86.

11. Сыдзыкова Ж.С. Основные этапы цивилизационного развития народов Центральной Азии до вхождения в состав Российской империи// https://www.google.com/search? 24.05.2026.

12. Дуан Лянчин Динглинглар, қанқилар ва туролар. 1-жилд, Урумчи, 1996.

13. Шониёзов К. Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т., 2001. 19б.

14. ВиноградовА.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. – М.: Наука, 1981. – С.160-168.

15. Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларидаги туркий халқларга оид айрим этнонимлар. //Ўзбекистон ўрта асрларда: тарих ва маданият. – Т.: Фан, 2003. 176–184б., Аскаров А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды.

//История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Т.: Фан, 2005. – С. 81–91.

Нарбеков А.В.
«Ўзбекистон тарихи» кафедраси доценти, т.ф.н.
Ўзбекистон Миллий университети
narbekovabdikamil@gmail.com

ТУРКИСТОНДА ЎЗБЕКЛАРНИНГ АВТОХТОН АҲОЛИСИ МАСАЛАСИ

АННОТАЦИЯ

Мақола ўзбекларнинг Туркистоннинг автохтон аҳолиси масаласини ўрганишга бағишланган. Муаллиф илмий манбалар асосида, Туркистонда қадимги даврлардан эроний тилли аҳоли яшаганлиги тўғрисидаги ғояни илмий асосга эга эмаслиги қайд этилди. Ўзбекларнинг аждодлари минтақада мил.авв. II – ва I минг йилликнинг бошларида яшаганларини исботлашга ҳаракат қилинди.

Калит сўзлар: автохтон, орийлар, параолтайликлар, Турон, Туркистон, этнос, миллат, Сўғд, Боктар, Хоразм, этноним, топоним, кўчманчи, сак, мулоқот.

Narbekov A.V.
PhD, associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
narbekovabdikamil@gmeil.com

QUESTIONS OF THE AUTOCHTHONY OF UZBEKS IN TURKESTAN

ABSTRACT

This article is devoted to the scholarly study of the place and role of the Sogdian language in the history of Turkestan. Using scholarly data, the author examines the origins of the Eran languages in Turkestan, the history of the Iranian and Turkic languages in the region, their mutual influence, and their impact on the culture, traditions, and customs of local peoples. He also outlines his perspective on the origins of the Sogdian language.

Key words: Sogdiana, Bactria, Khorezm, party affiliation, classes, socialist realism, Turkism, Aryans, Achaemenids, ethnic group, ethnonym, toponym, nomad, Scythians, Sakas.

Normurodov D.R.
«Arxeologiya va etnologiya» kafedrasi dotsenti, PhD
O‘zbekiston Milliy universiteti
d.r.normurodov@mail.ru

SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA

ANNOTATSIYA

Maqola Samarqand viloyati Kattakurg‘on tumani “Jizmonsoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 ta tanganing tavsifi va ilmiy tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu tangalar majmuasida turli davr va mintlarga oid namunalar mavjud bo‘lib, ulardan biri 1085-yilda Shimoliy Xitoydagi Song sulolasi (960–1279) tomonidan zarb qilingan, qolganlari esa quyidagi hijriy 526-yil (milodiy 1132) Samarqandda, 754-yil (milodiy 1353–1354) Xorazmda, 785-yil (milodiy 1383–1384) Samarqandda, 813-yil (milodiy 1410–1411) Samarqandda, 819-yil (milodiy 1416–1417), 823-yil (milodiy 1420–1421) Samarqandda yillarda ishlab chiqarilganligi, qolgan uchta tanganing zarb sanasi va joyini aniqlashga muvaffaq bo‘lmaganni qayd qilingan. Ushbu numizmatik material Samarqand viloyati hududida Qoraxoniylar sulolasi davridagi tanga zarb qilish an’analarini, mazkur mintaqada yashagan aholi va Shimoliy Song imperiyasi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni, Oltin O‘rda xoni Jonibek davridagi pul ishlab chiqarish siyosatini, Amir Temur va Temuriylar (xususan, Shohrux Mirzo hamda Mirzo Ulug‘bek) davridagi mis tanga zarb qilishdagi islohotlarni, shuningdek, Muhammad Shayboniyxon davridagi tanga tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan pul islohotlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo hududidagi pul muomalasi tarixi, davlatlararo savdo aloqalari va tanga zarb siyosatidagi uzluksizlik hamda o‘zgarishlarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

***Kalit so‘zlar*:** Samarqand, Jizsonsoy, Jonibek, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, taga, mis, fulus, hijriy yil.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududi, xususan, Samarqand viloyati qadimdan buyon boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lib, bu yerda topiladigan numizmatik materiallar o‘tmishdagi davlat tuzilmalari, iqtisodiy aloqalar, savdo-sotiq yo‘llari va pul muomalasi tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Samarqand viloyati Kattakurg‘on tumani “Jizmonsay” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 dona tanga majmui ana shunday qimmatli topilmalardandir. Ular shu mahallada yashovchi, hozirda O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “Arxeologiya” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs kechki (rus) guruhi talabasi Vohidjon Xo‘rozboy o‘g‘li Abdusalomov tomonidan mahallaaning turli joylaridan topgan va ulardan 6 donasi O‘zbekiston fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlar muzeyiga (1, 3-4, 6-8-rasmlardagi tangalar), 5 donasi esa O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli kuchlar muzeyi”ga topshirilgan. Ushbu tangalardan bir donadi qoraxoniylar sulolasi (XI asr), bir donasi Oltin O‘rda davlati (XIV asr), bir donasi Amir Temur va uch donasi

temuriylar imperiyasi (XIV–XV asrlar) hamda bir donasidagi qayta zarb Shayboniylar davri (XVI asr boshlari) pul ishlab chiqarish an’analarini aks ettiradi. Majmuada bir dona Song imperiyasi (Shimoliy Xitoy) tangasi mavjudligi esa mazkur hudud aholisining uzoq mintaqalar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari mavjudligidan dalolat beradi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

“Jizmonsoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topgan tangalar yomon holatda saqlanganligiga qaramay o‘zining qiziqarliligi, turli davrlarga oidligi va har biri alohida turdagi tangalardan iboratligi bilan katta qiziqish uyg‘otadi. Bu tangalar quyidagicha tavsifga ega:

1-tur. 1085-yil Shimoliy Xitoydagi Song (960-1279-yillar) sulolasi tomonidan ishlab chiqarilgan, o‘rtasi kvadrat teshikchali tanga. Diametri – 25 mm, og‘irligi – 3,30 gr, metali – bronza(1-rasm).

Oldi tomoni. O‘rtasidagi kvadrat teshikchaning to‘rtta tomoniga to‘rtta xitoycha iyeroglif tushirilgan (Shao Sheng Yuan Bao / 紹聖元寶):

Orqa tomoni. Tekis ya’ni, hech qanday belgi yoki bezaklar tushirilmagan.

2-tur. Dirham. Hijriy 526 (milodiy 1132)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 23 mm, og‘irligi – 1,90 gr, metali – mis. O‘rta qismidan biroz chetrog‘ida ip o‘tkazib osib yurishga mo‘ljallangan teshikchasi (diametri – 3-4 mm) bor (2-rasm).


Oldi tomoni. O‘rta maydonidagi halqa shaklidagi hoshiya ichiga uch qator va tanganing cheti ya’ni, hoshiyaning tashqi aylanasi bo‘ylab ko‘fiy (arab grafikasi) xatidagi yozuv tushirilgan. O‘rta maydonida saqlangan “al xoqon” yozuvi quyidagicha yozilgan:

(o‘rta qismida)	
الخاقان	(“al xoqon – الخاقان”)
الصح	
?	

Orqa tomoni. O‘rta maydonidagi halqa shaklidagi hoshiya ichiga uch qator va tanganing cheti ya’ni, hoshiyaning tashqi aylanasi bo‘ylab ko‘fiy (arab grafikasi) xatidagi yozuv tushirilgan. Ulardan o‘rta qismida saqlangan ikki qadordagi “al xoqon Muhammad”, chetidagi “besh” yozuvi quyidagicha yozilgan:



(o‘rta qismida)	
الخاقان	(“al xoqon – الخاقان”)

	(“Muhammad – محمد”)
?	


(chetida)	
	(“hamsamoya (besh yuz) – (خمسما (ئة”

3-tur. Pul. Hijriy 754 (milodiy 1353-1354)-yil Xorazmda zarb qilingan. Diametri – 28 mm, og‘irligi – 6,11 gr, metali – mis (3-rasm).

Old tomoni. To‘rt burchagi tugun (yurakcha) shaklida birlashgan kvadrat hoshiya ichiga sherning chapga qarab yo‘nalayotgan qiyofasi tasvirlangan bo‘lib, uning bel qismidan yuqoriga ko‘tarilib nur taratayotgan quyoshning yarmi ko‘ringan (quyosh fonidagi sher tasvirli). Sherning og‘zi biroz ochilgan, quloqlari tik, uzun dumi pastga qayrilib orqa oyoqlarining o‘ng tomonidan biroz ichkariga o‘tgan. Sherning ko‘kragidan oldinda va chap oyog‘ining pastida uchlari jingalak bo‘lib qayrilgan bezak chizilgan. Hoshiyaning tashqi to‘rt tomonida yonlamasiga arab harflari(suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi so‘z bilan, zarb qilingan hijriy yili raqamda quyidagicha tushirilgan:

	(“zarb – ضرب ” – hoshiyaning o‘ngida)
	(“Xuorazm – حوارزم” – hoshiyaning ustida)
	(“fy sana – فى سنه” – hoshiyaning chapida)
	(“754 – ٧٥٤” – hoshiyaning tagida).

Orqa tomoni. Atrofi bezalgan sakkiz yaproq shakldagi hoshiya ichiga pastdan yuqoriga qarab o‘qiladigan “Joni Xon, Adolatli Sulton” yozuvi arab harflari(suls xati)da quyidagicha tushirilgan:



	(“al sulton – السلطان ”)
	(“al hodil – العادل”)
	(“Joni xon – جانى خان”)

4-tur. Fulus. Hijriy 785 (milodiy 1383-1384)-yilda Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 24x25 mm, og‘irligi – 5.64 gr. Bu tanga tarkibining 93,89 % mis (Cu), 2,34 % temir (Fe), 1,23 % volfram (W), 0,54 % nikel (Ni), 0,49 % rux (Zn), 0,43 % kalsiy (Ca), 0,41 % qo‘rg‘oshin (Pb) elementlaridan tashkil topgan[1]. Tangadagi bezak va sulus hati (arab grafikasi)dagi yozuvning bir qismi o‘chib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan (4-rasm).


Old tomoni. O‘rta qismidaga kvadrat shakldagi hoshiya ichiga arab harflari (suls xati)da “Amir Temur” nomi quyidagicha tushirilgan:

(o‘rta qismida)	
	(“Amir – أمير”)
	(“Temur – تيمور”);

kvadrat shakldagi hoshiyanins tashqi to‘rt tomoniga arab harflari (suls xati)da so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili, ya’ni “sana / yetti yuz / sakson / besh” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“sabeumo miya (etti yuz) – سبعمائة” – hoshiyaning chapida)
	(“samanun (sakson) – ثمانون” – hoshiyaning tagida)
	(“hamsa (besh) – خمسة” – hoshiyaning o‘ngida)
	(“sana (yil) – سنه” – hoshiyaning ustida)

Orqa tomoni. O‘rta qismidagi uchburchaksimon bezak ichiga tamg‘a – uchta halqa (°°°), uchburchaksimon bezaklarning toshqi uch tomoniga arab harflari (suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi, ya’ni “zarb / Samar / qand” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“zarb (zarb qilindi) – ضرب”)
	(“Samar – سمر”)
	(“qand – قند”)

5-tur. Fulus. Hijriy 813 (milodiy 1410-1411)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 17 mm, og‘irligi – 2.17 gr., tarkibi – 94,61 % mis (Cu), 1,42 % temir (Fe) elementlaridan tashkil topgan (5-rasm).

Old tomoni. Deyarli tekislanib ketgan.

[1] Tangalarning tarkibi O‘zMU Geologiya fakulteti laboratoriyasidagi uskuna yordamida aniqlandi.


Orqa tomoni. Novdali o‘simliksimon bezak bilan o‘ralgan, o‘rtadan uchlari tashqari tomonga qarab cho‘zilibgan bodomsimon bezak (tamg‘a) tushirilgan.

6-tur. Nim dongi. Hijriy 814 (milodiy 1411-1412)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 21x25 mm, og‘irligi – 4.07 gr, metali – mis.

Old tomoni. Cheti aylanasiga nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o‘ralgan. O‘rta qismidagi uchburchaksimon hoshiya ichiga uchta halqa tushirilgan (° ° °). Hoshiyaning uch tomoniga arab harflari (suls xati)da tanganing zarb qilingan joyi, ya’ni “zarb / Samar / qand” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“zarb (zarb qilindi) – ضرب”)
	(“Samar – سمر”)
	(“qand – قند”)

Orqa tomoni. Cheti aylanasiga nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o‘ralgan. O‘rta qismiga old tomonidagi kabi uchburchak shakldagi hoshiya tushirilgan bo‘lib, uning ichiga arab harflari(suls xati)da “adl nim dagy” yozuvi quyidagicha tushirilgan:

	(“nim – نيم”)
	(“dongy– داگی”)
	(“adl (zarb qilindi) – عدل”);

hoshiyaning atrofi bo‘ylab uch tomoniga tanganing zarb qilingan yili arab harflari (suls xati)da so‘z bilan yozilgan. Ulardan quyidagilar saqlangan:

7-tur. Hijriy 819 (milodiy 1416-1417)-yil zarb qilingan. Diametri – 22 mm, og‘irligi – 3,99 gr, metali – mis.

Old tomoni. Tekislanib ketgan.


Orqa tomoni. Arab harflari (suls xati)da so‘z bilan tanganing zarb qilingan hijriy yili pastdan tepaga qarab o‘qilish tartibida tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi tangaga tushmay qolgan. Saqlangan “sakkiz yuz o‘n to‘qqiz” quyidagicha yozilgan:

	(“tisea (to‘qqiz) – (تسع)سع”)

	(“eashra (o‘n) – عشرة”)
	(“samāniya mia (sakkiz yuz) – ثمانمائة”).

8-tur. Fulus. Hijriy 823 (milodiy 1420-1421)-yil Samarqandda zarb qilingan. Diametri – 21 mm, og‘irligi – 4,49 gr, metali – mis (8-rasm).

Old tomoni. Markazida ikkita uchburchaklarning bir-biri bilan ustma-ust kesishishidan olti qirrali yulduzcha, uning o‘rtasida olti burchakli geometrik shakl, qirralarida yana oltita uchburchakchalar hosil qilingan. O‘rtasidagi olti burchakning o‘rtasiga bitta nuqtacha qo‘yilib, bu nuqtachadan olti burchakka tomon olti chiziqcha tortilgan. Olti qirrali yulduzchaning qirralaridagi har bir uchburchaklarning o‘rtasida bittadan, jami oltita nuqtachalar bor. Olti yulduzchaning tashqarisi bo‘ylab aylanasiga, oltita bo‘lmachasida arab harflari (suls xati)da yozuv yozilgan. Ammo, bu yozuvlar tangaga to‘liq tushmagan, tushganlari ham ancha o‘chib ketgan. Bu yozuvning grafik tiklanshi quyidagichaligini ko‘rsatdi:

	(ad – عد)
	(liya – لية)
	(zar – ضر)
	(b – ب)
	(samar – سمر
	(qand – قند).

Orqa tomoni. Arab harflari (suls xati)da so‘z bilan tanganing zarb qilingan hijriy yili pastdan tepaga qarab o‘qilish tartibida tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi tangaga tushmay qolgan. Saqlangan “sakkiz yuz yigirma uch” quyidagicha yozilgan:

	(“salasa (uch) – ثلاثة”)
	(“eishrun (yigirma) – عشرون”)
	(“ va – و”)

	(“samāniya mia (sakkiz yuz)” – ” ثمانمائة”).

9-tur. noaniq. Diametri – 19 mm, og‘irligi – 3,26 gr, metali – mis. Har ikkala tomoni deyarli tekislanib ketgan. Orqa tomoniga qayta zarb urilgan. Qayta zarbda kvadrat-romb shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida “xub (خوب)” yozuvi tushirilgan (9-rasm).

10-tur. Noaniq. Diametri – 18 mm, og‘irligi – 1,76 gr, metali – mis. Ikkala tomoni ham deyarli tekislanib ketgan (10-rasm).

11-tur. Noaniq. Diametri – 27 mm, og‘irligi – 3,46 gr, metali – mis. Ikkala tomoni ham deyarli tekislanib ketgan (10-rasm).

Shunday qilib, yuqorida tavsiflangan tangalar 11 turdagi tangalardan iborat. Bu tangalarga o‘xshash tanga turlari turli hududlardan topib o‘rganilgan. Ulardan 1-turdagi – 1085-yil zarb qilingan (1-rasm), o‘rtasi kvadrat teshikli bronza tanga hozirgi Xitoyning shimoliy hududlarida 960 va 1279-yillarda hukmronlik qilgan Song sulolasi davriga tegishli bo‘lib, u Shao Sheng (Chjezong) hukmronligi (1094–1098-yillar) paytida ishlab chiqarilgan [23; 28]. Ushbu tanganing Zarafshon daryosi havzasida joylashgan, hozirgi Samarqand viloyatining Jizmonsoy qishlog‘idan topilishi 11-asrdagi qoraxoniylar davlati tarkibida bo‘lgan ushbu hudud bilan Song sulolasi qo‘l ostida bo‘lgan hududlarda yashagan aholi o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlaridan xabar beradi.

2-turdagi – 1132-yilda Samarqandda zarb qilingan ko‘fiy (arab grafikasi) yozuvli tanda 9–12-asrlardagi islomiy davlatlarning tanga ishlab chiqarish an’anasiga xos. Lekin, yuqorida tavsiflangan tanga juda kuchli yeyilgan va yozuvlari deyarli o‘qib bo‘lmas darajada tekislangan. Bunday tangalarga o‘xshash tangalar B.D.Kochnev, T.S.Yernazarova, M.N.Fedorov kabi tangashunoslar tomonidan o‘rganilgan [6; 17; 18]. Tanganing o‘rta yuzasidagi va bir tomonidagi aylanasi bo‘ylab yozilgan yozuvda “besh yuz (خمس مئة)” saqlanganligi uning qoraxoniylar davriga to‘g‘ri kelishini mumkinligini ko‘rsatdi (2-rasm). So‘ng uning o‘xshashlarini tadqiq qilish va qiyoslash ushbu turdagi tangalarda qanday yozuv tushirilganligini aniqlashga imkon bo‘ldi. Bu turdagi tangalar yuzasidan olib borilgan avvalgi tadqiqotlarga asoslanib, 2-turdagi tanganing zarb qilish texnikasi, tuzilishi va yozuvlarning tushirilishi qoraxoniylar sulolasining hukmronligi davrida Movarounnahr shaharlardan biri bo‘lgan Samarqanddagi zarbxonada zarb qilinganligini aytishga imkon berdi. Jumladan, aynan o‘xshash bo‘lgan tangaga qiyoslash orqali uni hijriy 526 (milodiy (1132)-yilda G‘arbiy Qoraxoniylar sulolasining Samarqanddagi hukmdori Qodirxon Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymonning (taxminan 1129–1132-yillar) hukmronlik yillariga mansubligi aniqlandi [45]. O‘z davrida muomalada bo‘lgan bu tanga misdan yasalgan bo‘lsa-da, o‘sha paytdagi mis tanqisligi tufayli unga “dirham” deb yozdirilgan va u shu vazifasini bajargan. Tangadagi ip o‘tkazib taqib yurishga mo‘ljallab teshilgan teshigiga qaraganda keyinchalik taqinchoq sifatida taqib yurilgan, deyish mumkin. Islom an’anasida bu kabi “Alloh va Muhammad s.v. payg‘ambar”ning nomi

yozilgan tanga yoki buyumlar muqaddas hisoblangan. Shu sababli ular muomaladan chiqarilsa-da, keyinchalik ipga tizib taqib yurilgan.

Yuqoridagi tavsifdan 3-tanga ya’ni, Oltin O‘rta xoni Jonibek hukmronligi davrida (1342–1357-yillar) hijriy 754 (milodiy 1353–1354)-yil Xorazmda zarb qilingan tanga “pul” deb yuritilgan. Bundan tangalar P.S.Savelev [13], A.Makvov [9], G.A.Fedorov – Davidovlar tomonidan tadqiq qilingan [15]. Ularning bir qancha nusxasi “Zeno.ru” va “en.numista.com” elektron-onlayn platformalariga ham joylashtirilgan [24]. G.A.Fedorov – Davidov bu turdagi tangalarning bezaklari o‘xshashligini qayd qilib, ularning orqa tomonidagi yurayotgan sherning chapdan ko‘rinishi tushirilgan tasvirga o‘xshash rasmlar Jo‘chi va uning sulolasi qo‘l ostiga kirgan turli shaharlarida, shuningdek, Saljuqiylar (1038–1308-yillar), Hulokuiylar (1256–1353-yillar), Boburiylar (1526–1858-yillar), fors shohlari tangalarida aks ettirilganligi, Xorazmda bu tangalarning o‘ngga yurayotgan sher tasvirli nusxalari ham bir paytning o‘zida muomalaga chiqarilganligi aniqlangan [15]. Xorazmning bunday sher tasvirli tangalari hijriy 741–757 (milodiy 1340–1356)-yillarda zarb qilingan bo‘lib [31; 32], ularning namunalari Qirim hududlaridan ham topilgan [22]. Qayd qilish kerakki, Oltin O‘rdada tanga-pul barqarorligi ta’minlangan davrlardan biri Jonibek (1342–1357) hukmronlik qilgan paytga to‘g‘ri keldi. Ushbu masala bilan shug‘ullangan G.A. Fedorov-Davidovga ko‘ra, bu pul 1 dinorning beshdan biriga (1 “Tassuj” – dinorning beshdan biri) [15], 40 pul 1 dirhamga teng bo‘lgan [16]. Ularga sher tasvirining tushirilganligi qiziqarli bo‘lib, sher turkiy-mo‘g‘ul, forsiy va islomiy an’analarda hukmdorlik, hokimiyat va kuch-qudrat ramzi hisoblanadi. Jumladan, “sher va quyosh” motivi Eron mintaqasida keng tarqalgan. Shulardan kelib chiqib, Oltin O‘rta xoni Jonibek o‘zini mustaqil va qudratli hukmdor sifatida ko‘rsatgan siyosiy legitimlik timsoli ekanligi aytish mumkin.

4-turdagi ya’ni, Samarqand zarbxonasida hijriy 785 (milodiy 1383-1384)-yil Amir Temur nomi va uchta halqa–tamg‘a tushirilib muomalaga chiqarilgan mis tanga – fuluslarning ko‘plab nusxalari topilgan. Jumladan, hozirgi O‘zbekistonning Samarqand shahri, Yakkabog‘ tumani [10], Termiz shahridan [11], Qirg‘iz Respublikasi, Jalolobod tumani, Aksi tumani, Panfilov tumani (Chu viloyati)dan [19], Tojikistonning Xuttalon viloyati, Dang‘ara tumani (Itarka qishlog‘i)dan [3], Rossiyaning Astraxan shahridan [1] topilgan. Ma’lumki, Amir Temur hokimiyatni ma’lum vaqt Chig‘atoy avlodlaridan bo‘lgan “qo‘g‘irchoq xon” – Suyurg‘atmish (1370–1388), so‘ng uning o‘g‘li Mahmudxon (1388–1402)lar nomi bilan boshqargan, mis va oltin tangalarda ularning nomi bilan o‘z nomini birga tushirtirgan [14]. Amalda esa mutlaq boshqaruvni o‘zi amalga oshirar edi. Amir Temur o‘zining birinchi tangalarini hijriy 774 (milodiy 1372-1373)-yil Chig‘atoy xonlarining namunasi asosida zarb qilgan bo‘lsa, 1380-yillardagi pul islohotidan so‘ng yangi shakldagi tangalarni o‘z nomi bilan zarb qildirgan.

Amir Temurning “uch halqa” – tamg‘asi hijriy 783–787 (milodiy 1381–1385)-yillarda Samarqandda zarb qilingan ko‘plab mis tanga – fuluslarda tushirilgan [19; 20]. Samarqanddan tashqari, Xorazmda, Xuroson, Eron, Iroq va Ozarboyjon hududlarida, chunonchi, Astrobod, Astora (Ashpara), Bak-u, Balx, Bag‘dod, Barsa, Bomiyon, Hirot, Domg‘on, Darban, Yazd, Isfahon, Koshon, Kermon, Qum, Qarshi,

Mordin, Sova, Sultoniya, Tabriz, Xoy, Shabonkora, Sheroz, Shemaxa, Mahmudobod, Mashhad, Bidlis, Vastan, Selmas va boshqa shaharlardagi 40 – 50 ta zarbxonada turli yillarda Amir Temurning nomi tushirilib tangalar zarb qilingan [11; 14]. Hatto, mustaqil bo‘lgan Hindiston, Turkiya, Misr va Shom podshohlari ham Amir Temur nomi bilan tilla va kumush tangalar zarb qildirganlar [14]. Ushbu tangalar orasida Samarqandning uch halqa – tamg‘ali mis tangalari boshqa mis tangalardan ko‘ra kengroq tarqalgan.

Amir Temurning oltin va kumushdan yasalgan va uch halqa – tamg‘ali tushirilgan tangalarning old tomoni o‘rta qismiga “La ilaha illallohu Muhammadur rasulullo” degan iymon, to‘rt burchagiga esa to‘rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlarini, orqasiga esa “Suyurg‘atmishxon yorlig‘i Amir Temur Ko‘ragon akmonu” deb yozilgan. Jumladan, Samarqandda hijriy 782–788 (milodiy 1380–1386)-yillarda zarb qilingan kumush “miri”larda ham Suyurg‘atmishxon va Amir Temur nomi yozilgan [14]. Mis tangalarda esa birgina “Amir Temur” nomi tushirilgan [14]. E’tiborli jihat shundaki, Amir Temur bevosita Chingizxon avlodidan bo‘lmagani uchun tangalarda uning ismiga “amir” yoki “ko‘ragon (mo‘g‘ilcha – kuyov)” so‘zi tushirilgan.

Amir Temur tangalaridagi uchta halqa – tamg‘a doimo qiziqarli bo‘lib kelgan. Ayrim tadqiqotchilar mazkur tamg‘a ho‘kiz boshining ramzi ekanligi, ho‘kiz boshining faqat ikki ko‘zi bilan og‘zi tasvirlanganligini xato taxmin qiladilar [14]. Amir Temurning uchta doiradan iborat bo‘lgan bunday tamg‘asining tavsifi birinchi marta 1404-yilda Samarqandga, Amir Temur saroyiga kelgan Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning sayohat kundaligida keltirilgan. U Amir Temurning Samarqanddagi saroyiga kirishda tillo rangdagi uch halqa borligini qayd qilgan [2]. Halqalar xuddi tangalardagidek tartibda joylashgan bo‘lgan [2; 12]. Ibn Arabshoh esa Amir Temurning bayrog‘ida, tug‘ida, otlarida, tangalarda, tillo zeb-ziynatlarda uch halqadan iborat tamg‘a bo‘lganligi haqida ma’lumot yozib qoldirgan [7]. “O – halqa” shaklidagi uch doirachalardan tashkil topgan bu tamg‘alar Amir Temur davlatning ramziy belgisi – gerbi bo‘lib, u “Temur – uch iqlimning hukmdori”, degan ma’noni anglatgan.

Amir Temurning hijriy 783 (milodiy 1381–1382) yilda Xorazmda zarb qilingan tangasining bir tomoniga uchta halqadan tashqari, halqalarning uning tagidan sherning o‘ng tomondan ko‘rinishi tasvirlangan [20]. Ma’lumki, islom dinida jonzotlarni muqaddaslashtirish, ularning tasviridan foydalanish salbiy qaraladi. Hayvonot olamining qiroli sifatida talqin qilinadigan sherning Amir Temur tangalarida tushirilishi uning tolerantligidan dalolat beradi.

Amir Temur tangalardan oldin zarb qilingan tangalarda ham uchta halqani kuzatish mumkin. Jumladan, ular kelib chiqishi turkiylardan bo‘lgan qoraxoniylar sulolasi vakili Nasr Ibrohim o‘g‘lining hijriy 460 (milodiy 1067-1068), 466 (milodiy 1073-1074)-yillarda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangasida [34; 38; 43], Mas’ud Hasan o‘g‘lining hijriy 560 (milodiy 1164-1165) Samarqandda zarb qilingan fulus – mis tangasida [39], Arslonxon Ibrohim Husayn o‘g‘lining hijriy 559 (1163-1164)-yilda Uzgandda zarb qilingan dirhamlarida [40], yana bir turkiy sulola Saljuqiylarning vakili Alp Arslon nomining hijriy 465 (milodiy 1072-1073)-yilda Nishopurda zarb qilingan dirham – oltin tangasida [21] va boshqalarda

uchraydi. Qolaversa, tangalarda halqa o‘rnida bo‘rtib chiqqan va alohida ko‘zga tashlanadigan uchta nuqtachalar ham tushirilgan. Bularga somoniylar sulolasi vakillaridan Yahyo Asad o‘g‘lining Shosh – Toshkentda zarb qilingan mis tangalari [20], qoraxoniylardan Nasr Ibrohim o‘g‘lining hijriy 465 (milodiy 1072-1073)-yilda, Tabg‘achxon Muhmudning hijriy 490 (milodiy 1096-1097)-yilda Buxoroda zarb qilingan fulus – mis tangalari [41; 44], Imadiddin Tabg‘achxon Muhammad Takash o‘g‘lining hijriy 610 (milodiy 1210)-yilda Vaxshda zarb qildirgan dinorlari [44], saljuqiylar sulolasi vakillaridan Kirmon hukumdorlaridan biri bo‘lgan Qara Arslon Bek nomi tushirilib hijriy 462 (milodiy 1069-1070)-yilda zarb qilingan dirhamlari [21], Chingiziylardan Munkaxonnning (hijriy 649-658, milodiy 1251-1260-yillar orasida) dirhamlari [35], Xorazmdagi qo‘ng‘irot so‘filarining hijriy 779 (milodiy 1377-1378)-yilda zarb qilingan mis tangalari [33] bunga misol bo‘la oladi. Ammo, bu tangalardagi uchta halqachalar va nuqtachalar ancha kichik hajmda tushirilgan.

Amir Temurning uch halqa – tamg‘asi uning o‘g‘li Shohrux va nabirasi Ulug‘bek hukmronligi davrida urug‘ tamg‘asi sifatida qaralib, kumush va mis tangalarga tushirilgan. Temuriy shahzodalarning 15-asrning oxirlarida Samarqand va Buxoroda zarb qildirgan mis tanglari o‘rta qismiga arab harfidagi yozuvning “sh (ش)” harfi ustiga qo‘yiladigan nuqtachalari uchta halqa ko‘rinishida tushirilganligini ham kuzatish mumkin [36; 37]. Undan keyingi tangalarda Amir Temurning davlat ramziga aylantirgan bunday tamg‘ani tushirish an’ana yo‘q bo‘lib ketgan.

Amir Temur tangalarida arabcha, forscha, mo‘g‘ulcha so‘zlar bilan birga turkcha so‘zlar ham qo‘llanilgan. Masalan: arabchadagi kalimalar, forschadagi “zarb”, mo‘g‘ulchadagi “ko‘ragon (kuyov)” so‘zlari qatorida turkiydagi “so‘zim”, “yorlig‘i” singari so‘zlarni uchratamiz. bu orqali Amir Temurning ilgari an’ana sifatida qo‘llanib kelingan so‘zlarga qo‘shimcha turkiy so‘zlarning qo‘llanishi an’anasiga tamal qo‘ydi.

Yuqorida tavsiflangan, hijriy 813 (milodiy 1410-1411)-yilda zarb qilingan 5-tanga va 814 (milodiy 1411-1412)-yilda zarb qilingan 6-tangalar ham Amir Temurning mis tangalarni zarb qilish an’anasida ishlab chiqarilgan. Qayd qilish kerakki, ulardagi yozuv va bezaklarning bir qismi o‘chib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan bo‘lsa-da, o‘xshashlarini o‘rganish, bu tangani grafik tiklash ularning chetlari aylanasiga nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o‘ralganligini aytishga imkon berdi (5–6-rasmlar). Jumladan, yuqorida tavsiflangan, 6-tanga ya’ni, hijriy 814 (milodiy 1411-1412)-yilda zarb qilingan tangalarning nusxalari hijriy 815 (milodiy 1412-1413)-yilda ham zarb qilinganligini ko‘rsatdi. Ammo, Ye.A.Davidovich ushbu turdagi tangani hijriy 819 (milodiy 1416-1417)-yilda zarb qilingan bo‘lishi mumkinligini qayd qilgan [3]. Yuqorida tavsiflangan tangada arabcha so‘z bilan “sakkiz yuz o‘n to‘rt (samanimiayat a'arbaeat eashar)” yozilganligi ko‘rinib turibdi. Bu turdagi tangalar “Nim dangi (1/2 dangi)” hisoblanadi [3]. U Amir Temurning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzo (hukmronligi 1405–1447-yillar) paytida zarb qilingan. Bunday kichik qiymatli mis tanga savdo va kundalik muomalada ishlatilgan.

Hijriy 819 (milodiy 1416–1417)-yil zarb qilingan 7-turdagi tangaga o‘xshash tangalar qisman topib o‘rganilgan bo‘lsa-da [42], ularning birortasida ham na yozuvlar, na bezaklar yaxshi saqlanmagan. Shu sababli ularning to‘liq grafik tiklashning imkoni bo‘lmadi. Saqlangan ayrim yozuv va bezaklarning qiyosiy tahlili ularning har ikkala tomoning chetlari bo‘ylab aylanasiga nuqtachalar va uning ichidan halqa bilan o‘ralganligini ko‘rsatdi. Odatda bu turdagi tangalarning old tomonining o‘rta qismidagi hoshiyasining to‘rt yoni to‘lqinsimon va to‘rt uchi tashqarisida to‘rsimon bezak bilan tutashib ketganligi, hoshiya ichiga arab yozuvidagi yozuv tushirilganligi, hoshiyaning to‘rt tomoniga tanganing zarb qilingan joyi tushirilganligi ma’lum bo‘ldi. O‘rganilgan bu turdagi tangalar Samarqandda zarb qilingan. Tanganing orqa tomoniga esa arab harflarida so‘z bilan uning zarb qilingan “sakkiz yuz o‘n sakkizinchi yil (سنة ثمانمائة وتسع عشر)” tushirilgan. Ma’lumki, hijriy 819 (milodiy 1416–1417) yil Temuriy shahzoda Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay Shohrux o‘g‘li)ning Samarqand hokimligi davriga to‘g‘ri keladi. 1409-yilda (hijriy 812-yil atrofida) otasi Shohrux Mirzo uni Movarounnahr (Markaziy Osiyoning asosiy qismi) va Samarqand hokimi etib tayinlagan edi. Shundan kelib chiqib, muhokama qilinayotgan tanganing Mirzo Ulug‘bekning tanga-pul islohotlari natijasida mahalliy savdo-sotiq uchun muomalaga chiqarilganligini aytish mumkin.

6 burchakli “Sulaymon yulduzi” ichidagi chiziqli yulduzcha shaklidagi bezakli 8-tangalarning namunalari yaxshi tadqiq qilingan. Bu turdagi tangalar Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Alisher Navoiy mahallasidan [25; 26; 27; 29], Qirg‘iz Respublikasi Jalolobod viloyati Suzak qishlog‘idan, Tojikistoning Dushanbe shahridan [4] va boshqa joylardan topilgan. Ulug‘bekning tanga-pul islohotlaridan so‘ng shunday bir xil bezakli tangalarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan edi [5]. Ushbu tangalar bir paytning o‘zida ya’ni, hijriy 823 (milodiy 1420)-yilda Samarqanddan tashqari Buxoro, Qarshi, Termiz, Shahrisabz, Shohruxiya kabi shaharlarda zarb qilingan [4].

Afsuski, 9–11-tangalardagi bezak va yozuvlar deyarli tekislanib ketgan (9–11-rasmlar). Shu sababli ularning qayerda va qachon zarb qilinganligini aniqlashning imkoni bo‘lmadi. Ularni qiyosiy o‘rganishga urinish ham samara bermadi. Balki kelgusidagi tadqiqotlarda bu masalaga oydinlik kiritishga imkon bo‘lar. Faqatgina, 8-tangaga kvadrat shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida “xub (خوب)” yozuvi tushirilgan qayta zarb urilgani aniqlandi (9-rasm). Tangaga tushirilgan forscha “xub (خوب)” – “yaxshi”, “sifatli”, “qonuniy” yoki “yaroqli” degan ma’noni bildiradi. Bu belgi tanganing haqiqiy ekanligini tasdiqlovchi belgi sifatida ishlatilgan. Bu amaliyot Markaziy Osiyo va Eron hududlarida keng tarqalgan edi. 9-tangadagi qayta zarbni Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrdagi mis tangalar taqchilligini bartaraf etish uchun qayta urdirilib muomalaga chiqarilganligini aytish mumkin. Ye.A.Davidovich bunday kvadrat-romb ichiga “xub” yozuvi tushirilgan qayta zarblar Movarounnahrning markaziy qismidagi shahar zarbxonalarida urilganligini qayd qilgan [3].

XULOSA

Xullas, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani “Jizmonsay” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan topilgan 11 dona tanga Markaziy Osiyo numizmatikasi va iqtisodiy tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu majmua turli davrlarga oid tangalarni o‘z ichiga olib, G‘arbiy Qoraxoniylar (XI asr), Oltin O‘rda (XIV asr), Amir Temur va Temuriylar (XIV–XV asrlar) hamda Shayboniylar davri pul muomalasi va tanga zarb qilish siyosatini yoritadi. Topilmalar orasida Shimoliy Song sulolasi (Xitoy) tangasi mavjudligi “Jizmonsay” aholisining Buyuk Ipak yo‘li orqali uzoq mintaqalar, xususan, Shimoliy Xitoy bilan savdo aloqalari rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, hijriy 526-yilda Samarqandda zarb qilingan Qoraxoniylar dirhami, Xorazmda Jonibekxon davrida chiqarilgan tanga, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Shayboniyxon davridagi tangalar mintaqada amalga oshirilgan pul islohotlari, tanga tanqisligini bartaraf etish choralari va iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni chuqur o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati, xususan, Jizmonsoy hududida 11–16-asrlardagi pul muomalasining uzluksizligini, savdo yo‘llari faolligini va turli sulolalar tanga zarb siyosatidagi o‘xshashlik hamda farqlarni kuzatish imkonini berdi. Topilgan artefaktlarning bir qismi davlat muzeylariga topshirilgani ularni kelgusida chuqurroq ilmiy tadqiq qilish va ommaviy ko‘rgazmalarga qo‘yish uchun qulay sharoit yaratdi. Umuman olganda, “Jizmonsay” topilmalari Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixi va numizmatikasini boyituvchi qimmatli manba bo‘lib, mintaqa arxeologik va numizmatik tadqiqotlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Брагин А.О. Находки монет Амира Тимура и Тимуридов на территории Золотой Орды // Нумизматика Золотой Орды. – № 5. – Казань, 2015. – С. 67–79.

2. Гонсалес Руи Де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406). Масъул муҳаррир: Мухаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010. 90–92, 148, 162–163, 164, 173, 182, 186, 188–189-бетлар.

3. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV– первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва, 1983. – С. 70, 131, 201.

4. Давидович Е.А. Клады древних и средневековых монет Таджикистана. – Москва: Наука, 1979.

5. Давидович Е.А. Материалы для характеристики денежной реформы Улугбека // Из истории эпохи Улугбека. – Ташкент, 1965. – С. 274–299.

6. Ерназарова Т.С., Кочнев Б.Д. Монетные находки с Кендыктепе // Древности Туябугуза. – Ташкент, 1976. – С. 138–139.

7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Тошкент: Меҳнат, 1992. 65-бет.

8. Кочнев Б.Д. Нумизматическая история караханидского каганата (991 – 1209 гг.). Часть I. Источниковедческое исследование. – София, 2006. – 344 стр.

9. Марков А.К. Инвентарный каталог мусульманских монет императорского Эрмитажа. – Санкт-Петербург, 1896. – С. 458–459. № 418, 459, 430.

10. Нормуродов Д., Мейлиев И. Яккабоғдаги Амир Муҳаммад (барлослар) мақбараси. – Тошкент, 2023. 22-бет.

11. Ртвеладзе Э.В. Термезский клад монет Тимура и Халил Султана // ОНУ. 1969. – № 8–9. – С. 95–98.

12. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). – Москва, 1990. – С. 103.

13. Савельев П.С. Монеты джучидскія, джагатайскія, джелаиридскія и другія, обращавшіяся в Золотой Орде в эпоху Токтамыша (с 10-ю таблицами рисунковъ) // Записки Императорскаго. Археологическаго общества. – Санкт-Петербург, 1865. Том. 12. – С. 285.

14. Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. 8–9, 18, 20, 30, 40, 42, 44, 46-бетлар.

15. Федоров – Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма Золотоордынского периода // Нумизматика и эпиграфика. – Москва: Наука, 1965. – № 5.– С. 190–202.

16. Федоров – Давыдов Г.А. Монетная система Хорезма XIV в. // СА. – Москва: Наука, 1957. № 2. – С. 245.

17. Федоров – Давыдов Г.А. Монеты – свидетели прошлого // Популярная нумизматика. – Москва, 1985. – С. 84–93.

18. Федоров М.Н. Караханидская нумизматика как источник по истории Средней Азии конца X — начала XIII вв. автореф дисс. на соис. док. истю наук. – Новосибирск, 1990. – С. 11.

19. Френ Х.М. Монеты ханов улуса Джучиева или Золотой Орды с монетами различных мухаммеданских династий. – Санкт-Петербург, 1832. – С. 62. –№ 443. – Табл. XV. – Рис. 1, 3, 5.

20. Харитонов В.И. О некоторых медных монетах Хорезма 80–90-х гг. XIV в. // Нумизматические чтения государственного исторического музея: 2016 года. Материалы докладов и сообщений. – Москва, 2016. – С. 65–69. – Рис. 2, 3, 4, 5, 7.

21. Catalogue of oriental coins in the British Museum. – Vol. III. – London: Printed by order of the trustees, 1877. – Pp. 30, 38. – PL. II. № 60, № 75.

22. https://coins.ucoz.ru/index/0-38


23. https://en.numista.com/30269#:~:text=Table_title:%20Features%20Table_content:%20header:%20%7C%20Issuer%20%7C,%7C%20Empire%20of%20China:%202%20Cash%20%7C

24. https://numista.com/332559

25. https://sputniknews.uz/20220309/sarosiyoda-ulugbek-xazinasi-topildi-23219055.html

26. https://t.me/AOKA_Surxondaryo/1567

27. https://uza.uz/en/photo-bank/90661
28. https://www.calgarycoin.com/reference/china/china5.htm?utm_source=chatgpt.com № S-582
29. https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/07/coin/
30. https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=3129&page=1
31. https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=9849
32. https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=9874
33. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=119586
34. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=16104
35. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=176070&cat=9877&ppuser=&sortby=d&way=desc
36. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=337042&cat=21831&ppuser=&sortby=d&way=desc
37. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=181154
38. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=196858
39. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=208623
40. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=317930&cat=6364&ppuser=&sortby=d&way=desc
41. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=35473
42. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=362742
43. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=37888
44. https://www.zeno.ru/showphoto.php?photo=64761
45. #303609 - Samarqand, 526 AH, Qarakhanid AE dirhem with sword and halberd





1-rasm. 1085-yil. Shimoliy Xitoydagi Song (960–1279-yillar) sulolasi. Bronza.




2-rasm. Dirham. Hijriy 526 (milodiy 1132)-yil. Samarqand. Mis.

		
3-rasm. Pul. Hijriy 754 (milodiy 1353–1354)-yil. Xorazm. Mis.		4-rasm. Fulus. Hijriy 785 (milodiy 1383–1384)-yil. Samarqand. Mis.


		
5-rasm. Fulus. Hijriy 813 (milodiy 1410–1411)-yil. Samarqand. Mis.		6-rasm. Nim dongi. Hijriy 814 (milodiy 1411–1412)-yil. Samarqand. Mis.




7-rasm. Hijriy 819 (milodiy 1416–1417)-yil. Mis.



8-rasm. Hijriy 823 (milodiy 1420) yil. Samarqand. 6 burchakli “Sulaymon yulduzi” shaklidagi bezakli. Mis.



9-rasm. Mis.



10-rasm. Mis.



11-rasm. Mis.

Нормуродов Д.Р.
PhD., доцент кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
d.r.normurodov@mail.ru

О МОНЕТАХ, ОБНАРУЖЕННЫХ НА ТЕРРИТОРИИ М.Ф.И. “ЖИЗМОНСОЙ” КАТА-КУРГАНСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена описанию и научному анализу 11 монет, найденных на территории махаллинского схода граждан «Джизмонсай» Каттакурганского района Самаркандской области. В составе монетного комплекса представлены экземпляры различных исторических периодов и монетных дворов. Одна из них отчеканена в 1085 году династией Северная Сун (960–1279 гг.) в Китае. Остальные монеты выпущены в следующие годы: 526 г. хиджры (1132 г.) в Самарканде, 754 г. хиджры (1353–1354 гг.) в Хорезме, 785 г. хиджры (1383–1384 гг.) в Самарканде, 813 г. хиджры (1410–1411 гг.) в Самарканде, 819 г. хиджры (1416–1417 гг.) и 823 г. хиджры (1420–1421 гг.) в Самарканде. Точную дату и место чеканки трех монет установить не удалось. Данный нумизматический материал является важным источником для изучения традиций чеканки монет в период правления династии Караханидов на территории Самаркандской области, торгово-экономических связей местного населения с империей Северная Сун, денежной политики золотоордынского хана Джанибека, реформ монетного дела при Амире Темуре и Тимуридах (в частности, Шахрухе Мирзе и Мирзо Улугбеке), а также денежных реформ Мухаммада Шайбанихана, направленных на преодоление дефицита монет. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию истории денежного обращения в Центральной Азии, межгосударственных торговых связей, преемственности и изменений в монетной политике.

***Ключевые слова*:** Самарканд, Джизмонсай, Джанибек, Амир Тимур, Шахрух Мирза, Мирзо Улугбек, монета, медь, фулус, год хиджрий.

Normurodov D. R.
PhD., associate professor at the department of «Archeology and ethnology»
National university of Uzbekistan
d.r.normurodov@mail.ru

ON THE COINS DISCOVERED IN THE “JIZMONSOY” MAHALLA CITIZEN ASSEMBLY, KATTAKURGAN DISTRICT, SAMARKAND REGION

ABSTRACT

The article is devoted to the description and scientific analysis of 11 coins discovered in the “Jizmonsoy” Mahalla Citizens’ Assembly territory of Kattakurgan District, Samarqand Region. The coin assemblage contains specimens from various historical periods and mints. One of them was struck in 1085 by the Northern Song Dynasty (960–1279) in China. The remaining coins were minted in the following years: 526 AH (1132 AD) in Samarqand, 754 AH (1353–1354 AD) in Khwarezm, 785 AH (1383–1384 AD) in Samarqand, 813 AH (1410–1411 AD) in Samarqand, 819 AH (1416–1417 AD), and 823 AH (1420–1421 AD) in Samarqand. The exact minting date and place of three coins could not be determined. This numismatic material serves as an important source for studying coin minting traditions during the Qarakhanid period in the Samarqand region, trade and economic relations between the local population and the Northern Song Empire, monetary policy under the Golden Horde Khan Jonibek, coinage reforms during the reign of Amir Temur and the Timurids (particularly Shahrukh Mirza and Mirzo Ulughbek), as well as the monetary reforms carried out by Muhammad Shaybani Khan to overcome the shortage of coins. The research results contribute to a deeper understanding of the history of monetary circulation in Central Asia, inter-state trade relations, and the continuity and changes in coinage policy.

Key words: Samarqand, Jizmonsay, Jonibek, Amir Timur, Shahrukh Mirza, Mirzo Ulughbek, coin, copper, fulus, Hijri year.

Очилдиев Ф.Б.
«Археология ва этнология» кафедра профессори, т.ф.д.
Ўзбекистон Миллий университети
fayzullaochildiev@gmail.com

XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН

АННОТАЦИЯ

Мақолада XIX асрнинг иккинчи ярми–XX аср бошларида Шарқий Бухородаги бошқарув тизими, мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий воқеалар, бекликлар сони ва маъмурий бўлиниши ҳамда уларда бўлган ўзгаришлар таҳлил қилинган. Шунингдек, Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий ҳаётида Шарқий Бухоро бкликларининг тутган ўрни, Шарқий Бухоронинг географияси, унинг манбаларда номланиши, бекликларда амир ва бек навкарларининг жойлаштирилиши ҳамда уларнинг сони каби масалалар ўрганилган.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, Шарқий Бухоро, Россия империяси, беклик, амлоклик, бошқарув тизим, маъмурий, ҳудудий бўлиниш, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, навкарлар.

КИРИШ

XIX асрнинг иккинчи ярмида Бухоро амирлиги тасарруфида 44 та беклик бўлганлиги эътироф этилган. XX аср бошларига келиб, эса амирлик таркибида 24 та беклик, 7 та алоҳида амлоклик ва 10 та туман бўлган. Д.Н.Логофет Бухоро амирлиги ҳудудий жиҳатдан 25 та бекликка бўлинишини таъкидлаб ўтган. 1912 йилга келиб, Бухоро амирлигида 26 та беклик ва 11 та мустақил амлокликка бўлган бўлиб улар Бухоро амирга бўйсунган. Бу даврда Шуғнон, Рушон ва Воҳан бекликлари амирлик таркибига кирмай, Россия империяси назорати остида бўлиб келган. Архив манбаларида келтирилган маълумотларда 1915 йилда Бухоро амирлиги 27 та беклик ва 11 та тумандан иборат бўлганлиги қайд қилинган. Мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий воқеалар, амирликда бекликлар сони ва маъмурий бўлинишида ўзгаришлар бўлишига асосий сабаб бўлган.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Бухоро амирлиги тоталитар бошқарув тизимига асосланган бўлиб, давлат бошида амир турган. Вилоятларни беклар ва амлокдорлар бошқарган ва улар ўз навбатида амирга бўйсунган. Мамлакатда давлат бошқаруви тўлалигича шариат қонунлари асосига қурилган. Давлат бошқаруви идоралари марказий ва маҳаллий тизимлардан ташкил топган. Маҳаллий бошқарувда вилоятларни амир томонидан тайинланган беклар бошқарган, бекликлар ўз ўрнида амлокликларга бўлинган. Амлокликлар ўз таркибига бир неча қишлоқларни

қамраб олган бўлиб, амлокдорлар бек томонидан тайинланган. Қишлоқларни эса қишлоқ оқсоқоллари бошқарган.

1868-йилги Рус-Бухоро шартномасига қадар Т.С. Бурнашов, И.В. Хаников, А. Борнс, И. Игнатиев, Глуховскийнингларнинг асарларида “Шарқий Бухоро” атамаси ишлатиб келиган. Мазкур ҳудудга Ҳисор, Қабодиён, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин ва Дарвоз каби бекликлар “Бухоро амирлигининг шарқий вилоятлари” деган умумий ном остида тилга олиниб маъмурий қисм сифатида келтирилган[1]. Россия-Бухоро шартномаси имзолангандан сўнг ҳам рус ҳарбий-фуқаролик амалдорларининг Бухоро амирлигининг маъмурий тузилишига оид барча маълумотларида Шарқий Бухоро атамаси ишлатилган. Масалан, Л.Н.Соболев, К.А.Абрамов, Л.Ф. Костенко, П. Шубинский, И.Л. Яворский, Н. Стремоухов, Г.А. Арандаренко, Н.Н. Покотило, О.В. Липский, В. Клем, С.П. Мазов каби муаллифларнинг маълумотларида Бухоронинг шарқий вилоятлари Шарқий Бухоро деб юритилган, бироқ унинг аниқ чегаралари кўрсатиланмаган[2].

Д.Н. Логофет, Г. Андреев, А. Губаревич-Радобилский, Н.А. Маев, В.В. Крестовский, Н. Архипов, Н.Б. Соболев, Н. Минаев, Е. Марков, Н.А. Нечаев, В.И. Липский, Белявский, П. Гаевский, А. Галкин, П.И. Лерх, Лилиентал, Р.Ю. Рожовитс, Ю.Д. Южаков, В. Клем, А.К. Снесарев, М.А. Варигин, Василев, Б.Н. Литвинов[3] каби муаллифларнинг асарларида Бухоро амирлиги уч қисмга яъни Ғарбий, Марказий ва Шарқий Бухорога бўлиб кўрсатилган. Шарқий Бухоронинг маъмурий ҳудудиий бўлинишига эътибор қаратадиган бўлсак, унинг ҳудуди вақти-вақти билан ўзгариб турган. Баъзи адабиётларда Ғарбий Помирни ҳам Шарқий Бухоро таркибига киритилганлиги тўғрисида маълумотлар мавжуд. Бу асосан, Россия билан келишилган ҳолда Ғарбий Помир вақтинча Бухоро амирлигига берилган даврларга оид хабарларда учрайди. Бухоро амирлиги географиясини белгилашдаги бундай ҳолат, Шарқий Бухоро ҳудудини турлича белгилашга сабаб бўлган.

1908 йилда Шарқий Бухорога ташриф буюрган геолог Н. А. Нечаев унинг маъмурий тузилиши ҳақида қисқача маълумот бериб ўтган. “Шарқий Бухоро афсонавий Помирга бевосита туташ бўлиб, ёввойи табиати ва ўзига хос жозибага эга, аҳоли сийрак яшайдиган тоғли ўлкадир деб ёзган”. Шунингдек, Шарқий Бухоро таркибига кирган Кўлоб беклиги 9 та амлокдорликдан иборат бўлганлигини, бек саройи пахсадан қурилган бўлиб, уни 200-300 аскардан иборат бўлган ҳарбий қисм қўриқлашини, Қободиён ва Қўрғонтепа бекликлари эса атиги учтадан амлокдорлик бўлганлигини таъкидлаган[4]

Россия империяси ва собиқ совет даврида Шарқий Бухоро тарихи масалалари билан шуғулланган тарихчиларнинг барчаси Шарқий Бухоронинг маъмурий тузилишини тасвирлашга катта аҳамият берган. Бироқ ҳозиргача Шарқий Бухоронинг географияси, шунингдек, унинг бекликлари сони тўғрисида ягона фикр мавжуд эмас. Баъзи муаллифлар Шарқий Бухоро ҳудудига ғарбда Бойсундан шарқда эса Ишкошимгача бўлган ҳудудларни ҳамда 14 та бекликни (Ҳисор, Қабодиён, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин,

Дарвоз, Шуғнон, Рушон, Ишкошим, Қўрғонтепа, Сариосиё, Шеробод, Денов, Бойсун) киритадилар. Бошқа муаллифлар эса Деновдан Ванжгача бўлган ҳудудни ва 6 та бекликни (Ҳисор, Қабодиён, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин, Дарвоз) унинг таркибига қўшадилар. Баъзан маъмурий бўлиниш сифатида Қўрғонтепа ҳам тилга олинади, лекин у вилоят сифатида киритилган. Н. Н. Покотило Шарқий Бухоро таркибига Денов, Қўрғонтепа, Кўлоб, Балжувон, Ҳисор, Сари Жўй, Шеробод, Бойсун ва Қабодиён бекликларини киритган. Қоратегин ва Дарвоз номларини эса тилга олинмаган.

Баъзи рус манбаларида Шарқий Бухоронинг қатта қисми Ҳисор воҳаси деб ҳам юритилганлиги келтирилган. Н.Маевнинг маълумотларига кўра, Ҳисор воҳасида 7 та: Шеробод, Бойсун, Денов, Юрчи, Ҳисор, Қўрғонтепа ва Қабодиён бекликлари мавжуд бўлган. Бу бекликлардан ташқари, Дарбанд, Сарижўй ва Файзобод амлокликлари бўлиб, уларга амлокдорлар Бухоро амири томонидан тайинлаган.

Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий ҳаётида вазиятга қараб маъмурий-ҳудудий тузилишида ўзгаришлар бўлиб турган. XVIII асрнинг иккинчи ярмидан XIX аср ўрталарига қадар Сурхон воҳасида Шеробод, Бойсун, Денов ва Юрчи бекликлари мавжуд бўлганлиги манбаларда келтирилган[5]. Шеробод беклиги 1.Талашкон; 2. Саидобод; 3. Гиламбоб; 4. Салавот; 5. Жарқўрғон; 6. Шеробод шаҳри атрофидаги аҳоли масканлари; 7. Таллимарон. каби амлокликлардан иборат бўлган[6]. Бойсун беклиги 1. Бойсун; 2. Яумчи; 3. Работ; 4 .Дарбанд; 5. Сайроб; 6. Хатак; 7. Заробоғ; 8. Пошхурд; 9. Бузравот; 10. Какайди амлокликларидан ташкил топган[7] . Денов беклигида: 1. Сина; 2. Қарлуқ; 3. Пастундара; 4. Хадраша; 5. Дўрмон; 6. Гардиқўрғон амлокликлар мавжуд бўлган. Бу даврда Юрчи беклиги ҳам манбаларда келтириб ўтилган. Бу бекликда 1. Сангардак; 2. Пашор; 3. Чамбулоқ; 4. Юрчи шаҳри амлокликлари бўлган. ҳозирги кунда маъмурий жиҳатдан Сурхондарё вилояти таркибига кирувчи Дашнобод, Сариосиё, Сарижўй[8] амлокликлари эса Ҳисор беклиги таркибига киритилган.

Амирликда ижтимоий-сиёсий вазиятга қараб XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб, беклик ва амлокликлар таркибида бир мунча ўзгаришлар юз берган. Кап. Васильев бу даврда Бойсун беклигида 1. Бойсун, 2. Пошхурд, 3. Дарбанд, 4. Яумчи амлокликлар бўлганлигини кўрсатиб ўтган[9]. Бойсун беклигидаги Рабод, Заробоғ, Какайди, Хатак, Бўзрабод, Сайроб амлокликлари хусусида маълумотлар келтирмаган. Архив манбаларида эса Бойсун беклиги таркибида Бойсун, Яумчи, Работ, Дарбанд, Сайроб, Хатак, Заробоғ, Пошхурд, Бузравот, Какайди амлокликлари бўлганлиги таъкидланган[10].

XIX асрнинг иккинчи ярмида Шеробод беклигида 1. Талашкон, 2. Саидобод, 3. Таллимарон, 4. Гиламбоб, 5. Жарқўрғон, 6. Солиҳобод амлокликлар бўлиб, 7. Шеробод шаҳри алоҳида бошқарув тизимига эга бўлган. XX аср бошларида эса бу беклик Гиламбоб, Талашқон, Майдаариқ, Саидобод, Жарқўрғон, Паттакесар, Чўчқагузар амлокликларига бўлган[11].

XIX асрнинг иккинчи ярмида Денов беклиги 11 та амлокликка бўлинган (бу даврда Юрчи беклиги амлоклик сифатида тилга олиниб, Денов беклиги

таркибига киритилган). Денов беклиги таркибига 1. Сангардак, 2. Пошор, 3. Чамбулоқлар, 4. Ўртақўру, 5. Юрчи, 6. Сина, 7. Қарлуқ, 8. Постундара, 9. Хадрача,10. Дўрмон, 11. Гардиқўрғон амлокликлари кирган[12]. Денов беклигидаги амлокликлар сонига эътибор берадиган бўлсак, XVIII аср охири-XX аср бошларида ҳам ўзгармаган. Юрчи беклиги таркибида бўлган амлокликлар Денов беклиги тасарруфига ўтган. Фақат Сангардак, Пашор, Чамбулоқ ва Юрчи шаҳридан иборат бўлган амлокликлар Юрчи беклиги мавжуд бўлган даврларда унинг таркибида бўлган[13].

XIX асрнинг 70-йилларида Ҳисор беги Сарижўйни ўз ўғлига алоҳида беклик қилиб ажратиб берган ва уни ўша жойга бек этиб тайинлаган. Шундан сўнг Шарқий Бухорода Сарижўй беклиги ҳам ташкил топган. У Сарижўй, Сариосиё, Ўртақўри, Пашор, Чанбулоқлар ва Юрчи амлокликларини ўз ичига олган[14]. Маълумотларга кўра, Бухоро амири Ҳисор беги Остонақул Қушбегига оталиқ унвонини бериши билан унга инъом тариқасида олтита амлокликдан иборат Сарижўй беклигини танҳо сифатида тортиқ қилган, ундан келадиган фойда ва даромадлар тўлалигича Остонақулнинг ихтиёрига топширилган. Сарижўй беклиги маълум муддат фаолият кўрсатиб, кейинчалик беклик мақомини сақлаб қолмаган. Манбаларга таянган ҳолда аниқроқ айтадиган бўлсак, у 1887 йилга қадар беклик мақомига эга бўлиб, Сарижўй, Сариосиё ва Денов беклигининг Ўртақўри, Пашор, Чамбулоқлар ва Юрчи амлокликлари унинг таркибида бўлган. 1887 йилдан сўнг беклик тугатилиб, Сарижўй ва Сариосиё амлокликлари Ҳисор беклиги таркибига, қолганлари эса яна Денов беклиги тасарруфига ўтказилган[15].

Шарқий Бухоро бекликларига таркибига хозирги кунда қўшнни Тожикистон Республикаси ҳудудига кирувчи Ҳисор, Қабодиён, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин, Дарвоз, Шуғнон, Рушон, Ишкошим, Қўрғонтепа бекликлари ҳам мавжуд эди. А.Н. Курапаткин XIX аср бошларида Қоратегин, Дарвоз, Кўлоб бир муддат Қўқон мулкларига қўшиб олиниб, бир оз вақт ўтгандан сўнг бу ҳудудлар Қундуз ҳокими тасарруфига ўтганлиги. шу асрнинг ўрталарига келиб, Қундуз ҳукмронлигидан мустақил ажралиб чиқиб бу бекликлар ҳокимлари ўртасида ички тўқнашувлар юз берганлигини таъкидлайди[16]. Бухоро амри Музаффар ҳукмронлигининг бошларида Ҳисор, Кўлоб, Балжувон, Қоратегин ва Дарвоз ҳокимлари асосан ўз мустақилликларини сақлаб ўзларига хос бошқарувга эга бўлишган. Шарқий Бухоронинг забт этилиши натижасида бу ҳудуд Бухоро амирлигининг маъмурий бошқаруви таркибига киритилиб, беклик ва амлокдорликларга бўлиб юборилган.

Кўлоб беклиги 1. Пархар, 2. Чубек, 3. Алимтой, 4. Довути, 5. Қўрғон-Поён, 6. Довути-Қўрғон-Боло, 7. Кўл, 8. Маъмунобод, 9. Кобрай, 10. Сари-Чашма амлокдорликларга бўлинган. Шунингдек, 1.Боло-Дара, 2.Поён-Дара, 3.Кишт, 4.Тагноб, 5. Сари-Ғор, 6. Оринг, 7. Давлатобод, 8. Роғун; шоҳликлар ҳамда Даоба ижарадаги ерлардан иборат бўлган[17]. М.А.Варыгин Кўлоб беклиги Вахш дарёси яқинида жойлашган ҳудудларни қамраб олиб, Чубек, Сайёт, Саричашма, Қоврой, Гарди Қўрғон-Поён, Қул, Мўминобод, Гарди

Қўрғон – Боло амлокликларга бўлиниб бошқарилишини ёзади[18]. Д.Н. Логофет Қўрғонтепа беклиги 1.Сарой, 2.Жаликўл, 3.Қўрғонтепа. амлокликларга бўлинганлигини эътироф этган. П.Гаевский ҳам ўзининг таъдқиқотларида Қўрғонтепа беклигини Жилликўл, Сарой, Қўрғонтепа амлокликларга бўлинганликларини баён қилган[19]. Манбаларда Қабодиён беклигининг маркази Кофарниҳон дарёси яқинидаги Қабодиён шаҳрида бўлиб, 1.Қабодиён, 2.Башқан (Бешкент), 3. Боботоғ амлокликларга бўлиб бошқарилганлиги кетирилган[20]. А Бедерский. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида Қабодиён беклигини Бешкент ва Бошчарвоқ амлокликларига бўлинганлигини келтириб ўтган[21].

Маркази Балжувон шаҳрида бўлган ва Қизилсув (Сурхоб) дарёси яқинида жойлашган Балжувон беклиги 1. Балжувон, 2. Пушиён, 3. Ховалинг, 4. Кангурт, 5. Сари-Пул, 6. Тут-Қавул, 7. Шайдон, 8. Даштак, 9. Қади-оби, 10. Сурхоб, 11. Жирғатол (Жўрубқул) амлокликлар ҳамда 1. Шўробдара, 2. Мулло Муроджон, 3. Боймуш, 4. Хурнайча, 5. Зардолушт, 6. Деҳтур (Дегтур) ижарадаги (округлар) ерларга бўлинган[22]. Маркази Қалъаи Хумб шаҳри бўлган Дарвоз беклиги Панж дарёси яқинида жойлашган бўлиб, 1. Қалъаи Хумб, 2. Қалъа-Ванч, 3. Зигар, 4. Сағирдашт, 5. Вахиё-Боло, 6. Тавилдара, 7. Чилдара, 8. Шикай, 9. Язғулом амлокликларни ўз ичига олган. Қоратегин беклигининг маркази Сурхоб (Вахш) дарёси бўйида жойлашган Гарм шаҳри бўлиб, у 1. Қозоқ (Қирғиз), 2. Қалъайи Лабиоб, 3. Қалъайи Хоит, 4. Гарм, 5. Қамароб, 6. Навдонак, 7. Яхак, 8. Оби - Гарм. Амлокликлар бўлинган[23].

XIX асрнинг иккинчи ярмида Ҳисор Бухоро амирлигининг энг муҳим бекликларидан бири ҳисобланган. Л.Н.Соболев амир Музаффар Зарафшон ва Қашқадарё воҳаларида ҳокимиятни қўлдан берган тақдирда Ҳисорга кетишни мўлжаллаб, у ерда ўзи ва яқинлари учун барча шарт ва шароитниларни ҳозирлаб қўйганлигини таъкидлаган[24]. Ҳисор беклиги 1. Ҳисор, 2. Файзобод, 3. Қоратоғ, 4. Регар, 5. Дашнават, 6. Ўрта Карук, 7. Орол, 8. Султон Работ, 9. Хонақа, 10. Ёвон-Чортоқ, 11. Янгибозор, 12. Душанбе, 13. Мавлоно (Ҳазрати Мавлоно), 14. Норак, 15. Лақайбеги , 16. Қораманди, 17. Ғози-Малик, 18. Боботоғ, 19. Кофарниҳон, 20. Равнақ амлокликларни ўзида бирлаштирган. Кап. Лилиенталь XIXасрнинг охири – XX бошларида Ҳисор беклиги Варзоб, Душанбе, Нурек, Яван, Лақай, Дашнавот, Раумат, Ҳисор, Чортон, Ғозималик, Иккинчи Хонақо, Сариосиё, Сарижуй, Кофирнихон, Шурион, Файзобод, Хонақо,Султонравот, Алибеги, Қоратоғ, Регар амлокликлар иборат бўлганлигини эътироф этган[25].

Бухоро амири жануби-шарқий вилоятларидан қаттиқ чўчиб турган ва бу ҳудудларга алоҳида эътибор беришга мажбур бўлган. Шу боисдан ҳам бу ҳудудларда доимий қўшинларининг катта қисми жойлаштирилган. Масалан, XIX асрнинг 70-йилларида Шерободда 300 та, Бойсунда 300 та, Деновда 500 та навкар, 2 та тўп, Сариосиёда-500, та Регарда 400 та, Ҳисорда 400 та навкар ва 11 та тўп, Кўлобда-300 та, Қўрғонтепада-200 та навкар жойлаштирилган[26]

Бекликларда амир ва бек навкарларидан ташқари ҳар бир амлокдорликларда 10 тадан 200 тагача навкарлар бўлиб, улар асосан ҳарбий хизматни ўташ, бек ва амлокдор саройини қўриқлаш ҳамда қамоққа маҳкум қилинганларни назорат қилиш, ишларини бажарганлар[27]. Навкарларнинг ижтимоий таркиби турли-туман бўлиб, ҳатто навкарлик хизматига айрим йирик ер эгалари ҳам қабул қилинган. Навкарларнинг мансаб даражаси уларнинг мулкий ҳолатига қараб белгиланган. Эсонхўжа амлокдорлигида 195 та, Бодроқлида – 90 та, Ғозималикда – 80 та, Қоратоғ ва Регарда 25 тадан, Хонакада – 24 та, Сарижўйда – 18 та, Шўрконда – 13 та, Дашнободда – 11 та, Сариосиёда – 8 та, Ҳисор амлоклигида эса – 7 тадан навкар бўлган[28].

ХУЛОСА

XIX асрнинг иккинчи ярмига келиб, амирликда сиёсий вазият анча зиддиятли тус ола бошлади. Маҳаллий ҳокимият вакилларининг мустақиллик учун олиб борган курашлари Бухоро ҳукуматини саросимага солиб қўйди. Айниқса, Шарқий Бухорони бошқариш мураккаб масала бўлиб қолди. Амирликда бошқарув тизими анча инқирозга юз тутиб, маҳаллий бошқарув тизимида ҳам парокандалик юзага келди. Маҳаллий амалдорлар марказий ҳокимиятга бўйсунишни хоҳламай, бошқарувни ўзлари хохлаган усулда бошқаришга харакат килганлар. Бунинг оқибатида маҳаллий бошқарувда зўравонлик, аҳолига зулм ўтказиш, ўз мансабларини суиистеъмол қилиш каби ҳоллар кучайиб кетди. Шунингдек, сиёсий вазиятга қараб бекликлар ва амлокликларнинг сони ўзгариб турган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Игнатьева Н Миссия в Бухару и Хиву в 1858 году. – СПб.,1897.; Борнс А. Путешествие в Бухару (1831-1833). – М., 1849.; Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843.; Бурнашов Т.Н. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1749 году и обратно в 1795 г. //Сибирский вестник. – СПб., 1881.

2. Абрамов К.А. Записка о Каратегинском владении, составленная по распросным сведениям. // ИИРГО. – Т.II. – Пг. 1915.; Костенко Л.Ф. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. – СПб., 1871.; Шубинский П. Очерки Бухары.– СПб., 1892.; Яворский И.Л. Путешествие русского посла по Авганистану и Бухарскому ханству в 1878 - 1879 гг. – Т.1. – СПб., 1882.; Стремоухов Н. Поездка в Бухару // Русский вестник. – Т.117. – 1875.; Арандаренко Г.А. Дарваз и Каратегин //ВС. – № 11, 12. – 1883.; Покотило Н.Н. Очерк бухарских владений на левом берегу р. Пяндж 1886 г. //СГТСМА. – Вып. XXУ. – СПб., 1889.; Липский В.И. Горная Бухара. Ч.2. / В.И. Липский. – СПб., 1902.; Клем В. Современное состояние торговли Бухарского ханства 1887 г. //СГТСМА. - Вып. XXXIII. – 1888.; Мазов С.П. Восточная Бухара. Бадахшан и сев.Авганистан //Русское дело. - №17. – 1886.

3. Минаев И. Сведения о странах по верховьям Амударьи (1888 г.). – СПб., 1879.; Марков Е., Нечаев Н.А. По горной Бухаре. / Е. Марков, Н.А.

Нечаев. – СПб., 1914. ; Гаевский П. Курган-Тюбинское бекство. //ИРГО. – Т. 55. – Иркутск, 1929.; Лерх П.И. Взгляд на результаты Гиссарской экспедиции. – Ташкент, 1876.; Лилиенталь., Рожевиц Р.Ю., Снесарьев А.К., Варыгин М.А. Опыт описания Куябского бекства. //ИИРГО. – Т. III. 1916.; Васильев. Краткое описание Каратегина. //СГТСМА. – Вып. XXXIII. – СПб, 1888. – С. 24-25.; Логофет Д.Н. Страна бесправия. – СПб., 1909.; Липский В.И. В гостях у Гиссарского бека. //ТС. – Т. 447.; Его же: Гиссарская экспедиция 1896 г. //ИИРГО. – Т. XXXIII. – СПб, 1888.; Снесарев А.К. Восточная Бухара. – СПб.1905.

4.Нечаев А.В. По горной Бухаре. Путевые очерки. – СПб., 1914. – С. 75-76.

5. Холиков З.Э. Термез и Чаганиян в позднем средневековье.: Автореф. дис. … канд. ист. наук.- Самарканд: 2001. – С. 17.

6. ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 93-варақ.

7. ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 92-варақ.

8. ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 85-варақ.

9. Кап. Васильев. Статистический материал для описания Бухары. Бекство Ширабадское и часть Бойсунского // Сб. геог. топог. и статис. мат. по Азии. – СПб., 1894. Вып. 57. – С. 402.

10. ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 92-варақ.

11. ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 93-варақ.

12. Кап. Стеткевичь. Бассейн Каратаг-Дарьи // Сб. геог. топог. и статис. мат. по Азии. - СПб., 1894. Вып. 57. – С. 268.

13.ЎзР МДА, 126-жамғарма, 2-рўйхат, 71-иш, 85-варақ.

14.Туркестанские ведомости. - 1916. –№ 95.

15. Туркестанский сборник. -Т. 483. – С. 144.

16. Курапаткин А.Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны. / А.Н. Курапаткин. - СПб, 1879. – С.94.

17. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом . Т.I. / Д.Н. Логофет. – СПб, 1911. – С. 247.

18. Варыгин М.А. Опыт описания Кулобского бекства// Известия, ИРГО. Т.52.1916. –С.770-771.

19. Гаевский П. Курган-Тюбенская бества// Известия. ИРГО. Т.55. – С.19.

20. Юсупов Ш. Очерки истории Кабадианского бекства в конце XIX – начале XX века. – Душанбе, 1986. – С.22.

21. Бедерский А. О Гиссарском Крае. – С. 155-156.

22. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом . Т.I. / Д.Н. Логофет. – СПб, 1911.– С. 47.

23. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом . Т.I. / Д.Н. Логофет. – СПб, 1911. .– С. 48.

24. Соболев Л.Н. Заметки о Гиссарских владениях и о среднем течении Сурхобь-Дарьи // Известия ИРГО. – СПб., 1873. Т. IX. – С. 309.

25. Кап. Лилиенталь. Гиссарская и Кабодианская бекство // Сб. геог. топог. и статис. мат. по Азии. – СПб., 1894. Вып. 57. – С. 316.

26. ЎзР МДА, 2-жамғарма, 27-рўйхат, 3-иш, 2-варақ.

27. Туркестанские ведомости. 1907. 25 октября
28.Туркестанские ведомости. 1908. 27 мая.

Очилдиев Ф.Б.
DSc., профессор кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
fayzullaochildiev@gmail.com

ИЗ ИСТОРИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В ВОСТОЧНОЙ БУХАРЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются система управления в Восточной Бухаре во второй половине XIX – начале XX века, социально-экономические и политические события в стране, количество бекств и их административное деление, а также произошедшие в них изменения. Кроме того, изучены такие вопросы, как место бекств Восточной Бухары в общественно-политической жизни Бухарского эмирата, география Восточной Бухары, её наименования в источниках, размещение в бекствах навкаров эмира и беков, а также их численность.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Восточная Бухара, Российская империя, бекство, амляк, система управления, административное, территориальное деление, социальный, политический, экономический, навкары.

Ochildiev F.B.
DSc., professor at the department of «Archeology and ethnology»
National University of Uzbekistan
Fayzullaochildiev@gmail.com

ON THE HISTORY OF THE GOVERNANCE SYSTEM IN EASTERN BUKHARA IN THE SECOND HALF OF THE 19th – Early 20th Centuries

ABSTRACT

The article analyzes the governance system in Eastern Bukhara in the second half of the 19th – early 20th centuries, the socio-economic and political events in the country, the number of bekdoms and their administrative division, as well as the changes that occurred in them. The study also examines issues such as the role of the bekdoms of Eastern Bukhara in the socio-political life of the Emirate of Bukhara, the geography of Eastern Bukhara, the names by which it is referred to in sources, the deployment of the emir’s and beks’ navkars in the bekdoms, and their number.

Key words: Emirate of Bukhara, Eastern Bukhara, Russian Empire, bekdom, amlok, governance system, administrative, territorial division, social, political, economic, navkars.

Palvanov H.A.
«Arxeologiya va etnologiya» kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Hikmatjonpalvanov@mail.com

XORAZM VOHASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA’ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR

ANNOTATSİYA

Bu maqolada Qadimgi Xorazm vohasining metall hunarmandchiligining ayrim xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilib, quyi Amudaryo vohasining antik davridagi hunarmandchilikning taraqqiyotida metall buyumlarga ishlov berish, turlari va xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Geradot, Dingilja, B.A. Litvinskiy, Akinak, Burgutqal’a, Qo‘hna-Uaz, Kaparas, Shamshir, I.V. Pyankov, Sovut plastinalari, Chirik Rabot, Sagaris.

KIRISH

Yunon tarixchisi Geradot massaget qavmlari to‘g‘risida “Ularning barcha buyumlari, asbob-anjomlari oltindan va misdan ishlangan. Nayzalari, kamon paykonlari, harbiy boltalari misdan, bosh kiyimlari, kamarlari oltin bilan bezatilgan. Otlarning ustidagi bargustvoni ham misdan to‘qilgan. Ular temir va kumushdan umuman foydalanmaydi. Sababi ularning yurtida bu metallar yo‘q, oltin va mis esa, juda ko‘p” deb ma’lumotlar berib o‘tgan [1, B. 10]. Shuningdek, yunon tarixchisi va geografi Strabon (miloddan avvalgi I asr oxiri) “ularda kumush umuman yo‘q, temir ozchilik, mis va oltin serob” deb yozadi [2, B. 11]. Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki Xorazmda rangli metall buyumlarini ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa ham, o‘sha davrda temir qurollar xalq xo‘jaligida kam ishlatilganligidan darak beradi. Lekin antik davrda Xorazm vohasida temir buyumlaridan keng foydalanilgan, buni yodgorliklardan topilgan moddiy ashyolar ham tasdiqlaydi. S.P. Tolstovning tadqiqotlarida ham buni yaqqol ko‘rish mumkin.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Dehqonchilikda ishlatilgan temir buyumlar, ayniqsa **o‘roqlar** qishloq xo‘jaligida turli boshoqli ekinlar, beda, pichan va o‘tlarni o‘rishda, ekinlarni begona o‘tlardan tozalashda ishlatilgan. Xorazmda dastlabki temir o‘roqlar Ko‘zaliqir (miloddan avvalgi VI-V asr) va Dingilja (miloddan avvalgi V asr) yodgorliklaridan topilgan [3, C. 99-100]. Ushbu o‘roqlar uch qismdan tig‘, bo‘yin va dastadan iborat bo‘lgan. Demak bu temir o‘roqlar antik davriga kelib yanada kengroq yoyilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Bunday o‘roqlar mehnat jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam bergan. Bu esa qadimdan shakllangan dehqonchilik qurollarining mahalliy sharoitlarga moslashganligini va qo‘l mehnati jarayonida o‘zgarib, rivojlanib borganligini ko‘rsatadi.

B.A. Litvinskiy ta’kidlashicha, O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan zo‘g‘otali temir **bolta**lar ishlab chiqarilgan [4, B. 29-30].

Miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalariga oid Dingilja yodgorligidan topilgan temir **arra** qoldiqlari Xorazm temirchilik hunarmandchiligida qadimdan arralar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligini bildiradi [5, B. 156-158]. Mahalliy temirchilar tomonidan bu an’ana XX asr boshiga qadar davom etgan va xilma-xil shakllardagi arralar tayyorlangan [6, B. 93]. Natijada yog‘ochlarga ishlov berilib turli shakllarga keltirilgan. Balki bu arralarning topilishi hunarmandchilik tarmog‘ining duradgorlik turi paydo bo‘lib shakllana boshlaganligini bildirar.

Xorazm **pichoq**larning tig‘i temirdan, dastasi yog‘och yoki suyakdan yasalgan bo‘lib, antik davrga oid yodgorliklardan topib o‘rganilgan [7, B.158-159].

Xorazmliklarning harbiy salohiyati va san’ati, qurol-aslahalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar yozma manbalar, ba’zi arxeologik topilmalardagi tasvirlarda aks ettirilgan. Ahomoniylarning Persopol shahri Apadana tokchasidagi bo‘rttirma sur’atda o‘lpon to‘lovchilar qatorida xorazmliklar ot yonida kalta qilich (aqinak) bilan qurollangan holda tasvirlangan. Bu esa vohada qadimdan otlardan jangovar maqsadlarda va transport vositasi sifatida foydalanilganligini ko‘rsatadi. Qadimgi va antik davr yodgorliklari Qo‘yqirilganqal’adagi xumda nayza ko‘targan, Xumbuztepadagi sopolda esa zirhli suvoriy tasvirlangan [8, B.203].

Ko‘zaliqir (miloddan avvalgi VI-V asrlar) Burgutqal’adagi Amirobod madaniyati makonlari (miloddan avvalgi II asr) yodgorliklaridan bronzadan yasalgan **ot-ulov anjomi** ya’ni suvliq qolipi topib o‘rganilgan [9, B.34-36]. Bu esa Xorazmda so‘nggi bronza davridan ot-ulov anjomlarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi. O‘rganilayotgan davrga kelib esa ot-ulov anjomlarini tayyorlash ancha takomillashib rivojlanib borgan.

Kamonning qadimgi ikki xili mavjud bo‘lib oddiy kamon va murakkab kamondan tashkil topgan. Oddiy kamon yarim doira shaklida, murakkab kamon esa yoyilgan qo‘sh qanot shaklida ishlangan. Murakkab kamon O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi I ming yillikdan ma’lum [10, 419 b]. Xorazmda murakkab kamonlarning takomillashuvi taxminan miloddan avvalgi I asr oxiri milodiy I asrda temir sovutlarning keng tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xorazmda antik davrdanoq murakkab kamonlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu davrga oid Tuproqqal’a saroyidan murakkab kamon tayyorlovchi ustaxona topilgan [11, B.216-219]. Shuningdek, antik davrdagi Qo‘yqirilganqal’a, Qo‘hna-Uaz, Kaparas yodgorliklarida ham kiyik suyaklaridan tayyorlangan yarim tayyor kamon qoplamalari aniqlangan.

Tarixchilar fikricha, Yevrosiyo dashtlarida va Markaziy Osiyoda milodiy I asrdan gunn tipidagi murakkab kamonning suyak nakladkalari tarqalgan va mo‘g‘illar bosqiniga qadar foydalanilgan [12, B.29-45].

Yozma va arxeologik manbalar Xorazmda murakkab kamonlar keng ko‘lamda ishlab chiqarilganidan va asosiy harbiy qurollardan biri sifatida foydalanilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Xorazm o‘rta asrlarda Sharqdagi sifatli murakkab kamon ishlab chiqaruvchi markaz sifatida e’tirof etilgan [13, B.202-243]. Antik davrda shakllangan murakkab kamonlarning takomillashuvi o‘rta asrlarga kelib ancha taraqqiy etganini ko‘rish mumkin.

Xorazm yodgorliklarida topilgan **kamon o‘qi** uchlaridan uch parakli o‘qlar Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’aning quyi madaniy qatlamlari, qo‘shni hududdagi Chirik-Rabot majmuasi miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid qatlamlaridan topilgan [14, B.135-137]. Tuproqqal’adagi antik davrga oid o‘q uchining uzunligi 9 sm, tig‘i 6 sm, dastasi 3 sm, tig‘i eniga 2,2 sm ga teng bo‘lgan. Bunday o‘q uchlari Quyi Volga bo‘yi va Janubiy Ural hududlaridagi miloddan avvalgi IV asr oxiri III asr boshlariga oid yodgorliklarida ham uchraydi. Umuman shu davrlardan O‘rta Osiyo yodgorliklarida ham ma’lum [15, B. 67-68]. D. Marshall o‘sha shakldagi o‘q uchlarining Hindistonda tarqalishini sak qabilalariga aloqador va miloddan avvalgi I asrga oid deb hisoblaydi. A.M.Xazanov fikricha, ushbu shakl O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda miloddan avvalgi III-I asrlarda paydo bo‘lgan va miloddan avvalgi I asrdan keng tarqalganligi aytib o‘tilgan.

Temir yetishmagan paytlarda suyak kamon o‘qi uchlaridan ham ba’zida foydalanilgan. Bunday suyakdan yasalgan o‘q uchlari Xorazmning ko‘chmanchilariga oid yodgorliklarida qayd etilgan [16, B. 154-155].

Nayzalar piyoda jangchilar va suvoriylarning dushmanga yaqin masofadan zarba beruvchi jangovar qurollardan biridir. Tozabog‘yop madaniyati (miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalari) Jonbos 21 makonidan topilgan nayza tig‘ining toshdan yasalgan qolipi Xorazmda nayzalarning qadimdan tayyorlanishi va asosiy jangovar qurollardan biri sifatida keng foydalanganligidan dalolat beradi [17, B.131-132].

B.A. Litvinskiy, I.V. Pyankovlar ta’kidlashicha, massagetlarda nayza miloddan avvalgi VI asrda keng tarqalgan, hattoki ularda nayzabardorlar deb ataluvchi maxsus qism ham mavjud bo‘lgan [18, B. 40-41]. Shuningdek, Qo‘yqirilganqal’a, Jonbosqal’a, Xumbuztepa yodgorliklaridan topilgan sopol idishlar relefidagi nayza o‘qtalib borayotgan suvoriy tasvirlari Xorazmda miloddan avvalgi IV-II asrlardayoq uzun nayzalar suvoriylarning asosiy harbiy qurollaridan biri bo‘lganligidan guvohlik beradi [19, B. 99-101]. Tuproqqal’aning III-IV asrlar madaniy qatlamlaridan topilgan temir nayza tig‘i to‘rt qirrali shaklda bo‘lib, uzunligi 22 sm, kesimi hajmi 2,8 x 2,8 sm, dastasi saqlanmagan [20, B. 222-223]. Panjikent yodgorligidan topilgan topilmalar bunday nayza tig‘laridan O‘rta Osiyoda ilk o‘rta asrlarda ham foydalanish davom etganligini ko‘rsatadi [21, B.74-75]. O‘rta asrlarda ham nayzalardan asosiy jang qurollaridan biri sifatida foydalanilgan. Bu haqda ilk o‘rta asrlarga oid Xorazm tangalaridagi nayza ko‘targan suvoriy tasvirlari va arxeologik materiallar dalolat beradi [22, B. 42-44].

Shamshir yaqin masofadagi jangda chopish yoki sanchish orqali dushmanni jarohatlaydigan tig‘li qurol. Arxeologik materiallardagi dastlabki shamshirlar xanjar shaklida kalta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Eronning Suzadagi saroy qurilishi haqida Doro I yozuvida xorazmliklar kalta shamshir (akinak) va oy bolta (sagaris) bilan qurollangan, ot yetaklagan holda tasvirlangan. Shuningdek, Xorazmga qo‘shni sak qabilalari qo‘rg‘oni Chirikrabot yodgorligidan topilgan shamshir uzunligi 80 smga teng [23, B.149-150.]. Ustyurtdagi sarmatlar davri qo‘rg‘onidan topilgan shamshir uzunligi esa 106 smga teng [24, B.154-155]. Milodiy I-III asrlarga kelib Xorazmda kalta akinaklar o‘rniga uzun og‘ir shamshirlar keng tarqalgan. Buni biz Tuproqqal’a saroyi “Podshohlar zali” dagi jangchi shaklidagi

sopol haykalchalar misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Akinaklarning uzun shamshirlarga aylanib borishi metall hunarmandchiligining taraqqiy etganligini bildiradi.

Himoya qurollaridan **sovut**lar asosan uch turga ajraladi: plastinali, tangali va lamelliyar. Arxeologik manbalar Xorazmda qadimdan plastinali va tangali sovutlardan foydalanganliklarini ko‘rsatadi. Voha yodgorliklaridagi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid sopol idishlardagi suvoriy va uning oti plastinali sovutlarda himoyalangan qiyofada tasvirlangan. Sovut plastinalari suvoriyni qo‘l va oyoq tizzalariga qadar himoya qilgan. Xorazmdagi qo‘shni ko‘chmanchilar yodgorligi Chirik Rabotning miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid qatlamlaridan suvoriy va uning oti uchun tayyorlangan sovut plastinalari topilgan [25, B.157]. Xorazmda metall plastinali sovutlar I asrdan, ayniqsa og‘ir qurollangan otliq qo‘shinning ahamiyati kuchaygan davrda keng tarqalgan. Sovutlarning temir plastinalari III asrlar Tuproqqal’a saroyi majmuasi va Ko‘hna-Uaz qal’asi yodgorliklaridan ham topib o‘rganilgan [26, B.222-224]. Tuproqqal’a yodgorligidadagi 8 xonadan topilgan jangchi xaykalchasi xorazmliklar antik davrdayoq tangali sovutlardan foydalanganligini ko‘rsatadi.

Demak, xorazmliklar qurol-aslahalarni rivojlantirish yo‘lida bir necha bosqichlardan o‘tishgan. Ular kamon, kamon o‘qi uchlari, shamshir, nayza, xanjar, sovut kabi jang va himoya qurollaridan qadimdan foydalanib kelishgan. Manbalarda voha xalqlari qo‘rqmas, botir, dovyurak, mohir jangchi sifatida tilga olingani ma’lum.

Xorazm arxeologik materiallaridagi xilma-xil mis, bronza buyumlar misgarlik hunarmandchiligining rivojlanishini, mahsulot ishlab chiqarish darajasining oshganligini va aholining madaniy taraqqiyotini ko‘rsatadi. Misgarlik mahsulotlari nafaqat, amaliy ahamiyatga ega buyum, balki voha xalqlarining nodir san’at asari hisoblanadi. Xorazmning antik va o‘rta asrlar davri misgarlari tomonidan har-xil assortementdagi xo‘jalik va ro‘zg‘or buyumlari tayyorlangan. Xorazmda dastlabki mis va bronza qoshiqlar antik davrga oid Tuproqqal’a (III-IV asrlar, 3 dona), Ko‘xna-Uaz (1 dona), Mizdaqxon maqbarasi (III-IV asrlar) yodgorliklaridan topilgan. Mazkur qoshiqlarning rezervuar (qoshiqning suyuqlik turadigan joyi) qismi unchalik chuqur emas, tuxumsimon shaklda, so‘qma usulda yasalgan.

Ba’zi mutaxassislar ta’kidlashicha, metall qoshiqlar uy-ro‘zg‘orda emas, balki hunarmandchilik va diniy marosimlarda qo‘llanilgan [27, B.165-166]. Buni Varaxsha va Panjikent yodgorliklaridagi ilk o‘rta asr devoriy tasvirlarida olov bilan bog‘liq marosimlarda metall qoshiqlar ishlatilganini ko‘rish mumkin [28, B.244]. Umuman olganda metall qoshiqlar Xorazm vohasida islom dini tarqagunga qadar dastlab diniy marosimlarda va hunarmandchilik bilan bog‘liq ishlarda foydalangan bo‘lsa, keyinchalik zodagon va amaldorlar uylarida foydalanila boshlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Xorazm vohasida miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha davom etgan antik davrda Amudaryoning quyi oqimida boshqa sohalar kabi metall hunarmandchiligi ham rivojlanib borgan. Ayniqsa buni vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik

va chorvachilikda metall buyumlarga bo‘lgan talab katta bo‘lgan. Chunki bunday buyumlar dehqon va chorvadorlarning og‘irini yengil qilib kundalik ishlarida qo‘l kelgan. Bu davrga oid temir buyumlardan o‘roq, pichoq, arra, shamshir, bolta, ot-ulov anjomi, qoshiq, sovut va nayza va kamon o‘qi uchlari topib o‘rganilgan. Ayniqsa harbiy maqsadda ishlatilgan metall sovutlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Древние авторы о Средней Азии.-Ташкент, 1940. С.21-22; Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана.-Ташкент: АН УзССР, 1953. С.10.
2. Ўша жойда С.11.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. С.99-100; Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба середины I тысячелетия до.н.э.в Древнем Хорезма.-М.: 1973. Рис. I.3,8,9; 45, 2, 4-7.
4. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы.-М.: 1978. С.29-30.
5. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до н.э.в древнем Хорезме. –М.: 1973. С.156-158
6. Джабборов И.М. Ремесло узбеков Южного Хорезма в конце XIX-начале XX. С.93.
7. Койкрылган-кала памятник культуры древного Хорезма. С-158-159
8. Ўша жойда 203 б.
9. Сабурова М.А. Литейная форма из Хорезма // СА-М.: 1964.-№1. С.304-308. Тереножкин А.И. Бронзовый псалий с городища Кюзели-Гыра в Хорезма // КСИЭ. Самарканд., 1958. №XXX. С.34-36.
10. Ўзбекистон Республикаси Миллий энциклопедияси.-Тошкент: 2002. 419 б.
11. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АНСССР (1945-1948гг.) // ТХАЭЭ.-М.: Т.I. С.32-35. Топрак кала. Дворец. С.216-219.
12. Хазанов А.М. Сложные луки Евразийских степей и Ирана в скифо-сарматскую эпоху // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана.-М.: 1966. С.29-45; Кызласов Л.Р. История Тувы в средние века.-М.: изд-во МГУ, 1969. С.76-77.
13. МИТТ.Т. I. С.202; Толстов С.П. Древний Хорезм. С.244; Толстов С.П. По следам древне Хорезмийской цивилизации… С.242-243
14. Койкрылган-кала памятник культуры древного Хорезма. (IV в.до н.э.-IV в.н.э.) // ТХАЭЭ.-М.: 1967. Т.V. С.135-137.
15. Обеьченко О.В. Агалыксайские курганы // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). –Ташкент. 1972. Вып.9. С.67-68.
16. Ягодин В.Н. Стреловидные планировки Устюрта… С.154-155.
17. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья (II начало I тысячилетия до н.э.). –М.: Наука, 1977. С.131-132.

18. Литвинский Б.А., Пяньков И.В. Военное дело у народов Средней Азии в VI-IV вв.до.н.э. // Вестник Древней истории.-М.: 1966. №3. С.40-41

19. Толстов С.П. Древний Хорезм.-М.: 1948. С.219; Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм Мудофаа иншоотлари.-Тошкент, 2007. 99-101 б.

20. Рапопорт Ю.А., Е.Е. Неразик. Топрак-кала. Дворец. М., Наука, 1984. С.222-223.

21. Распопова В.И. Металлические изделия раннесредневекового Согда.-Ленинград., 1980. С.74-75

22. Ваинберг Б.И. Монеты древнего Хорезма.-М.: Наука, 1977. С.42-44

23. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. С.149-150.

24. Ягодин В.Н. Сарматский курган на Устюрте // Краткие сообщения Института археологии АН СССР (КСИА).-М.: 1978. С.154-155.

25. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта.-М.: 1962. Рис.82 а,б. С.157.

26. Рапопорт Ю.А., Е.Е. Неразик. Топрак-кала. Дворец. М., Наука, 1984. С.222-224.

27. Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях левобережного Хорезма // МХЭ.-М.: 1963.-вып.7. С-60; Вактурская Н.Н. и Вишневская О.А. Памятники Хорезма эпохи Великих Хорезмшахов. С.165-166

28. Жиповись древнего Пенджикента: Сб. Статей.-М.: 1954.-табл. VII; Шишкин В.А. Варахша.-М.: 1963.-табл. XIV. С.244

Палванов Х.А.
Преподаватель кафедры «Археологии и этнологии»
Национальный университет Узбекистана
Hikmatjonpalvanov@mail.com

ЗАМЕЧАНИЕ О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ МЕТАЛЛИЧЕСКОГО РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА АНТИЧНОГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются некоторые особенности металлоремесленничества Древнего Хорезмского оазиса, а также обработки металлических изделий, их виды и особенности в развитии ремесленничества в античный период в низовьях Амударьи.

Ключевые слова: Герадот, Дингильжа, Б.А. Литвинский, Акинак, Бургуткала, Кухна-Уаз, Капарас, Шамшир, И.В. Пьянков, Пластины панцирей, Чирик-Рабат, Сагарис.

Palvanov H.A.
Lecturer at the department of «Archaeology and Ethnology»
National University of Uzbekistan
Hikmatjonpalvanov@mail.com

NOTE ON SOME FEATURES OF METAL CRAFTS IN THE ANCIENT PERIOD OF THE KHOREZM OASIS

ABSTRACT

This article discusses certain features of metal craftsmanship in the Ancient Khorezm oasis and examines the processing, types, and characteristics of metal products in the development of craftsmanship in the ancient period of the lower Amu Darya oasis.

Key words: Geradot, Dingilzha, B.A. Litvinsky, Akinak, Burgut-Kala, Kuhna-Uaz, Kaparas, Shamshir, I.V. Pyankov, Coat of Arms Plates, Chirik Rabat, Sagaris.

Солиев М.М.
«Ўзбекистоннинг энг янги тарихи» масалалари бўйича
мувофиқлаштирувчи-методик маркази мустақил изланувчиси
Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси
s.mahmudjon.1202@gmail.com

ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 ЙЙ.)

АННОТАЦИЯ

Мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида (1941–1945 йй.) стратегик саноат, қурилиш ва транспорт корхоналари ишчиларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда озиқ-овқат билан таъминлашда Ишчи таъминоти бўлимларининг роли таҳлил қилинган. Уруш давридаги озиқ-овқат тақчиллиги шароитида марказлаштирилган ва ёпиқ тақсимот тизимининг шаклланиши, уларнинг ҳуқуқий ва молиявий мақоми, бошқарув иерархияси ҳамда ёрдамчи хўжаликлар орқали ички ресурсларни сафарбар этиш тажрибаси тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Иккинчи жаҳон уруши, Ишчи таъминоти бўлими (ОРС), ёпиқ тақсимот тизими, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, ёрдамчи хўжаликлар, жамоатчилик назорати, озиқ-овқат тақчиллиги.

КИРИШ

Иккинчи жаҳон уруши йилларида фронт орти иқтисодиётини барқарор таъминотини ташкил этиш ва мудофаа аҳамиятига эга корхоналарнинг узлуксиз ишлашини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Озиқ-овқат ва моддий ресурсларнинг кескин тақчиллиги шароитида анъанавий савдо механизмларидан воз кечилиб, аҳолини, энг аввало, саноат ишчиларини мақсадли таъминлашнинг ёпиы шакллари жорий этилди. Ушбу контекстда ишчилар ва муҳандис-техник ходимларни ижтимоий ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг жисмоний меҳнат қобилиятини сақлаб қолиш мақсадида ОРС (Ишчи таъминоти бўлими) тизими ташкил этилди. Мазкур тизим фаыатгина тақсимот органи бўлмай, уруш даври иқтисодиётида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва меҳнаткашларни рағбатлантиришнинг муҳим ижтимоий омили сифатида хизмат қилди.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Иккинчи жаҳон урушида йилларида Ишчи таъминоти бўлимлари (ОРС – рус тилида “Отделы рабочего снабжения”) стратегик саноат ва транспорт корхоналари ишчиларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда уларни озиқ-овқат билан кафолатли таъминлашда ҳал қилувчи ролни ўйнади. Жамоат озиқ-овқат тақчиллиги шароитида бу тизим марказлашган давлат

ресурсларини энг муҳим ҳарбий-саноат объектларининг ходимларига йўналтирувчи ёпиқ занжирга айланди. ОРС таркибидаги махсус дўконлар ва ошхоналар фақат муайян корхона ишчилари ҳамда уларнинг оила аъзоларига хизмат кўрсатиб, карточкали маҳсулотларни тақсимлаш тизимида барқарорликни ва адолатли ҳисоб-китобни таъминлаш имконини берди.

ОРСнинг ижтимоий ҳимоя функцияси нафақат тайёр маҳсулотларни тақсимлашда, балки озиқ-овқат захираларини тўлдиришнинг номарказлашган ёрдамчи усулларини ривожлантиришда ҳам яққол намоён бўлди. Давлат таъминоти етарли бўлмаган вазиятда ОРСлар ўз ихтиёридаги совхозлар, томорқа хўжаликлари ва иссиқхона мажмуалари орқали сабзавот, гўшт ва балиқ маҳсулотларини етиштиришни йўлга қўйдилар. Бу хўжаликлардан олинган қўшимча маҳсулотлар корхона директорларига ишлаб чиқариш режасини мунтазам ошириб бажараётган, оғир шароитда меҳнат қилаётган илғор ишчиларни қўшимча бепул тушликлар ёки озиқ-овқат нормалари билан моддий рағбатлантириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш имкониятини берди.

Озиқ-овқат ресурслари тақчиллиги шароитида давлат ўз эътиборини ҳарбий иқтисодиёт билан боғлиқ ишлаб чиқариш соҳасини ривожлантиришга йўналтирди. Бу соҳаларда малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилди. Бу мақсадда ОРС (ишчи таъминоти бўлими) номи билан танилган ёпиқ таъминот тизими жорий этилди. ОРСлар саноат корхоналари, транспорт ташкилотлари, шунингдек, йирик қурилиш объектлари ҳузурида ташкил қилинди. Уларнинг бошқаруви остида фақат мазкур ташкилотлар ходимларига хизмат кўрсатувчи махсус дўконлар ва ошхоналар фаолият юритарди.

1942 йил мартидан бошлаб мудофаа саноатининг авиация, танк қурилиши ва бошқа стратегик аҳамиятга эга тармоқларида ОРС тизими жорий этилди. Кейинчалик бу ташаббус кўмир, нефть, металлургия ва кимё саноати каби етакчи соҳаларга, шунингдек, ҳарбий-саноат мажмуасининг бошқа муҳим тармоқларига ҳам ёйилди [1; 59].

ОРСнинг асосий мақсади муайян корхонада ишлайдиган ишчилар, муҳандис-техник ходимлар, хизматчилар ва уларнинг оила аъзоларига савдо-маиший хизмат кўрсатишни таъминлашдан иборат эди. ОРС корхоналарнинг мустақил хўжалик ҳисоб-китоб бўлинмалари сифатида фаолият юритиб, алоҳида бухгалтерия балансига эга бўлган ва Давлат банкида ўз банк ҳисобрақамини юритган. Шунингдек, ОРС банк кредитларини жалб қилиш ҳуқуқига ҳам эга эди [1; 60].

1942 йилдан бошлаб корхона ва муассасаларда чакана савдо, жамоат овқатланиш соҳаси ҳамда маҳсулотларни тақсимлаш тизими вазифалари Ишчи таъминоти бўлимларига (ИТБ) топширилган. Юқори даражада марказлаштирилган ИТБ амалда асосий функцияси ресурсларни тақсимот қилишдан иборат эди. ИТБларга корхона директорининг ўринбосарлари раҳбарлик қилиб, унинг алоҳида аппарати бўлган. Тақсимот ва назорат функцияларининг корхона раҳбарияти вакили қўлида тўпланиши саноат ва озиқ-овқат маҳсулотларини тақсимлашда суиистеъмолликлар учун кенг имкониятлар яратиб берди.

Жумладан, 1944 йилда СССР Халқ Комиссарлари Советининг Давлат савдо назорати органи иттифоқ ва республика бўйсунувидаги тўқимачилик корхоналарининг ишчи таъминот бўлимларини атрофлича текширувдан ўтказди. Мазкур текширув давомида маҳсулотлар нархини сунъий равишда ошириш, тортишда алдаш, санитария-гигиена меъёрларига мунтазам риоя қилмаслик, раҳбарият томонидан аҳолига карточкалар орқали тарқатилиши лозим бўлган маҳсулотлардан фойдаланиб зиёфатлар уюштириш каби кўплаб қонунбузарликлар аниқланди [2].

Масаланинг қонунбузарликларни дастаклайдиган томони шундаки, аниқланган кўплаб қоидабузарликлар қонунчиликда белгиланган тегишли тарзда жазоланмас ҳам эди. Айбдорларнинг жазоланиши одатда, ҳайфсан ёки арзимас жарималар билан чекланиб қолган. Бу эса уруш шароитида бундай ножўя хатти-ҳаракатлар учун назорат ва жазо тизими етарлича самарали эмаслигини кўрсатиб берди. Эътиборга молик томони озиқ-овқат маҳсулотлари билан қонунбузарлик аслида аҳоли ўртасида карточка тизими фаолиятида адолатни таъминлаши керак бўлганлар томонидан содир этилган.

Ишчи таъминоти бўлимлари бошқарув аппаратининг шаклланиши ортиқча бюрократик тузилманинг вужудга келишига сабаб бўлди. Бунинг натижасида, ушбу самарасиз тизимни сақлаб туриш учун мақсадсиз молиявий маблағлар ажратилди. Хусусан, 1943 йилда Ўзбекистон ССР енгил саноат корхоналари маъмурий-бошқарув ходимларининг жами ойлик иш ҳақи фонди 9495 рублни ташкил этган. Ушбу ҳолат бошқарув аппаратини сақлаш учун сезиларли миқдордаги молиявий маблағлар сарфланганлигидан далолат беради [3].

Қатъий иэрархия ва марказлашган назоратга асосланган совет давлат бошқаруви тизимида барча хўжалик фаолияти субъектлари тегишли давлат органларининг тасарруфида бўлган. Ишчиларни таъминлаш бўлимларини ишини мувофиқлаштириш ва бошқариш мақсадида Халқ Комиссарликлари ҳузурида Ишчиларни таъминлаш Бош бошқармалари (қисқача рус тилида “главурс”лар) ташкил этилди.

Ишчиларни таъминлаш бўлимлари икки томонлама бўйсуниш шароитида фаолият олиб борган: бир томондан, улар фаолият юритаётган корхона директорига, бошқа томондан эса юқори турувчи Ишчиларни таъминлаш Бош бошқармасига бўйсунган. Таъкидлаш жоизки, ОРС (Ишчиларни таъминлаш бўлими)ни озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш давлат томонидан биринчи навбатда амалга оширилган, бу эса мазкур тузилманинг давлат таъминоти тизимидаги муҳим ўрнини кўрсатиб турарди.

Алоҳида эътибор ҳолатида ҳам давлат томонидан етказиб берилган маҳсулот ҳажми озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжни тўлиқ қондириш учун етарли эмасди. Шу боис ОРС озиқ-овқат захираларини тўлдиришнинг номарказлаштирилган усулларини фаол равишда ривожлантирди. ОРС ихтиёрида совхозлар, томорқа хўжаликлари ва иссиқхона мажмуалари мавжуд эди. Табиий шароити қулай бўлган ҳудудларда ОРС балиқчилик ва истеъмол моллари ишлаб чиқаришни йўлга қўйди. Жумладан, 1944 йилда Қурол-яроғ халқ комиссарлиги корхоналари

қошидаги ОРС жамоат овқатланиш корхоналарида сабзавотга бўлган эҳтиёжнинг 60 фоизи томорқа хўжаликларидан олинган маҳсулотлар ҳисобига таъминланди [1; 60].

Давлат томонидан ОРСларни қўллаб-қувватлаш доирасида томорқа хўжаликлари давлат олдидаги бир қатор мажбуриятлардан озод қилинди. Корхона раҳбарларига ушбу хўжаликларда етиштирилган маҳсулотларни тақсимлаш бўйича кенг ваколатлар берилди. Масалан, директорлар кунлик меҳнат меъёрларини мунтазам ошириб бажараётган ишчиларга қўшимча тушлик ёки озиқ-овқат маҳсулотлари бериш ҳуқуқига эга бўлдилар. Бу ходимларни ижтимоий қўллаб-қувватлашнинг қўшимча воситасига айланди.

Корхонанинг савдо шохобчалари, умумий овқатланиш жойлари, омборхоналар ва маиший хизмат кўрсатиш корхоналари каби инфратузилма объектлари ОРС ихтиёрига берилди. Берилган активлар таркибига уларга тегишли моддий ресурслар ва транспорт воситалари ҳам киритилди. Бу эса корхона ҳудудида иқтисодий ва ижтимоий соҳани яхлит бошқаришни таъминлади.

1942 йил охирига келиб СССР етакчи саноат тармоқлари таркибида 1986 та ОРС фаолият кўрсатган. 1943 йил 1 январь ҳолатига кўра, ОРСлар бошқаруви остида тахминан 17,5 минг дўкон, 4,3 минг савдо дўкончаси ва 17,2 минг умумий овқатланиш корхонаси мавжуд эди. 1945 йилнинг биринчи ярмида давлат ва кооператив савдоси тузилмасида ОРСларнинг улуши 27,5 фоизга етди. Бу 1942 йилнинг биринчи ярмидаги кўрсаткичга нисбатан сезиларли ўсишни ифодалайди, чунки ўша пайтда мазкур кўрсаткич 17,8 фоизни ташкил этган эди [1; 62]. Уруш йилларида ОРС нисбатан автоном тизимга айланиб бориб, ўзини ўзи таъминловчи ёпиқ тузилма хусусиятлари хос бўлди. 1941-1943 йиллар оралиғида СССР ҳудудидаги 550 дан ортиқ совхоз ва колхозлар ОРС тизимига қўшиб олинди [4; 133].

Моддий-техник ресурсларни бошқариш тизимини такомиллаштириш мақсадида савдо ташкилотларидан малакали мутахассислар ОРС таркибига ўтказилди. Бу таъминот соҳасидаги касбий маҳорат ва малака даражасини сезиларли ошириш имконини берди. ОРС раҳбарларига кенгайтирилган ваколатлар берилди ва уларга таъминот масалалари бўйича директор ўринбосари вазифаси юклатилди. Шу туфайли улар озиқ-овқат ресурсларини тақсимлаш ва улардан фойдаланишни назорат қилиш жараёнларини самарали мувофиқлаштира олдилар. Бу эса ўз навбатида жамоат овқатланиш тизимининг барқарор ишлаши ва ривожланишини таъминлади.

Корхона ёки ташкилот ходимлари муайян савдо шохобчалари ва жамоат овқатланиш корхонасига бириктирилди. Озиқ-овқат маҳсулотларини, жумладан нон ва нон маҳсулотларини, фақат маълум ходимга бириктирилган дўконлардан сотиб олиш мумкин эди. ОРС таркибидаги жамоат ошхоналарига кириш эса фақат махсус рухсатномалар асосида амалга ошириларди. Ишнинг бу тарзда ташкил этилиши ижобий ва салбий томонларга эга эди. Бир томондан, у ташкилий тузилмани такомиллаштириш ва ресурсларни тақсимлаш самарадорлигини оширишга ёрдам берди.

Муайян истеъмолчиларни аниқ савдо нуқтаси ёки жамоат овқатланиш корхоналарига бириктириш савдо корхоналарига озиқ-овқат маҳсулотлари етказиб бериш ҳажмини нисбатан осонроқ башорат қилиш, жамоат овқатланиш корхоналарига эса ишлаб чиқариш жараёнларини оптималлаштириш имконини берарди. Бу истеъмолчиларга карточкада кўрсатилган маҳсулотларни етарли миқдорда олишини таъминларди. Озиқ-овқат маҳсулотларининг доимий тақчиллиги ва логистика қийинчиликлар шароитида мазкур ёндашув савдо нуқталари ва жамоат овқатланиш корхоналари фаолиятини самарали назорат қилишни осонлаштирди.

Бошқа томондан эса, бу ҳолат кўрсатилаётган хизматлар сифатига салбий таъсир кўрсатди. Сабаби муайян савдо шохобчалари ва овқатланиш масканларига киришнинг чекланиши рақобатнинг сусайишига ва натижада маҳсулотлар ҳамда хизмат кўрсатиш сифатининг ёмонлашишига олиб келиши мумкин эди. Жумладан, савдо ходимларининг истеъмолчиларга нисбатан нотўғри муносабатда бўлиши билан боғлиқ ҳолатлар қайд этилди. Бу эса хизмат кўрсатиш соҳасида касбий ахлоқ тамойиллари бузилганлигидан далолат берарди.

СССР товар айланмаси тизимида ёпиқ тузилмалар уруш бошланишидан аввал ҳам мавжуд бўлиб, Продснаб деб номланган. Продснаб кўлами ва ҳажми анча чегараланган бўлиб, 1940 йилда ялпи чакана савдода улуши 8 фоизни ташкил этди. Урушнинг бошланиши ёпиқ тақсимот тизимини кенгайтириш учун кучли туртки бўлди. 1943 йилга келиб, чакана савдо айланмасида ОРС ва Продснабнинг улуши 30% га, жамоат эса 47 фоизга етди. Бу кўрсаткичлар ёпиқ тузилмаларнинг озиқ-овқат маҳсулотлари тақсимотида улуши ва аҳамияти кескин ошганини яққол кўрсатади [4; 102].

ОРС тизимида камчиликлар ҳам мавжуд эди. Озиқ-овқат, айниқса нон таъминотидаги узилишлар нафақат катта шаҳарларга, балки муҳим ирригация ва гидроэнергетика иншоотлари қурилишларида ҳам содир бўлди. 1942 йил 24 июндан бошлаб Қуйибўзсув ГЭСи қурилишига жалб қилинган ишчи ва колхозчиларни нон билан таъминлашда муаммолар юзага келди. 24 июнь куни Мирзачўл, Чиноз ва Ўрта Чирчиқ туманлари колхозчилари умуман нон ололмай, нон эртаси куни тушдан кейин етказиб берилди. 25-26 июнь кунлари ОРС ходимларининг хатти-ҳаракатлари туфайли 200 га яқин қурувчи нон олиш имкониятидан маҳрум бўлди [5].

1942 йилдан бошлаб ОРСлар мавжуд бўлган корхоналарда жамоатчилик назорати тизими жорий этилди. Совет Иттифоқи миқёсида бу назоратни амалга ошириш учун 600 мингга яқин аҳоли жалб қилинди. Ҳар бир корхонада назоратчиларнинг уч гуруҳи фаолият олиб борди: биринчиси ошхона ишини, иккинчиси дўкон фаолиятини, учинчиси эса озиқ-овқат карточкаларини тарқатиш жараёнини назорат қилди. Иш ташкил этилиши мунтазам навбатчилик шаклида амалга оширилди. Жамоатчилик назоратчилари маҳсулотларни етказиб бериш, қабул қилиш ва сақлаш жараёнларини кузатиш, савдо биноларида санитария меъёрларига риоя этилишини таъминлаш, озиқ-овқат маҳсулотларини тайёрлаш ва тарқатишни назорат қилиш каби вазифаларни бажарганлар.

Уларга юклатилган вазифаларнинг кенг рўйхатига қарамай, жамоатчилик назоратчиларининг фаолияти расмиятчилик билан ажралиб турарди. Улар ўз куч-ғайратларини фойдали ва аҳамиятли вазифаларни бажаришга ёки шахсий дам олишни ташкил этишга қаратиш ўрнига, ортиқча ва амалда кераксиз назорат билан шуғулланишга мажбур бўлдилар. Жамоатчилик назоратчилари аниқланган ҳуқуқбузарликлар учун жазо чораларини қўллаш ваколатига эга эмасди. Натижада, улар савдо тизимида ортиқча ва самарасиз назорат механизмига айланиб қолдилар.

ХУЛОСА

Иккинчи жаҳон уруши йилларида (1941-1945 йй.) озиқ-овқат ва моддий ресурсларнинг кескин тақчиллиги шароитида ОРС (Ишчи таъминоти бўлимлари) каби ёпиқ тақсимот тизимларининг ташкил этилиши Ўзбекистон ССРнинг стратегик саноат, қурилиш ва транспорт корхоналари ишчиларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда уларни кафолатли маҳсулотлар билан таъминлашда салмоқли роль ўйнади. Ушбу тизим марказлашган давлат таъминотидан ташқари, ички имкониятларни – ОРС таркибидаги совхоз, томорқа ва иссиқхона хўжаликларини сафарбар этиш орқали ишчилар саломатлиги ва жисмоний меҳнат қобилиятини сақлаб қолишда, илғор меҳнаткашларни қўшимча тушликлар билан рағбатлантиришда муҳим ижтимоий ҳимоя воситасига айланди. Шунга қарамай, бошқарув ва тақсимот функцияларининг корхона маъмурияти қўлида тўпланиши тизим ичида ортиқча бюрократик харажатлар, маҳсулотлар нархини сунъий ошириш ва таъминотда узилишлар каби камчиликлар ҳам учради.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ

1. Любимов А.В. Торговля и снабжение в годы Великой Отечественной войны. – Москва: Экономика, 1968.

2. ЎзР МДА, Р 91-фонд, 8-рўйхат, 310- йиғмажилд, 80об-варақ.

3. ЎзР МДА, Р 837-фонд, 32-рўйхат, 3750 йиғмажилд, 101-варақ.

4. Чернявский У.Г. Война и продовольствие: снабжение городского населения в Великую Отечественную войну (1941-1945 гг.). – Москва: Наука, 1964.

5. “Қизил Ўзбекистон”. 1943 йил 1 июл. №10.

Солиев М.М.
Независимый исследователь Координационно-методического центра по вопросам «Новейшей истории Узбекистана»
Академия наук Республики Узбекистан
s.mahmudjon.1202@gmail.com

ЗАКРЫТАЯ СИСТЕМА РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВИЯ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ РАБОЧИХ: ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОТДЕЛОВ РАБОЧЕГО СНАБЖЕНИЯ (1941–1945 ГГ.)

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль отделов рабочего снабжения (ОРС) в обеспечении социальной поддержки и продовольственного снабжения рабочих стратегических предприятий промышленности, строительства и транспорта в годы Второй мировой войны (1941–1945 гг.). Исследуются процессы формирования централизованной и закрытой системы распределения в условиях военного дефицита продовольствия, их правовой и финансовый статус, управленческая иерархия, а также опыт мобилизации внутренних ресурсов через подсобные хозяйства.

Ключевые слова: Вторая мировая война, отдел рабочего снабжения (ОРС), закрытая система распределения, социальная поддержка, подсобные хозяйства, общественный контроль, дефицит продовольствия.

Soliev M.M.
Independent researcher at the coordinating and methodological center for the «Modern history of Uzbekistan»
Academy of sciences of the Republic of Uzbekistan
s.mahmudjon.1202@gmail.com

THE CLOSED SYSTEM OF FOOD DISTRIBUTION AS A FACTOR OF SOCIAL SUPPORT FOR WORKERS: THE ACTIVITIES OF WORKERS' SUPPLY DEPARTMENTS (1941–1945)

ABSTRACT

This article analyzes the role of Workers' Supply Departments (*Otdel Rabochego Snabzheniya* – ORS) in providing social support and food supplies to workers in strategic industrial, construction, and transport enterprises during the Second World War (1941–1945). It examines the formation of a centralized and closed distribution system under the conditions of wartime food shortages, investigates their legal and financial status, explores the administrative hierarchy, and evaluates the experience of mobilizing internal resources through auxiliary farms.

Key words: Second World War, Workers' Supply Department (ORS), closed distribution system, social support, auxiliary farms, public control, food shortage.

Tolibjonov A.T.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi tadqiqotchisi
O‘zbekiston Milliy universiteti
tolibjonovaziz895@gmail.com

XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O‘RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot o‘n ikkinchi asrning birinchi yarmida Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida yuz bergan davlatlararo o‘zgarishlar, xususan, Xorazmshoh Otsiz hamda Abbosiylar xalifaligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni tashqi siyosat manbashunosligi nuqtayi nazaridan o‘rganishga qaratilgan. Sulton Sanjar hukmronligi davrida Saljuqiylar davlatining g‘arbiy hududlarida yuzaga kelgan taxt uchun kurashlar mintaqaviy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday sharoitda Xorazmshohlar davlati o‘zining mustaqil yondashuvini ta’minlash maqsadida Bag‘dodning diniy hamda huquqiy nufuzidan tashqi siyosiy omil sifatida foydalanishga harakat qildi. Otsiz tomonidan xalifa al-Muqtafiy li-amrullohga yuborilgan maktublar mazkur diplomatik harakatlarning amaliy ko‘rinishi hisoblanadi. Maqolada ushbu yozishmalarning mazmuni, ularda ilgari surilgan diplomatik da’volarning tarixiy voqelikka mutanosibligi va davlat nufuzini yuksaltirish jarayonidagi o‘rni ob’yektiv tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: tashqi siyosat, Xorazmshoh Otsiz, Abbosiylar xalifaligi, Sulton Sanjar, Iroq Saljuqiylari, diplomatik yozishmalar, xalqaro munosabatlar, Qoraxitoylar.

KIRISH

O‘rta asrlar islom olami xalqaro munosabatlarida diniy va dunyoviy boshqaruv dargohlarining o‘zaro aloqalari davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan. O‘n ikkinchi asrning birinchi yarmiga kelib, Yaqin Sharq hududlarida yagona harbiy-siyosiy makonni ta’minlab turgan Buyuk Saljuqiylar saltanati doirasida markazdan qochish harakatlari jadallashdi. Bu jarayon viloyat hokimlari hamda tobe sulolalarning o‘z mustaqilligini xalqaro miqyosda huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan amaliy qadamlarida namoyon bo‘ldi. Har qanday hududiy yoki siyosiy mustaqillikni xalqaro maydonda qonuniylashtirishda an’anaviy ravishda Abbosiylar xalifaligining rasmiy tasdig‘i markaziy ahamiyat kasb etar edi. Garchi xalifalik asrlar davomida o‘zining bevosita harbiy va iqtisodiy qudratini yo‘qotgan bo‘lsa-da, u qonuniy hukmronlikni e’tirof etish huquqiga ega bo‘lgan oliy dargoh sifatidagi maqomini saqlab qoldi.

Buyuk Saljuqiylar saltanati hukmdori Sulton Sanjar davriga kelib mintaqadagi xalqaro kuchlar muvozanati sezilarli darajada o‘zgarishga yuz tutdi. Sulton Sanjar markaziy hokimiyat nufuzini va chegaralar daxlsizligini saqlashga intilar ekan, tobe hududlarning hukmdorlari, xususan, Xorazmshoh Otsiz mutlaqo mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini qidira boshladi. Bu o‘rinda Xorazmshohning

hokimiyat markazi bo‘lmish xalifalik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatishga urinishi shunchaki an’anaviy ehtirom belgisi emas, balki aniq geosiyosiy maqsadlarga yo‘naltirilgan murakkab strategik qadam edi. Otsiz Sulton Sanjarga qaramlik zanjirini uzish va Xorazmni mintaqadagi yetakchi siyosiy o‘yinchiga aylantirish uchun xalifaning huquqiy yorliqlariga tayanishni maqsad qildi.

Ushbu tadqiqot Xorazmshoh Otsiz hukmronligi davrida xalifalik saroyi bilan o‘rnatilgan diplomatik yozishmalarni ob’yektiv o‘rganish vazifasini o‘z oldiga qo‘yadi. Asosiy e’tibor hukmdor tomonidan xalifa al-Muqtafiyga yo‘llangan maktublarning mazmun-mohiyati va tashqi siyosat vositasi sifatidagi ahamiyatiga qaratiladi. Ushbu maktublar hukmdorning o‘z hududiy kengayishlarini qonuniylashtirish, asosiy harbiy raqiblarini qoralash va mintaqaviy miqyosdagi mavqeyini yuksaltirish uchun qanday axborot usullaridan foydalanganligini ko‘rsatib beradi. O‘rganilayotgan tarixiy hujjatlar mazkur davrda davlatlararo munosabatlarda qo‘llanilgan ayyorona diplomatik amaliyotlarni to‘liqroq yoritishga xizmat qiladi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyatning keskinlashuvi asosan 1131-yilda Sulton Sanjarning jiyani, Iroq Saljuqiylari boshqaruvchisi Sulton Mahmudning Hamadonda vafot etishi bilan yuzaga chiqdi [1; 117-b.]. Mazkur voqea saltanatning g‘arbiy sarhadlarida uzoq muddatli siyosiy bo‘shliqni keltirib chiqardi. Sulton Sanjarning bevosita xohish-irodasini chetlab o‘tgan holda, voris sifatida Mahmudning o‘g‘li Dovudning taxtga o‘tqazilishi inqirozning dastlabki alomati bo‘ldi. Dovudning ushbu o‘zboshimchaligi marhum hukmdorning boshqa qondoshlari – Mas’ud, To‘g‘rul va Saljuqshohlar orasida jiddiy norozilik uyg‘otdi hamda ochiq qurolli to‘qnashuvlarga sabab bo‘ldi. Harbiy tortishuvlar jarayonida Dovudning boshqaruvi Jibol va Ozarbayjon hududlari zodagonlari tomonidan e’tirof etilgan bir vaqtda, Mas’ud o‘zini Iroq hududida mustaqil hukmdor deb e’lon qildi. Mas’ud o‘zining yangi maqomini xalqaro miqyosda qonuniylashtirish maqsadida faol diplomatik harakatlarni boshlab, xalifa al-Mustarshiddan juma xutbalarini o‘z nomi bilan o‘qitishni rasman so‘radi [2; 23-b.]. Xalifa bu murakkab vaziyatda ehtiyotkorlik bilan harakat qilib, xutba o‘qitish bo‘yicha to‘liq qaror qabul qilish vakolati Sulton Sanjarga tegishli ekanligini ta’kidladi va qat’iy rad javobini berdi.

Saltanatdagi bunday parchalanishni ko‘rgan Sulton Sanjar o‘zining g‘arbiy hududlarida barqarorlikni tiklash va ehtimoliy isyonlarning oldini olish uchun yirik harbiy yurish tashkil etishga majbur bo‘ldi. U markaziy boshqaruvni mustahkamlash maqsadida To‘g‘rulni taxtning qonuniy egasi sifatida ko‘rsatdi [3; 159-b.]. Sanjarning bu aralashuvi Iroqdagi hokimiyat talabgorlari o‘rtasida kuchlarning qayta taqsimlanishiga olib keldi. O‘z ta’sirini yo‘qotishdan qattiq xavotirga tushgan Mas’ud o‘ziga ittifoqchilar izlab, xalifa al-Mustarshid hamda amir Saljuqshohga yashirin bitim taklif qildi. Uch tomonlama imzolangan diplomatik kelishuvga ko‘ra, siyosiy xarita butunlay o‘zgarishi ko‘zda tutilgan edi: Mas’ud rasman sulton unvonini oladigan, Saljuqshoh uning valiahdi etib belgilanadigan va xalifaning o‘zi Iroqni o‘zining maxsus vakili orqali bevosita

idora etadigan bo‘ldi [4; 534-b.]. Ushbu ittifoq amalda markaziy hokimiyatga va shaxsan Sulton Sanjarga qarshi qaratilgan yirik harbiy-siyosiy isyon edi. Birlashgan kuchlar amaliy qadamlarga o‘tib, Iroqning barcha shaharlarida Sanjar nomiga o‘qilayotgan xutbalarni to‘xtatdilar hamda Bag‘doddan unga qarshi qo‘shin tortdilar. Ular Sanjarning Yaqin Sharqdagi mutlaq gegemonligiga barham berishni o‘zlarining asosiy maqsadi qilib belgiladilar. Bunga javoban Sulton Sanjar raqiblarini yo‘q qilish va To‘g‘rulni taxtga qonuniy tarzda o‘tqazish niyatida Hamadon tomonga shiddat bilan harakat qildi [5; 173-b.]. Tomonlar o‘rtasidagi hal qiluvchi qurolli to‘qnashuv 1132-yilning may oyida Dinovar yaqinidagi Ulon mavzesida bo‘lib o‘tdi [6; 149-b.]. Ushbu yirik harbiy muhorabada ittifoqchilar qaqshatqich zarbaga uchrab, Iroq Saljuqiylari armiyasi to‘liq mag‘lubiyatga yuz tutdi.

Ana shunday murakkab xalqaro vaziyatni Xorazmda turib diqqat bilan kuzatgan Otsiz, Abbosiylar xalifaligining Sulton Sanjarga qarshi ochiq harbiy va siyosiy kurashga kirishishga tayyor ekanligidan o‘zi uchun zaruriy xulosalar chiqardi. Xorazmshoh o‘zining mustaqillik yo‘lidagi qadamlarida xalifalikdan ishonchli diplomatik va ma’naviy tayanch sifatida foydalanish strategiyasini ishlab chiqdi. U Bag‘dod saroyiga alohida ehtirom ko‘rsatishni boshladi hamda o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash uchun tizimli elchilik ishlarini olib bordi. Xorazmshohning ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlari natijasi o‘laroq, xalifa al-Muqtafiy li-amrulloh (1136–1160) saroyiga yuborilgan rasmiy maktublar yuzaga keldi. Bu yozishmalar hukmdorning tashqi siyosiy intilishlarini hamda axborot manipulyatsiyasi vositalarini o‘rganishda qimmatli manba sanaladi.

Tadqiq etilayotgan birinchi maktubda Otsiz harbiy yurishlarni islomni himoya qilish g‘oyasi ostida xolis qilib ko‘rsatishga urindi. Maktubda dushmanning nomi (Sulton Sanjar) to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirilmagan bo‘lsa-da, uning harakatlari keskin qoralanib, zolim va bosqinchi sifatida ta'riflanadi. Maktub muallifi da’vo qilishicha, isyonkor tomon qadimiy Xorazm shaharlarini vayron qilib, odamlarni qirgan hamda aynan xalifalar al-Mustarshid va ar-Roshidga qilinganidek, qotil (ismoiliy) yo‘llashdek tubanlikka borgan [7; 62-b.]. Otsizning diplomatik bayoniga ko‘ra, bu dushman dindushmanga qarshi birlashish o‘rniga jaxolat qurboniga aylanib, ulkan kuchlar bilan musulmonlar o‘lkasiga bostirib kirgan. Voqealar rivojida qayd etilishicha, 537-yilning rabiuloxir oyida ushbu yot kuchlar Xorazmning strategik ahamiyatga molik Hazorasp qal’asini qurshovga oladi. Besh kunlik urunishlardan so‘ng qal’ani egallay olmagach, ichkaridagilarni muzokaralar orqali taslim qilishga intiladi. Biroq mudofaachilarning qat’iy rad javobidan so‘ng yigirma kunga cho‘zilgan qonli janglar boshlanadi va har ikki tomon ko‘plab askarlarini yo‘qotadi. Hazoraspda maqsadiga erishmagan bosqinchi kuchlar Otsizning tug‘ilgan markaziy shahriga yo‘l oladi, biroq u yerdagi harbiy tayyorgarlikni ko‘rib, ortga chekinishga majbur bo‘ladi va faqat oddiy qishloqlarni talon-toroj qilish bilan kifoyalanadi. Ramazon oyining o‘rtalarida dushman yana asosiy qal’a darvozasi oldida paydo bo‘ladi. Ana shunday pallada Otsiz o‘z harakatlariga qonuniy tus berish maqsadida faqihlar va olimlardan iborat diniy kengash chaqirib, bosqinchiga qarshi jang qilishning shar’iy hukmi bo‘yicha rasmiy fatvo so‘raydi. Ulamolar bir ovozdan bunday dushmanni yengish ibodat

darajasidagi amal ekanligini tasdiqlaydilar. Shu tarzda diniy ruhlantirilgan qo‘shin hujumga o‘tib, dushmanni chekinishga majbur qiladi. Maktubda ta’kidlanishicha, qochib borayotgan raqib Xorazm chekkasidagi yana bir qalasini ellik kun behuda qamal qilib, pirovardida qurol-yarog‘ va mollarini tashlab, hududni butunlay tark etadi. Otsiz bu zafarni bevosita xalifa xonadonining barakoti deb bilishini ta’kidlab, ushbu xizmatlari evaziga Xorazm viloyatini to‘liq mustaqil boshqarish huquqini beruvchi maxsus yorliq yuborilishini so‘raydi [8; 334–335-b.]. Bu diplomatik hujjat orqali Otsiz aslida ko‘p hollarda o‘zi tajovuzkor bo‘lishiga qaramay, Sulton Sanjarning qiyofasini yovuz qilib ko‘rsatib, o‘zining adolatsizlik qurboni ekanligiga Bag‘dodni ishontirishga uringan.

Ikkinchi diplomatik maktub yana bir geosiyosiy masalaga – Sharqiy sarhadlardagi vaziyatga bag‘ishlangan. Unda Otsiz xalifaga bo‘lgan cheksiz ehtiromini takrorlab, dushmanlarga qarshi kurashdagi beqiyos xizmatlarini sanab o‘tadi [9; 53-b.]. U o‘zining g‘ayridin turklar, ya’ni Qoraxitoylar bilan bevosita chegaradosh ekanligini va butun vaqtini islom olamini ulardan himoya qilishga sarflayotganligini pesh qiladi. Shu sababli ham muqaddas Bag‘dod shahriga bora olmasligi va xalifa saroyida bevosita xizmat qilish imkoniyatidan mahrumligini yozadi. Hatto qisqa muddatga poytaxtni tark etish ham aholini g‘ayridinlar oldida himoyasiz qoldirishini bayon qiladi [10; 168-b.]. Hukmdor sadoqat belgisi sifatida saroydan maxsus faxriy liboslar (hil’at va tashrifot) so‘raydi hamda Xorazm ulamolari xalifa xaqiga to‘xtovsiz duoda ekanliklarini alohida qayd etadi [8; 336–337-b.]. Aslida esa o‘sha davrda Qoraxitoylar bosqiniga qarshi eng ko‘p kuch sarflagan va jiddiy yo‘qotishlarga uchragan davlat Buyuk Saljuqiylar saltanati edi. Biroq Otsiz epchillik bilan bu rolni o‘z zimmasiga olib, mustaqillik yorlig‘ini qabul qilib olish uchun axborotni o‘z manfaatiga burib yuborgan.

Uchinchi maktub ham xuddi shu mazmundagi geosiyosiy bahonalar asosiga qurilgan. Sanasi aniq bo‘lmagan ushbu hujjatda Otsiz yana bir karra oliy saroyda bo‘lish istagi balandligini, biroq Xorazm davlati xavfli dushmanlarning qirg‘inbarot hujumlari oldida islom qalqoni vazifasini o‘tayotganini bayon qiladi [9; 54-b.]. U xalifani ishontirish maqsadida, o‘z armiyasining g‘ayridinlar ustiga yiliga yoz va qish mavsumlarida ketma-ket ikki marta yirik yurishlar uyushtirayotganini da’vo qiladi. Agar shu kabi o‘tib bo‘lmas to‘siqlar bo‘lmaganida edi, zudlik bilan Bag‘dodga tashrif buyurishini aytib uzr so‘raydi. U xalifaning oliy farmonlarini o‘zi uchun eng yuksak mukofot deb bilishini ta’kidlaydi [8; 337-b.]. Bu yozishmadagi ketma-ket ikki marta uyushtiriladigan yirik qishki va yozgi harbiy kampaniyalar haqidagi ma’lumotlar voqelikdan ancha uzoq bo‘lib, ular aslida Otsizning o‘z mustaqil maqomini saqlab qolish va uzoqdagi Bag‘dod saroyiga borishdan bo‘yin tovlash uchun o‘ylab topilgan diplomatik hiyladan boshqa narsa emasdi.

To‘rtinchi maktubda yana Xorazm islom sarhadlarining eng chekkasi va o‘ta muhim hududi sifatida ta’riflanadi. G‘ayridin turklar (qoraxitoylar)ga qarshi uzluksiz kurash sababli shaxsan bora olmasligi haqidagi odatiy uzr keltiriladi. E’tiborli tomoni shundaki, ushbu maktub yuksak ilmiy maqomga ega bo‘lgan, tasavvuf sirlaridan ogoh bo‘lgan ulug‘ bir olim va sufiylar piri orqali saroyga jo‘natilgan. Otsiz ushbu elchining jamiyatdagi ma’naviy nufuzini ta’kidlash orqali,

o‘zining siyosiy murojaatiga ilohiy va ilmiy salmoq qo‘shishga intilgan. Elchining Makkaga haj ziyoratini ado etish yo‘lida saroyga to‘xtab o‘tishidan unumli foydalangan Xorazmshoh, maktubning yakunida o‘z xizmatlarini yana bir bor eslatib, maxsus muhlangan yorliq bilan sharaflashlarini so‘raydi [8; 338-b.]. Bu yondashuv Otsizning taniqli dindorlarning ma’naviy shafoatidan ham tashqi siyosatda katta ustamonlik bilan foydalana olganini namoyon etadi.

XULOSA

Yaqin va O‘rta Sharqda o‘n ikkinchi asrda kechgan jarayonlarni sinchiklab o‘rganish natijalari shuni tasdiqlaydiki, Iroq Saljuqiylari hamda markaziy hokimiyat o‘rtasida yuzaga kelgan boshqaruv bo‘hronlari Xorazmshohlar davlati uchun o‘z xalqaro maqomini mustahkamlash va hududiy jihatdan yuksalish uchun qulay geosiyosiy zamin yaratgan. Otsiz harbiy-iqtisodiy jihatdan Sulton Sanjarning qudratli armiyasiga ochiq qarshilik qila olmasligini to‘g‘ri baholagan holda, siyosiy kurashlarning markaziga diplomatik va g‘oyaviy qurollarni olib chiqdi. Abbosiylar xalifaligiga qisqa muddat oralig‘ida yuborilgan maktublar oddiygina muloqot qog‘ozlari emas, balki xalqaro maydonda mustaqil hukmdor maqomini rasmiylashtirish hamda raqiblarini xalqaro yakkalanishda qoldirishga qaratilgan puxta ishlangan tashqi siyosat dasturidir. Hukmdor uzoq sharqdagi Qoraxitoylar omilini faol qo‘llash orqali turkiy va islom qo‘shinlarining yagona qutqaruvchisi siymosini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Shu orqali u G‘arbdagi haqiqiy harbiy mojarolardagi ishtirokini xaspo‘shlashga va o‘z mustaqilligini ma’naviy jihatdan oqlashga erishdi. O‘z navbatida, Bag‘dod xalifaligi siyosiy maydondagi o‘z ta’sir doirasini tiklash va Saljuqiylarga muqobil kuchlarni shakllantirish ilinjida bu kabi yozishmalarga ijobiy yondashuv bilan javob qaytarishga tayyor edi. Qisqa qilib aytganda, Xorazmshoh Otsizning ushbu elchilik harakatlari davlatlararo munosabatlarda axborot va diniy omillarning qanchalik muhim ta’sir kuchiga ega ekanligini tarixan isbotlab beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Садриддин ал-Ҳусайний. Ахбор ад-давлат ас-салжуқиййа (Салжуқийлар давлати ҳақида хабарлар) / Араб тилидан таржимон, сўз боши ва изоҳлар муаллифи З.М.Қодиров, Ш.Ҳ.Воҳидов. – Тошкент, 2015. – 220 б.

2. Буниятов З.М. Государство Атабеков Азербайджана (1136–1225 годы). – Баку: Элм, 1978. – 272 с.

3. Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 624 б.

4. İbnü’l-Esîr. İslâm Tarihi el Kâmil Fi’t-Tarih. C. X-XII / çev. Ahmed Ağırakça, Abdülkerim Özaydın. – İstanbul: Türkiyat Matbaacılık, 1987.

5. Агаджанов С.Г. Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI–XII вв. – Москва: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991. – 303 с.

6. Bundârî, İmâdeddîn el-Isfahâni. Zubdat al Nusra ve Nuhbat al Usra (Irak ve Horasan Selçukluları Tarihi) / çev. Kıvameddin Burslan. – İstanbul: Maarif Matbaası, 1943.

7. Ahmed b. Mahmûd. Selçuk-Nâme. C. II / haz. Erdoğan Merçil. – İstanbul : Tercüman, 1001 Temel Eserler, 1977. – 202 s.

8. Horst H. Reşîdeddîn Vatvât'ın Koleksiyonunda Hârezmşahlardan Halifeliğe Yazılan Arapça Mektuplar / çev. Ergin Ayan // ODÜ Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi. – 2012. – C. III, S. 6. – S. 328–344.

9. Бунёдов З. Марказий Осиёга доир тақиқотлар. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати / масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев; таржимонлар А.Аҳмедов, М.Маҳмудов, М.Қўшмоқов. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2012. – 372 б.

10. Гурбуз М. Хоразмшоҳларда давлат ташкилоти, иқтисодий ва маданий ҳаёт / Таримон: Н.Раҳим. – Урганч: Огаҳий, 2022. – 304 б.

Толибжонов А.Т.
Исследователь кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
tolibjonovaziz895@gmail.com

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ГОСУДАРСТВОМ ХОРЕЗМШАХОВ-АНУШТЕГИНИДОВ И АББАСИДСКИМ ХАЛИФАТОМ (НА ПРИМЕРЕ ПИСЕМ АТСЫЗА)

АННОТАЦИЯ

Данное исследование направлено на изучение межгосударственных трансформаций на Ближнем и Среднем Востоке в первой половине XII века, в частности, дипломатических отношений между хорезмшахом Атсызом и Аббасидским халифатом сквозь призму источниковедения внешней политики. Междоусобная борьба за престол, развернувшаяся на западных территориях Сельджукской империи в период правления султана Санджара, оказала серьезное влияние на региональную стабильность. В этих условиях государство Хорезмшахов, стремясь обеспечить свой независимый политический курс, попыталось использовать религиозно-правовой авторитет Багдада в качестве внешнеполитического фактора. Письма, направленные Атсызом халифу ал-Муктафи ли-Амриллаху, служат практическим проявлением данных дипломатических усилий. В статье объективно исследуются содержание этой переписки, соотносимость выдвинутых в ней дипломатических претензий с исторической действительностью, а также ее роль в процессе повышения государственного престижа.

Ключевые слова: внешняя политика, хорезмшах Атсыз, Аббасидский халифат, султан Санджар, иракские сельджуки, дипломатическая переписка, международные отношения, каракитаи.

Tolibjonov A.T.
Researcher at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
tolibjonovaziz895@gmail.com

POLITICAL RELATIONS BETWEEN THE KHWARAZMIAN (ANUSHTEGINID) EMPIRE AND THE ABBASID CALIPHATE (A CASE STUDY OF ATSIZ'S LETTERS)

ABSTRACT

This study aims to examine the interstate transformations in the Near and Middle East during the first half of the twelfth century, with a specific focus on the diplomatic relations between Khwarazmshah Atsiz and the Abbasid Caliphate, analyzed from the perspective of foreign policy source study. The dynastic struggles for the throne that emerged in the western territories of the Seljuk Empire during the reign of Sultan Sanjar severely impacted regional stability. Under these circumstances, in order to secure its independent political course, the Khwarazmian state sought to utilize the religious and legal authority of Baghdad as a strategic foreign policy instrument. The letters addressed by Atsiz to Caliph al-Muqtafi li-Amr Allah serve as a practical manifestation of these diplomatic maneuvers. The article provides an objective analysis of the content of this correspondence, the correlation between the diplomatic claims advanced within it and historical reality, as well as its role in the process of elevating the state's prestige.

Key words: foreign policy, Khwarazmshah Atsiz, Abbasid Caliphate, Sultan Sanjar, Iraqi Seljuks, diplomatic correspondence, international relations, Qara Khitai.

Usarov U.A.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti, PhD
O‘zbekiston Milliy universiteti
umidjon.usarov@mail.ru

ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A’ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O‘LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asrning ikkichi yarmi – XX asrning birinchi o‘n yilligiga qadar Turkiston o‘lkasidagi Rossiya imperiyasining olib borgan mustamlakachilik siyosatini, xususan, o‘lkadagi yer-suv munosabatlariga oid siyosatining ahvoli va uning xolatini umumlashtirgan xolda o‘rganish bo‘yicha imperiya markaziy hukumati senat a’zosi, graf K.K. Palen boshchiligida o‘lkada o‘tkazilgan taftish komissiyasi faoliyati hamda ushbu komissyai materiallari asosida Turkiston o‘lkasidagi yer-suv munosabatlarining ahvoli ochib berilgan.

Kalit so‘z: Turkiston, Rossiya imperiyasi, K.K. Palen, taftish, o‘lka, yer-suv, yer egaligi, sug‘orish, hisobot.

KIRISH

Turkistonda Rossiya imperiyasining hukmronligi o‘rnatilgandan so‘ng imperiya ma’muriyati o‘lkani boshqarishning yangi yo‘llarini izlash, bu yerda iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish, Amerika paxta naviga qaramlikdan qutulish, yengil sanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash maqsadida yer-suv munosabatlarini o‘rganishga kirishdi. Shu maqsadda o‘lkaga bir necha marotabadan turli komissiyalar jo‘natildi. Komissiyalar o‘z faoliyati davomida o‘troq va ko‘chmanchi aholi orasida mavjud yer egaligi huquqini aniqlash, hukumat uchun qaysi tartiblardan foydalanish samarali ekanligini aniqlab olish maqsadida o‘z faoliyatini yuritdi. O‘tkazilgan komissiya faoliyatida, avvalo, yer egaligining ko‘chmanchi va o‘troq aholi orasidagi turlari o‘rganildi. Meros huquqi, yer egaligida shariat qonun-qoidalari ham e’tibordan chetda qolmadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI.

Rossiya hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida 1908-1909-yillarda imperiya senatining a’zosi, graf K.K. Palen boshchiligida taftish o‘tkazish uchun komissiya tuzildi. Turkiston o‘lkasida yer egaligi va yerdan foydalanishda o‘lkaning tabiiy-geografik joylashuvi, joylarning topografiyasi muhim ahamiyat kasb etganligi bois, bu komissiya o‘lkani har tomonlama chuqurroq o‘rgandi.

Senator, graf K.K. Palen boshchiligidagi komissiya o‘z ishini 1908-yil 18-iyuldan 1909-yil 18-iyungacha davom ettirdi. Komissiyaga o‘lka xalqlari xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganish vazifasi qo‘yildi. Shu maqsadda taftish komissiyasi o‘lka viloyatlari, uyezdlari va deyarli barcha volostlari bilan qiziqib, ularning xo‘jalik hayotini to‘liq o‘rganib chiqdi. O‘lkadagi xo‘jalik hayoti turlari va xususiyatlariga

qarab taftish komissiyasi anketa so‘rovlari o‘tkazish uchun o‘lkaning 29 hududini tanlab oldi. Komissiya tomonidan “O‘lka boshqaruvi”, “Viloyat boshqaruvi”, “Uyezd boshqaruvi”, “Shahar boshqaruvi”, “Qishloq boshqaruvi”, “Sud muassasalari”, “Xalq sudlari”, “Xavfsizlik politsiyasi”, “Qamoqxona ishi”, “Soliq va to‘lovlar”, “Davlat mulki”, “Yer xo‘jaligi”, “Tog‘ ishi”, “Turkistonga ko‘chirish ishi”, “O‘quv ishi”, “Mahalliy aholining huquqiy ahvoli”, “Turkistonda sug‘orish ishlari” kabilar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plandi[6; 7; 8; 9; 10; 11]. Bu ma’lumotlar to‘plam shaklida 1910-1911 yillarda Sankt-Peterburgda nashr etildi[4. – C. 87.].

O‘lkaning deyarli barcha hududlarida mahalliy aholining dehqonchilik an’analarini chuqur egallaganligi bois, taftish komissiyasi o‘lka hududlaridagi yerlarni sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlarga ajratib besh asosiy turga bo‘ldi. Birinchi turga: vodiy yerlari, ikkinchi turga: vodiy-dasht yerlari, uchinchi turga: tog‘oldi hududlardagi yerlar, to‘rtinchi turga: tog‘li hududlardagi yerlar, beshinchi turga: dasht yerlari kiritildi[8. – C. IX.].

Birinchi tur, sug‘oriladigan yerlardan iborat bo‘lgan Toshkent yaqinidagi Niyozbek hududi; mahalliy paxtachilik markazi hisoblangan Oltinko‘l, Xakent, Andijon uyezdlari; lalmi yerlardan iborat Qirg‘izqo‘rg‘on, Namangan uyezdlari; sholi ekishga ixtisoslashgan Qoraqalpoq va Samarqand yerlari; Samarqand yaqinidagi uzumzorlar; bog‘dorchiligi bilan ajralib turgan Yaypan, Qo‘qon uyezdlari; Zarafshonning quyi oqimidagi tamaki mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan Buxoroga yaqin Kalqo‘rg‘on va Kattaqo‘rg‘on uyezdlari, kam sug‘oriladigan Gurlan, Xo‘jand uyezdlari va chorvachilikka ixtisoslashgan Naygut-Qipchoq yerlaridan iborat bo‘lgan.

Ikkinchi tur, vodiy-dasht yerlaridan iborat bo‘lib, u yerlarda ekin ekiladigan lalmi yerlari ko‘p bo‘lgan To‘rtko‘l, Kattaqo‘rg‘on uyezdida; to‘liq sug‘orilmaydigan, lekin sug‘orish xo‘jaligidan iborat bo‘lgan O‘zbek va Jizzax uyezdlaridan iborat bo‘lgan.

Uchinchi tur, tog‘oldi hududlari bo‘lib, u yerlarda lalmi yerlar nisbatan ko‘p bo‘lgan, biroq Oqbo‘ri, Novtak, O‘sh kabi uyezdlarda sug‘orma xo‘jalik ustun bo‘lgan, tabiati bilan o‘xshash bo‘lgan Qo‘rshob volosti kirgan.

To‘rtinchi turga dengiz sathidan nisbatan balandlikda joylashgan, asosan, bug‘doy yetishtiriladigan tog‘ hududlari kirgan.

Beshinchi tur, dasht yerlaridan iborat bo‘lib, unga kiruvchi ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan, lekin taftish komissiyasi o‘z ishini olib borgan vaqtda bu yerlarda ham yer egaligi ustunlik qilgan Oqto‘g‘ay, Jamansir, Kazalinsk uyezdlari, ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan Zang‘ar, Kolimbos, Kazalinsk uyezdlari va Jizzax Chordaryosi yerlari kirgan[8. – C. IX-X.].

K.K. Palen boshchiligidagi komissiya Amudaryo bo‘limining besh rayoni, xususan, Amudaryoga yaqin Sho‘raxon uchastkasidagi dehqonchilik rivojlangan To‘rtko‘l volostida, o‘zlashtirilgan qumli yerlardagi aholi yashaydigan Saribiy qishloq jamoasi yerlarida, Amudaryo deltasidagi dehqonchilik rivojlangan Chimboy va Kegeyli volostlarida, Chimboy uchastkasiga qarashli bo‘lgan chorvachilik yaxshi rivojlangan Davqara volostlarida taftish ishlarini o‘tkazdi[8. – C. XI]. Biroq yuqorida nomi keltirilgan hududlar to‘liq ro‘yxatga olinmagan, faqat 350-400 ga yaqin xo‘jaligi bo‘lgan rayonlar o‘rganilgan. Komissiya tomonidan

tarqatilgan anketalar mahalliy aholi xo‘jaligining barcha ko‘rinishlariga oid bo‘lgan savolnomalardan tuzilgan 300 ta savoldan iborat bo‘lgan[8. – C. XI].

Taftish komissiyasi hisobotlarida yozilishicha, Turkiston o‘lkasining barcha hududlari 1 533 255 kv. verstdan iborat bo‘lib, u viloyatlarga quyidagicha taqsimlangan: Yettisuv viloyati – 347 910 verst, Sirdaryo viloyati – 452 840 verst, Farg‘ona viloyati (Pomir bilan qo‘shilganda) – 121 141 verst, Samarqand viloyati – 79 626 verst va Kaspiyorti viloyati – 331 736 verst. O‘lka hududi kengligi bo‘yicha Fransiya, Germaniya hamda Avstriya-Vengriya yerlariga teng bo‘lgan. Geografik holatiga ko‘ra esa, Ispaniya, Italiya va Bolqon yarimoroli kengligiga to‘g‘ri kelgan[8. – C. 1-2.].

Komissiya hisobotiga ko‘ra, o‘lka mayda yer egaligi va ko‘chmanchi chorvachilikka ixtisoslashganligi qayd etilgan[4. – C. 87.]. Davlat budjetiga daromad keltiruvchi bu ikki soha yiliga 6,5 million rubl daromad keltirib, imperiyaning moliya hisobotida asosiy baza hisoblangan. Shu sababli o‘lkadagi bu ikki sohani alohida o‘rganib, uning ahvoli va ehtiyojlarini aniqlash lozim bo‘lgan[8. – C. XII.].

K.K. Palen o‘z hisobotlarida Turkistonning shimoliy qismida aholi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanganligi, janubda o‘troq dehqonchilik ustunlik qilganligini alohida ta’kidlaydi. Bu ikki omil ham yer egaligi munosabatlariga ta’sir qilgan. Shu sababli Turkiston Rossiya imperiyasiga qo‘shib olinayotgan vaqtda o‘lkadagi shariat qonunlarini o‘rganishi lozim edi. Bu hujjatlar, Qur’on va shariatga ko‘ra, musulmon huquqshunosligining yer egaligi masalalariga oydinlik kiritar edi. Ayni paytda yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik institutlarining rivojlanishi yerga egalik va undan intensiv foydalanish natijasida sug‘orma dehqonchilikni taraqqiy ettirgan. O‘lka sug‘orma dehqonchiligida ishtirok etadigan ikki daryo Amudaryo va Sirdaryoning dehqonchilikdagi roli katta bo‘lgan va O‘rta Osiyo xalqlari hayotida muhim rol o‘ynagan[2. – C. 3.].

Taftish komissiyasi hisobotlarida ta’kidlanishicha, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini egallab olgan vaqtda yerga egalikning quyidagi turlariga duch kelganlar[8. – C. 89.]:

1. Davlat yerlari (podsholik, mamluk, mamluk-podsholik) – muddatsiz foydalanilgan yoki meros qolgan yerlar bo‘lib, u yerlardan yig‘ilgan hosilning o‘ndan bir qismini davlat xazinasiga dahyak, ushr va xiroj kabi soliq shakllarida to‘lagan.

2. Mulk yerlari (xususiy mulk) – yerning xususiy ekanligini tasdiqlovchi xon tomonidan berilgan hujjatlarga ega bo‘lgan yerlar. Bu huquq joylarda ba’zi o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelgan. Masalan, mulk yerlaridan desyatina o‘lchovi miqdorida (“mulki xiroj”) yoki yer o‘rniga qarab oldindan belgilangan miqdorda soliqlar olingan (bu Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida “tanob” yig‘ini, Xiva xonligida “sog‘ut” yig‘ini deb atalgan).

3. Vaqf yerlari – alohida kishilar yoki xonlar tomonidan diniy tashkilotlarga hadya qilingan yerlar bo‘lib, bu yerlardan olingan daromadlar, asosan, vaqf yerlarini tortiq qilgan tashkilotlarga va bir qismi vaqf tashkilotlari merosxo‘rlariga o‘tgan. Ulardan hech qanday soliq olinmagan.

4. So‘nggi, to‘rtinchisi davlatning hech kimga qarashli bo‘lmagan mavat (o‘lik) yerlari. Bunday yerlar yangi yerlarning o‘zlashtirilishi hisobiga kengayib borgan. Xiva xonligida “partav” deb atalib, bunday yerlar shariat qonunlariga ko‘ra, “imom ruxsati bilan bu yerlarni kim o‘zlashtirsa, o‘sha kishi egasi bo‘lishi” alohida ta’kidlangan. Bu yerlarni o‘zlashtirgan shaxslar “mulk” yerlarini kengaytirib borgan. 1886 yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra, bunday yerlar davlat yerlari deb yuritilgan[8. – C. 89-90.].

Shuningdek, taftish komissiyasi materiallarida ko‘chmanchilarning yer egaligi masalasiga ham to‘xtalib, unga ko‘ra, ko‘chmanchilar foydalanadigan yerlar uzoq yillar shu yerlardagi urug‘larning qo‘l ostida bo‘lgan.

Qirg‘izlarga qarashli bo‘lgan yerlar urug‘larga qarab bo‘lingan. Qo‘qon xonligidan urug‘larni boshqarish yorlig‘ini olgan qirg‘iz xonlari va sultonlarining avlodlari o‘zlariga yaxshi sharoitlarni yaratib, hukmronlikni qo‘lga kiritganlar. Tyan-Shanning markaziy massivlaridagi qoraqirg‘izlar bo‘lsa, mayda manapliklar (knyazliklar)ga bo‘linib olganlar.

Manaplar, sultonlar sun’iy sug‘orish ishlarida ma’lum rol o‘ynaganlar. O‘zlarini oqsuyak deb hisoblagan bu sulton va manaplar ariq qazishda xonlardan ruxsat olib, keyin sug‘oriladigan yerlarga xo‘jayin bo‘lib olganlar. Biroq, bunday holatlar hamma joylarda ham bo‘lavermagan.

Turkistonning Rossiyaga qo‘shib olinishi bilan o‘troq aholiga xonliklar davridagi yer egaligi huquqida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Unga ko‘ra, meros huquqi bilan ushlab turilgan yerlar, soliq to‘lashda barcha imtiyozdan foydalangan mulk egalarining barcha toifasi yo‘qolib ketdi. Biroq “Turkiston o‘lkasini boshqarish Nizomi”ning 255-bandiga ko‘ra, imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, o‘lkadagi barcha avlodlardan meros qolgan yerlari bor o‘troq aholi yerga egalik huquqini oldi. Ko‘chmanchi aholi foydalanayotgan yerlar bo‘lsa, davlat mulkiga aylantirildi.

XX asr boshlarida Turkistonning uch mahalliy viloyati Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand hamda Yettisuvda yerdan foydalanishning turlicha huquqlariga ega bo‘lgan bir necha toifaga bo‘lgan.

Shaharlar, o‘troq aholi istiqomat qiladigan yerlar, xususiy yerlar, rus qishloqlari, ko‘chmanchi aholi foydalanadigan yerlarni olganda uni quyidagicha taqsimlab chiqqan:

Viloyatlar	**Shahar yerlari va o‘troq aholi**	**Ro‘yxatda turgan davlat yerlari**	**Mustaqil davlatlardagi ko‘chmanchilar foydalanadigan yerlar**
Sirdaryo	2,53 %	5,36 %	92,11 %
Farg‘ona	25,71 %	11,38 %	62,91 %
Samarqand	27,29 %	47,94 %	24,77 %

Bu jadvaldan o‘lka uyezdlaridagi o‘troq dehqonchilik qay darajada rivojlanganligini bilish mumkin. K.K. Palen unga butunlayicha Farg‘ona, Samarqand viloyatlarini, Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdini kiritadi hamda o‘lkani ikki turdagi yerlarga bo‘ladi. Bular o‘troq aholiga tegishli bo‘lgan

o‘lkaning O‘sh uyezdidan Kattaqo‘rg‘ongacha bo‘lgan janubiy yerlari, o‘zlashtirilgan yerlari kam bo‘lgan shimoliy yerlar[8. – C. 95.].

K.K. Palenning ko‘rsatishicha, o‘lka janubidagi yerlarning 25 foizini o‘troq aholiga, shuncha foiz yerni davlat mulkiga, yana shuncha yer ko‘chmanchilarning davlatga qarashli bo‘lgan Toshkent uyezdining yuqori tog‘ qismlari, vodiylar hamda Samarqand viloyatining dasht yerlaridan tashqari o‘zlari muddatsiz foydalanib kelgan yerlarga bo‘lingan. O‘lka shimolidagi yerlarni ham taqqoslaganda davlat va xususiy yerlar ko‘p bo‘lib, u yerlardan ko‘chmanchilar muddatsiz foydalangan. Yettisuv viloyatida ham ko‘chmanchilar tomonidan muddatsiz foydalaniladigan yerlar bo‘lib, u muallif tomonidan to‘liq ochib berilmaydi, biroq o‘troq aholi yerlarning 3,64 foizini egallagan deb ta’kidlaydi[8. – C. 95-96.].

Yettisuv viloyatining yer egaligi haqidagi ma’lumotlar viloyat imperiya tarkibiga kirgandan so‘ng paydo bo‘ldi deb yoziladi hisobotda. Sibir va Rossiyaning Yevropa qismidan kelgan ruslar, qozoqlardan tashqari, imperiya hukmronligi vaqtida o‘lka mahalliy aholisi ham bu yerlarga kirib keldi. Shuningdek, imperiya hukmronligi davrida Xitoyning Ili provinsiyasidan Taranchiga ko‘chib kelganlar va xuddi shu 1881 yilda dunganlar ham kirib kelishgan. 1900 yilda qirg‘izlar bu yerlarga kirib kelgan va o‘troq turmush tarziga o‘tib, dehqonchilik bilan ham shug‘ullangan.

Kaspiyorti viloyatining umumiy yerlari 55407100 desyatinani tashkil etib, sug‘oriladigan yerlar 150000 desyatina atrofida bo‘lgan yoki umumiy maydonning 0,27 foizini tashkil etgan. O‘troq aholiga tegishli bo‘lgan yerlar ko‘proq Murg‘ob va Tajan daryosi bo‘ylaridagi Marv va Tajan uyezdlariga to‘g‘ri kelgan. Ashxobod uyezdi uchinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, Krasnovodsk va Mang‘ishloq uyezdlaridagi yerlar ozgina qismni tashkil etgan[8. – C. 98.]. Shunday bo‘lsa-da, K.K. Palenning hisobiga ko‘ra, shahar yerlarining eng ko‘p qismi Sirdaryo viloyatiga to‘g‘ri kelgan[8. – C. 99.]. Sirdaryo viloyati atrofidagi hududlarning 3/4 qismini Muyunqum, Qoraqum, Qizilqum kabi sahrolar egallagan bo‘lib, birgina Qizilqum hududining 9/10 qismi qumliklardan iborat bo‘lgan, iqlimi doimo quruq bo‘lgan[2. – C. 24.].

Shahar yerlari atrofida aholi tomonidan barpo qilingan bog‘lardan tashqari paxta ekiladigan maydonlar, ekin maydonlari va boshqa ekin ekiladigan yerlar ham bo‘lgan. Bunday joylar ko‘proq Toshkent, Chimkent, Samarqand atroflarida bo‘lgan. Eski shahar atrofidagi yerlar bir necha yillar davomida barpo qilingan bo‘lib, geografik qulay joyda joylashgan bo‘lgan va savdo-sotiq rivojlangan bir necha qishloqlarning qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan.

O‘lkaning uch viloyatida o‘troq aholisining yer solig‘i to‘lovchilari ikki guruhga bo‘lingan: birinchi guruhga davlat soliq tashkilotlari tomonidan ro‘yxatga olingan va davlat tomonidan soliq solingan yerlar, ikkinchi guruhga o‘lka imperiyaga qo‘shib olingan vaqtlarda soliq tartibi bilan saqlanib qolgan yerlar. Mahalliy aholining yerdan foydalanish huquqlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi yerlarda mahalliy aholining yerdan foydalanish huquqi to‘liqligicha belgilangan. Ikkinchi guruhga kiruvchi yerlarda bo‘lsa, yerdan foydalanish mahalliy huquqlar bilan belgilangan holda bo‘lib, soliqlarni belgilash

ham taxminiy tarzda amalga oshiriladi. Amudaryo bo‘limi, Chimkent, Avliyoota uyezdlaridagi o‘troq turmush tarzini kechiradiganlar soliq to‘laydigan bo‘lsa, Toshkent uyezdi, Farg‘ona va Samarqand viloyatidagi yerlar davlat ro‘yxatiga olingan va soliq to‘laydigan yerlar tarkibiga kiritilgan. Kazalinsk va Perovsk uyezdlarida bu ikki tur ham uchramaydi. O‘lkaning uch viloyatidagi soliq to‘lanadigan yerlar 5186606 desyatinani tashkil etgan bo‘lsa, “obrok”[12] solig‘iga tortilgan yerlar 108331 desyatinani tashkil etgan[8. – C. 100.].

Umuman, yerlardan olinadigan soliqlar guruhlarga ajratilgan va sun’iy sug‘orishga asoslangan, irrigatsiya tarmoqlari yaxshi rivojlangan yerlar, ikkinchi guruhga yomg‘ir suvi bilan sug‘oriladigan yerlar yoki, mahalliy aholi tili bilan aytganda, “lalmi” yerlarga bo‘lingan. Uchinchi guruhga o‘zlashtirilmagan va dehqonchilik uchun noqulay bo‘lgan dashtlar, botqoqliklar, toshloq yerlar, soylar bo‘yidagi sel kelishi ehtimoli bo‘lgan qumlik yerlar, qoyalar kirgan.

K.K. Palen rahbarligidagi taftish komissiyasi hisobotlarida ham o‘lkaning irrigatsiya ishlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Unga ko‘ra, mahalliy aholi o‘zlashtirgan yerlar sug‘orma dehqonchilikka hamda lalmi yerlarga asoslangan. Bunday yerlar Kattaqo‘rg‘on, O‘sh va Jizzax uyezdlaridan tashqari barcha joylarda bo‘lgan. Qolgan uyezdlarda topografik va gidrografik sharoitlar yaxshi bo‘lganligi sababli bunday yerlar ko‘proq uchragan.

Turkistonning doimiy muzlamaydigan iqlimi bu yerlarda paxta va guruch yetishtirishni jonlantirish, mevali daraxtlar ekish, uzumchilikni rivojlantirish imkonini bergan. Yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yerlarda sun’iy sug‘orish ishlari olib borishni ham talab etgan. K.K. Palenning yozishicha, “mahalliy dehqonlar mehnati bilan bo‘sh yerlarni ekin ekish mumkin bo‘lgan madaniy yerlarga aylantira oladilar. Sun’iy sug‘orish tizimi bu yerlarda doimiy hosildorlik imkonini ham beradi. Mahalliy aholi irrigatsiya inshootlarini qurish va ekin ekish mumkin bo‘lgan bunday yerlarni doimo o‘zlashtirishga harakat qilib kelgan” [8. – C. 104.].

O‘lkaning irrigatsiya inshootlari qurish imkoni bo‘lmagan tog‘oldi hududlarida qishki va bahorgi yog‘inlar ko‘magida mahalliy kuzgi bug‘doy ekkanlar. Lalmi yerlarda arpa va bug‘doy iyun oyida pishib yetilgan Zarafshon vodiysi atroflarini egallagan Kattaqo‘rg‘onda bunday yerlar ko‘p bo‘lib, u 28,3 foizdan 51,2 foizgacha bo‘lgan. O‘troq aholiga tegishli bo‘lgan o‘zlashtirilmagan yerlarda mollar uchun yem-xashak yig‘ilgan yoki xo‘jalik hayotining boshqa ehtiyojlari uchun foydalanilgan. Bunday yerlar, asosan, botqoqliklar yoki katta qirlardan iborat bo‘lgan[8. – C. 104.].

Samarqand viloyatida ekiladigan asosiy ekin sholi mahalliy aholisi uchun daromad keltiradigan asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlaridan biri hisoblangan. U Samarqand viloyati Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Xo‘jand uyezdlarining 38 volostidagi 43513 desyatina yerni egallagan. Shuningdek, bu uyezdlarda sholi ekiladigan maydonlar ko‘lami turlicha bo‘lgan. Samarqand uyezdi viloyatda sholi yetishtirish bo‘yicha birinchi o‘rinda turib, ekin yerlari 36935 desyatinani, undan keyingi o‘rinda turgan Kattaqo‘rg‘on uyezdida 4112 desyatinani, Xo‘jand uyezdida esa 2466 desyatinani tashkil etgan[5. – C. 1.]. Sholi viloyatdagi barcha sug‘oriladigan yerlarda ekiladigan ekin maydonining umumiy foiziga nisbatan olganda 12 % ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar viloyatning sholi ko‘p

yetishtiriladigan uyezdlarida quyidagi foizlarni tashkil etgan: Samarqand uyezdida uning umumiy maydonining 14,3 % iga, Kattaqo‘rg‘on uyezdida uning umumiy maydonining 6,2 % iga, Xo‘jand uyezdida uning umumiy maydonining 8 % iga teng bo‘lgan[5. – C. 1.].

Viloyatda bug‘doyni faqat mahalliy aholi emas, balki ko‘chib kelgan rus aholisi ham ekkan, biroq ruslar bug‘doy ekishda yer tarkibini, iqlimni bilmasdan, ko‘p mablag‘ sarflab foyda keltirmaydigan tajribalar o‘tkazganlar[5. – C. 1.]. Rus dehqonlari “cho‘l bug‘doy” nomini olgan navni iqlim yoki havoning namligi tufayli kam hosil berishini tushunmay vahima bilan qabul qilganlar. Lalmi yerlarda yetishtirilgan bug‘doydan har yili sifat jihatidan yetarli darajada yuqori bo‘lmagan hosil olingan. Tog‘lardan uzoq bo‘lgan, sug‘orilmaydigan yerlarda ekilgan bug‘doydan yuqori sifatga javob bermaydigan, kam hosil olingan. Tog‘ yonbag‘ridagi sug‘orilmaydigan yerlarda, jumladan, Samarqand uyezdining Chashmaob volostida, Xo‘jand uyezdining O‘ratepa volostida esa yirik bug‘doy yetishtirilgan[1. – C. 261.].

Sholi yetishtirish Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand uyezlarida nisbatan keng rivojlangan (Jizzax uyezdida suv yetishmovchiligi sabab ko‘p ekilmagan). Sholi bu yerda asosiy ozuqa bo‘lishi bilan birga Zarafshon daryosi bo‘ylaridagi botqoqliklarda ham ekilgan hamda Rossiyaning Yevropa qismi va Buxoroga sotiladigan mahsulot turi hisoblangan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘lkada yer egaligining jamoaviy usuli bo‘lgan. Asta-sekinlik bilan bu yerlar mayda xususiy yerlarga aylantirilgan. Lekin ba’zi yerlarda jamoa yerlari saqlab qolingan. Masalan, Chimkent uyezdining Qorabuloq qishlog‘ida o‘zlashtirilgan yerlar ikki qismga bo‘lingan: bir qismi daryolar boshidan suv ichsa, ikkinchisi qismi esa Oqsuv daryosidan chiqqan ariqlar bilan sug‘orilgan. O‘lkada suv qishloqlar o‘rtasida, keyin alohida xo‘jaliklar o‘rtasida bo‘lingan. Suvlar bu yerda hosil olish uchun muhim bo‘lganligi sababli tartib bilan taqsimlangan[3. – C. 46.].

K.K. Palen hisobotlarida ham ta’kidlanishicha, daryo boshidagi yerlar uchun taqsimlangan suvlar va daryodan chiqarilgan ariqlar suvi bilan avval o‘zlashtirilgan va o‘sha vaqtning o‘zida jamoa o‘rtasida bo‘lingan. Bu yerlar mayda qismlarga bo‘linib, mahalliy xalq sudyalari yorliqlari bilan tasdiqlangan holda meros qolgan. Oqsuv daryosidan chiqqan ariqlardan sug‘oriladigan yerlar qo‘shga qarab berilgan. Qo‘shga ega bo‘lmagan jamoa kishilari yer ololmagan. Foydalanilgan ariqlariga qarab jamoalar soni aniqlangan. Bunday jamoalar Chimkent uyezdining Sayram, Mankent, Qoramurt, Iqon, Qarnoq, Suzoq va Chelakqo‘rg‘on qishloqlarida ham bo‘lgan[8. – C. 105.].

Toshkent uyezdining Pskent volosti baland dashtlardan iborat bo‘lib, bu yerlarni sug‘orish uchun juda katta mehnat talab qilingan. Angren daryosidan olinadigan suv Pskent atrofidagi yerlarga bormagan. Shu sababli bu hududda yerdan foydalanishning boshqa bir shakli paydo bo‘lgan[8. – C. 105.].

O‘troq dehqonlar foydalanadigan yerlar madaniy: sug‘oriladigan va lalmi yerlardan iborat bo‘lgan. O‘lkaning Jizzax, Kattaqo‘rg‘on va O‘sh uyezdlaridan sug‘oriladigan yerlar lalmi yerlarga nisbatan Jizzax uyezdida 2,1 marta, Kattaqo‘rg‘onda 1,9 marta, O‘sh uyezdida 1,2 marta kam bo‘lgan[8. – C. 103.].

K.K. Palen o‘lkada sug‘oriladigan yerlarning lalmi yerlarga nisbatan ko‘pligi, bu yerlarda topografik va gidrografik sharoitlarning qulayligi bilan bog‘liq” [8. – C. 103.], deb yozadi. O‘z fikrini takrorlab, muallif, “iqlimning bunday qulayligi yerlarda qimmatbaho hisoblangan paxta, sholi yetishtirishni, bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish imkonini beradi” [8. – C. 104.], deb qayd qiladi. Lalmi yerlarda bug‘doy va tariq yetishtirilib, iyun oyida yig‘ishtirib olish uchun qulay hisoblangan.

XULOSA

Umuman olganda, Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik siyosatini o‘rnatgan Rossiya imperiyasi o‘lkaning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirishda o‘z manfaatlaridan kelib chiqan holda ish olib bordi. Shuning uchun ham imperiya hukumati siyosatining qanday holatda ekanligi, o‘lkani yanada yaxshiroq o‘rganish, barcha sohalar, xususan, yer egaligi va sug‘orish ishlarining ahvoli haqida asosli va to‘g‘ri ma’lumotlarni to‘plash uchun o‘zlarining eng ishonchli vakillari rahbarligida rasmiy taftish komissiyalarini jo‘natdi. Ana shunday taftish komissiyalardan biri bu Turkiston o‘lkasida 1908-1909-yillarda imperiya senatining a’zosi, graf K.K. Palen boshchiligida komissiya bo‘lib, ushbu komissiyalarning hisobot tarzidagi xulosalari orqali o‘lkadagi holatga baho berdi hamda kelgusi faoliyatlarini davom ettirishda foydalangan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Вирский М. Зерновые хлеба Самаркандскаго уезда / Справочная книжка Самаркандской области. 1898 г. – Самарканд: Типография К.М. Селорова, 1899. – С. 261.

2. Дингельштедт Н. Опыт изучения ирригации Туркестанского края. Сыр-Дарьинская область. Часть 1. – СПб.: Типогр. Министерства путей сообщения, 1893. – С. 3.

3. Лыкошин Н.С. Полжизни в Туркестане: Очерки быта туземного населения. – Петроград: Т-ва “В.А. Березовский”, 1916. – С. 46.

4. Махмудован Н. Развитие административного управления, социально-экономических и культурных процессов в колониальном Туркестане в начале XX века. – Ташкент: Фан, 2016. – С. 87.

5. Позняков П. Культура риса и оя экономическое значенія в Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. 1907 г. Изд. Самаркандскаго областнаго статистическаго комитета. Под ред. секретаря статистическаго комитета М. Вирского. Вып. 9. – Самарканд: Типо-литографія Г.И. Демурова, 1907. – С. 1.

6. Пален К.К. Всеподданнейшая записка, содержащая главнейшие выводы отчёта о произведённой в 1908–1909 г.г. по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым ревизии Туркестанского края. I-II части. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 53 с.

7. Пален К.К. Земское хозяйство. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 721 с.

8. Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. I-II части. – СПб: Сенатская типография, 1911. – 431 с.

9. Пален К.К. Орошение в Туркестане. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К.Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 615 с.

10. Пален К.К. Переселенческое дело. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленым. – СПб: Сенатская типография, 1910. – 430 с.

11. Пален К.К. Сельское управление. Русское и туземное. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К.Паленым. – СПб: Сенатская типография,1910. – 226 с.

12. Obrok – ruslar tomonidan O‘rta Osiyo egallab olgandan keyin kirib kelgan soliq to‘lovi.

Усаров У.А.
PhD., доцент кафедры «Истории Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
umidjon.usarov@mail.ru

ОТРАЖЕНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ И ВОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ОТЧЕТАХ РЕВИЗИОННОЙ КОМИССИИ ПОД РУКОВОДСТВОМ ЧЛЕНА СЕНАТА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ, ГРАФА К.К. ПАЛЕНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается колониальная политика Российской империи в Туркестане со второй половины XIX века до первого десятилетия XX века, в частности, ее политика в отношении земельных и водных отношений в регионе. Особое внимание уделяется деятельности инспекционной комиссии, созданной в Туркестане под руководством графа К.К. Палена, члена Сената Российской империи, которой было поручено изучить и обобщить состояние земельных и водных отношений в регионе на основе материалов этой комиссии

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, К.К. Пален, инспекция, регион, земельные и водные отношения, землевладение, ирригация, отчет.

Usarov U.A.
PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
umidjon.usarov@mail.ru

THE REFLECTION OF LAND-WATER RELATIONS IN TURKESTAN REGION IN THE REPORTS OF THE INSPECTION COMMISSION HEADED BY COUNT K.K. PALEN, MEMBER OF THE SENATE OF THE RUSSIAN EMPIRE

ABSTRACT

This article examines the colonial policy pursued by the Russian Empire in Turkestan from the second half of the nineteenth century to the first decade of the twentieth century, particularly its policy regarding land and water relations in the region. It highlights the activities of the inspection commission conducted in Turkestan under the leadership of Count K.K. Palen, a member of the Senate of the Russian Empire, which was tasked with studying and generalizing the condition of land and water relations in the region, based on the materials of this commission.

Key words: Turkestan, Russian Empire, K.K. Palen, inspection, region, land and water relations, land ownership, irrigation, report.

Xakimov A.A.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
Farg‘ona davlat universiteti
adhambekhakimov71@gmail.com

XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O‘RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1358-1370 yillar Movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Mazkur yillarda sodir bo‘lgan voqealarga G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fasih Xavofiy va Ibn Arabshohlarning qarashlari qiyosiy, tanqidiy hamda tarixiy tahlillar asosida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, “Zafarnoma”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Ibn Arabshoh, Muiniddin Natanziy, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Fasih Xavofiy, “Mujmali Fasihiy”, “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston”.

KIRISH

Movarounnahrda mo‘g‘ul xonlari hukmronligining zaiflashuvi va mahalliy beklarning hokimiyatni egallash maqsadida olib borgan kurashlari tarixini tadqiq etishda tarixiy manbalarning o‘rni beqiyos. Ushbu manbalarni qiyosiy tahlil etish orqali Temuriylar davri ma’naviy -madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ilmiy jamoatchilikka yetkazish mumkin. Temuriylar davriga oid manbalar yetarli darajada bo‘lib, ulardan ma’lum qismlarini fors tilidagi asarlar tashkil qiladi. Quyida keltirilgan manbalar turli vaqt va makonda yozilganligi tufayli ularni tanqidiy, qiyosiy, xronologik metodlari asosida tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar taqdim etildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Amir Temur va temuriylar davriga oid ko‘plab manbalar mavjud bo‘lib ularning ichida ishonchlilaridan dastlabkisi tarixchi G‘iyosiddin Ali tomonidan yozilgan “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” asari hisoblanadi. Asarda 1399-yilgi Hindiston yurishi haqida so‘z yuritilgan[1:115-116,5-8,76,196,17;]. Asarda o‘rganilayotgan masala bo‘yicha deyarli ma’lumot uchramaydi. Muarrix Amir Temur Movarounnahrni poytaxt Samarqand atrofida birlashtirganligini qayd etish bilan cheklanib, asosiy e’tiborini Sohibqironning keyingi davrdagi faoliyatiga qaratgan[2:28].

Mazkur davr tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutgan dastlabki manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridir. Ushbu asar Amir Temurning topshirig‘iga ko‘ra yozilganligi va Sohibqironga taqdim etilib, ijobiy baho

olganligi bilan ham qimmatlidir. Nizomiddin Shomiyning hayoti va ijodi, jumladan “Zafarnoma” asari haqida manbashunoslikda ayrim tadqiqotlar olib borilgan[3:28-29].

Muallif o‘z asarida tarixiy jarayonlarning batafsil bayonini Movarounnahr amiri Qazag‘onning o‘ldirilishi voqeasi bilan boshlaydi. Amir Abdulloning Movarounnahr amiri mansabiga o‘tishi va uning nizolar natijasida hokimiyatdan chetlashtirilishi, shundan so‘ng mamlakatda boshlanib ketgan boshboshdoqliklar, hududni amirlar tomonidan bo‘lib olinishi voqealari izchillikda bayon qilingan. E’tiborli jihati shundaki, Movarounnahr viloyatlarida hokimiyatni egallagan amirlarning tarkibi haqidagi ma’lumotlar, keyingi davrda yozilgan tarixiy manbalar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan[4:28]. Mazkur asarda boshqa manbalarda uchramaydigan ayrim ma’lumotlar mavjud. Jumladan amir Qazag‘onning qotili Qutlug‘ Temurning O‘ranaytiyon qabilasidan ekanligi va uni qo‘lga tushirilishi hamda jazolanishida amir Kayxusravning jonbozlik ko‘rsatgani yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘ladi[5:28]. Muiniddin Natanziy Qutlug‘ Temurni “allaqanday bir mo‘g‘ul”, deb ta’riflash bilan cheklanib, uning jazolanishi xususida ma’lumot bermagan[6:50]. Sharafuddin Ali Yazdiy Qutlug‘ Temurning oyrat qabilasidan ekanligini ta’kidlagan holda, uning Qunduz yaqinida qo‘lga olinganligini qayd etadi, ammo bu ishni amalga oshirganlar shaxsiga aniqlik kiritmagan[7:18]. Fasih Xavofiy esa Qutlug‘ Temurning jazolanishi hamda kelib chiqishi haqida so‘z yuritmagan[8:110]. Yozilganlardan ko‘rinadiki, Nizomiddin Shomiyni ushbu masala bo‘yicha bergan ma’lumoti batafsilligi bilan yaqqol ajralib turadi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurxonning Movarounnahr yurishlari, mahalliy beklarning mazkur yurishlarga nisbatan munosabati, Amir Temurning mo‘g‘ul xoni xizmatiga o‘tishdan ko‘zlagan maqsadi, mahalliy beklarning o‘zaro nizolari va Amir Husayn mavqeyining oshib borishi kabi ko‘plab masalalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladigan muhim ma’lumotlar berilgan[9:28-86].

Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asari 1358–1370-yillar Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash tarixini o‘rganishdagi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar haqidagi tadqiqotlarda muarrixning hayoti hamda manbaning yozilish tarixi yoritib berilgan[10:3-43].

Asarda amir Qazag‘onning vafotidan so‘ng uning o‘g‘li amir Abdulloning taxtga chiqarilganligi, amir Bayon sulduz tomonidan hokimiyatning tortib olinishi, Tug‘luq Temurxonning Movarounnahr yurishlari, Ilyosxo‘ja hukmronligi vaqti Movarounnahrda yuz bergan siyosiy jarayonlar, amir Husaynning hokimiyatga kelishi, Loy jangi, sarbadorlarning faoliyati, amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash masalasi Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”laridan o‘zgacha ruhda hikoya qilingan[11:50-110]. Muallif o‘z asarini umumiy tarix tipida yozishga uringanligi uchun ham voqealar bayonida nisbatan betaraflik va xolislikni boshqa asarlarga nisbatan kengroq sezishimiz mumkin.

Asarning boshqa tarixiy manbalardan yana bir farqi shundaki, unda Samarqand sarbadorlarining hokimiyatni qo‘lga kiritishi, mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashlari, sarbadorlarning asosiy yetakchisi Mavlonzoda ekanligi,

Mavlonzodaning Amir Temur bilan munosabatlari haqidagi ma’lumotlar uchraydi1[12:68-72]. Bu omillar ushbu davr tarixini chuqur tahlil etish va asosli ilmiy xulosalar chiqarishda muhim rol o‘ynaydi.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarining turli boblarida keltirilgan ma’lumotlar bir-birini to‘ldirishi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun muallif, yuqorida aytilganidek, amir Qazag‘onning qotilini kitobning avvalida “allaqanday bir mo‘g‘ul, deya ta’riflagan bo‘lsa, manbaning boshqa bobida uni birmuncha to‘ldiradi-ki, bu qo‘shimcha ma’lumotlar boshqa asarlarda uchramaydi. Muallif Qutlug‘ Temur hazora amirlaridan birining urug‘iga mansub bo‘lgani, u amir Qazag‘onning xotini Qutlug‘ Turkon og‘oning singlisiga uylanganligi, o‘z hazoralariga jabr zulm bo‘lgani bois amirlikdan chetlashtirilgani, amir Qazag‘on Qutlug‘ Turkon og‘o iltimosiga ham qaramay aybdorning gunohini kechmagani, sababli Qutlug‘ Temur hukmdor hayotiga suiqasd qilganligini ta’kidlaydi”[13:92-93]. Bu mulohazalardan so‘ng, manbadan foydalanilayotganda keltirilgan ma’lumotni asarni boshqa boblaridan ham tanqidiy qiyoslab olish ilmiy xulosa chiqarish uchun muhim hisoblanadi.

Asardagi muhim ma’lumotlardan biri amir Abdullohning taqdiri bilan bog‘liq. Ko‘plab manbalarda amir Bayon Sulduz va amir Hoji Barlos isyonidan so‘ng mag‘lub bo‘lgan amir Abdulloh Movarounnahrni tark etganligi hamda uning keyingi hayoti haqida aniq ma’lumot mavjud emasligi ta’kidlanadi. Ammo Muiniddin Natanziy amir Abdulloh va uning bir necha ukalari qatl etilgani, uning qabri Munk shahrida joylashganligi, Sulton Mahmud ismli ukasi Mo‘g‘ulistondan panoh topganligini, hamda jiyani amir Husayn esa Qunduz va Bag‘longa qochib, u yerni qo‘lga kiritib olganligini qayd etadi[14:50]. Mazkur ma’lumotlar boshqa tarixiy manbalarda uchramasligi va tarixiy jarayonlar tadqiqiga katta yordam berishi bilan ham qadrlidir.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari ham tadqiqotning muhim manbalaridan biridir. Muallifning hayoti va ijodiy faoliyati, “Zafarnoma” asarining yozilish tarixi va tarqalishi, tarjimalari haqida manbashunoslik yo‘nalishida bir necha ilmiy ishlar amalga oshirilgan[15:116-123].

“Zafarnoma” 1358–1370-yillarda Movarounahrda bo‘lib o‘tgan o‘zaro urushlar va hokimiyat uchun kurash tarixi batafsil yoritilgan manba sifatida ham ahamiyatlidir. Asarning asosiy qismi Amir Qazag‘onbekning faoliyatini yoritish bilan boshlangan bo‘lsa ham keyingi voqealarning markazida asosan Amir Temur turadi hamda voqelik uning atrofida, Sohibqiron tarixiga u yoki bu darajada bog‘liq holda hikoya qilinadi. Bu esa Movarounnahrda hokimyat uchun kurash masalasini yoritishda mazkur manbadan foydalanish chog‘ida muallifning mulohazalariga nisbatan tanqidiy yondashuv zarurligini keltirib chiqaradi.

Manbaning o‘rganilayotgan davr uchun muhim bo‘lgan tomonlaridan biri shundaki, unda amir Husaynning Bayon Sulduzga qarshi olib borgan kurashlari, Amir Temur va amir Hoji Barlos o‘rtasida nizoning paydo bo‘lishi va rivojlanib borishi, Amir Temur va amir Hizr Yasavuriy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan janglar haqidagi ko‘pgina ma’lumotlar boshqa asarlarda keng yoritilmagan[16:22-23]. “Zafarnoma”da keltirilgan Amir Temur va amir Husayn o‘rtasida tuzilgan Kumushkand sulhi, bu sulhning tuzilishiga qarshi bo‘lgan hamda uni qo‘llab

quvvatlagan amirlar tarkibiga oid ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega[17:56-58]. Bu ma’lumotlar hokimiyat uchun kurashning uzoq yillarga cho‘zilib ketishiga nisbatan amirlarning munosabatini aniqlash imkonini ham beradi.

“Zafarnoma”da keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa anglashiladiki, Movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun o‘zaro kurashdan Mo‘g‘ulistonning ba’zi amirlari o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga harakat qilganlar. Ular ba’zi amirlarga o‘z yordamlarini taklif etish orqali mamlakatga kirib kelib, xalqni talon-taroj qilishga va ba’zi hududlarni o‘z nazoratlariga kiritishga uringanlar. Bu kabi yordamlar natijasida ma’lum vaqt Xo‘jand hokimi Bahrom jaloyir Toshkent va Sayram viloyatlarida o‘z ta’sirini o‘rnatib olgan bo‘lsa, Amir Temur ham amir Husaynga qarshi kurashda ularning yordamidan foydalanishga uringan. Ammo yordamga kelgan mo‘g‘ullar amir Husayn qo‘shinlariga qarshi kurash olib borish o‘rniga Jizzax viloyatini talon-taroj qilishga kirishganini ko‘rgan Sohibqironning o‘zi ularni quvib chiqarishga majbur bo‘lganligi Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan alohida ta’kidlanadi. Asardagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, Movarounnahrdagi o‘zaro urushlar natijasida mo‘g‘ul amirlari Toshkent viloyati hududlarini o‘z nazoratlariga kiritib olishga erishganlar[18:54-56].

Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishdagi muhim ilmiy manbalardan biri Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asari hisoblanadi. Bu asar aniq, qisqa va faktik ma’lumotlarga juda ham boyligi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. Ushbu manba hamda uning muallifi Fasih Xavofiy haqida bir qator ilmiy izlanishlar mavjud[19:2-29].

Asarda o‘rganilayotgan davrga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin, jumladan, amir Abdulloh hokimiyatining inqirozga uchrashining sabablari, amir Husaynning Tug‘luq Temurxonga qarshi olib borgan kurashlari, Amir Temur va amir Husayn o‘rtasidagi kelishmovchiliklar “Loy jangi”dan avval ham bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar e’tiborga molikdir[20:110-122].

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ma’lumotlarni o‘zida jamlagan asarlardan yana biri Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur” asaridir. Mazkur manba o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan[21:5-63,21].

Ibn Arabshoh o‘z asarida Movarounnahrdagi o‘zaro urushlarda yetakchi rol o‘ynagan bir qator amirlar faoliyatiga oid qiziqarli ma’lumotlarni keltirgan. Jumladan Amir Temurning amir Husayn bilan tanishuvi va ular o‘rtasida qarindoshlik aloqalarining paydo bo‘lishi, amir Husayn izmida bo‘lgan hududlarning chegaralari, amir Husaynning to‘rt vaziri, Amir Temurning Badaxshon hokimlari bilan Husaynga qarshi ittifoq tuzganligi haqidagi ma’lumotlarni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosan tahlil qilib, tanqidiy yondashib tadqiq etish muhimdir[22:5,7,54-64]. Muallifning ma’lum vaqt Movarounnahrda yashaganligi unga mazkur hudud geografiyasi haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish imkonini bergan [23:5-63].

XULOSA

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarni manbalarda yoritilish darajasi turlicha. Sharofuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub “Zafarnoma”larda Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan tarixiy

voqealar shu davrda yozilgan boshqa asarlardan o‘zining ishonchliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ibn Arabshohning “Ajoyib al maqdur…” asari esa Movarounnahr tarixi va Amir Temur tarixi haqida yozilgan asarlardan o‘zining tanqidiy ruhda yozilganligi, XIV asrning so‘nggi choragida Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzgan Amir Temur haqidagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil bilan o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN MANBA ADABOYOTLAR RO‘YHATI

1. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. / Составители: Д.Ю. Юсуова, Р.П. Жалилова. – Т: «Фан», 1998. – С. 115-116 (кейинги ўринларда - Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История.); Семенов А.А. Предисловие переводчика. / Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. / Пер. с перс., предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост., 1958. – С. 5-8. (кейинги ўринларда – Гийасаддин Али. Дневник.); Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари (био библиографик маълумотнома). Тарихшунослар ва тарих муаллимлари учун қўлланма. – Т.: “Чўлпон”, 2003. – Б. 76. (кейинги ўринларда – Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари.); Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 196; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. – С. 17.

2. Гийасаддин Али. Дневник... . – С. 28.

3. Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари. // Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Б. 3-11; Аҳмедов Б. Низомиддин Шомий. / Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 16-17.; Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 165-167; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 107 108; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 196; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. – С. 17 – 18.

4. Шомий. Зафарнома. – Б. 28-29.

5. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 50

6. Йаздий. Зафарнома. – Б. 18.

7. Фасиҳ Хавофий. – Б. 110.

8. Каримий Ғулом. “Мунтахаб ут-таворихи Муиний”да Амир Темур даври тарихининг ёритилиши. / Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 3-43; Бартольд В.В. Определение “анонима Искандара”. // Соч. Т.8. – М.:Наука, 1973. – С. 481-482; Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Б.168-169; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 108-109; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 199; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 19.

9. Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 50-110.

10. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. – С. 116-123; Ўринбоев А. Сўзбоши. // Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари (1360-1370). / Маъсул муҳаррир, сўзбоши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев, таржимон О. Бўриев –Т.: Камалак, 1994. – Б. 3 14 (кейинги ўринларда – Яздий. Зафарнома.); Аҳмад А., Бобобеков Ҳ. Сўзбоши. // Йаздий. Зафарнома. – Б. 3-

8; Аҳмедов Б. Шарафиддин Али Яздий. / Ўша муаллиф. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 66-67; Ўша муаллиф. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б.174-177; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 112-113; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 197-198; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 19-20; Бўриев О. Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асари ва “Темур тузуклари”. / Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. “Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулоҳазалар” мавзуида ўтказилган Республика илмий анж

11. Юсупова Д.Ю. Фасих Хавафи и его труд Муджмал-и Фасихи. // Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980 (кейинги ўринларда – Хавафи. Муджмал-и Фасихи.). – С. 5-29; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 204; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 300 301; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 245-246; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 21.

12. Хавафи. Муджмали-и Фасихи. – С. 110- 122.

13. Уватов У. Сўз боши. // Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур... 1-китоб. – Б. 5-63; ўша муаллиф. “Ажойиб ал мақдур”даги тарихий маълумотлар ва уларни ўрганишга доир Темурийлар даври: Тадқиқотлар ва муаммолар. “Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент, Темурийлар тарихи давлат музейи. 2013 йил 22 октябрь. 7-китоб. – Т.: “НАВРЎЗ”, 2014. Б. 129-134; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 201;Б. Аҳмедов Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Б. 141-142; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 21.

14. Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур... . 2-китоб. – Б. 5, 7, 17-18, 21, 54-64.

15. Уватов У. Сўз боши. // Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур... .1-китоб. – Б. 5- 63.

Хакимов А.А.
PhD., преподаватель кафедры «истории Узбекистана»
Ферганский государственный университет
adhambekhakimov71@gmail.com

РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ТИМУРИДСКОЙ ЭПОХИ В ИЗУЧЕНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В МАВЕРАННАХРЕ В 50–70-Е ГОДЫ XIV ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников проанализированы процессы борьбы за власть, происходившие в Мавераннахре в 1358–1370 годах, а также причины их возникновения и последствия. На основе сравнительного, критического и исторического анализа исследованы взгляды Гиясиддина Али, Низамиддина Шами, Муинуддина Натанзи, Шарафуддина

Али Йазди, Фасиха Хавафи и Ибн Арабшаха на события, имевшие место в указанный период.

Ключевые слова: Мавераннахр, Гиясиддин Али, Низамиддин Шами, «Зафар-наме», Муинуддин Натанзи, «Мунтахаб ат-таварих-и Муини», Шарафуддин Али Йазди, Ибн Арабшах, Фасих Хавафи,

Khakimov A.A.
Lecturer at the department of the «History of Uzbekistan»
Fergana State University
adhambekhakimov71@gmail.com

THE ROLE OF TIMURID-ERA SOURCES IN STUDYING THE POLITICAL SITUATION IN MAVERANNAHR DURING THE 1350s–1370s

ABSTRACT

This article analyzes the processes of the struggle for power in Transoxiana in 1358-1370, their causes and consequences based on historical sources. The views of Ghiyosiddin Ali, Nizamiddin Shami, Muiniddin Natanzi, Sharafiddin Ali Yazdi, Fasih Khawafi and Ibn Arabshah on the events that took place in these years were studied based on comparative, critical and historical analyses.

Key words: Movarounnahr, Ghiyosiddin Ali, Nizamiddin Shami, “Zafarnama”, “Muntakhab ut-tawarikhi Muini”, Ibn Arabshah, Muiniddin Natanzi, “Muntakhab ut-tawarikhi Muini”, Fasih Khawafi, “Mujmali Fasih”, “Roznomai Ghazavati Hindustan”.

Xolikulov A.B.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi mudiri, professor, t.f.d.
O‘zbekiston Milliy universiteti
a.kholikulov@nuu.uz

AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro amirligining Xiva xonligi bilan elchilik aloqalari, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar, ikki o‘rtadagi munosabatlarda afg‘on shahzodasi Mahmud bilan bog‘liq holda sovuqchilikning kelib chiqishi, Amir Haydar hukmronligi yillarida uning o‘g‘lini to‘yi munosabati bilan o‘zaro diplomatik aloqalarning tiklanishi, hatto buxoroliklarni Xivaga qurol yetkazib berganliklari kabi masalalar mahalliy manbalar, va tarixchilar asarlari orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Хива xonligi, elchilik munosabatlari, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Muhammad Amin inoq, Mahmud Mirzo, Erdonabiy, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I.

KIRISH

Xiva xonligi tashkil topgan dastlabki vaqtlardanoq Buxoro bilan munosabatlari o‘ziga xos tarzda kechgan. Albatta, bu to‘g‘risida ko‘plab tarixiy manbalar saqlanib qolgan. Qo‘ng‘irot sulolasidan chiqqan inoqlar va xonlar o‘zlarining oldingi ajdodlaridan farqli ravishda tarixga alohida ahamiyat bera boshlashgan. “Ular qo‘lga kiritgan mavqe va maqomlarini legitimlash (qonuniylashtirish) vositalarini qidirib, uning eng qulayi tarixnavislik ekanini tushunib yetadilar”[1]. Buning natijasida Xiva xonligida bir qator tarixiy asarlar yozilgan. Buxoro amirligining Xiva xonligi bilan siyosiy aloqalarini o‘rganishda Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, Ogahiyning “Riyoz ud-davla”, “Zubdat at-tavorix”, “Jome’ ul-voqeati sultoni”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”, Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlari muhim manba sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu asarlar jahon tarixshunosligida “Xiva solnomalari” nomi bilan mashhur bo‘lib, ularda nafaqat mintaqada yuz bergan siyosiy voqealar, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq masalalar, balki Xiva xonligining tashqi siyosiy aloqalari, xususan, Buxoro amirligi bilan olib borgan aloqalari to‘g‘risida ham qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Ushbu solnomalarda Xiva xonligining xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalari juda qisqa bayon etilib, voqealar tafsilotiga keng o‘rin ajaratilmagan. Masalan, ko‘p hollarda xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarning nomi, ularning qaysidir Xiva xoni tomonidan qabul qilinganligi, ba’zan esa xonning ularga bildirgan munosabatigina qayd etilgan, xolos. Ammo e’tiborli jihati, xonlarning yuritgan tashqi siyosati bobidagi bironta ham muhim voqea yoki tafsilotlar solnomalar mualliflari nazaridan chetda qolmagan. Bu hol juda katta ahamiyatga molik bo‘lib, solnomalarning qiymatini dastlabki ishonchli manba darajasiga ko‘targan. Agar

shu davrga oid arxiv hujjatlarining ko‘pchilik qismi bizgacha yetib kelmaganligini hisobga olsak, xonlikning tashqi siyosiy munosabatlari borasidagi ushbu ma’lumotlarning naqadar katta ahamiyatga molikligini anglab yetamiz [2]. Ta’kidlash lozimki, ushbu manbalar bugungi kunda xorijda ham katta qiziqish uyg‘otib, qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

1763-yildan boshlab Xivada amalda qo‘ng‘irot urug‘i inoqlari hokimiyatni boshqargan bo‘lsalar-da, 1804-yilga qadar amalda boshqa shaxsni rasman xon qilib ko‘tarib, davlat ishlarini uning nomidan yuritadilar. Qo‘ng‘irotlar sulolasi vakillaridan Muhammad Amin inoq (1763–1790) 1763-yili Xivada hokimiyatni qo‘lga oladi [3]. “Firdavs ul-iqbol”da Doniyolbiy (1758–1785) otaliqning Muhammad Amin inoqni qadri va martabasiga yarasha emas, balki “tahqir va taqsirig‘a kushish qildi. ... Avval imdod va’dasi qilib, so‘ngra ul va’da vafosig‘a qiyom” ko‘rsatmaganligi qayd etiladi [4].

Tez orada “Xorazm Muhammad Amin inoqning tahti farmonig‘a kirib, fuqaro forig‘bolda osudahol bo‘ldilar. ... Va ikki oydin so‘ng Jahongirxonni xala’ qilib, Oqimxon ibn Odil sultonni Dashtdin kelturub, podshoh qildi” [5]. Lekin Muhammad Amin inoq hokimiyat legitimligini ta’minlash maqsadida rasmiy xonlarni Buxoro yoki Dashti Qipchoqdan keltirib taxtga o‘tkazishga majbur edi. Nomzodlarning Buxorodan keltirilishida muxolif kuchlarning ta’siri katta bo‘lgan.

Buxoro – Xiva munosabatlaridagi keyingi masala afg‘on shahzodasi Mahmud bilan bog‘liq holda kelib chiqadi. Amir Shohmurod yaqindagina Buxorodan haj bahonasida chiqib ketib, Xivaga borgan afg‘on shahzodasi Mahmud Mirzoni qaytarishni iltimos qilib Mullo Boltani Avaz inoq (1790-1804)ning oldiga elchi qilib jo‘natadi. Avaz inoq Buxoro amirining iltimosi rad qilib, Mahmud Mirzoni yovmut Ushoqnazar otaliq hamrohligida Eronga ketishiga ko‘maklashadi [6].

Buxoroda Amir Haydar hukmronligining ikkinchi yili amirninig ichki siyosatidan norozi bo‘lgan bir guruh amaldorlarning tashabbuslari bilan Xiva xoni katta qo‘shin bilan Buxoroga hujum qilgan. Buxoro atrofidagi aholining mol-mulklarini talon-taroj qilib, chorvasini haydab, o‘zlarini esa asir qilib olib ketadi. Amir Haydar xorazmliklarni ta’qib qilib, asirlarning bir qismini ozod qilishga muvaffaq bo‘ladi va ortga qaytadi [7].

“Firdav ul-iqbol”da Amir Haydar va Eltuzarxon (1804-1806yy) o‘rtasiga nizo tushishining to‘rtta sababi keltirib o‘tiladi. Shu bilan bir qatorda, “Firdavs ul-iqbol”da qayd etilishcha, “1805-1806 yillar davomida xivaliklarning kichik-kichik guruhlari buxoroliklarning karvoniga sakkiz marta hujum qilib, ularni talaganlar. O‘z navbatida Amir Haydar ham 1806 yilning mart oyida Rajabbiy inoq va Kayuvxo‘ja boshchiligidagi yettita sarkardani Xorazmga yuboradi. Shuningdek, Otaniyoz bek va Yaxshimurod bek boshchiligidagi muxolif kuchlardan ham foydalanadi” [8].

Muhammadhakimxon Eltuzarxonning Buxoroni fath etish maqsadida Omuya daryosidan kechib o‘tganini, ikki o‘rtada jangda buxoroliklar g‘alaba qozonganini qayd etadi [9]. Shu tariqa Eltuzarxon vafot etib, Urganch aholisi taslim bo‘ladi. Xuddi shu payt Qo‘qon qo‘shini O‘ratepani egallab, buxorolik amirzodalardan

to‘rt ming kishini asir oladi. Buni eshitgan Amir Haydar noiloj choparlarni farmon bilan amirlari oldiga jo‘natib, qo‘shinni qaytarishga majbur bo‘lgan [10].

Yuqoridagi faktlar, sabablariga yanada aniqlik kiritilgan holda “Tarixi Turkiston” asarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Unda 1806-yili Xorazm xoni Eltuzarxon Buxoro atrofini talon-taroj qilib, ellik ming qo‘y va bir necha ming tuya olib ketganligi, yana bir necha marta Buxoro atrofini talon-taroj qilganligi sababli Amir Haydar Xorazm ustiga o‘ttiz ming kishilik qo‘shin yuborishga majbur bo‘lganligi yozilgan [11].

Darhaqiqat, yuqorida nomlari tilga olingan asarlarda ham Amir Haydar Qutlug‘ Murodbiyni inoq – Xorazm voliysi qilib yuborganligi, ammo xorazmliklar bunga rozi bo‘lmasdan Muhammad Rahimxonni xon qilib ko‘targanliklari ta’kidlanadi. Demak, bu paytda amir Xiva xonligi ichki ishlariga faol aralashganligi hamda uni o‘z ta’sir doirasida ushlab turishga harakat qilganligini ko‘rish mumkin.

“Firdavs ul-iqbol”da esa Muhammad Rahimxon I taxtga o‘tirgach, asirlikdagi Qutlug‘ Murod inoq boshliq barcha asirlarni yurtga qaytarish ustida bosh qotirgani va boshqa masalalar qayd etilgan [12].

Muhammad Rahimxon I hukmronligi yillarida ham avvalgi Buxoro homiyligidagi ayirmachi kuchlar o‘z faoliyatini to‘xtatmadilar. Masalan, Xo‘jamurodbiy ukasi To‘ramurod so‘fi bilan Avaz inoq davridan boshlab o‘n bir yil davomida vaqti-vaqti bilan isyon ko‘tarib turgan bo‘lsa, Muhammad Rahimxon I hukmronligi yillari ham tinchishmadi.

Bundan tashqari, Yangidaryo qoraqalpoqlari oqsoqollaridan mang‘it urug‘i boshlig‘i O‘runboybiy, to‘nko-xitoy boshlig‘i Eshjonbiy, beshsariq-xitoy sardori Hasanbiy, Baroq bahodirning ukasi Esankeldibiy, qipchoq urug‘ining hokimi To‘xtapo‘lodbiy va kenagas jamoasidan uymovut elining ulug‘i Mamonbiylar Yangidaryoda muxolifat tuzib, Muhammad Rahimxon I ga bo‘ysunmay qo‘yadilar [13]. Yoki 1814-yili Hazorasp qal’asi hokimi Abdulloh inoq Odinamurod noidning ta’sirida xonga xiyonat qilib, o‘zining devonbegisi Xo‘jamberdini Amir Haydarga “izhori itoat va inqiyod qilib” yuboradi. Amir Haydar esa o‘z navbatida unga Xiva xonligini “g‘oyibona in’om qilib, yorlig‘ yuboradi” [14]. Xullas, Muhammad Rahimxon I o‘z hukmronligining dastlabki o‘n yilligida ushbu isyonchi kuchlar bilan kurash olib borish va ularni bostirish bilan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ladi.

Yana bir qiziq jihat shundaki, Amir Haydar hukmronligi yillarida Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasida ma’lum vaqt davom etgan sovuq aloqalarga chek qo‘yilib, o‘zaro diplomatik bordi-keldi tiklanadi. Bunga Amir Haydar o‘g‘lining to‘yi munosabati bilan Buxorodan Muhammad Rahimxon I saroyiga O‘roq boy miroxur va Avazmuhammad yasovulboshilarni elchi qilib yuborishi sabab bo‘lgan edi [15].

Xorazmga elchilar kelgan vaqtda Muhammad Rahimxon Orol bo‘ylariga yurish qilgan bo‘lib, o‘zi ham shu yerda edi. Qutlug‘ Murod inoq Yor Muhammadbek orqali Buxoro amirining nomasini Muhammad Rahimxonga yuboradi [16]. Elchilar hurmat bilan kutib olinib, ularga qimmatbaho sovg‘alar berilgan.

Ushbu kelgan elchilarga qo‘shib, Amir Haydar Xivaga Yaqub qo‘rchibegi mang‘it va Kal yasovullarni jo‘natadi. Amir o‘z elchilari orqali “hazrat a’lo

xoqonni [Muhammad Rahimxonni] og‘a va o‘zini ini” sanab, qimmatbaho sovg‘alar jo‘natadi. Ikki o‘rtadagi munosabatlar shu darajada iliqlashadi-ki, hatto Muhammad Rahimxon “avval qazoq ta’dibi va so‘ngra taka go‘shmoli” maslasida maslahatlashish uchun buxorolik elchilarga qo‘shib, Berdi inoqni jo‘natadi. Amir Haydar Xiva xoni iltimosiga ko‘ra “amomai iftixorin mabohat havosig‘a otib, taka go‘shmolining muniyatin o‘z zimmasig‘a” olib, turkmanlar qo‘liga tushgan Xiva savdogarlarining mollari va asirlarni “istirdod qilib, dargohi olampanohg‘a irsol” qilishga kafil bo‘lishini o‘z elchilari Sayid Musoxo‘ja O‘roq Mir Kuloliy va Boymuhammad Chuhra og‘asi orqali jo‘natilgan “izhori ittihod va yakjixatlikin sadoqatnoma”si bilan ma’lum qiladi va Berdi inoqqa qo‘shib Xivaga jo‘natadi [17]. Natijada Muhammad Rahimxonning Marv turkmanlari masalasidan ko‘ngli tinchib, Buxoro amirining va’dasiga ishonadi va Dashti Qipchoqqa yurish qilib, u yerdan katta g‘alaba bilan qaytadi.

“Firdavs ul-iqbol”da keltirilgan ma’lumotlar, shubhasiz, Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Lekin ushbu asarda ko‘p hollarda Buxorodan kelgan elchilar va Buxoroga jo‘natilgan elchilarning nomlari keltirilgan holda ularning nima maqsadda kelganligi va nima haqida suhbat qurilganligiga doir ma’lumot berilmaydi. Masalan, “rabi al-avvalning avoilida [18] Buxorodin Hasanmurod otoliq Boymuhammad jorchiboshi birla elchilikka keldi. Mohi mazkurning avoxirida [19] Berdi inoqni elchi mazkurg‘a qo‘shub, Buxorog‘a yubordi. ... Mazkur oyning yigirma yettisida [20] yakshanba kuni Berdi inoq Podshohxo‘ja sadr bila Buxorodin keldi. ... Buxoro elchisi Podshohxo‘jag‘a yana Berdi inoqni qo‘shub yubordi” [21]. Ikki o‘rtadagi tez-tez elchilar almashinuvi o‘zaro munosabatlarning ancha iliqlashganligidan dalolat beradi.

Buxoro – Xiva munosabatlarida hatto buxoroliklarni Xivaga qurol yetkazib berganliklarini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “Rajab oyining yigirma uchida [22] yakshanba kuni” Berdi inoq va Buxoro elchisi Alimuhammad chig‘atoybegi Amir Haydarning Xivaga yuborgan to‘p va shamxollarini olib keladi “Va sha’bon oyining to‘rtida [23] juma kuni Buxoro elchisig‘a ruxsat” beriladi [24].

Buxorodan yuborilgan keyingi elchilikka Orifxo‘ja boshchilik qilib, “izhori do‘stlig‘” qilib keladi. Ushbu elchilik Muhammad Rahimxon I tomonidan “rabi al-avval oyining avoilida [25]” qabul qilinib, elchiga shohona sarpolar kiydiriladi va unga Berdi inoqni qo‘shib Buxoroga jo‘natadi. Berdi inoq Buxoroga borgach, unga yana Buxoro elchisi qo‘shib Xivaga yuboriladi. Ushbu elchilik Xiva xoni tomonidan 1815-yilning 4-aprelida qabul qilinib, shu yilning 21-mayida Buxoroga ruxsat beriladi [26]. 1816-yilning 3-iyulida Qandim sardor Xivadan Buxoroga elchi bo‘lib kelgan bo‘lsa, shu yilning 4-avgustida Buxorodan “Nurmuhammadbek to‘qsovulboshi to‘q manqit Amir Haydarning ixlosnomasini” eltadi [27].

Shu tariqa ikki davlat o‘rtasidagi elchilik almashunuvlari, do‘stona munosabatlar 1821-yilgacha davom etadi. Bir necha yildan beri Amir Haydar orqali turkmanlar hujumini jilovlab turgan Muhammad Rahimxon I bu safar ham Berdi Inoqni “mashvarat” qilish uchun Buxoroga jo‘natadi. Amir Haydar elchini yaxshi kutib olib, unga turkmanlar talon-taroj qilib olib ketgan mollarni

qaytarishga “mutakaffil” bo‘lishini aytib, “Berdi Inoqni ta’zimi vofir va takrimi mutokosir bila qaytordi” [28].

Biroz vaqt o‘tib, Amir Haydar bergan va’dasining ustidan chiqmagach, Xiva xoni Buxoroga ikkinchi elchilikni yuboradi. Lekin ushbu elchilik ham natija bermagan.

Shu voqeadan so‘ng ikki o‘rtadagi munosabatlarga sovuqlik tushadi va Xiva xoni bir necha bor Marv turkmanlariga qarshi, Buxoroga qarshi bir necha bor yurishlar uyushtiradi. Xususan, 1821-yil xorazmliklar Marvga yurish qilganlarida Amir Haydarning buyrug‘i bilan Chorjo‘y hokimi Atoxonbek va Karimqulibeklar bir ming besh yuz kishilik qo‘shin bilan Xiva qo‘shiniga qarshi chiqadi va ularga talafot yetkazadi. Shunda xorazmliklar Atoxonbekka elchi yuborib, bu yurishdan avval Muhammad Rahimxon I Amir Haydar huzuriga elchi yuborganini, turkmanlar amirning aytganini qilmaganligini, shu maqsadda turkmanlardan intiqom olish uchun yurish qilinayotganligini tushuntirishga harchand urinishmasin, samara bermaydi va ikki o‘rtada to‘qnashuv sodir bo‘lib, “ko‘p kishini qatlg‘a yetkardilar”[29]. Bu holat ham o‘zaro do‘stlik munosabatlariga putur yetishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchi tarafdan, Qo‘qon xoni Umarxon (1810–1822 yy) taxtga chiqishi bilan alohida kuchga ega bo‘lgan davlat tuzish uchun Xiva xonligi bilan yaqinlashish siyosatini olib borib, bir necha marta elchilar jo‘natadi [30]. Xususan, “Shohnomai nusratpoyon” asaridagi ma’lumotlar tahliliga tayangan tadqiqotchi F.Otaxonov 1821-yili Qo‘qon xonligidan Xivaga elchi kelib, Umarxonning maktubini yetkazganligi, bunga javoban Muhammad Rahimxon I “Agar men tomonga marhamat nazarlari bilan ishora qilib, sarkashligi bila ma’lum bo‘lgan Buxoro podshohining ahvolini xarob qilishga amr qilsalar, agar Parvardigor o‘z lutfi karami bilan madadkor bo‘lsa, aminmanki, ularni tag-tubi bilan yulib tashlardim. Assalom attaqsir”, deb aytganligini qayd etadi [31]. Ushbu maktubning mazmun-mohiyatidan ikkala xonlik o‘rtasida Buxoro amirligiga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzilganligi anglashiladi.

Ushbu o‘ta muhim masalaga boshqa tadqiqotchilar ham e’tibor qaratishgan. Xossatan, marhum N.Polvonov ta’biriga ko‘ra, Umarxon Xiva xonining taklifini qabul qiladi va Xorazm elchilariga Abduxoliq qorovulbegini hamroh qilib sovg‘a-salomlar bilan Xivaga jo‘natadi. Bu esa, o‘z navbatida, Xiva va Qo‘qon xonlarining Buxoro amirligiga qarshi ittifoq tuzganligidan dalolat beradi [32]. Bu elchilik to‘g‘risida Buxoro yoki Xiva xonligiga oid boshqa manbalarda ma’lumotlar uchramasada, Xiva va Qo‘qon xonlarining bir vaqtning o‘zida Buxoroga qarshi harbiy harakatlar boshlab yuborishlari yuqoridagi ittifoqning amaliy natijasidan dalolat beradi [33].

“Firdavs ul-iqbol”da keltirilishicha, Buxoro va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar buzilgach, har oyda uch yoki to‘rt martalab xivaliklar Buxoroga talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Shu bilan birga Rossiyadan Buxoroga kelayotgan savdo karvonlariga ham hujum uyushtiradilar. Bularning barchasi oddiy xalqning tinkasini quritib, mamlakat mulkini “xarob va vayron” qiladi. Amir Haydar ushbu talonchiliklarni oldini olish maqsadida 1825-yilning mart oyida Muhammad Rahimxon I ga ikki o‘rtadagi “abad muddatning muxosimat va

muxolifatin tarkin tutib, muvofiqat va do‘stlig‘ izhor qilib, ajzu inkisor yuzidin ma’ziratnoma” [34] yuborgan. Ushbu maktubdan ko‘rinib turibdiki, Amir Haydar ikki o‘rtadagi dushmanlik kayfiyatidan har ikki tomon ham foyda qilmasligini tushunib yetib, do‘stlik rishtalarini bog‘lashni maqsad qilgan. Nafaqat maqsad qilgan, hatto Xiva xoni tobeligiga o‘tib, taxtdan voz kechishga ham tayyor ekanligini izhor etgan. Bu, albatta, sharqona diplomatiyaning nozik bir qirrasi ekanligini ikkala taraf ham chuqur his qilgan. Agar Muhammad Rahimxon I Buxoroni tasarruf etish maqsadida yurish qiladigan bo‘lsa, Amir Haydar yuqorida o‘zi yozganidek shaharni sira tark etmas, o‘rtada qonli urush bo‘lishi muqarrarligi hamda qaysi tarafning qo‘li baland kelishi oldindan ma’lum emasligini har ikkala taraf ham juda yaxshi tushunardi. Bunday tobelik ruhidagi ma’ziratnomadan maqsad Muhammad Rahimxon I ning ambitsiyasini qanoatlantirish va shu orqali talon-tarojga chek qo‘yish, raiyatning omonligiga erishishdan iborat edi.

Amir Haydarning maktubi Xivaga yetib kelgan vaqtda Muhammad Rahimxon I betob bo‘lib, 1825-yilning 8-mayida vafot etadi [35]. Bayoniy o‘zining “Xorazm tarixi” asarida “1240 (1825)-yili ramazon oyining 19-si shanba kuni Muhammad Rahimxon vafot qildi. Xonning o‘limini xalqqa bildirishdan oldin, uning o‘g‘li Olloquli xon qilib ko‘tarildi”, - deb yozadi [36]. Demak, mamlakatda yuz berishi mumkin bo‘lgan ayrim fitna va noroziliklarni oldini olish uchun xonning o‘limini xalqqa bildirishdan oldin yangi xon taxtga chiqarilgan. Aslida bu yagona hodisa bo‘lmasdan, Sharq mamlakatlariga xos an’ana bo‘lgan, demokratik davlat boshqaruvi shunchaki ko‘z-ko‘z uchun amal qilayotgan, aslida yakkaboshqaruvga asoslangan davlatlarda bu an’ana hozirga qadar amal qilib keladi. O‘rta asrlar davri va yangi davrning dastlabki asrlarida Yevropa ham shu yo‘ldan borgan, “Qirol o‘ldi, yashasin qirol!” degan aqida tasodifan yuzaga kelmagan.

“Riyoz ud-davla”da yozilishicha, Olloqulixon (1825-1842) taxtga o‘tirgach, Amir Haydarning “musolaha talabi bila yuborgan sulhnoma”sini olib kelgan Buxoro elchilari Sultonxo‘ja va Musobeklarni qabul qiladi. Ushbu elchilar Muhammad Rahimxon I ning vafoti vaqti kelgan edilar. Olloqulixon elchilarni iltifot bilan qabul qilib, “avotiri shohona va xilo’i baxshishi bila sarafroz qilib, ruxsat berdi” [37].

Muhammad Rizo Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asarida Xivaning Olloqulixon hukmronlik qilgan davri yoritilishi bilan bir qatorda qo‘shni xonliklar, xususan, Buxoro amirligi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.

Jumladan, Amir Nasrullo taxtga chiqqach, mavjud an’anaga ko‘ra atrofdagi davlatlarga “duo va salomlar” yo‘llab elchilar jo‘natadi. Manbada qayd etilishcha, bunga javoban Xivaga kelgan elchiga qo‘shib, Olloqulixon a’lam ul-ulamo Eshonxo‘ja mufti va Qorako‘z mahramlarni “ul viloyat hokimi Bahodirxong‘a inoyatnoma bila irsol qildi”. Ushbu elchilar Buxorodan qaytishda “mazkur bo‘lg‘on xonning duo va salomin yetkurdilar” [38].

XULOSA

Tadqiq etilayotgan davrda amirlikning Xiva xonligi bilan bo‘lgan munosabatlari ham ziddiyatli kechgan. Amir Haydar hukmronligi yillarida Buxoro

va Xiva xonliklari o‘rtasida ma’lum vaqt davom etgan sovuq aloqalarga chek qo‘yilib, o‘zaro diplomatik munosabatlar tiklandi. Bunga Amir Haydar o‘g‘lining to‘yi munosabati bilan Buxorodan Muhammad Rahimxon I saroyiga O‘roq boy miroxur va Avazmuhammad yasovulboshilarni elchi qilib yuborishi sabab bo‘lgan edi.

“Firdavs ul-iqbol”da keltirilishicha, Buxoro va Xiva xonligi o‘rtasidagi munosabatlar buzilgach, har oyda uch yoki to‘rt martalab xivaliklar Buxoroga talon-taroj yurishlarini amalga oshirgan. Shu bilan birga Rossiyadan Buxoroga kelayotgan savdo karvonlariga ham hujum uyushtirdilar. Bularning barchasi oddiy xalqning tinkasini quritib, mamalakat mulkini “xarob va vayron” qildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахту саодат жаннати) / Араб ёзувидан табдил этган, кириш ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, И.Бекчанов, Н.Полвонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 5.

2. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар / Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2003. – Б. 135.

3. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. II китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 158.

4. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 135-136.

5. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 223.

6. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 171-172.

7. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и Салатин-и Мангития (История мангитских государей). – М.: Изд-во Восточной литературы, 1962. – С. 53.

8. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 356-359.

9. Муҳаммадҳакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих ... – В.52-53.

10. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 54.

11. Мизо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 174.

12. Шермуҳаммад Авазбий Мироб ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 398-399.

13. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 222-223.

14. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. ... – Б. 408.

15. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар / Академик М. Хайруллаев умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2003. – Б. 333.

16. Мунировв Қ. Хоразмда тарихнавислик: (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – Б. 130.

17. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 268.

18. 1229-yil 3–5-rabi al-avval / 1814-yili 21-fevralida bu oy kirgan.

19. 1229-yil 25-rabi al-avval / 1814-yil 18-mart.
20. 1229-yil 27-rabi al-oxir / 1814-yil 20-mart.
21. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 410.
22. 1229-yil 23-rajab/ 1814-yil 11-iyul.
23. 1229-yil 4-sha’bon / 1814-yil 22-iyul.
24. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 288.
25. 1230-yil 5-rabi al-avval / 1815-yil 15-fevral.
26. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 289, 291.
27. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 421.
28. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 449.
29. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 322.
30. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир // Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б. 178.
31. Отахонов Ф. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасида 1821 йилда тузилган ҳарбий иттифоқ ва унинг оқибатлари («Шоҳномаи нусратпаён» маълумотлари таҳлили) // O’zbekiston tarixi. – Тошкент, 2012. – №.2. – Б. 26.
32. Ўша жойда.
33. Полвонов Н. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср) // Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2016. – Б. 180-181.
34. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 354.
35. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол ... – Б. 488.
36. Баёний Муҳаммад Юсуф. Хоразм тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 251-252. Бу ҳақда қаранг: Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. 1825–1842 йиллар («Риёз уд-давла» қўлёзма асари асосида): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, 2003. – Б 17.
37. Муҳаммад Ризо Мироб Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Риёзуд-давла // Асарлар. V жилд. Тарихий асарлардан парчалар / Нашрга тайёрловчи С.Долимов. Масъул муҳаррир Ғ.Каримов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б. 19-20.
38. Муҳаммад Ризо Мироб Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Ўша асар. – Б. 65.

Холикулов А.Б.
Заведующий кафедрой «Истории Узбекистана» профессор, д.и.н.
Национальный университет Узбекистана
a.kholikulov@nuu.uz

БУХАРСКО-ХИВИНСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ЭМИРА ХАЙДАРА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе местных источников и трудов историков освещаются вопросы посольских отношений между Бухарским эмиратом и Хивинским ханством, существовавшие между ними противоречия, возникновение охлаждения во взаимоотношениях сторон в связи с афганским принцем Махмудом, восстановление дипломатических связей в период правления эмира Хайдара по случаю свадьбы его сына, а также факты поставок оружия бухарцами в Хиву.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Хивинское ханство, посольские отношения, Эмир Шахмурад, Эмир Хайдар, Мухаммад Амин инак, Мухаммад Мирзо, Эрдонабий, Элтузархан, Мухаммад Рахимхан I.

Kholikulov A.B.
The head of department of «History of Uzbekistan» professor, DSc
National university of Uzbekistan
a.kholikulov@nuu.uz

DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF EMIR HAYDAR

ABSTRACT

This article, based on local sources and the works of historians, examines the diplomatic relations between the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate, the contradictions that existed between them, the deterioration of bilateral relations associated with the Afghan prince Mahmud, the restoration of diplomatic ties during the reign of Emir Haydar on the occasion of his son's wedding, as well as the supply of weapons to Khiva by the Bukharans.

Key words: Bukhara Emirate, Khiva Khanate, diplomatic relations, Emir Shahmurad, Emir Haydar, Muhammad Amin Inaq, Muhammad Mirza, Erdonabiy, Eltuzar Khan, Muhammad Rahim Khan I.

Холикулова Ш.Б.
«Тарих» кафедраси доценти, PhD
Навоий давлат университети
kholikulova_sh@mail.ru

ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Чирчиқ шаҳрида кимё саноати негизида шаклланган “кимёгарлар шаҳарчаси”нинг қурилиши, унинг ижтимоий-иқтисодий, демографик ва шаҳарсозлик хусусиятлари илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, шаҳар бош режаларининг босқичма-босқич ишлаб чиқилиши, саноат ва тураржой ҳудудларининг ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланиши ҳамда урбанизация жараёнлари таҳлил қилинган. Мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида эвакуация қилинган аҳоли ва корхоналар таъсирида шаҳар ривожланиш режаларида юзага келган ўзгаришлар ҳам кўрсатилган.

Калит сўзлар: Чирчиқ шаҳри, кимёгарлар шаҳарчаси, электрохимия комбинати, саноатлашув, урбанизация, ижтимоий инфратузилма, меҳнат ресурслари, Иккинчи жаҳон уруши, эвакуация, бош режа.

КИРИШ

Чирчиқ кимёгарлар шаҳарчасининг қурилиши ва ривожланиши мавзуси Ўзбекистонда саноатлашув, урбанизация ва шаҳарсозлик жараёнларини ўрганишда муҳим илмий аҳамиятга эга. Мазкур мавзу орқали саноат корхоналарининг барпо этилиши нафақат иқтисодий ўсишга, балки янги шаҳар муҳитини шакллантириш, аҳоли жойлашуви ва ижтимоий инфратузилманинг ривожланишига қандай таъсир кўрсатганини таҳлил қилиш имкони туғилади. Айниқса, Чирчиқ шаҳри мисолида кимё саноати ва шаҳарсозлик ўртасидаги узвий боғлиқлик, режали иқтисодиёт шароитида шаҳарларни ташкил этиш тамойиллари ҳамда уларнинг амалда қандай натижа бергани яққол намоён бўлади.

Мазкур мақолани тайёрлашда тарихийлик, холислик ва тизимли таҳлил тамойилларига асосланган ҳолда илмий тадқиқот методларидан фойдаланилди. Аввало, тарихий-генетик усул орқали Чирчиқ шаҳрининг шаклланиши ва ривожланиши босқичма-босқич таҳлил қилинди. Бу усул шаҳар қурилиши жараёнининг сабаб ва оқибатларини аниқлаш имконини берди. Манба сифатида асосан Ўзбекистон миллий архиви материаллари, шаҳар қурилишига оид лойиҳа ҳужжатлари, совет давридаги расмий статистик маълумотлар, илмий-тадқиқот ишлари ва тарихий адабиётлардан фойдаланилди. Шунингдек, кимё саноати ва шаҳарсозликка оид илмий мақолалар, монографиялар ҳамда меъморий режалар тадқиқотнинг муҳим манба базасини ташкил этди. Ушбу методик ёндашувлар ва манбалар мажмуаси тадқиқотнинг илмий асосланганлиги, ишончлилиги ва холислигини таъминлашга хизмат қилди.

ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ

Кимё саноатининг ривожланиши аҳоли демографияси, ижтимоий-маданий ҳаёти ва урбанизациялашувида ўз тъсирини ўтказди. Албатта маълум корхонанинг барпо этилишида унда фаолият олиб борадиган асосий капитал ҳисобланган кадрларга яратилган қулайлик ва шароитлар шаҳарлар бош лойиҳасига киритилган[1].

Бунга мисол қилиб, республиканинг тўнғич кимё корхонаси ҳисобланган Чирчиқ электрохимия корхонасини айтишимиз мумкин. Ўзбекистон миллий архиви фондларида алоҳида бир рўйхат шаҳар қурилишига бағишланган экан.

Шаҳарни қуриш учун шароитларни қуйидаги уч омилга боғлайди: Энергетика манбалари ГЭС №2 ва ГЭС №1 (Ниёзбек ва Троицкая станция); Асосий саноат корхонаси Электрохимия комбинати; Транспорт воситалари темир йўл, автомобиль, сув транспорти ва ҳаво транспорти. Комбинат қурилиши биринчи навбатида ушбу корхоналарда ишлайдиган ишчилар, муҳандис-техник ходимлар ва хизматчилар сони 2500 киши деб белгиланган. Комбинатнинг кейинги босқичда ривожланиши натижасида ишчилар сони 5000 нафарга етиши кўзда тутилган. Ижтимоий-маиший муассасаларда хизмат кўрсатадиган ходимлар сони ва оилалар таркибини ҳисобга олган ҳолда, шаҳарнинг умумий аҳолиси биринчи навбатда 9000 нафарни, иккинчи навбатда эса 25000 нафарни ташкил қилиши режалаштирилган[2.109].

Чирчиқ Ўзбекистондаги илк социалистик шаҳарлардан бири бўлиб, у Чирчиқ ГЭСлари каскади ва Электрохимия комбинати қурилиши билан бирга ривожланди. 1934 йилда ташкил этилган бу шаҳар Юқори Соцгород, Қуйи Соцгород, Бозсу, Қуйи Комсомол маҳалласи каби ишчи посёлкаларни бирлаштирган. Шаҳар Тошкентнинг шимолида жойлашган[3].

Шаҳар учун танланган жой ва умумий шароитлар: Шаҳарча Тошкентдан 25 километр узоқликда жойлашган. Шаҳар жойлашуви Ниёзбекдаги ГЭС №1 ва азот заводи ўртасида, йўлдан 2-3 километр ичкида жойлашган[1].

Чирчиқ ҳудудидаги саноат шаҳрининг жойлашуви ва режаси: Наркомтяжпром (Оғир саноат халқ комиссариати), Ўзбекистон ССР Паркомздрав (Соғлиқни сақлаш халқ комиссариати) ва «Чирчиқстрой» бошқармаси томонидан социалистик шаҳарнинг жойлашиши Чирчиқ дарёсининг поймасидан 70 метр баландликдаги тепалик қисмида белгилаб олинган. Бу ерда аҳоли уйлари, ижтимоий-маиший ва маданий иншоотлар жойлашади, пастлик (долина) қисмда эса ёрдамчи корхоналар бўлади. Қияликлар ва жарлар мавжудлиги туфайли бутун шаҳарни гўзал ландшафтли шаклда безатиш имконияти мавжуд[2]. Шаҳар жадал суръатларда ўсиб борди ҳар йили янги кварталлар, микроҳудудлар барпо этилди, аҳоли сони ортиб борди. Агар 1939 йилда Чирчикда 14,9 минг киши яшаган бўлса, 1959 йилда бу кўрсаткич 66 мингга етган, 1970 йилга келиб эса шаҳарда 108 минг нафар аҳоли яшаган. Бу ерда 50 дан ортиқ миллат истиқомат қилди. Шаҳарнинг илк режалаштириш лойиҳаси 1933-1936 йилларда Москвадаги «Гидростройпроект» институти томонидан ишлаб чиқилган (меъморлар Г. Орлов, П. Тараканов, В. Лавров ва бошқалар, академик В. Веснин маслаҳати

билан). Бу лойиҳа 1947 йилгача шаҳарнинг қурилиш ва режалаштириш ишларига асос бўлиб хизмат қилган. 1947 йилда А. Лихолётов томонидан тузилган Чирчикнинг янги бош режаси схемасида Иккинчи жаҳон уруши даврида ва ундан кейинги ўзгаришлар инобатга олинган. 1952 йилда «Узгоспроект» институти (меъморлар П. Дуда-Дудинский, Ф. Долгов, Ю. Булычева ва бошқалар) томонидан ишлаб чиқилган янги бош режада режада шаҳарнинг ҳисобий аҳолиси 72 минг киши этиб белгиланган ҳамда асосан икки қаватли бинолар қурилиши (55%) кўзда тутилган эди. Кейинчалик Чирчик шаҳри «Узгоспроект» институти (меъморлар П. Дуда-Дудинский, Л. Золотухина, Н. Фокина иштирокида, бош муҳандис Т. Зияев) томонидан ишлаб чиқилган шаҳар режалаштириш лойиҳаси асосида барпо этилди. Бу лойиҳа 1967 йилда тасдиқланган шаҳарни ривожлантиришнинг техник-иқтисодий асосларига мувофиқ амалга оширилди. Бу режага кўра, 1985 йилга келиб шаҳар аҳолиси сони 140 минг кишига етказилиши режалаштирилган. Ҳар бир шахс учун уй-жой майдони меъёри 15 м² этиб белгиланган[2.110-111]. Шамоллар асосан социалистик шаҳар томондан завод томонга қараб эсади. Завод билан шаҳар орасида шамолдан муҳофазалайдиган ҳимоя зоналари мўлжалланган. Бу ҳимоя йўлаклари ёки белгиланган йўналиш бўйлаб тўсиб қўйилади[3].

Ижтимоий-маиший иншоотлар: Ёлғизлар ва фарзандсиз оилалар учун; Ётоқхоналар; Спорт зали; Дам олиш ва маданий хурсандчилик учун хоналар; Бир нечта қаватли бинолар, 2–3 хонадан иборат хонадонлар, 4 қаватли биноларда жойлаштирилади. Ҳар бир хонадонда ошхона, ётоқхона, омборхона, меҳмонхона, терасса ва балконлар бўлади. Шунингдек, тўлиқ ва қулай ҳаёт учун барча зарурий шароитлар (ижтимоий-маиший инфратузилма) кўзда тутилган. Оилавий турар жойлар сони, умумий аҳолининг 10% гача бўлган миқдорда қурилди[4].

Шаҳар қурилиши қиймати – қуйидаги ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда: 1 кубометр қурилиш ҳажми учун нарх – 35 рубл. Бу суммага махсус ускуналар, сув таъминоти, канализация, ирригация, йўллар, ёритиш тизими ва бошқа инфратузилмалар ҳам киради. Жами қиймат: Биринчи навбат қурилиши учун – 60 миллион рубл. Умумий (тўлиқ) қиймат: 130 миллион рубл[5].

Уруш йилларида комбинат жамоаси асосан ёшлардан иборат бўлиб, жамоанинг ўртача ёши тахминан 23 ёшни ташкил этган. Уруш тугагач ва комбинатда иш фаолияти нормаллашиши билан, ёшлар спорт ва маданий ҳордиқ чиқаришга қизиқиш билдира бошладилар. Урушнинг оғир йилларида материаллар, ускуналар, инвентарь, мураббийлар ва спорт базаси етишмас эди, шунингдек, бўш вақт ҳам бўлмасди ишчилар икки сменада ва ундан ҳам кўпроқ ишлашга мажбур эдилар. Спорт базасини ривожлантириш учун тегишли ер участкалар ажратилди. Бир вақтнинг ўзида, 1964 йили, комбинатнинг биринчи футбол жамоаси ташкил этилди. 1946 йил 9 май Ғалаба кунида спорт комплекснинг шартли очилиши бўлиб ўтди[7.90].

Ишчи ходимларини жойлаштириш учун уй-жойлар саноат иншоотларига яқинроқ қурилди. Шундай қилиб бош сув узатиш қурилмалари яқинида,

ҳозирги Бўстонлиқ тумани маркази саналувчи Ғазалкент қишлоғи пайдо бўлди. Чорвоқ сув омбори ва унинг гидростанцияси яқинида эса – эски Хумсан қишлоғи ўрнида янги замонавий Хумсан шаҳарчаси**,** шунингдек, Товоқсой ва Комсомолск шаҳарчалари барпо этилди. Химия комбинати ишчи ходимлари учун уй-жойлар, санитария ҳимоя масофалари ҳисобга олинган ҳолда, шаҳарнинг бош режасига мувофиқ, Зах (ёки НДК) канали юқори қисмидаги “Юқори Соцгород” деб аталадиган ҳудудда жойлаштирилди. Биринчи бўлиб 300 ўринли меҳмонхона биноси қурилди. У дастлаб “Чирчикстрой” бошқармаси учун маъмурий бинодан ҳам фойдаланилди. Кейинчалик бу бинода индустриал техникум жойлашган. Ушбу ҳудудда 1938 йилда тўрт қаватли 512-сонли уй (ҳозирги 20-уй) қурилди ва у химия комбинати қурувчилари ва ишчиларини қабул қилди. 1939 йилда 511-сонли уй (ҳозирги 22-уй) битказилди, 1940 йилда эса 462-сонли уй барпо этилди. Бу уйнинг биринчи қаватида Юқори Соцгород аҳолиси учун махсус тикиш устахонаси ташкил этилган. Кейинчалик, 1949 йилда, айнан шу устахона асосида “Ғунча” болалар кийимига ихтисослашган тикув фабрикаси ташкил этилди[2.92]. 50-йиллардаёқ шаҳар ҳудудини тартибли зоналаштириш ва унинг меъморий ансамблини яхлит ҳолда шакллантириш бўйича ҳаракатлар қилинган эди. Меъморий жиҳатдан энг мукаммал кўча – Ленин кўчаси эди. Иккинчи жаҳон уруши тугагандан сўнг, республикада янги турдаги серияли тураржой бинолар биринчи марта айнан шу кўчада қурила бошланган. Террасалар, лоджиялар ва қуёшдан ҳимоя қилувчи қурилмалар 210-серияли икки қаватли уйларнинг архитектуравий қиёфасини белгилаб берган (меъмор И. Рачинская, муҳандис В. Озеров)[2.112]. Уй-жойлар билан бирга, шаҳар касалхонаси**,** 3-сонли мактаб ва бошқа ижтимоий иншоотларнинг қурилиши ҳам бошланган эди. 70 минг киши учун мўлжалланган шаҳар айнан шу юқори терассада барпо этилиши режалаштирилган эди. Химия комбинатидаги раҳбарлар ва Ишчи чи ходимлар учун, кимё саноати қурилиш меъёрларига асосан**,** комбинатга яқинроқ жойда фавқулодда маъмурий шаҳарча қурилди. Бу шаҳарча 6 та уч қаватли уйдан ва №8 болалар боғчасидан иборат эди. Илк лойиҳаларга кўра, Чирчиқ шаҳрида асосий саноат объектлари сифатида иккита ГЭС станцияси ва электрохимия комбинати режалаштирилган эди. Шаҳар айнан шу комбинат ва станцияларда ишловчи мутахассислар ҳамда уларнинг оилалари учун қурилаётган эди. Шунинг учун шаҳарнинг асосий қурувчиси электрохимия комбинати ҳисобланган[7.94].

Бироқ, уруш бошланиши вазиятни кескин ўзгартирди. Шаҳарга эвакуация қилинган заводлар ва уларнинг ишчилари оилалари билан кела бошлади**.** Улар учун тезда жой тайёрлаш ва заводларни ишга тушириш зарурати туғилди. Бу эса, шаҳар ривожланишининг илк режасини бажариш имконини чеклади. Юқори терассадаги қурилишлар яримтугал қолди**, у** ер битказилмади. Эътибор қуйи терассага яъни, саноат ва хўжалик объектлари учун мўлжалланган ҳудудга қаратилди. Аммо уруш давомида бу ҳудудда тураржой ва маъмурий бинолар қурилиб кетди**.** Комбинат қурилиши билан шаҳар Троицк қишлоғидан то Аранчигача бўлган бир чизиқ бўйлаб чўзилди

[6.6]. Индивидуал лойиҳалар асосида қурилган бинолардан меъмор А. Файнлейб томонидан лойиҳалаштирилган уйлар эътиборга лойиқ[2.112]. 1956 йилда 915 оила комбинат ишчилари квартира олди, шундан 360 таси янги уйларда ва шу йилда 20 гектар майдонда олма боғи барпо этилди[8.7].

1960 йилда комбинат ривожланиши ва 25-сонли ишлаб чиқариш қурилиши муносабати билан Бозсув станцияси яқинидаги ҳудуд ҳамда Вокзал кўчасининг чап томонини бўшатишга тўғри келди. Бу ердаги эски уйлар, бараклар ва савдо шохобчалари бузиб ташланди. Бу ҳудуд аҳолисини жойлаштириш учун 3, 4 ва 8-микроҳудудлар қурилди. Шунингдек, Чирчиқнинг ипподром ҳудудида, сув тақсимловчи пастки нуқтада ходимлар учун иш жойи ва турар жойлар қурилди. Троицкда, канал соҳилида “Роҳат” ресторани барпо этилди. 1972 йилда “Октябрь” кинотеатри қурилди. 1983 йилга келиб, комбинатдаги барча бараклар тўлиқ йўқ қилинди ва капролактам ишлаб чиқариш майдончаси яқинида санитария ва ҳимоя зонаси ташкил этилди. Шу тариқа, аввалги режа бўйича 70 минг аҳолига мўлжалланган Чирчиқ шаҳрида 1959 йилда 14730 киши истиқомат қилар эди[7.94]. Чирчик марказининг архитектурасида ансамбль тартибидаги қурилиш устувор аҳамият касб этди. Бу ерда Навоий номидаги кинотеатр (меъмор А. Бабаханов) муҳим ўрин тутади. Кинотеатрнинг асосий фасади Юқори терраса томон йўналтирилган бўлиб, шаҳар марказининг бош композицион ўқида Пионерлар саройи (меъмор С. Розенблюм) ва Кимёвий моддалар ишлаб чиқарувчилар маданият саройи (меъмор А. Петросов) жойлашган. Юқори терраса Қуйи кўприк билан боғланган[2.113].

Комбинат ишчилари дам олишини ташкил этиш масаласига завод қўмитаси ҳали комбинат ишга тушмаган пайтдаёқ эътибор қарата бошлаган эди. “Оқтош” санаториясига ишчилар сменалар бўйича икки кунлик гуруҳли саёҳатларга юборилар эди. 1960-йилларда сув таъминоти цехига тегишли сув қабул қилиш иншооти (Зах канали соҳилида) яқинида, 150 ўринли профилакторий биноси қурилди. 1958 йилда, геологик қидирув ишлари ниҳоясига етиб, Акташ ҳудудидаги геологлар билан уй-жой ва қўшимча иншоотлар сотиб олинди. Болалар дам олишини ташкил этиш учун бу ҳудудда доимий фаолият қиладиган 500 ўринли Болалар лагери ташкил этилган, кейинчалик унинг имкониятлари кенгайтирилиб, 600 ўрингача етказилган[2.98].

1960 йилда Пионерлар саройи, 1970-йилларда эса хокимият бинолари қурилди. Ушбу иншоотлар шаҳар марказининг каскад ансамблини яратади. Эски 1939 йилда қурилган ҳаво қабул станцияси аниқ яшаш ҳудудида қолиб кетгани боис фойдаланишдан олиб ташланди. Бу иншоот ўрнига 500 ўринли поликлиника қурилди. Кейинчалик у шаҳар бош соғлиқни сақлаш бошқармасига топширилди ва 1970-йилларда шахар саноат корхоналари учун поликлиника сифатида ташкил этилди. 1960-йиллар охирида Троицк касалхонаси таркибида онкология бўлими қурилди, 1970-йилларда эса янги, 9-микрорайонда 250 ўринли касалхона ва 500 ўринли поликлиника қурилиши бошланди. Бу касалхона 380 ўринли хонагача кенгайтирилиб, 1985 йилда тугалланди[2.95].

1961 йилдан бошлаб Чирчиқдаги барча саноат корхоналари, маъмурий бинолар, хизмат кўрсатиш муассасалари, ўқув юртлари ва минглаб ишчи хонадонлар газ билан таъминланган[2.115].

ХУЛОСА

Мақолада Чирчиқ шаҳри мисолида кимё саноати ва шаҳарсозлик жараёнларининг ўзаро узвий боғлиқлиги илмий асосда ёритиб берилган. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, саноат корхоналари, айниқса электрохимия комбинати қурилиши нафақат иқтисодий ривожланишга, балки янги шаҳар муҳитини шакллантириш, аҳоли жойлашуви ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантиришга ҳам кучли туртки берган.

Шу билан бирга, шаҳар қурилиши режали тарзда амалга оширилган бўлса-да, Иккинчи жаҳон уруши ва эвакуация жараёнлари унинг дастлабки режаларига жиддий ўзгаришлар киритгани, айрим ҳолларда санитария ва шаҳарсозлик талабларининг бузилишига олиб келгани кузатилади.

Холис баҳолаш нуқтаи назаридан, Чирчиқ шаҳри ривожи саноатлашувнинг ижобий натижалари иш ўринлари яратилиши, илмий-техник тараққиёт, ижтимоий ва маданий ҳаётнинг шаклланиши билан бир қаторда, тартибсиз қурилиш, экологик ва ҳудудий мувозанат муаммоларини ҳам келтириб чиқарган.

Умуман олганда, Чирчиқ кимёгарлар шаҳарчаси тажрибаси Ўзбекистонда саноат ва шаҳар ривожи интеграциясининг муҳим тарихи намунаси бўлиб, у келгусидаги шаҳарсозлик ва саноат сиёсати учун ҳам илмий-амалий аҳамиятга эга.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. ЎзМА, 837-фонд, 1036-рўйхат, 32-иш, 1-варақ

2. Кадырова Т. Бабиевский К. Турсунов Ф. Архитектура советского Узбекистана. –Москва. издательство литературы по строительству. –С. 109. (133бет)

3. ЎзМА, 837-фонд, 1036-рўйхат, 32-иш, 2-варақ

4. ЎзМА, 837-фонд, 1036-рўйхат, 32-иш, 3-варақ

5. ЎзМА, 837-фонд, 1036-рўйхат, 32-иш, 5-варақ

6. Левик О. Это останется навсегда. –Ташкент. «Узбекистан». 1991.

7. Кадыров В. Становление химии в Республике Узбекистон. – Ташкент.1995. – С. 90.

8. Шистер Г. Повышение культурно-технического уровня рабочих Чирчикского электрохимического комбината. – Ташкент: 1957 г. – Ст 7.

Холикулова Ш.Б.
PhD., доцент кафедры «Истории»
Навоийский государственный университет
kholikulova_sh@mail.ru

СТРОИТЕЛЬСТВО ХИМИЧЕСКОГО ГОРОДКА ЧИРЧИКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне проанализировано формирование и развитие «городка химиков» в городе Чирчик, возникшего на базе химической промышленности. Особое внимание уделено социально-экономическим, демографическим и градостроительным особенностям данного процесса. Также подробно рассмотрены этапы разработки генеральных планов города, взаимосвязанное развитие промышленных и жилых зон, а также особенности урбанизационных процессов. В статье освещается влияние эвакуации населения и промышленных предприятий в годы Второй мировой войны на изменение первоначальных планов развития города, а также анализируются трансформации, произошедшие в структуре городской среды под воздействием данных факторов.

Ключевые слова: город Чирчик, городок химиков, электрохимический комбинат, индустриализация, урбанизация, социальная инфраструктура, трудовые ресурсы, Вторая мировая война, эвакуация, генеральный план.

Kholikulova Sh.B.
PhD., associate professor at the department of «History»
Navoi State University
kholikulova_sh@mail.ru

CONSTRUCTION OF THE CHEMICAL WORKERS' TOWN OF CHIRCHIK

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the formation and development of the "chemical workers' town" in the city of Chirchik, which emerged on the basis of the chemical industry. Particular attention is paid to the socio-economic, demographic, and urban planning characteristics of this process. The study also examines in detail the step-by-step development of the city's master plans, the interrelated growth of industrial and residential areas, and the features of urbanization processes. The article further highlights the impact of the evacuation of population and industrial enterprises during World War II on the transformation of the city's development plans. It analyzes the changes that occurred in the urban structure under the influence of these historical factors.

Key words: Chirchik city, chemical workers' town, electrochemical plant, industrialization, urbanization, social infrastructure, labor resources, World War II, evacuation, master plan.

Юлдашева Ш.Ю.
Магистрант 2 курса кафедры «Всемирная история»
Национальный Университет Узбекистана
yu.shohsanam95@gmail.com

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена комплексному изучению основных этапов развития парламентских связей Узбекистана и Турции в период с 2017 по 2026 гг. Актуальность исследования обусловлена тем, что в указанный период парламентская дипломатия превратилась из формального признака межгосударственных связей в действенный инструмент реализации внешней политики и защиты национальных интересов. Подробно исследуется качественный переход в отношениях: от первоначального возобновления политического доверия до выхода на уровень всеобъемлющего стратегического партнерства. В статье подробно анализируется нормативно-правовая база сотрудничества, включая Постановление «Об утверждении Концепции парламентской дипломатии Республики Узбекистан», которое стало основой для систематизации деятельности законодательных органов.

На основе глубокого изучения официальных документов (включая постановления Олий Мажлиса и законы о ратификации двусторонних соглашений), в статье выделены и охарактеризованы три исторических этапа эволюции связей. Особый акцент сделан на механизмах практического взаимодействия: работе межпарламентских групп дружбы, деятельности профильных комитетов по мониторингу «дорожных карт» и сотрудничеству в рамках многосторонних структур, таких как ТюркПА.

Ключевые слова: Парламентская дипломатия, Узбекистан, Турция, стратегическое партнерство, Концепция парламентской дипломатии, Олий Мажлис, Великое национальное собрание Турции, этапы сотрудничества, институциональные механизмы.

ВВЕДЕНИЕ

Сегодня Узбекистан переживает этап глубокого обновления. В рамках стратегии “Нового Узбекистана” страна стала гораздо активнее и смелее проявлять себя на мировой арене. Одной из самых актуальных особенностей этого процесса стало то, что парламент- Олий Маджлис- перестал быть просто органом, принимающим законы внутри страны. Сегодня депутаты стали реальными участниками дипломатического процесса, представляя интересы республики за рубежом. Официальным подтверждением этого стало принятие Постановления “Об утверждении Концепции парламентской дипломатии Республики Узбекистан” в сентябре 2020 года (№ 481-IV). Согласному данному постановлению были определены задачи: не только

укреплять имидж страны, но и контролировать, как исполняются международные соглашения[1].

На этом фоне отношения Республики Узбекистан с Турецкой Республикой выглядят наиболее показательными. Турецкая Республика для нас — это не просто важный экономический партнёр, а стратегический союзник, с которым нас связывают общая история и культура. За период с 2017 по 2026 год мы видим, как эти связи переросли в полноценное партнёрство. Парламентская дипломатия здесь выступила своего рода мостом между двумя государствами, создавая условия для реального сближения.

ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В последние десятилетия широкое распространение во всем мире межпарламентского сотрудничества дало толчок возникновению и развитию новой сферы, получившей название парламентской дипломатии[2]. Узбекистан в последние годы взял курс на активизацию парламентской дипломатии, рассматривая ее как важный инструмент внешней политики в русле концепции «Новый Узбекистан». В обновленной Конституции Республики Узбекистан прямо закреплена миролюбивость внешней политики страны, её ориентированность на всестороннее развитие двусторонних и многосторонних связей с иностранными государствами и международными организациями. Такая конституционная норма отражает политическую волю руководства страны усилить международное сотрудничество, по всевозможным направлениям, в том числе по линии парламентов, для укрепления доверия и взаимовыгодных отношений со всем миром.

На сегоднящний день Палаты Олий Мажлиса заключили официальные соглашения о межпарламентском сотрудничестве со многими государствами, среди которых также можно упомянуть Турецкую Республику.

Стоит отметить, что анализ развития парламентских связей между Узбекистаном и Турцией в 2017-2026 годах состоит из трех этапа [3]. Первый этап (2017-2019 гг.) связан с “ перезагрузкой ” двухсторонних отношений восстановлением активного политического диалога. Ключевым нормативным основанием выступило Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3363 от 30 октября 2027 г. [4]. Данный документ обозначил переход к активизации международного сотрудничества и расширению политических контактов с зарубежными государствами, включая Турцию. В этот период парламентская дипломатия выполняла в основном восстановительную функцию, направленную на укрепление доверия между сторонами. Одним из первых практических проявлений активизации парламентской дипломатии стал визит турецкой парламентской делегации в Ташкент в марте 2018 года. В ходе переговоров между представителями Олий Мажлиса и Великого Национального Собрания Турции во главе с председателем межпарламентской группы дружбы “Турция - Узбекистан” Хайдаром Али Йылдызом обсуждались вопросы укрепления межпарламентского сотрудничества и расширения политического диалога [5]. Кроме этого, Существенное значение для развития парламентской дипломатии имело

выступление Президента Турции Реджепа Тайипа Эрдогана в Олий Мажлисе Республики Узбекистан в апреле 2018 года, где подчёркивалась необходимость дальнейшего углубления межпарламентского взаимодействия [6]. В 2019 году стороны продолжили активный политический диалог. В ходе встречи в Анкаре обсуждались перспективы расширения межпарламентского сотрудничества и совершенствования законодательной базы двусторонних отношений [7].

Следующий этап связан с углублением институциональных механизмов парламентского взаимодействия (2020-2022). Важную роль сыграло Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4841 от 25 сентября 2020 года, направленное на расширение стратегического партнёрства [8]. В этот период парламентские связи приобретают устойчивый характер: усиливается работа профильных комитетов, расширяются межпарламентские группы, увеличивается количество совместных заседаний и форумов.

Таким образом, данный этап можно охарактеризовать как переход от контактов к устойчивой институциональной системе взаимодействия.

Наконец, третий этап: стратегическое партнёрство нового уровня (2023–2026). Это означает, что отношения между Узбекистаном и Турцией вышли уже не просто на уровень сотрудничества, а на уровень долгосрочного стратегического партнёрства. Если раньше основное внимание уделялось восстановлению политического диалога и укреплению контактов, то в 2023–2026 годах взаимодействие стало более глубоким и охватило практически все сферы — от экономики и образования до парламентской дипломатии и региональной интеграции.

В марте 2023 года председатель Сената Олий Мажлиса Танзила Нарбаева провела телефонный разговор с председателем Великого Национального Собрания Турции Мустафой Шентопом, в ходе которого обсуждались перспективы развития межпарламентского сотрудничества [9]. В результате стороны подтвердили готовность к дальнейшему углублению парламентского диалога и координации действий в рамках межпарламентских платформ, что зафиксировало продолжение ранее достигнутых договорённостей в формате рабочих политических консультаций. В июле 2023 года состоялась встреча Танзилы Нарбаевой с делегацией парламента Турции во главе с Фуатом Октаем. Основное внимание было уделено вопросам укрепления стратегического партнёрства и расширения межпарламентских связей [10]. По итогам встречи были согласованы практические меры по активизации деятельности парламентских групп дружбы, расширению взаимодействия профильных комитетов, а также утверждён ориентировочный план дальнейших межпарламентских контактов в формате рабочих протокольных договорённостей. В ноябре 2023 года представители парламента Турции приняли участие во Втором глобальном форуме по межпарламентскому сотрудничеству, прошедшем в Ташкенте. Итогом мероприятия стало принятие совместной парламентской декларации, направленной на укрепление роли законодательных органов в достижении целей устойчивого

развития, а также на расширение международного парламентского взаимодействия в многостороннем формате.

В мае 2024 года спикер Законодательной палаты Олий Мажлиса Нуриддин Исмоилов встретился с председателем Великого Национального Собрания Турции Нуманом Куртулмушем. Стороны обсудили дальнейшее развитие межпарламентского взаимодействия. По итогам встречи был подтверждён курс на институционализацию парламентских связей, включая регулярные консультации, обмен законодательным опытом и расширение сотрудничества в рамках парламентских комитетов, что было закреплено в формате протокольного соглашения о развитии межпарламентского сотрудничества. В том же месяце председатель Сената Танзила Нарбаева провела встречу с Нуманом Куртулмушем, где подчёркивалась важность парламентской дипломатии в укреплении узбекско-турецких отношений [11]. Результатом стало согласование дальнейших шагов по углублению стратегического парламентского партнёрства, включая регулярные визиты, расширение межпарламентских групп дружбы и координацию позиций в международных парламентских организациях, оформленных в виде совместного заявления сторон.

В 2026 году межпарламентские связи были отмечены в контексте 34-летия дипломатических отношений между Узбекистаном и Турцией. В официальных заявлениях подчёркивалось, что межпарламентский диалог стал устойчивым элементом стратегического партнёрства и играет важную роль в координации политических и экономических инициатив двух стран [12]. В рамках данного этапа было подтверждено дальнейшее развитие парламентской дипломатии как постоянного механизма взаимодействия, а также закреплено намерение сторон усиливать координацию в рамках международных парламентских структур.

И так, в перспективе ожидается усилить роль парламентов в рамках тюркской интеграции, развивать цифровую парламентскую дипломатию и также расширить молодежную парламентскую программу.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Подводя итог, можно сказать, что межпарламентские связи Узбекистана и Турции в период 2017–2026 годов прошли заметную эволюцию — от восстановления контактов до устойчивого стратегического взаимодействия. Если в начале основное внимание уделялось возобновлению диалога и установлению доверия, то в последующие годы сотрудничество стало более системным и ориентированным. На мой взгляд, особенно важно то, что парламентская дипломатия перестала быть формальной частью внешней политики и постепенно превратилась в реальный инструмент влияния на развитие двусторонних отношений. Через регулярные встречи, форумы и совместные заявления парламенты двух стран фактически участвуют в формировании общего политического курса. Также можно отметить, что на современном этапе взаимодействие уже выходит за рамки просто политического диалога. Оно затрагивает более широкие сферы — экономику,

образование, гуманитарные связи и международное сотрудничество. Это показывает, что отношения между Узбекистаном и Турцией имеют долгосрочный характер и устойчивую динамику развития.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

1. Концепция парламентской дипломатии Республики Узбекистан, утверждённая постановлением Кенгаша Законодательной палаты и Кенгаша Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 25 сентября 2020г. № 481-IV/ПК-132-IV [Электронный ресурс]. –Режим доступа: https://lex.uz/ru/docs/5293122

2. Weisglas W. Frans, Boer de Gonnie. Parliamentary Diplomacy. // The Hague Journal of Diplomacy. No2, 2007. –Pp. 93-94.

3. Komilova N. A New Stage of Cooperation Between Uzbekistan and Turkey // Web of Teachers. — 2024. — Vol. 2, №11. — P. 78–81.

4. UzDaily. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Спикери Туркия делегациясини қабул қилди. 05.03.2018.

5. The negotiations promise to be fruitful. https:// president.uz/en/lists/view/1678

6. Uzbekistan invites Turkish Grand National Assembly representatives to participate as observers in the upcoming elections to Oliy Majlis https://kun.uz/en/71595021

7. Lex.uz: ПП-3363 (30.10.2017), ПП-4841 (25.09.2020) // https://lex.uz

8. Lex.uz: ПП-3363 (30.10.2017), ПП-4841 (25.09.2020) // https://lex.uz

9. The Chairman of the Senate had a telephone conversation with the Chairman of the Grand National Assembly of Turkey https://yuz.uz/en/news/sostoyalsya-telefonny-razgovor-predsedatelya-senata-s-predsedatelem-velikogo-natsionalnogo-sobraniya-turtsii.

10. Uzbekistan and Türkiye: consistency and stability of inter-parliamentary relations will be ensured - UzDaily.uz https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-and-turkiye-consistency-and-stability-of-inter-parliamentary-relations-will-be-ensured

11. Uzbekistan and Türkiye to take inter-parliamentary relations to a new level- UzDaily.uz https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-and-turkiye-to-take-inter-parliamentary-relations-to-a-new-level.

12. Cooperation between the parliaments of Uzbekistan and Turkey will develop at a new stage https://yuz.uz/en/news/sotrudnichestvo-parlamentov-uzbekistana-i-turtsii-budet-razvivatsya-na-novom-etape

Yuldasheva Sh.Yu.
«Jahon tarixi» kafedrasi 2 kurs magistranti
O‘zbekiston Milliy Universiteti
yu.shohsanam95@gmail.com

2017-2026 YILLARDA O‘ZBEKISTON VA TURKIYA PARLAMENTLARARO ALOQALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola 2017-2026-yillarda O‘zbekiston va Turkiya parlament aloqalarining rivojlanishining asosiy bosqichlarini kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ko‘rsatilgan davrda parlament diplomatiyasi davlatlararo aloqalarning rasmiy belgisidan tashqi siyosatni amalga oshirish va milliy manfaatlarni himoya qilishning samarali vositasiga aylandi. Munosabatlardagi sifat o‘zgarishi: siyosiy ishonchning dastlabki tiklanishidan tortib, keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga chiqishigacha batafsil o‘rganiladi. Maqolada hamkorlikning me’yoriy-huquqiy bazasi, jumladan, qonun chiqaruvchi organlar faoliyatini tizimlashtirish uchun asos bo‘lgan "O‘zbekiston Respublikasi parlament diplomatiyasi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qaror batafsil tahlil qilingan.

Rasmiy hujjatlarni (jumladan, Oliy Majlis qarorlari va ikki tomonlama kelishuvlarni ratifikatsiya qilish haqidagi qonunlarni) chuqur o‘rganish asosida maqolada aloqalar evolyutsiyasining uchta tarixiy bosqichi ajratib ko‘rsatilgan va tavsiflangan. Amaliy hamkorlik mexanizmlariga alohida e’tibor qaratildi: parlamentlararo do‘stlik guruhlari faoliyati, "yo‘l xaritalari"ni monitoring qilish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan qo‘mitalar faoliyati va TurkiyPA kabi ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik.

Kalit so‘zlar: Parlament diplomatiyasi, O‘zbekiston, Turkiya, strategik sheriklik, Parlament diplomatiyasi konsepsiyasi, Oliy Majlis, Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi , hamkorlik bosqichlari, institutsional mexanizmlar.

Yuldasheva Sh.Yu.
2nd year master student of the Department of «World History»
National University of Uzbekistan.
yu.shohsanam95@gmail.com

THE MAIN STAGES OF THE DEVELOPMENT OF INTERPARLIAMENTARY RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY IN 2017-2026

ABSTRACT

This article is devoted to a comprehensive study of the main stages of the development of parliamentary relations between Uzbekistan and Turkey in the period from 2017 to 2026. The relevance of the study is due to the fact that during this period parliamentary diplomacy has transformed from a formal feature of interstate relations into an effective tool for implementing foreign policy and protecting national interests. The qualitative transition in the relationship is studied in detail: from the initial resumption of political trust to reaching the level of a comprehensive strategic partnership. The article analyzes in detail the regulatory framework of cooperation, including the Resolution “On the approval of the Concept of Parliamentary Diplomacy of the Republic of Uzbekistan”, which became the basis for the systematization of the activities of legislative bodies.

Based on an in-depth study of official documents (including resolutions of the Oliy Majlis and laws on ratification of bilateral agreements), the article identifies and characterizes three historical stages of the evolution of relations. Special emphasis is placed on the mechanisms of practical cooperation: the work of inter-parliamentary friendship groups, the activities of specialized committees for monitoring roadmaps and cooperation within multilateral structures such as TurkPA.

Key words: Parliamentary diplomacy, Uzbekistan, Turkey, strategic partnership, Concept of parliamentary diplomacy, Oliy Majlis, Grand National Assembly of Turkey, stages of cooperation, institutional mechanisms.

Yunusova X.E.
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi professori, t.f.d.
O‘zbekiston Milliy universiteti universiteti
khurshida@mail.ru

MAMLAKAT QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida SSSR qishloq xo‘jaligi sohasida o‘tkazilgan islohotlarning tarixiy bosqichlari va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, sovet davrida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish jarayonlari, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining islohotlar muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilgan jihatlari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan. Maqolada agrar siyosatdagi tizimli inqirozning sabablari va uning ittifoq iqtisodiyotiga ta’siri bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan. Maqola O‘zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida mamlakatimizning sovet davridagi qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar tarixiga bag‘ishlanib, mavzuga oid xulolalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, agrar islohotlar, qo‘riq yerlar, mexanizatsiya, kolxoz, sovxoz, ma’muriy-buyruqbozlik, sotsialistik sektor, oziq-ovqat, g‘alla, iqtisodiy inqiroz.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi yillari sovet hukumati qishloq xo‘jaligi sanoatni xom ashyo, aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashdan tashqari, frontni ham to‘la ta’minlash vazifalarini ham bajardi. Agar urush arafasi, 1940 yilda butun sovet mamlakatining aholisi 194,1 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, ularning 131,0 millionni yoki 67,5 foizi qishloq aholisidan iborat bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi tuzilmasida sotsialistik sektor ustuvor bo‘lib, mamlakatda 236,9 ming kolxoz va 4,2 ming sovxozlarda 18,7 million xo‘jalik uyushgan[1] bo‘lib, samaradorlik past bo‘ldi. Ayni paytda dushman tomonidan bosib olingan hududlarda g‘allaning jami 38 foizi, qand lavlagining 84 foizi yetishtirilgan, yirik shoxli qoramollarning 38 foizi jamlangan[2], mamlakat aholisining qariyb 40 foizi istiqomat qilgan edi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarga kelib sovet hukumati oldiga qator murakkab vazifalar turdi. Urush yillari mamlakat hayotining asosi bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga jiddiy zarar yetgan bo‘lib, 1946-yildagi qurg‘oqchilik esa vaziyatni yanada og‘irlashtirgan, kuchli ocharchilikka xavf solgan davrlar bo‘ldi. Davlat keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun yetarli resurslarga ega bo‘lmasada, urushdan keyingi yillar, 1950 yillarda urushdan keyingi yillardagi tiklanish davri tugadi va SSSR hukumati uch yil davomida kelajakda rivojlanishi

mumkin bo‘lgan salohiyatni yarata oldi[3]. Lekin, 1950 yillardayoq mamlakat qishloq xo‘jaligining rivojlanish ko‘rsatkichlari yomon bo‘lib, 1953-yilda asosiy qishloq xo‘jalik ekini g‘allaning yalpi hosili 1950-yil darajasida bo‘ldi va urushdan oldingi darajadan ancha past bo‘ldi. G‘alla tayyorlash oziq-ovqat va urug‘lik ehtiyojlari uchun zarur bo‘lganidan ancha past bo‘ldi va bu mamlakatni navbatdagi ocharchilik yoqasiga olib keldi[4]. Stalin hukmronligining so‘nggi yillarida iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirish, yengil sanoat va qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish orqali uning rivojlanishiga yangi turtki berish zarurati yetilib keldi. Shu tariqa qishloq xo‘jaligini isloh qilishning zarurligi yuzaga keldi.

1953-yil bahorida I.V. Stalin vafotidan so‘ng mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar uchun “imkoniyatlar darichasi” kengaydi. 1953-yil yozida SSSRda agrar islohotga tayyorgarlik ko‘rila boshlandi va tez orada qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalasi 1953-yil 3-7-sentyabr KPSS MQ plenumida ko‘rib chiqildi. Plenumdagi ma’ruzasida N. S. Xrushchev qishloq jamoalariga rahbarlik qilishning byurokratik usullarini bartaraf etish, kolxozlarga xo‘jalik huquqlarini berish zarurligini ta’kidladi va plenumda qishloq xo‘jaligi xodimlarining ishlab chiqarishni rivojlantirishdan moddiy manfaatdorligi masalasi birinchi marta kun tartibiga qo‘yildi. KPSS MQing “SSSR qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tayyorlov va xarid narxlari ancha oshirildi, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar tomonidan mahsulotlarni majburiy yetkazib berish normalari pasaytirildi, ularga soliq solishning qat’iy so‘mmalari nazarda tutildi. Kolxozchilarning hayoti qishloq xo‘jalik organlarining 1935-yildagi Namunaviy ustavi bilan tartibga solindi va kolxoz raisi tinimsiz jazolash, sudga berish bilan qo‘rqitish, so‘kish obyekti bo‘lib qoldi. Ayni paytda kolxoz raisi, kolxoz boshqaruv organlari mustaqil qaror qabul qilish erkinligidan ajralib bordilar[5].

N.Xrushev qishloq xo‘jaligini yaxshi tushunganligi sababli oziq-ovqat masalasini hal qilmasdan turib, belgilangan rejaga yetishib bo‘lmasligini yaxshi bilardi. Lekin, ko‘pgina Rossiya olimlarining ta’kidlashicha, N. Xrushchyovning qishloq xo‘jaligida o‘tkazgan islohotlari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan. N.S.Xrushchyov tomonidan kiritilgan ko‘plab tadbirlar ko‘pincha o‘ylanmagan xarakterga ega bo‘ldi. Bularga makkajo‘xori “vasvasasi”, qishloq xo‘jaligida ko‘p qavatli turar-joy binolarining qurilishi, xalq xo‘jaligi boshqaruvini qayta-qayta qurish kabilarni kiritish mumkin edi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar davomida VKP(b) MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1950 yil 7 iyundagi “Mayda xo‘jaliklarni yiriklashtirish tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori chiqdi. Undan kelib chiqqan holda mayda kolxozlarni yiriklashtirish tadbirlari boshlandi. Natijada faqatgina bir yilda mamlakat bo‘ylab kolxozlar 225 mingtadan 125 mingtaga qisqardi. 1952 yil oxiriga kelib 94 mingtaga yetdi[6]. Lekin, kolxozlarni yiriklashtirish islohotlari qishloq xo‘jaligi sohasida ijobiy natijalarga erishish, yirik qishloqlar barpo etish kabi ko‘zlangan natijalarni bermadi.

N. Xrushevning o‘zi boshlagan islohotlarini amalga oshirish uchun avvalo g‘alla yetishtirish masalasiga alohida e’tibor bilan qaradi. 1954 yilda bo‘lib o‘tgan KPSS MQning fevral-mart plenumida mamlakat sharqi - Qozog‘iston, G‘arbiy

Sibir, Volgabo‘yi, Uralda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko‘paytirish qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi deb e’tirof etildi. Albatta bu tadbirlar o‘sha davr uchun “inqilobiy chora” sifatida qabul qilindi. Biroq, kolxozlar son-sanoqsiz ko‘rsatmalardan bo‘g‘ilib, ma’muriy choralarning samarasi ham kamayib bordi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni amalga oshirish zo‘ravonlik yo‘liga o‘tdi. Rejalashtirish haddan tashqari markazlashtirilib, belgilangan ko‘rsatkichlar xo‘jaliklarning nooqilona ish yuritishiga olib keldi. Natijada SSSRda o‘ta markazlashgan sovet xalq xo‘jaligi yutuqlaridan keng foydalanishga qodir emasligi ma’lum bo‘ldi (YAHM bundan mustasno) va bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlardan orqada qoldi.

1957-yilda N.S. Xrushchev tashabbusi bilan boshlangan boshqaruvni “qayta qurish” jarayonida Sovnarxozlar tomonidan boshqariladigan iqtisodiy rayonlar tashkil etildi. Ular mamlakat iqtisodiyotini nomarkazlashtirish, byurokratiyadan holi qilish, mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirishga ko‘maklashishi belgilangan edi[7]. 1957 yilda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish iqtisodiy imkoniyatga qarab amalga oshirildi. Natijada, Novgorod va Pskov viloyatlaridagi zavod - fabrikalar Leningrad iqtisodiy rayonining Leningrad Xalq Xo‘jaligi kengashiga, Pavlodar, Akmolinsk viloyatlaridagi korxonalar Karaganda iqtisodiy rayonining Karaganda Xalq Xo‘jaligi kengashiga biriktirildi. Shu tariqa geografik va iqtisodiy imoniyatiga qarab taqsimlagan bunday rayonlar, xususan, Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, G‘arbiy Sibir, Ural, Povolje, Shimoliy Kavkaz, Markaziy va Shimoliy Yevropa hududlariga qarab ajratilib, 15 ta respublika iqtisodiy rayonlarga biriktirildi.

SSSR xalq xo‘jaligining muayyan territorial qismi iqtisodiy rayon deb atalib, bu mintaqalar mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan o‘zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishi bilan ajralib turdi[8]. Iqtisodiy rayonlarga bo‘lish vaqtida mamlakatning siyosiy-ma’muriy jihatdan bog‘lanishi ham maqsad qilib olingan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy qonuniga muvofiq ravishda rivojlanishini ta’minlagan. SSSRdagi har bir iqtisodiy rayon umumittifoq xo‘jalik tizimidagi rayon bo‘lgan, ularning umumittifoq mehnat taqsimotida, umumdavlat xo‘jaligida o‘zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish o‘rni bo‘lgan va har bir iqtisodiy rayon o‘z rolini bajargan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o‘z hissasini qo‘shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarish sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuniga batamom muvofiq ravishda rivojlanishini ta’minlagan[9]. 1962 yil 22 martda esa KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining “Qishloq xo‘jaligini boshqarishni qayta qurish to‘g‘risida”gi Qarori bilan SSSRning barcha respublikalarida kolxoz va sovxozlarning ishlab chiqarish hududiy boshqarmalari tashkil etildi. Partiya dasturlari, qarorlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida belgilab berilgan rejalardan so‘ng 1960 yilda birinchilardan bo‘lib Rossiya, Ukraina va Qozog‘iston SSRda Xalq xo‘jalik kengashlari tuzildi. 1962 yilda SSSR Xalq xo‘jaligi kengashi, 1962 yilda SSSR Oliy Xalq xo‘jaligi kengashi tuzildi[3. C.531.]. 1962 yilda O‘zbekiston SSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston

SSR va Qirg‘iziston SSRdan iborat Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni hamda Xalq xo‘jaligi kengashining Nizomi qabul qilindi[10]. Mamlakatda eng katta iqtisodiy rayon RSFSR va Ukrainani birlashtirgan katta koordinatsiya Soveti[11] bo‘lsa, ikkinchi Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni bo‘ldi[12]. Mamlakatdagi barcha iqtisodiy rayonlar tarkibiga mamlakat, respublikalarning yetakchi ilmiy, loyihaviy, konstruktorlik institutlari biriktirildi. KPSS MQ SSSR Davlat reja ko‘mitasining vazifalari ham yangidan tashkil etilgan SSSR Xalq Xo‘jaligi Kengashlariga berildi[13]. Biroq, Xalq xo‘jaligi kengashlari tuzilgan dastlabki vaqtdan boshlab iqtisodiy rayonlar o‘rtasida xom ashyo va mahsulot mahsulot yetkazib berishda tushunmovchiliklar kelib chiqa boshladi.

1961 yilga kelib mamlakatda iqtisodiy rayonlar 17 taga yetkazildi[14]. 1963 yilda qayta ko‘rib chiqilib, 18 ta bo‘ldi[15]. Biroq, iqtisodiy kengashlar faoliyati yuqoridan turib boshqaruvga asoslanganligi sababli natija bermadi. Milliy daromad esa 1961-1965 yillarda 5,7 foizgagina o‘sdi. Bu avvalgi besh yillikka nisbatan ancha kamaydi. Xalq xo‘jalik kengashlari o‘rtasidagi xom ashyo, tayyor mahsulot yetkazib berishdagi “begonalik” partiya belgilab bergan rejalarni bajarish imkonini bermadi. Xalq xo‘jalik kengashlari faoliyati 1966 yilga kelib tugatilib, iqtisodiy rayonlar soni 18 taligicha qoldi[16].

Ma’muriy - hududiy boshqaruv bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari o‘rtasida ham nomutanoslik keltirib chiqarganligi bois bu masala 1962 yil 25 noyabr KPSS MQ plenumida 123 ta qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari yiriklashtirilib, 77 taga yetkazildi. 1962 yil 19-23 noyabr plenumida bu masalani ko‘rib chiqilib, bu shoshilinch qaror bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. Plenum qaroriga ko‘ra hududlarning ishlab chiqarishi, salohiyati, mehnat resurslari, geografik joylashuvi e’tiborga olinmagan holda bu tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hududiy birlashmalari o‘zini oqlamadi.

Mamlakatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tarmoqni mexanizatsiyalashtirish bilan ham bog‘liq deb, mamlakatda kolxoz ishlab chiqarishi ko‘proq MTS ishiga bog‘liq bo‘ldi. 1957 yilda mamlakatda 7 903 ta MTSlar bo‘lib[17], 1958 yil 31 martda SSSR Oliy Sovetining “Kolxoz qurilishini yanada rivojlantirish va mashina-traktor stansiyalari qayta qurish haqida”gi Qonuni asosida KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1958 yil 18 aprel 425-son qarori bilan mashina-traktor stansiyalarini (MTS) tugatildi. Texnika xizmati va ta’mir ishlari kolxoz va sovxozlarga berildi va MTSlar o‘rniga texnik-ta’mirlash stansiyalari (RTS) tashkil etildi. Ular tizimida davlat texnik inspektorlari lavozimlarini joriy etildi. Texnik inspektorlarning vazifasiga mashina-traktor parkidan texnik foydalanish masalalarida nazoratni amalga oshirish va xo‘jaliklarga yordam ko‘rsatish kirdi. Shuningdek, RTSlarning asosiy vazifasi qishloq xo‘jalik texnikasini ta’mirlash va xizmat ko‘rsatish, uni sotish, kolxozlarda yangi texnikalarni joriy etishga ko‘maklashish kabilardan ham iborat bo‘ldi. 1959 yilga kelib MTSlar bazasida tashkil etilgan RTSlar mamlakat bo‘ylab soni 3 532 taga yetdi[18].

1959 yilda KPSS MQ Bosh sekretari N.Xrushev partiyaning XX1 s’ezdiga qilgan ma’ruzasida mamlakatda “Kommunizmning moddiy texnika bazasini vujudga keltirish va shu asosda SSSR aholisining turmushini dunyoda eng yuksak darajaga ko‘tarishni ta’minlash”[19] dasturi ishlab chiqiladi va bu dasturning

bajarilishi 7 yilga mo‘jallandi. Ma’ruzada ta’kidlanishicha, SSSR 1965 yildan tahminan 5 yil keyin AQSHdagi ishlab chiqarish darajasiga yetib olishi va bu darajadan o‘zib ketishi lozim edi. Belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida 1961 yil 2 fevralda SSSR Ministrlar Sovetining “Qishloq xo‘jalik texnikasini, texnika zahira uskunalarini, mineral o‘g‘itlarni va boshqa moddiy-texnik uskunalarni sotish, kolxoz va sovxozlardagi mashinalarni ta’mirlash, foydalanishni tashkil etish maqsadida SSSR Ministrlar Soveti qoshida Butunittifoq birlashma (“Soyuzsel-xoztexnika”) tashkil etish haqida”gi qarori chiqdi[20]. “Soyuzselxoztexnika” birlashmasi texnik nazorat o‘rnatishi, muhandislik ishlarini bajarish bo‘yicha asosiy bo‘g‘in bo‘lib qolishi kerak edi. Birlashma qoshidagi inspektorlar yiliga ikki marotaba mashina-traktor parklaridagi texnikani nazoratdan o‘tkazishi kerak bo‘ldi[21].

1961 yil 17 oktyabrdan 31 oktyabrgacha bo‘lib o‘tgan KPSS MQning XXII s’ezdida kommunistik partiya tarixida uchinchi marotaba “sovet xalqini kommunizmga yo‘naltirishga mo‘ljallangan” KPSS Programmasi qabul qilindi. Unda ham qishloq xo‘jaligi kompleks mexanizatsiyalashni qo‘llash va avtomatika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar tizimini joriy qilish qishloq xo‘jalik mehnati unumdorligini oshirish uchun asos bo‘lishi belgilandi. Qishloq xo‘jaligini tez elektrlashtirishni eng muhim vazifalardan biri deb hisoblandi. Programmada barcha sovxoz va kolxozlar ishlab chiqarish va maishiy maqsadlar uchun davlat energetika tizimidan, shuningdek qishloq elektr stansiyalari qurish yo‘li bilan elektroenergiya bilan ta’minlanadi, deb belgilab qo‘yildi. Shuningdek, butun aholining va xalq xo‘jaligining qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ehtiyojlarini to‘la qondirishi maqsadida, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining umumiy hajmini 10 yil mobaynida taxminan ikki yarim marta oshirish, 20 yil uch yarim martta oshirish vazifasi qo‘yildi. Sovet Ittifoqi birinchi o‘n yillikda aholi jon boshiga asosiy qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha AQSHdan o‘tib ketish rejasi belgilandi. Buning uchun avvalo qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyani qo‘llanish va avtoma-tika vositalaridan foydalanish, texnika iqtisodiy ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan va har bir zona sharoitiga mos keladigan mashinalar tizimini joriy qilish qishloq xo‘jalik mehnati unumdorligini oshirish belgilandi. “Qishloq xo‘jaligini texnika jihatidan qayta qurollantirish mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishning eng progressiv forma va metodlari bilan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi mehnatkashlarning madaniy-texnik saviyasini har tomonlama oshirish bilan birga qo‘shib olib borish, yangi texnikani egallab olgan xo‘jaliklarda malakali xodimlar tobora ko‘payib borishi” belgilandi. Programmada belgilangan vazifalardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligida qo‘l mehnatining saqlanib qolishini oldini olish maqsadida mashina-traktor stansiyalari oldiga hamda “Selxoztexnika” oldiga qator vazifalarni qo‘ydi.

Bunday rejalarni belgilanishi tabiiyki iqtisodiy rayonlarni mahsulot yetishtirish borasidagi o‘rnini yanada mustahkamladi hamda SSSRda amal qilib kelingan ma’muriy-hududiy bo‘linishga o‘zgartirishlar kiritdi. 1959 yil KPSS MQning XXI s’ezdidan so‘ng mamlakatda don tanqisligi hal etilganligi e’lon qilinsada, 1960 yillarda mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi sezildi. Mamlakatning markaziy

qismlarida do‘kon peshtaxtalaridan yormalarning ba’zi turlari, tuxum vermishel, sariyog‘, qaynatilgan sut, yarim tayyor go‘sht mahsulotlari yo‘qoldi, un va oq nonda uzilishlar boshlandi. Oziq-ovqat tanqisligini oldini olish maqsadida butun mamlakatda jo‘xori ekish avj oldirildi. 1960 yillarning boshiga kelib mamlakatda o‘zlashtirilgan yerlarning 4/1 qismiga jo‘xori ekildi va bu umumiy yerlarning 80 foizini tashkil etdi[22]. Shu o‘rinda alohida e’tibor berish lozimki, sovet davlatida 1955-1964 yillar davomida g‘alla yetishtirish uch marotaba 1956, 1958, 1964 yillarda bajarildi xolos. 1961 yildagi g‘alla tanqisligi tufayli reja horijdan g‘alla sotib olish hisobiga bajarildi[22. C. 312.] va SSSR Amerika g‘allasini keng miqyosda sotib olishga kirishdi.

1963 yil 20-avgustda KPSS Markaziy Komitetining “Davlat non resurslarini tejash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1964-yilda g‘alla eksportini deyarli 4,5 mln tonnaga kamaytirish, ya’ni amalda nolga tushirish rejalashtirildi va amalda SSSR 1963 yil sentyabridan kapitalistik mamlakatlarga g‘alla eksport qilishni to‘xtatdi[23]. Biroq birgina tejamkorlikning o‘zi yetarli bo‘lmadi. Shuning uchun bir vaqtning o‘zida chet eldan g‘alla sotib olish dasturi ishlab chiqildi. 1963-yil 19-avgustda Markaziy Komitet Prezidiumi chet eldan bug‘doy sotib olish to‘g‘risidagi qarorni ma’qulladi[23. C.30.]. 1963-yil dekabr oyida Sovet hukumati AQSHdan 12 million tonna don partiyasini sotib olishga majbur bo‘ldi va 1970-yillarga kelib don importi ko‘paydi. Chetdan g‘alla sotib olish SSSRda 1963-yildagi g‘alla inqirozining og‘irligini yengillashtirdi. Biroq, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlariga talab kuchayib, ocharchilik xavf solmasada, lekin oziq-ovqat mahsulotlariga tanqislik doimo sezilib turdi. Non mahsulotlarini harid qilish uchun navbatga turish holatlari kuchayib ketdi. Bu xususda hatto, 1979 yilning yanvar oyida “Pravda” gazetasiga xalqdan 16 ta xat ham keldi[24].

1970-1980 yillarga kelib esa ish bilan so‘z o‘rtasidagi qarama - qarshiliklar, katta vazifalarni belgilashda, mustaqil qaror qabul qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqardi[16]. Hatto, iqtisodiy rayonlar sotsialistik ishlab chiqarishning iqtisodiy qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi bilan avvalo butun mamlakat ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni bajargan bo‘lsa, shunga binoan ular xo‘jalik kompleksidagi ixtisoslashtirilgan tarmoqlar umumittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy bo‘g‘in bo‘lib qoldi. Shu tariqa SSSR xalq xo‘jaligida qabul qilingan sotsialistik tuzumning iqtisodiy qonuniyatlariga asoslangan hududiy ishlab chiqarish - aslida mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda SSSR qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlar zamirida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish va oziq-ovqat mustaqilligiga erishish maqsadlari ko‘zlangan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ma’muriy-buyruqbozlik tamoyillari asosida olib borildi. Islohotlar natijasida soha mexanizatsiyalashtirildi, biroq rejani bajarish yo‘lidagi “intensiv hujum” ekologik va ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqardi. Xususan, yer va suv resurslaridan nooqilona foydalanish, noto‘g‘ri melioratsiya tadbirlari va tuproqning sho‘rlanishi yer unumdorligining keskin pasayishiga sabab bo‘ldi. Bu muammolar nafaqat soha

samaradorligiga to‘siq bo‘ldi, balki keyingi davrlar uchun ham og‘ir ekologik va iqtisodiy meros bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. – Москва: Финансы и статистика, 1987. – 373 с.
2. Вознесенский Н.А. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва: Госполитиздат, 1948. – 42 с.
3. История России. С древнейших времен до конца XX века. – Москва: АСТ, 2000. – С.526, 531.
4. Мамяченков В.Н., Материальные условия жизни семей промышленных рабочих и колхозного крестьянства Свердловской области в период послевоенного восстановления (1956-1953 гг.) // Историко-экономическое исследование. Екатерингбург: АМБ.2009. – 235.
5. Шлиыкова О.В. Особенности колхозного производства в 1950-1960 – е годы // Известия Саратовского университета. 2011.-№11, -с. 54.
6. Ратьковский И.С., Ходяков М.В. История советской России. – Санкт-Петербург. Лань, 2001. – С.286.
7. Шестаков А. Политика Н.С.Хрушева в аграрной сфере: преемственность и новации // Отечесвенная история. 2006. - №6, - с. 116.
8. Костенников В.М. Развитие экономических районов СССР (перспективы и проблемы). Пособие для учителей. – Москва. Просвещение, 1977. – С.7.
9. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – Москва. Мысль, 1969. – С.295.
10. O‘zR MA. R-2303, ro‘yxat-1, yig‘ma jild -1. 2-5 varaqlar.
11. O‘zR MA. R-2303, ro‘yhat -1, yig‘ma jild -2. 27 varaq.
12. Rudin A. O‘rta Osiyo yirik iqtisodiy rayoni // Qizil O‘zbekiston. 1962 yil 13 aprel.
13. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.10. 1961-1965. – Москва. Изд. Полит. Лит, 1986. – С. 295.
14. O‘zR MA. R-2303-fond, ro‘yhat-1, yig‘ma jild -2. 17 varaq.
15. Морозова Т.Г. Экономическая гаеография России. – Москва. Юнити-Дана, - С. 342.
16. Палеев Ю.Н. Экономические районы СССР. https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/106/995.htm. (Murojaat qilingan ana 2025 yil 19 iyul.)
17. Mashina-traktor stansiyalari (MTS) 1929 yil 8 mayda SSSR Mehnat va mudofaa Kengashining “Mashina-traktor stansiyalari tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan.
18. Сельское хозяйство СССР. Стат сборник. – Москва. 1960. – с 41.
19. Коммунистистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.9. 1956-1960. – Москва. Изд. Полит. литературы, 1980. – С. 272.

20. Сельхозтехника (предприятие) // https://ru.wikipedia.org/wiki/. Мурожаат қилинган ана 2025 йил 19 июль.
21. O‘z MA. R- 2469, ro‘yhat – 2, yig‘ma jild – 18, - 4 varaq.
22. Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 309, 312.
23. Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарые науки в сибири. 2919. Том 26, №1, - с. 29, 30.
24. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.

Юнусова Х.Э.
Д.и.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
khurshida@mail.ru

НАЧАЛО РЕФОРМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ СТРАНЫ И ИХ ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

На основе исторических источников также освещаются процессы освоения целинных и залежных земель, механизации и химизации сельского хозяйства в советское время, а также аспекты административно-командной системы, препятствовавшие успеху реформ. В статье сформулированы выводы о причинах системного кризиса в аграрной политике и его влиянии на экономику Союза. Статья на основе архивных документов из фондов Национального государственного архива Узбекистана, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий, брошюр посвящена истории реформ в сельскохозяйственной сфере нашей страны в советское время и содержит тематические заключения.

Ключевые слова: сельское хозяйство, аграрная реформа, заповедные земли, механизация, колхоз, совхоз, административно-командная система, социалистический сектор, продовольствие, зерно, экономический кризис., заповедные земли, механизация, колхоз, совхоз, административно-командная система, социалистический сектор, продовольствие, зерно, экономический кризис.

Yunusova Kh.E.
DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»
National University of Uzbekistan
khurshida@mail.ru

THE BEGINNING OF REFORMS IN THE COUNTRY'S AGRICULTURE AND ITS PROBLEMS

ABSTRACT

The article analyzes the historical stages of reforms in the agricultural sector of the USSR in the second half of the 20th century and their economic efficiency. The processes of land reclamation and mechanization and chemicalization of agriculture, as well as the aspects of the administrative-command system that hindered the success of reforms, are also covered in historical sources. The article formulates conclusions on the causes of the systemic crisis in agrarian policy and its impact on the economy of the union. The article is devoted to the history of reforms carried out in the field of Agriculture of the Soviet period of our country on the basis of archival documents, scientific research of foreign and domestic researchers, monographs, brochures in the foundations of the National State Archive of Uzbekistan and contains thematic material.

Key words: Agriculture, agrarian reform, fallow lands, mechanization, collective farm, state farm, administrative-command, socialist sector, food, grain, economic crisis.